- 5.Исаков К.А. Философско-эстетическая концепция Ибн Сины// Актуальные вопросы общественных наук: социология, политология, философия, история. 2015, №10. С.31 – 36. // sibac. info/conf/ social/ lif/ 43057.

6. Ирисов А. Литературное наследие Ибн Сины (источник, своеобразие художественного творчества). Автореферат. дисс. – Ташкент, 1996./ <http://cheloveknauka.com/literaturnoe-nasledie-ibn-siny-istochnik-svoeobrazie-hudozhestvennogo-tvorchestva#ixzz444YwyVLb>
7. Ибн Сина. Трактат о любви// Философия любви. – Ч.2. – М., 1990. – 605с.
8. Ибн Сино. Фан шеър (О поэтическом искусстве). – Душанбе, 1994. – 130с.
9. Касымжанов А.Х. Эстетические взгляды Фараби. – Душанбе, 1990. – 143с.
10. Культурное наследие и история философской мысли / М.Хайруллаев. – Ташкент: Узбекистан, 1985. – 262с.
11. Лосев А.Ф. История античной эстетики. – М., 1988. Т.7. Кн.II. – С.241.
12. Мирзиеев Ш.М. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиеева на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников. <https://gubkin.uz/ru/sveden/1372/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirzиеevning-ituvchi-va-murabbiylar-kuniga-baishlangan-tantanali-marosimdagi-nuti>
13. Наследие Аль-Фараби и формирование интегрального мировоззрения // под общей ред. З.К.Шаукеновой. – Алматы: ИФПР КН МОН, 2012. – 323с.
14. Сагадеев В.В. Очеловеченный мир в философии искусства мусульманского средневековья// Эстетика и жизнь. Вып. 3. - М., 1974.- С. 453 – 488.
15. Умаралиева Г. Эстетические взгляды Аль – Фараби в развитии средневековой культуры // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021, № 6. - С. 655 – 659.
18. Хайруллаев М.М. Эпоха Возрождения и мыслители Востока. – Ташкент, 1971. – 130с.

XVI ASRNING IKKINCHI YARMIDA BUXORO XONLIGI BILAN ROSSIYA O‘RTASIDAGI ELCHILIK ALOQALARI TARIXIDAN

Raxima Ruskulovna Alimova

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi rasmiy tus ola boshlagan elchilik aloqalari tarixi mahalliy va rus manbalari asosida yoritib beriladi. Unda 1558-1559 yillarda Buxoroda bo‘lgan Antoniy Jenkinson elchiligi, 1563-1564 yillarda Buxoro va Xivadan Moskvaga borgan elchilarni kutib olish, va 1583 yilda Buxorodan Moskvaga elchi bo‘lib borib qaygan elchilik va boshqa aloqalar xususida ma‘lumotlar beriladi. XVI asr mahalliy muallif, tarixchi Hofiz Tanish al-Buxoriyning Markaziy Osiyo va Xurosonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ma‘lumotlarga boy bo‘lgan “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asari va S.V.Jukovskiy, St.Russov, N.Veselovskiy kabi bir qator rus mualliflarining asarlarida Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi elchilik aloqalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, Moskva, Antoniy Jenkinson, Hofiz Tanish al-Buxoriy, “Abdullanoma”, S.V.Jukovskiy, Russov, Ya.V.Xanikov, German, Zavyalov, N.I.Veselovskiy, V.Ulyaniskiy, O‘tamish xoji.

ABSTRACT

This article covers the history of embassy relations between the Bukhara Khanate and Russia, which began to take shape in the second half of the 16th century, based on local and Russian sources. It contains information about the embassy of Anthony Jenkinson in Bukhara in 1558-1559, the meeting of ambassadors from Bukhara and Khiva to Moscow in 1563-1564, and the embassy and other contacts in Bukhara in 1583 as an ambassador to Moscow. The 16th century local author, historian Hafiz Tanish al-Bukhari's work "Abdullanoma" ("King of Honor"), rich in information about the political, socio-economic and cultural life of Central Asia and Khorasan, and S.V.Jukovsky, St.Russov, The works of a number of Russian authors, such as N.Veselovsky, analyze the embassy relations between the Bukhara Khanate and Russia.

Keywords: Bukhara, Moscow, Anthony Jenkinson, Hafiz Tanish al-Bukhari, “Abdullanoma”, S.V. Zhukovsky, Russov, Ya.V. Khanikov, German, Zavyalov, N.I. Veselovsky, V. Ulyanisky, O‘tamish Haji.

АННОТАЦИЯ

В статье на основе местных и русских источников рассматривается история посольских отношений Бухарского ханства с Россией, которые начали складываться во второй половине XVI века. В нем содержится информация о посольстве Энтони Дженкинсона в Бухаре в 1558-1559 годах, встрече послов из Бухары и Хивы в Москву в 1563-1564 годах, а также о посольстве и других контактах в Бухаре в 1583 году в качестве посла в Москве. Богатый информацией о политической, социально-экономической и культурной жизни Средней Азии и Хорасана, местный автор XVI века, историк Хафиз Таниш аль-Бухари «Абдуллонома» («Король чести») и С.В. Юковский, Святой Русов, в трудах ряда русских авторов, таких как Н. Веселовский, анализируются посольские отношения Бухарского ханства с Россией.

Ключевые слова: Бухара, Москва, Энтони Дженкинсон, Хафиз Таниш аль-Бухари, «Абдуллонома», С.В. Жуковский, Руссов, Я.В. Хаников, Герман, Завьялов, Н. Веселовский, В. Ульянинский, Отамиш Хаджи.

KIRISH

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan qo'shni davlatlar bilan yaqin iqtisodiy-savdo munosabatlariga kirishgan. Ayniqsa, asrlar osha mintaqaning Sharqni G'arb bilan bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li ustida qulay makonda joylashganligi, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'shni davlatlarda yetarlicha ehtiyojning mavjudligi, boshqa mamlakat aholisini bu hududga tortgan. Xorij davlatlari bilan savdo aloqalaridan O'rta Osiyo xalqlari ham manfaatdor bo'lgan. Shuning uchun ular o'rtasida doimiy ravishda savdo karvonlari qatnab turgan. O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari o'rnatgan davlatlar soni keyinchalik oshib borgan. Xususan, O'rta Osiyo xonliklari Rossiyaning ham e'tiborini torta boshlagan. XVI asrdan O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi oqibatida har bir xonlik alohida Rossiya bilan munosabatlarga kirisha boshlagan. Bu munosabatlar dastlab an'anaviy tarzda boshlangan bo'lsa, XVI asrning ikkinchi yarmidan rasmiy tus ola boshlagan. Shuni ta'kidlash lozimki, bu aloqalardan har ikki mamlakat aholisi manfaatdor bo'lgan. O'rta Osiyo tovarlariga Rossiyada, rus tovarlariga O'rta Osiyoda ehtiyoj mavjud bo'lgan. Shuning uchun ular o'rtasidagi aloqalar asta-sekin jadallashib borgan. Bu aloqalar to'g'risida mahalliy mualliflarning va rus mualliflarining asarlarida yetarlicha ma'lumotlar berilgan. Eslatib o'tish lozimki, ayrim manbalar ko'rib o'tilayotgan davrda yozilgan bo'lsa, rus mualliflarining asarlari nisbatan keyingi davrlarda nashr qilingan. XIX asrda Rossiya sanoatining rivojlanishi, rus sanoatining O'rta Osiyoda yetishtirilgan mahsulotlarga ehtiyoji oqibatida rus sanoatchilari va davlat

rahbarlarining xonliklarni yaqindan bilishga intilishi kuchayishi natijasida so‘nggi asrlarda rus tadqiqotchilari asarlari ko‘payib borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi elchilik aloqalari mahalliy va rus manbalarida o‘zining aksini topgan. O‘rta Osiyoda XVI asr oxirlarida yaratilgan muhim tarixiy geografik asarlardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asaridir. Bu asar Buxoro xoni Abdullaxon II ning (1583-1598) tarixi bo‘lganligidan “Abdullanoma” nomi bilan ham mashhurdir. Uni buxorolik shoir, tarixchi va o‘lkashunos Hofiz Tanish Buxoriy 1584-1591 yillar oralig‘ida yozgan¹⁶. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asari O‘rta Osiyo xalqlarining XVI asrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar daliliy ashyolarga boyligi, tarixiy voqea – hodisalarning atroflicha yoritilganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Hofiz Tanish Buxoriy asardagi ko‘p voqealarning o‘zi guvohi bo‘lgan, ayrimlarini shohidi bo‘lgan kishilardan eshitib yozganligi uchun ham bu asar juda qimmatli manba sanaladi.

Ko‘rib o‘tilayotgan davrdagi mazkur munosabatlar masalalari qator rus tadqiqotlarida ham o‘zining aksini topgan. Masalan, Ya.V.Xanikov o‘zining Orol dengizi xaritasiga bag‘ishlangan asarida O‘rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya davlati o‘rtasida Amudaryo qirg‘oqlari orqali o‘tgan aloqalar VIII asrdan ma‘lum bo‘lib, bu ma‘lumotlar haqida Rossiyadan topilgan tangalar guvohlik beradi, deb yozgan¹⁷.

Russov o‘zining “1753 yilda Orenburgdan Xivaga samaralik savdogar Rukavkinning sayohati” kitobida¹⁸ XIV asr o‘rtalarida Nijniy Novgorod ostonalarida ko‘plab buxorolik va xivaliklar kelganligini qayd etgan¹⁹.

S.V.Jukovskiy o‘zining “Uchyuz yil davomida Rossiyaning Buxoro va Xiva bilan aloqalari” nomli asarida o‘zidan oldin Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi savdo aloqalari masalasidagi elchiliklar to‘g‘risida ma‘lumot bergan, ayniqsa Oltin O‘rdaning qulashi, Ruslar tomonidan 1552 yil Qozonni, 1554 yilda Astraxanni bosib olinishi natijasida juda ko‘plab buxorolik va xivalik hukmdorlar Moskvaga savdo aloqalarini jonlantirish masalalarida o‘zlarining elchilarini jo‘nata boshlaganligi, Moskva hukmdorlari esa ularga e‘tiborli bo‘lganliklari, XVI-XIX asrlar davomida O‘rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o‘rtasida davom etgan elchilik va savdo-iqtisodiy

¹⁶Н.Хасанов. Саяхот олимлар. – Тошкент. ”О‘zbekiston”. 1981. – В. 210-212.

¹⁷ Я.В.Ханыков. Пояснительная записка к карте Аральскаго моря и Хивинскаго ханства. Записки Имп. Рус. Географ. Общества. Кн. V. 1851. – С. 282.

¹⁸ Руссов. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарскаго купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отделенных времен донныне. Журн. Мин.Внутр. Дел. 1839 г. № 10.

¹⁹ Руссов. – С. 357.

aloqalarni e'tirof qilgan²⁰. Bu asar O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya aloqalarini ko'proq xronologik tartibdagi ma'lumotnomalaridan iborat bo'lgan.

V.V.Bartold 1911 yilda Sankt-Peterburgda nashr qilgan "Evropa va Rossiyada Sharqning o'rganilish tarixi" asarida Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi aloqalarning o'rnatilishida Rossiya ham emas, xonliklar ham emas, Jenkinson tashabbus ko'rsatgan, degan fikrni ilgari surgan²¹.

German, Zavyalov, N.I.Veselovskiy, V.Ulyaniskiy asarlarida O'rta Osiyo xonliklari tarixi bilan bog'liq ma'lumotlari orasida XVI asrning ikkinchi yarmida, xususan Antoniy Jenkinsonning Buxoroga kelishi va Moskvaga qaytib ketishi bilan bog'liq jarayonlar tahliliga alohida to'xtalib o'tishgan²².

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari asosan iqtisodiy-savdo xarakteriga ega bo'lib, ular ikki davlat o'rtasida savdo aloqalarini davom ettirish, Rossiyaning boshqa viloyatlarida ham o'rtaosiyolik savdogarlarning erkin savdo qilishiga imkoniyat berish, o'rta osiyolik hukmdorlar uchun lochin va shunqorlarni sotib olishga ruxsat berish kabi kelishuvlarni ilgari surgan. Ikki mamlakat manfaatlari bir nuqtaga qaratilganligi uchun hatto Moskva hukmdorlari o'rtaosiyolik savdogarlarning tovarlaridan boj solig'ini olishni bekor qilishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rta asr mualliflari asarlarida o'z aksini topgan. Manbalar va tadqiqot asarlarida Shayboniylar davlatining Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy va Rossiya mamlakatlari bilan savdo munosabatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shulardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asari hioblanadi. Muallif asarda Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlariga oid, o'lkaning geografiyasi va topografiyasi hamda qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalariga doir qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Asarda Abdullaxon davlatining Hindiston va Rossiya bilan savdo aloqalari to'g'risida ma'lumot beriladi. "Abdullanoma" asarida esa tashqi savdo aloqalari aks etgan holatlarda ayrim manbalarda e'tibordan chetda qolgan ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbada faqatgina Hindiston va Rossiya bilan olib borilgan savdo

²⁰ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Пг., 1915. – С. 1-2.

²¹ Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России. – СПб., 1911. – 154.

²² Герман. Исторический взгляд на сношения России с хивинское областью. Вестник Европы, 1822. – Кн. 22. – С. 150, 151; Руссов. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отделенных времен донныне. Журн. Мин.Внутр. Дел. 1839 г. № 10. – С. 360-364; Завьялов. Исторический обзор путешествий в Бухару. Оренбургския губернская ведомости, 1854. № 20; Н.Веселовский. Очерк историко-географических сведений о хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. СПб., 1877. – С. 111-112; В.Уляницкий. Сношения России с Среднею Азиею и Индию в XVI-XVII вв. – Москва, 1889. – С. 6.

munosabatlariga oid ma'lumotlar berilishi bilan cheklangan bo'lishidan qat'iy nazar, undagi savdo karvonlarining kutilmagan talonchiliklarga duch kelishi yoki tabiiy ofatlar oqibatida tovarlarning kuyib yonib ketishi haqidagi xabarlar bilan voqea va hidisalarga aniqlik kiritishi boshqa asarlardan bu manbaning farqli jihatini ko'rsatib, uning ahamiyatini oshiradi.

O'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari qo'shni Sharq davlatlari qatorida shimoldagi Rossiya bilan ham o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlari o'rnatgan edi. Ammo bu kabi aloqalar dastlab rasmiy tus kasb etmagan. Faqat XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar yo'lga qo'yila boshlangan. Bu holatni Antoniy Jenkinson boshchiligidagi elchilikning 1558 yil 23 dekabrda Xiva va Buxoroga tashrif buyurishida ko'rishimiz mumkin. Rus olimi S.V.Jukovskiy A.Jenkinsonning Buxoroga borishi haqidagi fikrlarini bayon qilib quyidagicha yozadi: "Aytish qiyin, nahotki Jenkinson chindan ham Ioann Grozniyni (birinchi rus podshosi – 1547-1584 – R.A.) o'z tomoniga og'dirib olgan, va go'yo Ivan Grozniy inglizlarga yoqish uchun uni O'rta Osiyoga borishiga ruxsat bergan. Jenkinsondan balki podsho (Ioann Grozniy – R.A.) foydalangandir va uni, 1557 yilda Rossiyada erkin savdo qilishlari uchun ruxsat so'rab hadya va tortiqlar bilan Moskvaga kelgan Xiva va Buxoro elchilik missiyasiga javob tariqasida Jenkinsonni Buxoro va Xivaga elchi qilib yubormadimikan?»¹. S.V.Jukovskiyning ma'lumotiga ko'ra, Moskvaga rus yerlarida erkin savdo qilishga ruxsat so'rab Xiva va Buxorodan elchilar kelgan va bu elchilikka javob tariqasida A.Jenkinson elchiligi jo'natilgan.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, aytish mumkinki, Jenkinson Moskva Rusining Buxoroga yuborgan birinchi rasmiy elchisi edi. O'ylaymizki, S.V.Jukovskiyning ikkinchi fikri haqiqatga yaqin bo'lsa kerak, ya'ni podsho O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini o'rnatish maqsadida ingliz savdogari Jenkinsonga rasmiy yorliq bergan. Jenkinsonning Rossiya nomidan O'rta Osiyoga jo'natilishi Rossiyaning O'rta Osiyo savdosida ma'lum bir manfaati bo'lganligidan dalolat beradi va bu elchilik Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining rivojlanishiga yo'l ochgan bo'lishi mumkin. Jenkinson Moskvaga qaytayotganida u bilan birga Buxoro, Urganch, Balx elchilari ham birga kelishgan.

Tarixchi P.P.Ivanov missiyani baholab, Rossiya bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni Jenkinson kashf etmagan. Jenkinson bilan Moskvaga kelgan savdo karvoni 1000 tuyadan iborat bo'lgani azaldan Moskva - O'rta Osiyo savdo munosabatlari an'anaviy tarzda davom etganligidan dalolatdir, deb yozgan edi². Haqiqatdan ham, 1556 yil Astraxan bosib olinganda, bu yerda O'rta Osiyo

¹ Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Пг., 1915. – С. 3.

² Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XV1 — середина XIX вв.). – М.: ИВЛ. 1958. – С.76.

savdogarlari bo'lgani ma'lum. Ular o'z tovarlari bilan Moskva davlati ichkarisigacha kirib borgan. Fikrimizcha, P.P.Ivanovning bu mulohazasida haqiqat bor.

1563 va 1564 yillarda Buxoro xonligidan Moskva hukmdori Ioangga elchilar kelib, buxorolik savdogarlarning Astraxan va Qozondan tashqari Rossiyaning boshqa shaharlarida ham savdo qilishlariga ruxsat berishni so'rab tortiqlar bilan kelganligini xabar qilgan²³.

Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik aloqalari xususida mahalliy manbalar ham ma'lumot beradi. Hofiz Tanish Buxoriy Moskvaga jo'natilgan elchilarining mamlakatga qaytib kelishi chog'ida Urganchda elchilarning ushlab qolganligi to'g'risidagi ma'lumotlari fikrimizni tasdiqlaydi.

Hofiz Tanish Buxoriyning Moskvaga jo'natilgan elchining mamlakatga qaytib kelishi va olib kelgan tortiqlari to'g'risidagi ma'lumotlari diqqatga sazavor. Masalan, kitobda Xorazm tomondan kishi kelib arz qilganligi, Abdullaxon shunqor va javshan olib kelish uchun Moskvaga yuborgan elchisining vataniga qaytib kelayotganligi, u Xorazmga yetib kelganda, uni Xorazm orqali Buxoroga kelishi uchun kishi jo'natishi kerakligi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan²⁴. Demak, Abdullaxon hukmronligi davrida Rossiyaga Buxorodan elchilar qanday tovarlarni olib kelish uchun jo'natilganligi aniqlandi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, manbada elchilik Moskvaga qachon jo'natilganligi ma'lum qilinmagan. Ammo, Abdullaxon Moskvadan qaytib kelayotgan elchini Urganchga borib kutib olish va Buxoroga kuzatib kelish vazifasini hojiyi haramayi, shariatshior O'tamish xojiga topshirgan²⁵. O'tamish xoji manzilga yetib borib, tezda elchi keltirgan tuhfalarni birma-bir ko'zdan kechiradi. Hadyalar qatorida necha tuya, Darband sovutlari va o'n ikkita o'rgatilgan shunqor borligi ta'kidlangan²⁶. Xullas, Rossiyada qattiq sovuq bo'lishiga qaramasdan, shunqorlar Buxoroga eson-omon keltirilgan.

Manbada Movarounnahr sultonlaridan (xonlaridan – R.A.) birortasiga shuncha shunqor birdaniga yuborilmaganligi qayd e'tiladi²⁷. Bu ma'lumot shu davrgacha ham Rossiyaga elchilar shunqor olib kelish uchun borishganligidan darak beradi.

Elchining Moskvaga borib kelganligini S.V.Jukovskiy o'z asarida eslatib o'tgan. Unda S.V.Jukovskiy 1583 yilda Rossiya podshosi Ivan IV Moskvada xivalik va buxorolik elchilarni qabul qilganligini xabar qilgan²⁸. Russov, N.Veselovskiy va

²³ Руссов. – С. 16.

²⁴ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma ("Sharafnomayi shohiy"). Ikkinchi kitob. – Toshkent, "Sharq", 2000. – B. 119.

²⁵ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Ikkinchi kitob. – B. 119.

²⁶ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Ikkinchi kitob. – B. 119.

²⁷ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Ikkinchi kitob. – B. 119.

²⁸ С.В.Жуковский. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Петербург, 1915. - С. 10.

V.V.Bartoldlarning yozishiga ko‘ra, Rossiyadan Buxoroga qaytayotgan elchini Urganchda ushlab qolgan, Abdullaxonning qattiq talabi bilan u asirlikdan ozod qilingan²⁹.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, haqiqatda ham mazkur elchilik Rossiyaga shunqor va javshan olib kelish uchun borgan va ular Moskvada Rossiya podshosi tomonidan qabul qilingan.

Keltirilgan shunqorlardan 3 tasini Xoja Sa’duddin Abubakr Xoja Kalon ibn Xoja Muhammadga hadya tariqasida yuborgan. 2 ta shunqorni janob Nazarbiyga, 3 ta shunqorni ulug‘ amir, bosh no‘yon Shohimbiy arg‘unga bergan³⁰.

S.V.Jukovskiy 1589 yilda Buxoro xoni Abdullaxon nomidan Muhammad Ali degan elchi Urganch elchisi Xoja Muhammad bilan birga Rossiya podshosi Fedor Ivanovich (1584-1598) nomiga bitilgan yorliq bilan elchi bo‘lib Qozon dashtlari orqali kelganligini qayd etgan. Qabul vaqtida maktubda podshoning unvoni to‘liq yozilmaganligi, Boris Godunovning nomi hech eslatilmaganligiga e’tiroz bildirilgan. Shuning uchun maktub munosib xushmuomalik bilan yozilmagan deb hisoblangan. Rus podshosining farmoni bilan elchilar orqali Buxoro xoniga jo‘natiladigan maktub tayyorlanadi. Boyar va miroxo‘r Boris Fedorovich Godunov (1598-1605) xonga bitilgan yorliqda “Bizning Oliy podsho, Rus yerining Buyuk Knyazi Fedor Ivanovichga Rim, Ispan va boshqa mamlakat hukmdorlari muloyimlik va hurmat hamda mehr bilan yozishadi”, deb e’tirof qilgan. Podsho elchi Mahammad Alidan g‘azablanmaydi va unga talab qilingan shunqorlarni berdirtiradi va rus mollaridan undiriladigan oddiy bojni to‘lashdan ozod qilinadi. Buxoro xoni Abdullaxon nomiga yozilgan Fedor Ivanovichning yorlig‘ini Boybo‘ri Tanishev orqali jo‘natadi. Afsuski, xon va shoxning yorliqlari bizning kunmizgacha saqlanib qolmagan. Viloyat hokimlariga podshoning bergan yorliqlarida elchining sotib olgan mollaridan boj solig‘i olinmasligi qayd etilganligiga ko‘ra, elchilikning maqsadi ikki davlat o‘rtasida savdo adoqalarini o‘rnatishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Aynan, Rossiya hududlarida o‘rtaosiyolik savdogarlarga erkin savdo qilishlariga ruxsat berishlarini iltimos qilganligi shundan dalolat beradi. Osiyoliklar bilan savdo qilish ruslar uchun foydasiz edi, chunki Osiyoda ular tovarlarini sota olishmasdi, ularning mollarini kuch bilan tortib olishar edi, deb yozadi S.V.Jukovskiy. Buxoro va Xivadan kelgan elchiliklar ko‘pincha ov uchun shunqor va lochinlar, qurollar, qo‘rg‘oshin, porox, hatto aroq ham

²⁹ Руссов. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отделенных времен донныне. Журн. Мин.Внутр. Дел. 1839 г. № 10. – С. 365; Н.Веселовский. Очерк историко-географических сведений о хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. СПб., 1877. 123; Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России. – СПб., 1911. - 154.

³⁰ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Ikkinchi kitob. – Toshkent, “Sharq”, 2000. – B. 119.

olib ketishga ruxsat so‘rashgan. Bu tovarlarni Rossiyadan olib chiqish ta‘qiqlangan edi³¹.

1596 yilda Rossiyaga Buxoro xoni Abdullaxondan navbatdagi Sulton Nazar elchiligi borgan. Mahkamada so‘roq qilinganda elchilikning kelish maqsadi Rossiyada Qutlu Dashnaning ushlab turilishi ekanligi aniqlangan. S.V.Jukovskiy Tashqi ishlar davlat kollegiyasining Moskva arxivi hujjatlari orasida Buxoro ishlariga oid hujjatlarda Sulton Nazar elchiligining 1596 yilda kelganligi haqidagi ma‘lumotlarga saqlanib qolganligini ma‘lum qilgan³².

Shu davrdan boshlab 1613 yilgacha, ya‘ni Rossiya taxtida 304 yil hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasi (1613 y. 22 iyul – 1917 yil 22 iyul) kelguniga qadar mamlakatning xorij davlatlari bilan munosabatlari to‘xtab qolgan³³.

XULOSA

Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi elchilik aloqalari uzoq tarixga ega bo‘lib, dastlab an‘anaviy xarakter kasb etgan, XVI asrning ikkinchi yarmidan esa rasmiy tus olgan. Buxoro xonligi ham Rossiya davlati ham bu aloqalardan manfaatdor bo‘lgan. Shuning uchun Buxorodan Rossiyaga va aksincha, Rossiyadan Buxoroga maxsus elchilar yuborilganligini mahalliy manbalar va rus manbalari hamda tadqiqot asarlari ham tasdiqlaydi. Ko‘rib chiqilgan manbalar va adabiyotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mahalliy manbalarda elchilar va ularning faoliyatlari bilan bog‘liq ma‘lumotlarda tarixiy jarayonlar to‘g‘risida nisbatan kamroq bo‘lsa-da xabarlar majud.
2. Rus manbalaridagi ma‘lumotlar ayrim elchiliklar to‘g‘risidagi umumiy axborotlardan iborat.
3. Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlaridan Rossiya ko‘proq manfaatdor bo‘lganligi tufayli hatto ingliz savdogaridan ham foydalanib, uni O‘rta Osiyo xonliklariga elchi qilib yuborgan.
4. XVI asrning ikkinchi yarmidan e‘tiboran Rossiya bilan O‘rta Osiyo xonliklarining diplomatik va savdo aloqalari rasmiy xarakter kasb etgan bo‘lib, keyingi munosabatlarga zamin yaratgan.

Takliflar:

1. Ikki davlat o‘rtasidagi elchilik va iqtisodiy aloqalarni chuqurroq o‘rganish uchun Rossiya arxivlari hujjatlarini tadqiqot doirasiga olib kirilsa, ko‘proq ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

³¹ С.В.Жуковский. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. – Петербург, 1915. - С. 24.

³² С.В.Жуковский. - С. 25.

³³ С.В.Жуковский. - С. 25.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Бартольд В.В. Абдулла б.Искандер // Сочинения. Том II. Часть 2. – М.: “Наука”, 1964. – С. 487-488.
2. Бартольд В.В. История изучения Востока в Европе и в России. //Бартольд В.В.Сочинения. Т. IX. – М.: «Наука», 1977. – С. 199-484.
3. Веселовский Н. Очерк историко-географических сведений о хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. – СПб., 1877.
4. Герман. Исторический взгляд на сношения России с хивинское областью. Вестник Европы, 1822. Кн. 22.
5. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг., 1915.
6. Завьялов. Исторический обзор путешествий в Бухару. Оренбургския губернския ведомости, 1854. № 20.
7. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XV1 — середина XIX вв.). – М.: ИВЛ. 1958.
8. Руссов. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отдаленных времен доньше. Журн. Мин.Внутр. Дел. 1839 г. № 10.
9. Руссов Ст. Путешествие из Оренбурга в Хиву самарского купца Рукавкина в 1753 году, с приобщением разных известий о Хиве с отделенных времен доньше. – СПб., 1840.
10. Уляницкий В. Сношения России с Среднею Азиею и Индиею в XVI-XVII вв. Москва, 1889.
11. Ханыков Я.В. Пояснительная записка к карте Аральскаго моря и Хивинскаго ханства. Записки Имп. Рус. Географ. Общества. Кн. V. 1851.
12. Hasanov H. Sayyoh olimlar. – Toshkent. O‘zbekiston. 1981.
13. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”). Birinchi kitob. – Toshkent. “Sharq”, 1999.
14. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma (“Sharafnomayi shohiy”). Ikkinchi kitob. – Toshkent, “Sharq”, 2000.

DARIY TILIDA FE'L NEGIZLARINING OTLASHUVI

Xolida Zikrillaevna Alimova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Eron-afg'on filologiyasi kafedrası

Filologiya fanlari doktori, dotsent

xolidaxon66@mail.ru

ANNOTATSIYA

Dariy tilida fe'l shakllarining otlashuvi – transpozitsiyaning xususiy modeli bo'lib, unga ko'ra sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning hozirgi va o'tgan zamon negizlari hamda sifatdosh shakllari fe'llik va sifatdoshlik sistemasi (paradigmasi)dan ajralib ot sistemasiga o'tadi. Nutq sathida fe'l shakllarining bunday ko'rinishi yangi pozitsiyaga ega bo'ladi. Chunki so'zning bir turkumdan boshqasiga o'tishi o'zga leksik-grammatik kategoriyaga oid yangi so'zning paydo bo'lishiga olib keladi va bu jarayon o'z navbatida so'z yasaliishi bilan chambarchas bog'liq.

Otlashgan fe'l negizlari otga xos kategoriyalarni qabul qiladi. Aksariyat hollarda fe'l negizlari otlashuvi natijasida yangi leksik ma'no kasb etadi. Fe'l negizlarining otlashuvi ham ot so'z turkumi, ham fe'l sistemasining rivojida asosiy rol o'ynaydi. Jumladan, konversion modellar sodda fe'llarning hozirgi va o'tgan zamon negizlaridan iborat bo'lgan kopulyativ qo'shma so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Hozirgi dariy tilida fe'llarning o'tgan zamon negizi ularning hozirgi zamon negiziga nisbatan ko'proq otlashadi. O'tgan zamon negizlarining otlashuvi fe'llarning barcha struktur ko'rinishlari – sodda, prefiksli va qo'shma fe'llardan, hozirgi zamon negizlarining otlashuvi esa, asosan, sodda fe'llardan bo'ladi.

Maqolada dariy tilida o'tgan va hozirgi zamon fe'l negizlarining otlashuvi, bularning kategorial ko'chish yo'li orqali so'z yasashdagi o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *so'z yasovchi transpozitsiya; konversiya; substantivatsiya; otlashish; sodda fe'l, prefiksli fe'l; qo'shma fe'l; fe'l negizi; o'tgan zamon negizi; hozirgi zamon negizi; sermahsul/kammahsullik.*

ABSTRACT

The substantivization of verb forms in the Dari language is a particular model of transposition, according to which the stem of simple, prefix and complex verbs of the present and past tense, as well as the forms of participles, are separated from the system of verbal forms and are included in the noun paradigm. Since the transition

from one part of speech into another leads to the formation of a new word belonging to another lexical and grammatical category, and this process is inextricably linked with word-formation.

The substantivized verbal stems acquire categories inherent in nouns. In most cases, a new lexical meaning appears as a result of the substantivization of verbal stems. The transition of verbal stems into the category of nouns occupies a special place in the development of both the noun category and the verb system. In particular, conversion patterns lead to the formation of copulative compound words consisting of present and past bases of simple verbs.

In modern Dari, the degree of substantivization of past tense stems is much higher than that of present tense stems. Substantivization of past tense stems is from all structural types of verbs – simple, prefixal and compound verbs, whereas substantivization of present tense stems is mainly from simple verbs.

The article analyzes the substantivization of the past and present tense stems in the Dari language and their role in the intercategoryal word-formation of this language.

Keywords: *derivational (word-formation) transposition; conversion; substantivization; simple verb; prefixal verb; compound verb; verbal stem; past tense stem; present tense stem; high productivity / low productivity.*

АННОТАЦИЯ

Субстантивация глагольных форм в языке дари - это особая модель транспозиции, согласно которой из системы глагольных выделяются основы простых, префиксных и сложных глаголов настоящего и прошедшего времени, а также формы причастий. формы и включены в парадигму существительного. Поскольку переход от одной части речи к другой приводит к образованию нового слова, относящегося к другой лексико-грамматической категории, и этот процесс неразрывно связан с словообразованием.

Субстантивированные глагольные основы приобретают категории, присущие существительным. В большинстве случаев новое лексическое значение появляется в результате субстантивации глагольных основ. Переход глагольных основ в категорию существительных занимает особое место в развитии как категории существительных, так и глагольной системы. В частности, паттерны преобразования приводят к образованию копулятивных составных слов, состоящих из настоящих и прошедших оснований простых глаголов.

В современном дари степень субстантивизации основ прошедшего времени намного выше, чем у основ настоящего времени. Субстантивация основ

прошедшего времени происходит от всех структурных типов глаголов - простых, префиксальных и составных глаголов, тогда как субстантивация основ настоящего времени происходит в основном от простых глаголов.

В статье анализируется субстантивация форм прошедшего и настоящего времени в языке дари и их роль в межкатегориальном словообразовании этого языка.

Ключевые слова: словообразовательная (словообразовательная) транспозиция; конверсия; субстантивация; простой глагол; префиксальный глагол; составной глагол; словесная основа; основа прошедшего времени; основа настоящего времени; высокая производительность / низкая производительность.

KIRISH

Dariy tilida soʻz turkumlari transpozitsiyasi va soʻz yasalishi masalasi tadqiqi muhim. Chunki soʻzning bir turkumdan boshqasiga oʻtishi boshqa leksik-grammatik kategoriyaga oid yangi soʻzning paydo boʻlishiga olib keladi va bu jarayon oʻz navbatida soʻz yasalishi bilan chambarchas bogʻliq. Feʼl shakllarining otlashuvi – transpozitsiyaning xususiy modeli boʻlib, unga koʻra sodda, prefiksli va qoʻshma feʼllarning hozirgi va oʻtgan zamon negizlari hamda sifatdosh shakllari feʼllik va sifatdoshlik sistemasi (paradigmasi)dan ajralib ot sistemasiga oʻtadi [1, 516-521]. Nutq sathida feʼl shakllarining bunday koʻrinishi yangi pozitsiyaga ega boʻladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Transpozitsiya tushunchasi soʻz (yoki asos)ning bir soʻz turkumidan boshqasiga oʻtish mexanizmini ifodalash uchun birinchi marta oʻtgan asrning 30-yillarida fransuz lingvisti Sh. Balli tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan: «Biz oʻz kategoriyasiga xos maʼnolarni saqlab qolgan holda boshqa kategoriyaga oid ramz rolini oʻynayotgan lingvistik ramz transpozitsiyasi haqida gapirmoqdamiz» [3]. U transpozitsiyaning ikki turini farqlaydi: 1) ramzning leksik maʼnosi oʻzgarmagan holda boshlangʻich sintaktik vazifasining oʻzgarishi – funksional va 2) soʻzning sintaktik vazifasi bilan parallel ravishda yangi leksik maʼno kasb etishi – semantik transpozitsiya. Keyinchalik bu ikki tur leksik va sintaktik derivatsiya sifatida taqqoslandi [8, 146].

Konversiya masalasi birinchi marta A.I. Smirnitkiyning ishlarida yoritilgan. Uning koʻrsatishicha, konversiyada soʻz yasovchi vosita faqat soʻz paradigmasidan iborat boʻladi [7, 70]. Bu talqin O.S. Axmanovanning lugʻatida «konversiya» sharhida oʻz aksini topgan [2, 202]. Transpozitsiya esa «gipostazis» termini ostida bir soʻz turkumining boshqa soʻz turkumiga konversiya vositasida keng maʼnoda

(substantivatsiya va adyektivatsiyani o‘z ichiga olgan holda) ko‘chishi, deb izohlanadi [2, 100]. Demak, transpozitsiya konversiyaga qaraganda kengroq tushunchani anglatadi. Dariy tilida konversiya ism (ot, sifat)→fe‘l (نام *nām* ‘nom’, ‘ism’ → نامیدن *nāmīdan* ‘nomlamoq’, ‘atamoq’) va aksincha fe‘l→ism (ot, sifat) (چشم داشتن *čāšm dāštan* ‘umid qilmoq’ → چشم داشت *čāšmdāšt* ‘umid’, ‘ishonch’) munosabatlarida yaqqol ko‘rinadi.

Dariy tilida transpozitsiya hodisasi o‘rganilmagan. Biroq bundan yarim asr muqaddam L.S. Peysikov fors va ba‘zi eroniy tillarda affikssiz so‘z yasashining qonun-qoidalarini tavsiflash orqali dariy tilida ham bu hodisaning kelgusi tadqiqi uchun nazariy manba yaratdi [9, 14-26]. Qolaversa, fors tilida transpozitsiya tadqiqiga doir mavjud materiallar [9, 14-26; 10, 121-145; 11, 91-98; 14; 12; 13, 165-167] bu usul haqida tegishli xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bu nazariy umumlashmalar o‘zaro qarindosh dariy va tojik tillari uchun ham ahamiyatga ega.

Tadqiqotda to‘plangan materiallarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tavsifiy, qiyosiy, sistem-struktur va komponent tahlil metodlari asosida o‘rganildi.

MUHOKAMA

L.S. Peysikovning fikricha, «fe‘l → ot» modeli o‘rta fors tili va ayniqsa, yangi fors tili davrida keng tarqalgan [11, 96]. Bu modelning amalga oshishi ikki xil fe‘l negizi, ya‘ni hozirgi va o‘tgan zamon negizlarining o‘z fe‘llik sistemasidan uzilib, otga xos paradigmani qabul qilishi bilan xarakterlanadi. Fe‘l negizlarining otlashuvi ot so‘z turkumining rivojida muhim o‘rin egallaydi.

Ma‘lumki, fors-dariy tillarining tarixiy rivojida bu ikki negiz uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Fe‘lning hozirgi zamon negizi (HZN) qadimgi fors tili HZNLarining shakllangan, bir qolipga tushgan mahsuli sanaladi. Fe‘lning o‘tgan zamon negizi (O‘ZN) esa *-ta* suffiksli o‘tgan zamon majhul nisbat sifatdoshidan kelib chiqqan. O‘rta fors tili davrida fe‘lning O‘ZN shakl va mazmun jihatidan sifatdoshga teng kelgani sababli bularning ot sistemasiga o‘tishi oson bo‘lgan [11, 96]. Birinchi navbatda sodda va prefiksli fe‘llarning O‘ZN ot turkumiga ko‘chgan. So‘ngra bu jarayon fe‘liy frazeologik birliklar hisobiga faollashgan. Fors-dariy tillarining ilk davrlaridayoq روا بود *rawâbud* ‘ruxsat’, مصلحت دید *maslahatdid* ‘maslahat’, چشمداشت *čāšmdāšt* ‘umid’ kabi qo‘shma otlar qayd qilingan [11, 97]. Hozirgi fors-dariy tillarida ham bu model amalda davom etib kelmoqda.

O‘tgan zamon fe‘l negizlarining otlashuvi

«O‘tgan zamon fe‘l negizi → ot» modelida sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llardan ot yasaladi. Materiallar tahlili hozirgi dariy tilida quyidagi otlashgan o‘tgan zamon fe‘l negizlarining faol qo‘llanishini ko‘rsatdi:

Sodda fe'llar: باختن *bâxtan* 'yutqazmoq' → باخت *bâxt* 'mag'lubiyat', 'yutqazish'; بافتن *bâftan* 1) 'to'qimoq', 2) 'o'rmoq' (*mas., soch*) → بافت *bâft* 1) 'to'qish'; 2) 'o'rish', 3) *anat.* 'to'qima'; بردن *bordan* 1) 'olib ketmoq', 'olib bormoq'; 2) 'yutmoq', 'g'alaba qilmoq' → برد *bord* 'yutuq'; پرداختن *pardâxtan* 'to'lamoq' → پرداخت *pardâxt* 'to'lov'; خریدن *xaridan* 'sotib olmoq', 'xarid qilmoq' → خرید *xarid* 'xarid', 'sotib olish'; خواستن *xâstan* 'xohlamoq'; 'so'ramoq', 'talab qilmoq' → خواست *xâst* 1) 'istak', 'xohish', 2) 'iltimos', 'so'rov'; دوختن *duxtan* 'tikmoq' → دوخت *dux* 'tikish', 'bichish'; دیدن *didan* 'ko'rmoq' → دید *did* 'ko'rik'; 'fikr' (*nuqtai nazar*); ریختن *rêxtan* 'quymoq', 'to'kmoq'; 'quyilmoq', 'to'kilmoq' → ریخت *rêxt* 'qiyofa', 'tashqi ko'rinish', 'qomat'; ساختن *sâxtan* 1) 'qurmoq', 2) 'qilmoq', 'tayyorlamoq' → ساخت *sâxt* 1) 'qurilma', 2) 'ishlangan narsa', 'buyum', 'mahsulot'; سوختن *sôxtan* 'yonmoq', 'kuymoq' → سوخت *sôxt* 'yonish', 'yoqilg'i'; شکستن *šekastan* 'sinmoq' → شکست *šekast* 'mag'lubiyat', 'sinish'; شناختن *šenâxtan* 1) tanimoq, 2) bilmoq → شناخت *šenâxt* 1) 'tanishuv', 2) 'o'rganish', 3) 'bilish', 'anglash'; گذشتن *gozaštan* 'o'tmoq' → گذشت *gozašt* 'o'tish'; گشتن *gaštan* 'aylanmoq', 'sayr qilmoq' → گشت *gašt* 'aylanish', 'sayr'; نهادن *nehâdan* 'qo'ymoq' → نهاد *nehâd* 1) 'tabiat', 'xarakter' (*inson*), 2) *gram.* 'ega', 3) *muassasa*; نشستن *nešastan* 'o'tirmoq' → نشست *nešast* 1) 'qo'nish' (*samolyot*), 2) 'cho'kish', 'o'tirish' (*bin*), 3) 'yig'ilish'.

Prefiksli fe'llar: برآوردن *barâwardan* va *barâwordan* 'bajarmoq', 'oxiriga etkazmoq'; 'chiqarmoq' → برآورد *barâword* va *barâward* 'taxminiy baho', 'smeta', 'hisob-kitob'; برخاستن *barxâstan* 1) 'turmoq' (*o'rnidan*), 2) 'ko'tarilmoq' → برخاست *barxâst* 1) 'ko'tarilish'; 2) 'parvoz qilish' (*samolyot*); برخوردن *barxordan* 'to'qnashmoq', 'yuzma-yuz kelmoq' → برخورد 1) 'to'qnashuv', 2) 'uchrashuv' (*kutilmagan*), 3) 'munosabat'; برداشتن *bardâštan* 'ko'tarmoq' → برداشت *bardâšt* 1) 'ko'tarish' (*vaznda*), 2) 'bardosh', 'sabr'; برگشتن *bargaštan* 'qaytmoq' → برگشت *bargašt* 'qaytish'; بازداشتن *bâzdâštan* 'ushlamoq', 'qo'lga olmoq' → بازداشت *bâzdâšt* 'qo'lga olish'; بازگشتن *bâzgaštan* 'qaytmoq' → بازگشت *bâzgašt* 'qaytish'; پیش بردن *pêš bordan* 'rivojlantirmoq' → پیشبرد *pêšbord* 'amalg'a oshish', 'bajarish'; پیش رفتن *pêšraftan* 'rivojlanmoq', 'o'smoq' → پیشرفت *pêšraft* 'rivojlanish'; درآمدن *darâmadan* 'kirmoq' → درآمد *darâmad* 'daromad', 'kirim'; درگذشتن *dargozaštan* 'vafot etmoq' → درگذشت *dargozašt* 'o'lim'; دریافتن *daryâftan* 'topmoq', 'olmoq' → دریافت *daryâft* 1) 'olish', 'topish', 2) 'ish haqi'; ورشکستن *waršekastan* 'bankrot bo'lmoq' → ورشکست *waršekast* 'bankrot', 'inqiroz'.

Qo'shma fe'llar: روا دیدن *rawâ didan* 'ravo ko'rmoq', 'munosib bilmoq' → روایدید *rawâdid* 'viza'; روی دادن *rôy dâdan* 'sodir bo'lmoq', 'yuz bermog' → رویداد *rôydâd* 1) voqea, 2) vaziyat; قرار دادن *qarâr dâdan* 'o'rnatmoq', 'qo'ymoq' → قرارداد *qarârdâd* 'shartnoma'; کم بودن *kam budan* 'kam bo'lmoq' → کمبود *kambud* 'etishmovchilik', 'defitsit'; به بودن *beh budan* 'yaxshi' → بهبود *behbud* 'yaxshilanish'; بزرگ داشتن *bozorg dâstan* 'hurmat qilmoq', 'qadrlamoq' → بزرگداشت *bozorgdâst* 'qadrlash'; یاد داشتن *yâd dâstan* 'yod (esga) olmoq' → یادداشت *yâddâst* 'esdalik'; به دست آوردن *ba dast âwardan* 'qo'lga kiritmoq' → دستاورد *dastâward* 'muvaffaqiyat'; عمل کردن *amal kardan* 'amal qilmoq' → عملکرد *amalkard* 'faoliyat'.

Misollar:

... می گوید که خواست های شهروندان غور از جمله ساخت و اسفالت جاده های اساسی این ولایت را به حکومت در میان گذاشته است [21, 4]

... *mêgôyad ke xâsthâ-ye šahrwandân-e Ğôr az jomla-ye sâxt wa asfâlt-e jâddahâ-ye asâsi-ye in welâyat râ ba hokumat dar miyân gozašta ast*

'G'o'r shahri aholisining xohishlari, jumladan, bu viloyatning asosiy ko'chalarini qurish va asfaltlash hukumatga etkazilgan, deydi';

در سالهای پسین، جهانچیرگی (Globalization) و گونه های دیگر بیشرفت که به سود اقتصاد و سیاست کشورهای بزرگ صنعتی میچرخند، با شتاب شگفتی بر کشورهای دیگر پذیرانده شده است [19]

Dar sâlhâ-ye pasin, jahânçiragi wa gunahâ-ye digar-e pêšraft ke ba sud-e eqtesâd wa siyâsat-e kešwarhâ-ye bozorg-e san'ati mêçarxad, bâ šetâb-e šegefti bar kešwarhâ-ye digar pazirânda šoda ast

'Keyingi yillarda sanoati rivojlangan yirik mamlakatlarning iqtisodiyoti va siyosati foydasiga hal bo'layotgan globallashuv va taraqqiyotning o'zgacha shakllari hayratomuz shitob bilan boshqa mamlakatlarda qabul qilinmoqda';

قانون دریافت قرضه های طویل المدت برای خرید منازل تصویب شد [23]

Qânun-e daryâft-e qarzahâ-ye tawilolmoddat barâye xarid-e manâzel taswib šod

'Turar joylarni sotib olishga (xaridiga) mo'ljallangan uzoq muddatli kreditlarni olish to'g'risidagi qonun qabul qilindi';

کمیسیون تدارکات ملی هشت قرارداد را به ارزش دو میلیارد افغانی منظور کرد [21, 1]

Komisyun-e tadârokât-e melli hašt qarârdâd râ ba arzeš-e do mêlyârd afgâni manzur kard

'Milliy ta'minot komissiyasi ikki milliard afg'oniy qiymatiga teng sakkizta shartnomani tasdiqladi'.

Ayrim yasama so'zlar yoki ularning yangi ma'nolari dariycha lug'atlarga kiritilmagan. Bu esa fe'l negizlarining otlashuv jarayoni davom etayotganligini

bildiradi. Masalan, hozir kundalik gazetalarda faol qo‘llanayotgan نشست *nešastan* ‘o‘tirmoq’ fe‘lidan نشست *nešast* ‘yig‘ilish’ (*majlis*), عمل کردن *amal kardan* ‘ishlamoq’, ‘faoliyat yuritmoq’ fe‘lidan عملکرد *amalkard* ‘faoliyat’, نهادن *nehâdan* ‘qo‘ymoq’ fe‘lidan نهاد *nehâd* ‘muassasa’ ma‘nolari «Дари-русский словарь»da [6] qayd etilmagan:

محمد اشرف غنى رئيس جمهورية اسلامی افغانستان برای تأمین عدالت در افغانستان به استقلالیت نهادهای عدلی و قضایی تأکید کرد [21, 1]

Mohammad Ašraf Ğani rais-e Jomhori-ye Eslâmi-ye Afğânestân barâye ta‘min-e ‘adâlat dar Afğânestân ba esteqlâliyat-e nehâdhâ-ye ‘adli wa qazâyi ta‘kid kard

‘Afg‘oniston Islom Respublikasi prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani Afg‘onistonda adolatni ta‘minlash uchun adliya institutlari (muassasalari)ning mustaqilligi (zarurligi)ga urg‘u berdi (ta‘kidladi)’;

رئيس جمهور گفت: من در امور کاری نهادهای عدلی و قضایی مداخله نمی کنم و به هیچ کسی اجازه مداخله را نمی دهم [21, 1]

Raisjomhor goft: Man dar omur-e kâri-ye nehâdhâ-ye ‘adli wa qazâyi modâxela namêkonam wa ba hêç kas-ê ejâza-ye modâxela râ namêdeham

‘Prezident: «Men adliya muassasalarining amaliy ishlariga aralashmayman va hech kimga aralashuvga yo‘l qo‘ymayman», – dedi’;

رئيس جمهور کشور روز یکشنبه در پنجمین نشست سراسری خارنوالان افغانستان که ... [21, 1]

Raisjomhor-e kešvar rôz-e yakšanba dar panjomin nešast-e sarâsari-ye sâronwâlân-e Afğânestân ke ...

‘Mamlakat prezidenti yakshanba kuni Butun Afg‘oniston prokurorlarining beshinchi yig‘ilishida ...’;

رئيس جمهور غنى در این نشست به صراحت گفت که... [21, 1]

Raisjomhor-e Ğani dar in nešast ba sarâhat goft ke ...

‘Prezident G‘ani bu yig‘ilishda ochiq-oydin dedi: ...’;

عملکردهای افراد مسلح غیر مسئول ، پذیرفتنی نیست [21, 1]

‘Amalkardhâ-ye afrâd-e mosallah-e ğayr-e mas‘ul, paziroftani nêst

‘Mas‘ul bo‘lmagan qurolli shaxslarning faoliyati qo‘llab-quvvatlanmaydi’.

Konversiya jarayoni tufayli sodda fe‘l O‘ZNIlarining birikuvidan tuzilgan ko‘plab kopulyativ qo‘shma so‘zlar yasaldi: 1) برد و باخت *bordobâxt* ‘g‘alaba va mag‘lubiyat’; نشست و برخاست ‘yutuq va yo‘qotish’, 2) ‘taqdirning bevafoqligi (o‘zgaruvchanligi)’; نشست و برخاست *nešastobarxâst* ‘aloqa’, ‘munosabat’; ‘aloqada bo‘lish’; رفت و آمد ‘qatnov’, ‘harakat’; آمدآمد ‘arafa’; ‘bo‘sag‘a’ kabi.

Fe‘llarning otlashgan O‘ZN qo‘shma fe‘lning ot qismi vazifasida keladi:

‘biriktirmoq’ → پیوند *paiwand* 1) ‘aloqa’, 2) ‘bog‘lanish’, 3) ‘kurtak payvand’, 4) *anat.* ‘bo‘g‘im’, 5) *gram.* ‘bog‘lama’; بستن *bastan* 1) yopmoq, 2) bog‘lamoq → بند *band* 1) ‘aloqa’, 2) ‘hibs’, 3) ‘damba’, ‘to‘g‘on’, 4) ‘to‘siq’, 5) *anat.* ‘bo‘g‘im’, 6) ‘tugun (uzel)’, 7) ‘arqon’, ‘chilvir’, 8) ‘tog‘ tizmasi’; گذشتن *gozaştan* 1) o‘tmoq (*vaqt, voqea va sh.k.*), 2) kesib o‘tmoq (*yo‘l va sh.k.*), 3) *biror narsadan* kechmoq → گزر *gozar* 1) ‘o‘tiladigan yo‘l’, ‘guzar’, 2) ‘kechuv (*qayiq, parom va sh.k. o‘ tadigan joy*)’, 3) ‘tor ko‘cha’; پنداشتن *pendâştan* ‘deb o‘ylamoq’, ‘faraz qilmoq’ → پندار *pendâr* ‘fikr’, ‘faraz’, ‘gumon’, ‘taxmin’; سوختن *sôxtan* ‘yonmoq’, kuymoq → سوز *sôz* ‘og‘riq’, ‘azob’; شتافتن *šetâftan* ‘shoshmoq’ → شتاب *šetâb* 1) ‘shoshqaloqlik’, 2) ‘shitob’, ‘tezlik’; شکستن *šekastan* ‘sinmoq’ → شکن *šekan* 1) ‘egik’, ‘bukiladigan joy’, ‘burushiq’, 2) ‘gajak (*soch*)’; گرفتن *gereftan* 1) ‘olmoq’, 2) ‘tutmoq’ → گیر *gir* ‘qiyinchilik’, ‘mashaqqat’.

Prefiksli fe‘llar: باز گفتن *bâzgoftan* ‘gapirib bermoq’, ‘hikoya qilib bermoq’ → (ی) باز گو *bâzgô(y)* ‘hikoya qilish’, ‘bayon qilish’; پس انداختن *pasandâxtan* ‘bir chetga qo‘ymoq’; ‘ajratib (olib) qo‘ymoq’, ‘saqlab qo‘ymoq’ → پس انداز *pasandâz* ‘jamg‘arma’.

Qo‘shma fe‘llar: راه رفتن *râh raftan* ‘yurmoq’, ‘yo‘l yurmoq’ → راهرو *râhraw* 1) ‘yo‘lak’, ‘piyodalar yo‘li’, 2) ‘yo‘lovchi’; کار کردن *kâr kardan* ‘ishlamoq’ → کارکن *kârkon* ‘ishchi’, ‘xodim’; هوا کشیدن *hawâ kašidan* ‘havo(sini) tortmoq’ → هواکش *hawâkaš* 1) ‘fortochka’, 2) ‘tuynuk’.

Misollar:

گادی وان ها از ترس، زن های بی بچه و بی مرد را سوار نمی کردند [17, 49]

Gâdiwânâ az tars, zanhâ-ye bêbaça wa bêpard-râ sawâr namêkardand

‘Izvoshchilar qo‘rqyvdan o‘g‘il bolasiz va erkaksiz ayollarni olmasdilar’;

گنجشک را که از دستش گرفتم چنان پرپرک زد که نفامیده فشاری دادم که دلم سوخت برایش

[16, 11]

Gonješâk râ ke az dast-aš gereftam çonân parparak zad ke nafâmida fešâr-ê dâdam ke del-am sôxt barâyaš

‘Chumchuqni qo‘lidan olganimda shunday pitir-pitir qilardiki, tushunmay ezib (*bosim*) yuboribman, unga ichim achidi’;

به نظرم آمد همه پیوند هایی که موجود زنده بی را به زنده گی می بندد، در این فیل گسسته است [18]

Ba nazar-am âmad hama paiwandhâ-yê ke mawjud-e zenda-yê râ ba zendagi mêbandad, dar in fil gosasta ast

‘Nazarimda, shu filda tiriklikni hayotga bog‘lovchi barcha aloqalar bir-biridan uzilgan’;

رهنورد زریاب در سال ۱۳۲۳ خ در گذر ریکاخانه که از کوچه های قدیم کابل است، در خانواده ی متوسط زاده شد [20]

Rahnaward Zaryâb dar sâl-e 1323-e xoršêdi dar gozar-e Rikâxâna ke az kôçahâ-ye qadim-e Kâbol ast, dar xânewâda-ye motawasset zâda šod

‘Rahnaward Zaryob shamsiy 1323 yili Kobulning qadimgi ko‘chalaridan bo‘lmish Rikoxona guzarida o‘rtahol oilada dunyoga keldi’;

از رهنورد زریاب تا اکنون این آثار چاپ گردیده اند: "آوازی از میان قرن ها"، "نقش ها و پندارها"...

[20]

Az Rahnaward Zaryâb tâ konun in âsâr çâp gardida-and: «Âwâz-ê az miyân-e qarnhâ», «Naqshâ wa pendârhâ»...

‘Shu vaqtga qadar Rahnaward Zaryobning quyidagi asarlari chop etilgan: «Asrlar qa’ridan sado», «Izlar va farazlar»...’.

Fe’l negizlarining otlashuvi dariy tili so‘z yasashida katta o‘ringa ega. Jumladan, konversion modellar sodda fe’llarning HZN va O‘ZNlaridan iborat bo‘lgan kopulyativ qo‘shma so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan: *xaridoforôš* خرید و فروش ‘oldi-sotdi’, *gaštogozâr* گشت و گزار ‘sayr’, ‘aylanish’, *poxtopaz* پخت و پز ‘pishir-kuydir’ va b.

زنها حق ندارند به داکتر مرد بروند. بدتر اینکه آنها مانند بردگان جنسی خرید و فروش میشوند [19]

Zanhâ haq nadârând ba dâktar-e mard berawand. Badtar inke ânâ mânand-e bardagân-e jensi xaridoforôš mêšawand

‘Ayollarning erkak shifokorga murojaat qilishga haqi yo‘q. Bundan ham yomoni, ular jinsiy qullardek oldi-sotdi qilinadilar’.

NATIJARLAR

So‘z turkumlari transpozitsiyasi morfologiya bilan sintaksisning, leksikologiya bilan so‘z yasashining kesishgan nuqtalarida turadi; til strukturasi bilan turli aspektlari aloqadorligi va til sathlari munosabatlarning murakkab chatishuvini belgilab beradi [5, 5-6]. Transpozitsiya va uning so‘z yasash sistemasidagi o‘rni fanda kam o‘rganilgan. Tilshunoslikda bu hodisaning «konversiya» (A.I. Smirnitkiy), «so‘z yasashning morfologik-sintaktik usuli» (V.V. Vinogradov), «transpozitsiya» (Sh. Balli), «implitsit so‘z yasash» (V. Fleysler), «translyatsiya» (L. Tenyer), «nol morfemali derivatsiya» (G. Marchand), «noxususiy (nesobstvennaya) derivatsiya» (N.D. Arutyunova), «transformatsiya» (V.G. Migirin) terminlari bilan nomlanishi uning munozarali mavzu ekanini bildiradi. SHuningdek, diaxron va sinxron ko‘chish hodisalari, til sathlarida ko‘chishga olib keluvchi ichki va tashqi omillar, ko‘chish hodisasini o‘rganishning asosiy metodlari, ko‘chish shartlari va hokazo masalalar o‘z echimini to‘la topmagan.

Transpozitsiya formulasi so‘z yasaliş jarayonini diaxronik (so‘zning bir leksik-grammatik kategoriyadan ikkinchi leksik-grammatik kategoriya tomon siljishi) va sinxronik (so‘zning bir turkumdan boshqasiga o‘tishining muntazam ko‘rinishlari) jihatdan ifodalaydi [4, 171]. Bular o‘rtasiga qat’iy chegara qo‘yish mushkul. Transpozitsiya hodisasining leksik (so‘z yasaliş) va grammatik planlarda qaralishi bejiz emas. Bunda leksik planda yangi ma’nodagi leksik birliklarning vujudga kelishi, grammatik planda esa boshqa turkumdagi so‘zning o‘zga sintaktik funktsiya bajarishi nazarda tutiladi (leksik so‘z va grammatik so‘z). Ma’lumki, ko‘chayotgan so‘zlarda dastlab yangi semantika vujudga kelmaydi, bir xil nomemalik xususiyati saqlanaveradi: bir nomema ikki leksemani ifodalaydi. Boshqa turkumga xos grammatik (aniqrog‘i, sintaktik) xususiyat uning funktsiyasiga qo‘shimcha tarzda yuklanadi. Shuning uchun transpozitsiya hodisasining dastlabki bosqichida asosan sintaktik (grammatik) xususiyat ustun bo‘ladi. Transpozitsiya holatida qo‘llanadigan so‘z keyinchalik o‘zining so‘nggi – ko‘chgan grammatik funktsiyasida qat’iylashsa, semantikasida yangi ma’nolar vujudga kelsa, kelgusida u «yangi so‘z» bo‘lib tanilishi mumkin [15, 33-34].

Dariy tilida fe‘l shakllarining otlashuvi transpozitsiyaning xususiy modeli bo‘lib, ham ot so‘z turkumi, ham fe‘l sistemasining rivojida muhim rol o‘ynaydi.

XULOSA

1. Fe‘l negizlari otlashganda, o‘zlarining asl ma’nolarini to‘la yoki qisman yo‘qotib, predmet ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. SHu jihatdan ular ot turkumiga ko‘chgan hisoblanadi.

2. Fe‘l shakllarining otlashuvi ham ot so‘z turkumi, ham fe‘l sistemasining rivojida asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi dariy tilida fe‘llarning O‘ZN ularning HZNGa nisbatan ko‘proq otlashadi. O‘ZNLarining otlashuvi fe‘llarning barcha struktur ko‘rinishlari – sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llardan, HZNLarining otlashuvi esa, asosan, sodda fe‘llardan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Alimova Kh. Dari Word-forming Transposition Phenomenon // International Journal of Pharmaceutical Research, December 2020, Volume 12, Supplementary Issue 3. – P. 516-521. ISSN 0975-2366 DOI: <https://doi.org/10.31838/ijpr/2020.SP3.070>
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с. (Akhmanova O.S. Dictionary of Linguistic Terms. Moscow, Soviet Encyclopedia, 1966, 608 p.)

3. Взаимонаправленная транспозиция ‘имя лица – признак лица’ в русском и английском языках // Библиотечный каталог российских и украинских диссертаций, 2004 (Interdirectional transposition ‘face name – face feature’ in Russian and English // Library Catalogue of Russian and Ukrainian Dissertations, 2004) // www.rus-lang.com
4. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. – С. 171. (Zemskaya E.A. Modern Russian language. Word formation. Moscow, Education, 1973. – P. 171.)
5. Ким О.М. Транспозиция на уровне частей речи и явление омонимии в современном русском языке. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 5-6. (Kim O.M. Transposition at the level of parts of speech and the phenomenon of homonymy in modern Russian. Tashkent, Fan, 1978. – P. 5-6.)
6. Киселева Л.Н., Миколайчик В.И. Дари-русский словарь. – М.: Русский язык, 1986. – 752 с. (Kiselyeva L.N., Mikolaychik V.I. Dari-Russian dictionary. Moscow, Russkiy yazyk Publ., 1986, 752 p.)
7. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. – М.: Наука, 1965. – 80 с. (Kubryakova E.S. What is word-formation. Moscow, Nauka, 1965, 80 p.)
8. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – М.: Наука, 1981. – 200 с. (Kubryakova E.S. Types of linguistic meanings. Semantics of the derivative word. Moscow, Nauka, 1981, 200 p.)
9. Пейсиков Л.С. Транспозиция как способ словообразования в иранских языках // Иранская филология / Труды науч. конф. по иранской филологии 24-27 января 1962 г. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1964. – С. 14-26. (Peisikov L.S. Transposition as a way of word formation in Iranian languages // Iranian philology / Proceedings of scientific. conf. on Iranian philology, January 24-27, 1962. L.: Publishing house of the Leningrad University, 1964. – P.14-26.)
10. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1973. – 199 с. (Peisikov L.S. Essays on word formation of the Persian language. Moscow: Publishing house of Moscow University, 1973, 199 p.)
11. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1975. – 206 с. (Peisikov L.S. Lexicology of the Modern Persian Language. - Moscow: Publishing house of Moscow University, 1975. 206 p.)
12. Потапов Ю.Б. Словообразовательная транспозиция в персидском языке в сопоставлении с русским: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1986. – 170 с. (Potapov

Yu.B. Vocabulary transposition in the Persian language in comparison with Russian: Dis. ... cand. philol. sciences. Moscow, 1986, 170 p.)

13. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 165-167. (Rubinchik Yu.A. Grammar of the modern Persian literary language). Moscow, “Eastern Literature” RAS, 2001. – P. 165-167.)

14. Shaki M. A study on nominal compounds in neo-persian. – Praha, 1964. – 116 p.

15. Турдибоев Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Филол.фан.номз. ... дис. – Тошкент, 1996. – Б. 33-34. (Turdiboev T.H. Conversion of auxiliary words in Uzbek language: Dis. ... cand. philol. sciences. Tashkent, 1996. – P. 33-34.)

16. تقى واحدى دای پولاد. گلیمباف. – کابل: انجمن قلم افغانستان، ۱۳۸۶ش. – ص ۱۱.

17. حمیرا قادری. نقره، دختر دریای کابل. – تهران: روزگار، ۱۳۸۷ش. – ص ۴۹.

18. <http://www.kabulnath.de/> سپوژمی زریاب. پشک هایى که آدم میشوند

19. <http://www.kabulnath.de/> قلمی در برابر کابوس

20. <http://database-aryana-encyclopaedia.blogspot.com> نعمت حسینی. زندگی نامه رهنورد زریاب

21. روزنامه «انیس». – ۲۳ عقرب ۱۳۹۶ ه. ش. (2017.11.14)

22. <http://mod.gov.af/fa/blog/33401>

23. <http://kabulnews.af/dari/index.php/afghanistan>

HOZIRGI ADABIY HINDIY TILIDAGI SONLARGA OID BA'ZI LEKSIK BIRLIKLARNING FONETIK TAHLILIGA DOIR

Nurmatov Sirojiddin Sultanmuratovich

«Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo tillari» kafedrasida doktoranti, filologiya fanlari
nomzodi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: sirojiddin2003@yahoo.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hindiy tilidagi “yuz”, “ming”, “yuz ming”, “o'n million”, “milliard” kabi leksik birliklarning shakllanish jarayonlari atroflicha o'rganilgan. Ularning o'ziga xos fonetik xususiyatlari tadqiq etilgan. Qadimgi hind-oriy tillari davrida sodir bo'lgan shakllar o'rta hind-oriy tillari davriga o'tish jarayonida qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi hamda yangi hind-oriy tillari davriga kelib ular tarkibida qanday shakllar sodir bo'lganligi tahlil etilgan. Sonlarning shakllanishi jarayonida asosan undosh tovushlar bilan birgalikda unli tovushlar tarkibida ham fonetik o'zgarishlar sodir bo'lganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: son so'z turkumi, sanoq sonlar, leksema, leksik birlik, qadimgi hind-oriy tillari, o'rta hind-oriy tillari, yangi hind-oriy tillari, sanskrit, paliy, prakrit, apabharansha.

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно рассматривается формирование лексических единиц в хинди, таких как «сто», «тысяча», «сто тысяч», «десять миллионов», «миллиард». Изучены их специфические фонетические особенности. Фонетические изменения форм, происходящие в период древних индоарийских языков, претерпели переход к среднеиндоарийским языкам, как и формы, входящие в их состав ко времени появления новых индоарийских языков. В процессе образования числа выяснилось, что фонетические изменения происходили также в составе гласных, наряду с согласными звуками.

Ключевые слова: имя числительное, количественные числительные, лексема, лексическая единица, древние индоарийские языки, средние индоарийские языки, новые индоарийские языки, санскрит, пали, пракрит, апабхаранша.

ABSTRACT

This article examines in detail the formation of lexical units in Hindi, such as "hundred", "thousand", "hundred thousand", "ten million", "billion". Their specific

phonetic features have been studied. The phonetic changes of the forms occurring in the period of the ancient Indo-Aryan languages underwent the transition to the Middle Indo-Aryan languages, as well as the forms occurring in their composition by the time of the new Indo-Aryan languages. In the process of number formation, it was found that phonetic changes also took place in the composition of vowels, along with consonant sounds.

Keywords: numerals, cardinal numbers, lexeme, lexical unit. number word group, number numbers, lexeme, lexical unit, Ancient Indo-Aryan languages, Middle Indo-Aryan languages, New Indo-Aryan languages, Sanskrit, Pali, Prakrit, Apabharansha.

KIRISH

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ko‘pchilik tillarda sanoq sonlar va undan yasalgan so‘zlar keng qo‘llaniladi. Bu haqida tilshunos olim A.E.Suprun shunday deydi: «Har bir matnda “bir” sanoq sonidan yasalgan so‘zlar bir foizni tashkil etadi va undan boshqa so‘zlar ham yasaladi».¹ Anglashiladiki, “bir”, “ikki”, “besh” va boshqa birliklarga oid sanoq sonlar eng ko‘p qo‘llaniladigan sonlar sirasiga kiradi. Shuningdek, har bir tilda o‘nliklarga oid sanoq sonlar ham keng qo‘llaniladi. Maqolada Janubiy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan hind-oriy tillariga xos bo‘lgan hindiy tilidagi yirik sonlarga xos leksik birliklarning o‘zi xos shakllanish jihatlari tadqiq etiladi. Xususan, qadimgi hind-oriy tillari davriga xos bo‘lgan vedik sanskrit va sanskrit, o‘rta hind-oriy tillari davrida rivojlangan paliy, prakrit va apabaharansha hamda yangi hind-oriy tillariga xos bo‘lgan hozirgi adabiy hindiy tilidagi sonlarga xos leksik birliklarning rivojlanishida sodir bo‘lgan ba’zi fonetik jarayonlar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani yozishda hind tilshunos olimlaridan D.Varma, B.Tivariy, H.Bahriy, B.Upadhayay kabi hind tilshunos olimlari tomonidan yozilgan ko‘plab ilmiy asarlardan keng foydalanildi. Ular tomonidan sonlarning shakllanishiga doir berilgan ma’lumotlar atroflicha o‘rganildi. To‘plangan misollarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tarixiy hamda tavsifiy metodlar asosida tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MULOHAZALAR

Sonlarning ifodalanish jihatlari tadqiq etish nafaqat lingvistlar, balki psixologlar, etnologlar, kulturologlar, tarixchilar, matematiklar va falsafa sohasidagi tadqiqotchilar uchun ham dolzarb hisoblanadi. Sonlar o‘ziga xos shakllanish va

¹ Супрун А.Е. Числительное // Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 1992. –С.583.

rivojlanish jihatlari bilan farqlanib turadi. Hindistonda hind-oriy tillariga xos bo‘lgan hindiy tilidagi sonlar ham o‘ziga xos tarixiy bosqichlardan o‘tib shakllangan.

Mazkur maqolada hozirgi adabiy hindiy tilida keng qo‘llaniladigan ba’zi sonlarning o‘ziga xos shakllanish jihatlari atroflicha o‘rganiladi. Hind-oriy tillarining shakllanish va rivojlanish davrlari olimlar tomonidan quyidagicha taqsimlangan: 1) qadimgi hind-oriy tillari (eramizdan avvalgi 1500 yildan eramizdan avvalgi 500 yilgacha)³⁴; 2) o‘rta hind-oriy tillari (eramizdan avvalgi 500 yildan melodiyl 1000 yilgacha); 3) yangi hind-oriy tillari (melodiyl 1000 yildan to hozirgacha)³⁵. Shunga asoslangan holda quyida ba’zi sonlarning o‘zi xos shakllanish jihatlari o‘rganiladi.

Hozirgi adabiy hindiy tilidagi सौ *sao* “yuz” soniga xos bo‘lgan leksema, vedik sanskrit tilida शत *shat*, sanskrit tilida ham शत *shat*, paliyda esa सत् *sat*, prakrit tillarida सअ *sa*, सय *say* va सै *see* shakllari hosil bo‘lgan³⁶. Apabharansha tilida esa सउ *sau* va hozirgi adabiy hindiy tiliga kelib सौ *sao* shakli yuzaga kelgan³⁷. Ta’kidlash joizki, hindiy tilining ba’zi shevalarida सै *see* ham qo‘llaniladi. Hindiy tilida keng tarqalgan सैकड़ा *seekRa*: shaklida ham bu shakl o‘z aksini topgan. सैकड़ा *seekRa*: shakli sanskrit tilidagi शतकृत *shatkrit* dan kelib chiqqan. Ushbu leksemada o‘rta hind-oriy tillariga xos bo‘lgan सै *see* shakli saqlangan va ऐ *ee* diftongidan so‘ng कड़ा *kaRa*: qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan.

Ba’zi olimlar सैकड़ा *sainkRa* “yuz” sonini शतकांड *shatka:nD* leksemasidan kelib chiqqan, degan fikrni ham ilgari suradilar. शतकांड *shatka:nD* bu bir bambuk daraxti ko‘rinishidagi daraxt bo‘lib, uning yuzta 100 ta shoxi bo‘lgan. Olim Sughakar Dvivedining yozishicha, qadimda “yuz” sonining o‘rniga शतपर्वा *shatparva*: deb nomlangan o‘tini qo‘yganlar va shuning uchun ham ushbu sonning nomi “yuz” ma’nosida ifodalana boshlagan³⁸.

Ba’zi olimlarning fikricha bu qarash tilshunoslik nuqtai-nazaridan to‘g‘ri emas. Birinchidan शत *shat* leksemasi juda ham qadimgi so‘z hisoblanadi. Bu so‘z Rigveda asarining birinchi qismining o‘zidayoq kelgan. Shuning uchun ham शतकांड *shatka:nD* yoki शतपर्वा *shatparva*: so‘zlaridan kelib chiqqanligi biroz shubhali tug‘iladi.

³⁴ दीपचन्द्र जैन, कैलाश तिवारी - हिन्दी और उसकी विविध बोलियाँ - भोपाल, मध्यप्रदेश हिन्दी ग्रंथ अकादमी, 1972. -पृष्ठ. 15.

³⁵ Шоматов О.Н. Жанубий Осиё тилларига кириш (1-қисм). -Т.: ТошДШИ, 2003. -Б.39.

³⁶ हरदेव बहरी। भाषा का विकास -दिल्ली, 1992. -पृष्ठ.595.

³⁷ भोलानाथ तिवारी - हिन्दी भाषा -इलाहाबाद, 1972. -पृष्ठ 597.

³⁸ उपाध्याय ब.ल. - ऐतिहासिक, सांस्कृतिक तथा भाषाशास्त्रीय अध्ययन - प्राचीन भारतीय गणित (वेदांग-ज्योतिष तथा आर्यभटीय मूल सहित)। -नई दिल्ली, विज्ञान भारती, 1978. - पृष्ठ. 141.

Ikkinchidan शत so‘zining o‘zi juda ham qadimgi so‘z bo‘lib, u bir hind-evropacha so‘z hisoblanadi. Yevropaning bir nechta tillarida bu so‘zga o‘xshash कन्त *kant*, सैंट *saint* kabi so‘zlar uchraydi. Bu aslida दकान्त *daka:nt* shaklidan kelib chiqqan bo‘lib, u “o‘n” soni bilan bog‘liqdir. द *d* tovushi yo‘qolib, कान्त *ka:nt* yoki कन्त *kant* kabi so‘zlar hosil bo‘lgan.

दकान्त *daka:nt* so‘ziga o‘xshash sanskrit tilida दशति *dashati* so‘zi ham bor. Ushbu leksema “Mahabharat” hamda “Puran”larda ham qo‘llanilgan³⁹. Sanskrit tilidagi o‘nliklarga oid bo‘lgan विंशति *vinshati* “yigirma”, त्रिंशत् *trinshat* “o‘ttiz”, चत्वारिंशत् *chatva:rinshat* “qirq”, पंचाशत् *panchashat* “ellik”, षष्टि *shashTi* “oltmish”, सप्तति *saptati* “etmish”, अशीति *ashi:ti* “sakson”, नवति *navati* “to‘qson” kabi leksemalar tarkibida दशति *dashati* leksemasi turxi xil shakllarda o‘z aksini topgan. Ushbu दशति *dashati* so‘zidagi द *d* tovushi yo‘qolib, शति *shati* शती *shati*: शत *shat* kabi shakllar hosil bo‘lgan.

Hind-Evropa tillarida ham ushbu so‘zlarning ozmi-ko‘pmi ta’siri bo‘lgan. Jumladan, क *k* tovushining o‘rniga fransuzchada स *s* tovushi qo‘llanilgan va natijada सैंट *saint* so‘zi hosil bo‘lgan. Ingliz tilida esa क *k* tovushining o‘rniga ह *h* tovushi qo‘llanilgan va shuning uchun ham हंड *hand* so‘zidan हंड्रेड *hundred* so‘zi hosil bo‘lgan⁴⁰.

दशति *dashati* so‘zidagi द *d* tovushi Vedalar davridayoq eliziya hodisasiga uchragan. Vedalar adabiyotida शत *shat* va शति *shati* kabi shakllar ko‘p qo‘llanilgan. Keyingi davr adabiyotlarida दशति *dashati* so‘zi qisman bo‘lsa ham o‘z ifodasini topgan. Samavedada दशति *dashati* so‘zi 10 ta mantradan tashkil topgan guruh ma’nosida qo‘llanilgan. Shu tariqa शतैक *shataik* shaklidan सैक *saik* va सैक *saik* shakliga hindcha -ड़ा *-Ra* suffiksi qo‘shilishi natijasida सैकड़ा *saikra*: shakli hosil bo‘lgan.

Qadimgi hind-oriy tillariga xos bo‘lgan sanskrit tilida quyidagi misolni keltirishimiz mumkin:

गच्छन् पिपिलिको याति योजनानां शतान्यपि । अगच्छन् वैनतेयः पदमेकं न गच्छति ॥ *Gachchan pipiliko ya:ti yojna:nan shata:nyapi. Agachchan venteyah padmenk na gachchati.*

Uzluksiz harakatlanuvchi chumoli yuzlab masofani bosib o‘tadi, ammo harakatsiz burgut bir qadam ham oldinga siljiy olmaydi.

Hindiy tilidagi लाख *la:kh* “yuz ming” soni Hind-Ovro‘pa tillari oilasining qadimgi leksik birliklaridan emas. Bu qadimgi hind-oriy tillariga xos bo‘lgan sanskrit

³⁹ हरदेव बहरी। भाषा का विकास। -दिल्ली, 1992. -पृष्ठ.598.

⁴⁰ उपाध्याय ब.ल. - ऐतिहासिक, सांस्कृतिक तथा भाषाशास्त्रीय अध्ययन – प्राचीन भारतीय गणित (वेदांग-ज्योतिष तथा आर्यभटीय मूल सहित)। -नई दिल्ली, विज्ञान भारती, 1978. – पृष्ठ. 141.

tilidagi लक्ष *laksha*, लक्ष् *laksh* yoki लग *lag* kabi birliklar bilan bog‘liq⁴¹. Qadimda लाख *la:kh* “yuz ming” soni ma’nosida vedalarga doir adabiyotlarda नियुत *niyut* leksemasi qo‘llanilgan. Demak, qadimgi hind-oriy tillariga xos sanskrit tilida लक्ष *laksha*, o‘rta hind-oriy tillarida rivojlangan prakrit tilida लक्ख *lakkha* va yangi hind-oriy tillariga xos bo‘lgan hindiy tiliga kelib लाख *la:kh* shaklida qo‘llanila boshlagan.

Ta’kidlanaganidek, hindiy tilidagi लाख *la:kh* “yuz ming” soni sanskrit tilidagi लक्ष *laksha* shaklidan kelib chiqqan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, vedik sanskritda लाख *la:kh* so‘zi uchun नियुत *niyut* so‘zi ham qo‘llanilgan. अमरकोष *amarakosh* “Amarakosha” (o‘rta asr sanskrit lug‘atining nomi)da लक्ष *laksha* so‘ziga नियुत *niyut* leksemasi sinonim tariqasida berilgan: “कोट्याः शतादिः संखान्या वा लक्षा नियुत च तत्”⁴². Vedalar tilida qo‘llanilgan अयुत *ayut*, नियुत *niyut*, प्रयुत *prayut* shakllar bir-biriga o‘xshash bo‘lganligi sababli ularni ajratish qiyinroq bo‘lgan va shuning uchun ham buddistlar tomonidan qo‘llanilgan सहस्र *sahassa* “ming”, लक्ख *lakkha* “yuz ming”, दसलकख *daslakkha* “bir million” kabi shakllar o‘zlashtirilgan. Haqiqatan ham नियुत *niyut* soni katta son hisoblanadimi yoki प्रयुत *prayut* sonimi, buni eslab qolish qiyin bo‘lgan. तांड्यब्राह्मण *ta:ndyabra:hman* asarida नियुत *niyut* o‘rniga प्रयुत *prayut* va प्रयुत *prayut* o‘rniga नियुत *niyut* shakllari qo‘llanilgan.

Hozirgi adabiy hindiy tilidagi हजार *haza:r* “ming”, लाख *la:kh* “yuz ming”, करोड़ *karoR* “o‘n million”, अरब *arab* “milliard”, खरब *kharab* “o‘n milliard”, नील *ni:l*, पद्म *padma*, शंख *shankh* kabi yirik sonlar bir-biridan 100 karra katta son sifatida qabul qilinib qo‘llanilgan. Hindiy tilida qo‘llaniladigan ba’zi yirik sonlar buddistlardan qolgan शतगुणोत्तर संख्यानामावली *shatgunottar sankhya:na:ma:vli:* - “Shatgunottar sonlar ro‘yxati” deb nomlangan yodgorlikda ham qayd etilgan. Eramizdan avvalgi 100-yilga mansub bo‘lgan ललित-विस्तर *lalit-vistar* deb nomlangan buddistlar asarida sonlarga oid quyidagi ma’lumotlar keltirilgan.

१०० सहस्र 100 sahasra (yuz ming)	=	१ लक्ष 1 laksha (yuz ming)
१०० लक्ष 100 laksha (o‘n million)	=	१ कोटि 1 koti (o‘n million)
१०० कोटि 100 koti (bir milliard)	=	१ अयुत 1 ayut (bir milliard)
१०० अयुत 100 ayut (yuz milliard)	=	१ नियुत 1 niyut (yuz milliard)

⁴¹ धीरेन्द्र वर्मा -हिन्दी भाषा का इतिहास। -दिल्ली, 1962. -पृष्ठ 271.

⁴² उपाध्याय ब.ल. - ऐतिहासिक, सांस्कृतिक तथा भाषाशास्त्रीय अध्ययन - प्राचीन भारतीय गणित (वेदांग-ज्योतिष तथा आर्यभटीय मूल सहित)। -नई दिल्ली, विज्ञान भारती, 1978. - पृष्ठ. 142.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda shunday fikr aytish mumkin. Birinchidan, अयुत *ayut* va नियुत *niyut* kabi sonlarga xos leksemalar talaffuz qilinishi jihatidan ham bir-biriga o'xshash bo'lganligi uchun ham ularni farqlash bir oz chalkashmovchilikka olib kelingan. Ikkinchidan, ularning qiymati ham boshqa manbalardagiga ko'ra bir oz farqliroq berilgan. Shuning uchun ham bu va boshqa sanoq sonlarga xos leksik birliklar sekin-asta nisbatan kam qo'llanila boshlagan va yangi hind-oriy tillari davriga kelib ushbu sonlarga xos leksemalar o'rniga हजार *haza:r* "ming", लाख *la:kh* "yuz ming", करोड़ *karoR* "o'n million", अरब *arab* "milliard", खरब *kharab* "o'n milliard" kabi shakllar keng qo'llanila boshlagan.

XULOSA:

Yuqorida olib borilgan tahlil natijalarga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hozirgi adabiy hindiy tilida keng qo'llaniladigan barcha sonlar qadimgi hind-oriy tillariga xos bo'lgan sanskrit tilidan shakllangan bo'lib, ularning shakllanishi jarayonida turli xil fonetik o'zgarishlar, xususan, ularning shakllanishida undosh tovushlar bilan bir qatorda unli tovushlarda ham fonetik o'zgarishlar sodir bo'lgan.
2. Garchi hozirgi adabiy hindiy tilida "yuz" soni o'rnida सैंकड़ा *sainkRa* leksemasi ham qo'llanilsa-da, lekin सौ *sao* shakli सैंकड़ा *sainkRa* shakliga nisbatan kengroq qo'llaniladi va u boshqa son turlarining yasalişida ham ishtirok etadi.
3. Qadimgi hind-oriy tillari davrida yaratilgan adabiyotlarda करोड़ *karoR* "o'n million" soni ma'nosida अर्बुद *arbud* so'zi ham qo'llanilgan. कोटि *koTi* ham aslida कुट् *kuT* shaklidan hosil bo'lgan. Qadimgi buyuk asarlarda, ayniqsa, "Mahabharata" eposida bu shakl ko'p qo'llanilgan. O'rta hind-oriy tillariga xos bo'lgan paliy tilida ham कोटि *koTi*, पकोटि *pakoTi*, कोटिपकोटि *koTippakoTi* shakllarida o'z aksini topgan.
4. E'tiborga molik tomoni shundaki, hindiy tilidagi mingliklardan yuqori bo'lgan ba'zi sonlar hozirgi adabiy hindiy tilida bitta shaklga ega bo'lsa, qadimgi hind-oriy tillariga oid sanskrit tilida esa dastavval ularning ikkita shakli mavjud bo'lgan va ular o'rta hind-oriy tillariga xos bo'lgan prakrit va apabharansha tillari orqali shakllanib, yangi hind-oriy tillari davriga o'tish jarayonida ularning bitta shakli saqlangan.

REFERENCES:

1. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish (1-qism). –T.: ToshDShI, 2003.
2. Супрун А.Е. Числительное // Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 1992.

3. Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.П.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т. I и II. –М.: Издательство «Советская Энциклопедия», 1972.
4. उपाध्याय ब.ल. - ऐतिहासिक, सांस्कृतिक तथा भाषाशास्त्रीय अध्ययन – प्राचीन भारतीय गणित (वेदांग-ज्योतिष तथा आर्यभटीय मूल सहित)। -नई दिल्ली, विज्ञान भारती, 1978.
5. दीपचन्द्र जैन, कैलाश तिवारी - हिन्दी और उसकी विविध बोलियाँ। -भोपाल, मध्यप्रदेश हिन्दी ग्रंथ अकादमी, 1972.
6. धीरेन्द्र वर्मा -हिन्दी भाषा का इतिहास। -दिल्ली, 1962.
7. भोलानाथ तिवारी - हिन्दी भाषा। -इलाहाबाद, 1972.
8. हरदेव बहरी। भाषा का विकास। -दिल्ली, 1992.

**XITOIY ADABIYOTI DARSLARIDA EDVARD DE BONONING
“FIKRLASHNING OLTITA SHLYAPASI” USULIDAN
FOYDALANISHNING SAMARALI YO‘LLARI**

Aziza Isfandiyarovna Shayusupova.

p.f.n, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti., TDSHU

Maktuba Abduazizovna Ashurova

“Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik” kafedrası
o‘qituvchisi, TDSHU

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarda “Qadimgi xitoy afsonalari” mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalarning biri xisoblangan “Fikrlashning 6 shlyapasi usuli” orqali o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** Pangu, Si-van-mu, Nyuyva ilohasi, pedagogik texnologiya, 6 shlyapa, Edvard de Bono*

ABSTRACT

This article describes the peculiarities of teaching the subject of "Ancient Chinese legends" to students of Chinese studies through the 6-hat method of thinking, which is one of the modern pedagogical technologies.

***Keywords:** Pangu, Si-van-mu, Nyuyva goddess, pedagogical technology, 6 hat, Edward de Bono.*

АННОТАЦИЯ

В статье описаны особенности преподавания предмета «Древние китайские легенды» китаеведам с помощью шестиступенчатого метода мышления, который является одной из современных педагогических технологий.

***Ключевые слова:** Пангу, Си-ван-му, богиня Нюйва, педагогические технологии, 6 шляп, Эдвард де Бонно.*

KIRISH

Jamiyatimizning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida nostandart yechimlarni topa oladigan va ijodiy fikrlay oladigan raqobatbardosh shaxsni tayyorlash va tarbiyalash ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada biz xitoyshunoslik filologiya ta’lim yo‘nalishi 2 kurs talabalarida o‘qitilayotgan xitoy adabiyoti fanining dasturda belgilangan mavzularidan biri bo‘lgan “Qadimgi xitoy

afsonalari” mavzusini “Fikrlashning oltita shlyapasi” usuli yordamida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari xaqida to‘xtalib o‘tamiz.

ADABIYOTLAR VA METODLAR

“Fikrlashning oltita shlyapasi” usuli birinchi marta ingliz psixologi va yozuvchisi Edvard de Bono tomonidan tavsiya qilingan. Bu usul paralel fikrlashni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi, muammoni turli tomondan ko‘rsatishga yordam beradi va maqbul yechimlarni aniqlaydi, vaziyatni har xil nuqtai nazardan ko‘rib chiqishga imkon beradi.⁴³

Talabalar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining asoschilari ta’lim jarayoniga “Olti bosh kiyim” metodini “Fikrlashning oltita shlyapasi” deb moslashtirishgan. Bu usul muammoni (yangi ma’lumotlar, matn) o‘rganishni oqilona tashkil etishga va baholash va idrokning turli jihatlarini aniqlashga yordam beradigan birgalikdagi (guruhli) kognitiv faoliyat usulidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘nggi paytlarda bu usul juda mashhur. Uning afzalligi nima? Birinchisi: bu yangi, noan’anaviy yechimlar va g‘oyalarni topish imkonini beradi. Ikkinchidan: 6 ta ko‘ylagi yordamida har qanday fikr har tomondan darhol ko‘rib chiqiladi, bu bizga g‘oyaning samaradorligi haqida ko‘proq ob’ektiv xulosalar chiqarish imkonini beradi. Uchinchidan: yakuniy qaror barcha ishtirokchilarning fikriga ko‘ra amalga oshiriladi, shuning uchun jamoada hech kim qoniqtirmaydi. To‘rtinchisi: hatto passiv odamlar ham o‘z fikrini ifoda etishga odatlangan jarayonda osonlikcha ishtirok etadilar. Beshinchisi: 6 ta boshcha o‘yini texnologiyasi o‘yin shaklida qabul qilinadi, shuning uchun u bilan ishlash yaxshi.

6 BOSH KIYIMDAGI FIKRLASH USULI

Siz turli rangdagi oltita bosh kiyimni olishingiz kerak. Umuman olganda, ular osongina o‘xshash rangdagi boshqa narsalar bilan almashtirilishi mumkin. Eng asosiysi, barcha ishtirokchilar hozirgi paytda qanday rangda muhokama qilishni ko‘rishlari kerak. Jarayonni tashkil etish va ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish uchun mas’ul bo‘lgan vositachilarni tanlash kerak. Keling, ularning rangi va ularning javoblarini ko‘rib chiqaylik.

Oq shlyapa – Oq rang neytral va ob’ektivdir. Bu raqamlar va faktlar. analitik yondashuv. Dastlabki ma’lumotlar, raqamlar, vaziyatlar - munozarasi mavzusidagi barcha ma’lumotlar. Hozir biz biladigan narsalar va nimani o‘rganishimiz kerak. Faqat haqiqiy ma’lumotlar.

⁴³ Боно Э. Шесть шляп мышления / Э. Боно. – Санкт-Петербург: Питер, 1997. – 208 с.

Qizil shlyapa - sezgi va his-tuyg'ular. Bu erda faqat sizning хис-туйғуларингизни ifoda etasiz. Bunga dalil kerak emas, shuning uchun qizil shlyapa juda kam vaqt talab etadi.

Qora shlyapa tanqidiy fikrlashdir. Qora salbiy va ma'yus. Qora shlyapa salbiy tomonlarini isbotlaydi. Ushbu g'oyaning minuslari va tuzoqlari nima? Nima uchun bunday qilish kerak emas. Bu shlyapa ustida uzoq turmaslik yaxshiroqdir, chunki har doim tanqid qilish osonroq va juda ko'p dalillar bo'lishi mumkin.

Sariq shlyapa - mantiqiy ijobiy, asosimiz. Sariq shlyapa optimizm, ijobiy fikrlashni taklif qiladi. Ushbu g'oyaning ijobiy va foydasizligi nimani anglatadi va u nima uchun qabul qilinishi kerak?

Yashil shlyapa - ijodiy yondoshuv. Bu shlyapa g'oyalarni ishlab chiqaruvchisi. Barcha ishtirokchilar muhokama mavzusini qanday takomillashtirish va uning samaradorligi uchun nima qilish kerakligi haqida gapirishadi. Siz hozirgi paytda ham ishlamaydigan ko'rinishi mumkin bo'lgan eng oddiy qarorlarni ham ifodalashingiz mumkin.

Moviy shlyapa - hidoyat shlyapa jarayonni boshqarish. Moviy – sovuq, u xamma narsadan ustun bo'lgan osmonning rangidir. Ko'k shlyapa o'ylash jarayonini nazorat qilish va tashkil qilish, shuningdek, qolgan shlyapalarni qo'llash uchun javobgardir. Jarayonning boshida va oxirida ishlatilishi kerak. Eng boshida muhokamaning maqsadlarini belgilashga erishiladi. Natijalar va natijalarni umumlashtirish uchun.



Qadimgi xitoy mifologiyasini o‘qitishda yuqoridagi usuldan samarali foydalanish talabalarda nafaqat bilimni, balki ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalar bilan shu mavzuni an’anaviy shaklda emas, balki “Fikrlashning oltita shlyapasi” usulini qo‘llagan xolda olib borsak, albatta talabalar mustaqil fikrlashga undalanadilar.

Misol tariqasida qadimgi xitoy afsonalari mavzusi o‘tilayotgan auditoriyadagi talabalarni 6 ta guruhga ajratamiz va ramziy ravishda ularga yuqorida keltirilgan rangli shlyapalardan kiydiramiz.

Birinchi guruh OQ ShLYaPA KIYGAN GURUH TALABALARI - Mavzu doirasida nafaqat umumiy ma’lumot berib o‘tishadi, balki afsonaning turli xalqlarda turlicha talqin qilinganligiga e’tibor qaratishadi:

Afsona nima? Afsona- qadimgi zamon odamlari bevosita duch kelgan tabiat va jamiyat hodisalaridan o‘ylab chiqarilgan, uni san’atga oid qilib tushuntirilgan va tasvirlangan jamoaviy og‘zaki ijodiyot mahsuli, deb tushuntirishimiz mumkin.⁴⁴

Afsona qanday paydo bo‘lgan? Qadimgi zamonda past saviyadagi ishlab chiqarish kuchlari kishilarning bilim darajasini chegaralab qo‘ygandi. Ular tabiat bilan kurashish jarayonida tabiat qonunlarini tushunishi va ularni egallashi mumkin bo‘lmaganligi sababli, tabiat kuchlari oldida anchayin ojiz holatga tushib qolishgan. Shuning uchun ular tabiatga bas kela oladigan, unga o‘z hukmini o‘tkaza oladigan bir buyuk kuchni tasavvur qildi. Bu kuch “Iloh” edi. ular bu kuchni teng kelib bo‘lmaydigan, tabiatning har xil o‘zgarish va hodisalarni boshqaradigan hamda uni o‘z izmiga sola oladigan qudrat deb qaraganligi sabab, ularning nazaridagi bu tabiat kuchlari tasavvur orqali obrazlashtirildi va insoniy xususiyatlarga ega qilindi. Shundan so‘ng ishlab chiqarish mehnatlari jarayonida qadimgi kishilar o‘z qahramonlarining obraziga asoslanib “Iloh” to‘g‘risida og‘izdan og‘izga o‘tib keladigan badiiy tus berilgan hikoyalarni ijod qild. Aynan mana shu omillar afsonalarning paydo bo‘lish manbasi hisoblanad.⁴⁵

Qadimgi afsonalar romantik adabiyotning paydo bo‘lishiga muhim manba bo‘lib xizmat qiladi va keyingi davr adabiyotiga bo‘lgan ta’siri juda ulkan bo‘ladi. Realizm uning ijodiyot asosi bo‘lsa, romantizm uning ijodiyot usulidir. Afsonalardagi romantik rux, mardlik bilan yo‘g‘irilgan tasavvur keyingi davrlardagi yozuvchi va shoirlarning

⁴⁴ Хитой адабиёти (Қадимги ва ўрта асрлар) / Ж.Зиямухамедов, О.Очилов. дарслик Т:2021 йил

⁴⁵ Хитой адабиёти (Қадимги ва ўрта асрлар) / Ж.Зиямухамедов, О.Очилов. дарслик Т:2021 йил 13-14 бетлар

tasavvur kuchini uygʻotib, ularni koʻplab abadiy detallar, badiiy oyurazlar bilan taʼminlanadi.⁴⁶

Yana shuni ham hisobga olish lozimki, xitoy miflari va afsonalari asrlar mobaynida ogʻizdan-ogʻizga oʻtish jarayonida sezilarli darajada oʻzgargan. Bunga, jumladan, Si-van-mu⁴⁷ 西王母, haqidagi mif misol boʻlishi mumkin.

Qadimgi Xitoy mifologiyasida bu boqiylik sirini saqlovchi ayol Xudosidir. Qadimgi miflarda u gʻarbda joylashgan oʻliklar yurtining qudratli hukmdori, samoviy jazolar, kasalliklar, vabo, shuningdek, odamlarga yuboriladigan tabiiy ofatlarning bekasi sifatida tasvirlangan.

“Shanxayszin” – “Togʻlar va dengizlar kitobi” yodgorligida Si-van-mu “qoplon dumi va yoʻlbars tishlariga ega boʻlgan” yovuz va berahm mavjudot sifatida tasvirlangan va unga oziq-ovqatlarni uch oyoqli koʻk (yoki yashil) muqaddas qushlar tomonidan keltirilishi aks ettirilgan.

Qadimgi faylasuf Xuaynan-szi (miloddan avvalgi II asr) tavsifida Si-van-mu, aksincha, umr boqiylik siridan xabardor yaxshi ruh “Shen” timsoli sifatida namoyon boʻladi. Nihoyat, mashhur muarrix va olim Ban Gu (milodiy I asr) qalamiga mansub deb hisoblanadigan “U Xan haqidagi afsonalar”da Si-van-mu goʻzal malikaga aylanadi.

Shu tariqa oq shlayapa kiygan talabalar guruhi Si-van-mu afsonasini nima sababdan oʻrganishlari kerakligi haqida aytib oʻtishadi.

QIZIL ShLYaPA kiygan guruh talabalari – ularda bu afsonani eshitishi bilan qanday xissiyotlar uygʻongani haqida fikr bildirishadi – ushbu mifni tinglash orqali Si-van-mu obrazida ular turli xis tuygʻularga berilganliklarini aytib oʻtishadi.

QORA ShLYaPA kiygan guruh talabalari – oʻz qarshi fikrlarini bildiradilar. “Shanxayszin” – “Togʻlar va dengizlar kitobi” yodgorligida Si-van-mu “qoplon dumi va yoʻlbars tishlariga ega boʻlgan” yovuz va berahm mavjudot sifatida aks ettirilgan., bunday “yovrilishlar” qadimgi xitoy mifologiyasining boshqa qahramonlari, xususan Nyuyvaga ham xos. Maxluqlar insoniy qiyofa kasb etishida aynan miflarni oʻz ijtimoiy-tarixiy vazifalari, axloqiy-maʼnaviy qarashlariga zid boʻlganligi uchun ham uni oʻrganishimiz shart emas.

SARIQ ShLYaPA kiygan guruh pozitiv fikrlovchi guruh aʼzolaridir- Xitoy mifologiyasida olamning va yerda hayotning kelib chiqishi mavzusi koʻzga koʻrinadigan oʻrinni egallaydi. Dunyo qanday paydo boʻlgani va odamlar hayoti qanday vujudga kelgani haqida turli miflarda turlicha hikoya qilinadi.

⁴⁶ Хитой адабиёти (Қадимги ва ўрта асрлар) / Ж.Зиямухамедов, О.Очилов. дарслик Т:2021 йил 15-16 бетлар

⁴⁷ Си-ван-му (айнан “Ғарб маликаси – онаси”, баъзан Цзинь-му – “Олтин она”) – дао ривоятларига кўра, Куньлунь тоғларидаги сеҳрли ғорларда яшайдиган ғарб мамлакатларининг афсонавий париси.

Bu miqlar mazmunining bayoni va tahliliga o'tishdan oldin shuni qayd etib o'tishni istar edikki, dunyo yaralishining mifologik versiyalari ularning soddaligi va betakrorligi tufayli dunyo paydo bo'lishining ko'p sonli qadimgi adabiy yodgorliklarda qayd etilgan naturfalsafiy sharhi paydo bo'lganidan keyin ham xalq orasida saqlanib qolgan. Masalan, xitoy naturfalsafasining qadimgi qarashlariga muvofiq, dastavval olamda kaos stixiyasi – "xundun" hukm surgan, yer ham, osmon ham, yorug'lik ham, zulmat ham, kun ham, tun ham, yil fasllari ham mavjud bo'lmagan. Keyinchalik bu buyuk birlik parchalangan. Qarama-qarshi kuchlar vujudga kelgan: "Yan" ieroglifi bilan ifodalanadigan yorug'lik zarralari tepaga ko'tarilgan va shu tariqa osmon, quyosh, yoz, kun paydo bo'lgan, "In" ieroglifi bilan ifodalanadigan og'ir zarralar esa pastga tushgan va natijada yer qattiq massasi vujudga kelgan va u keyinchalik insoniyat beshigiga aylangan shu sabali aynan bir mifda to'xtalishdan oldin mifologiya to'g'risida umumiy bir tasavvurga ega bo'lib olishimiz kerak deb hisoblaymiz.

YaShIL ShLYaPA kiygan talabalar guruhi kreativ guruh hisoblanib, mif haqidagi g'oyalarni o'qishni tavsiya qilishning yengil yoki alternativ tomonlarini ko'rsatib berishga mo'ljallangan – bu mifni o'rganish orqali mushtariy xitoy adabiyotini kelgusida chuqurroq o'rganish uchun tamal toshi bo'lib xizmat qilinishini ta'kidlashadi.

KO'K ShLYaPA kiygan talabalar guruhi-jarayonni boshqarish o'ylash jarayonini nazorat qilish va tashkil qilish, shuningdek, qolgan shlyapalarni qo'llash uchun javobgardir.

Shlyapalar ma'lum rollarni ijro etish imkoniyatini beradi. Asosan, amaldagi tafakkur, xatolarining ko'pi uchun javobgar bo'lgan, himoyalannuvchi ego bilan chegaralanadi. Bu uslub diqqatni turli mavzularda o'ylashga qaratishga yordam beradi, uning yordamida talaba bir mavzudan ikkinchisiga osongina o'tishi mumkin. Qabul qilishning qiymati shundan iboratki, har qanday talaba har qanday vaziyatda o'z noroziligini bildirishi yoki aksincha, taklif qilingan hamma narsada rozi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari talaba o'z iste'dodini va his-tuyg'ularini namoyon qilishi mumkin. Bu usulning mohiyati odatdagi isbotlash jarayoni emas, balki fikrlarning xar-xilligi va bir nazariya yoki ma'lumotlarga olti xil tomondan qarashdan iborat. Albatta bu usulni qo'llash uchun talabalarda tasavvur rivojlangan bo'lishi kerak.

"Fikrlashning oltita shlyapasi" usuli talabalar uchun dolzarbdir, chunki yangi darajadagi fikrlash, mantiqiy xotira, tanglangan barqaror e'tiborni shakllantirish samarali bo'ladi.

Oltita fikrlash shlyapasi – bu savol yoki fikrlarni xar xil tomondan o'rganishga imkon beradigan miyaga xujumning usullaridan biridir. Agar xitoy adabiyoti fanidan talaba yoki guruh shlyapa kiyishga harakat qilsa, ular o'z nuqtai nazaridan emas, balki

shlyapaning nuqtai nazaridan o‘yay boshlashlari kerak bo‘ladi. Talabalar nima haqida fikr yuritayotganliklarini bilsalar, matnni yaxshi o‘zlashtirsalar, faoliyat juda samarali, qiziqarli va foydali bo‘ladi. Adabiyot darslarida “Oltita fikrlaydigan shlyapa” dan foydalanish adabiyot va boshqa san’at turlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri topish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Badiiy tizimlar tili, turli manbaalar ko‘payib bormoqda, buning natijasida muallifning pozitsiyasini tushunish to‘g‘ri fikr bildirish, uni qabul qilish va o‘zini mustaqil fikrini to‘g‘ri izohlash hozirgi kunda dolzarb masalalardan biriga aylangan.

XULOSA

Shunday qilib, “Fikrlashning oltita shlyapasi” usulidan foydalanish nafaqat ma’lum bilimlarni talabalarga yetkazish, balki ularni xitoy adabiyoti fanidan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga o‘rgatish imkonini beradi. Talabalar ulardan yangi tezkor bilim vazifalarni hal qilishda foydalanish, o‘zini o‘zi qadrlashi, fikr yuritishi, o‘z manfaatlarini boshqalarning manfaatlarini bilan bog‘lay olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda “Fikirlashning oltita shlyapasi usuli” yordamida Xitoy adabiyoti darslarida auditoriyada o‘tirgan talabalarda o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha 6 ta rakursdan qarash fikr bildirish va uni rivojlantirish amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Боно Э. Шесть шляп мышления / Э. Боно. – Санкт-Петербург: Питер, 1997. – 208 с.
2. Гузеев В.В. Методы обучения и организационные формы уроков / В.В. Гузеев. – М.: Дрофа, 1999. – 97 с.
3. Труды по китайской литературе / Алексеев В.М.: – М.Наука, 2002-2003. В.
4. Мифы народов мира.–М.: Советская энциклопедия, 1992.
5. Ziyamuxamedov J., Ochilov O. “Xitoy adabiyoti (Qadimgi va o‘rta asrlar)”:- Toshkent .2021
6. Mifi narodov mira.–М.:
7. China.kulizhki.net
8. Kitai.ru.net.
9. Kitaigorod.narod.ru
10. www.uza.uz

РАЗВИТИЕ ПОНЯТИЯ «ИДЕНТИЧНОСТИ» В АНТРОПОЛОГИЧЕСКОЙ СОЦИОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ

Аскарров Мирзохид Махаммаджон ўғли

Ташкентский государственный университет востоковедения

Доктор философии по историческим наукам (PhD)

mirzokhid.askarov90@gmail.com

АННОТАЦИЯ

На сегодняшний день вопрос о содержании понятия «идентичность» является одним из самых обсуждаемых проблем современных дисциплин, таких как философия, социология, психология, политология, этнология и антропология. По нашему мнению, трудно найти такое же понятие, как «идентичность», которое могло бы соперничать с ним по активности обсуждения и использования на данный момент. Интерес к этой проблематике возрос в связи с периодом всеобщей глобализации, запустившим обратный процесс унификации и протекционистских идей во многих государствах мира. Осознание необходимости своевременного изучения настоящего понятия, его методологических основ и их отражение в повседневной жизни узбекского народа поможет понять и решить ряд ключевых вопросов по дальнейшему развитию и укреплению современной национальной идентичности узбеков. Рассмотрение, сопоставление и оценка зарубежных теорий и концепций по данной тематике станет основой для дальнейшего развития исследований в данном направлении в этнологической и антропологической науке Узбекистана. В данной статье автор дает анализ понятия идентичности в антропологическом и социальном аспекте, так как именно трактовка в этих направлениях является более актуальным на данный период.

Ключевые слова: *идентичность, антропология, этнология, социология, узбекская идентичность, идентификация, Узбекистан, кризис идентичности.*

ABSTRACT

Today, the question of the content of the concept of "identity" is one of the most discussed problems of modern disciplines, such as philosophy, sociology, psychology, political science, ethnology and anthropology. In our opinion, it is difficult to find the same concept as "identity" that could compete with it in terms of active discussion and use at the moment. Interest in this issue has increased in connection with the period of general globalization, which launched a reverse process of unification and

protectionist ideas in many countries of the world. Awareness of the need for a timely study of this concept, its methodological foundations and their reflection in the daily life of the Uzbek people will help to understand and solve a number of key issues for the further development and strengthening of the modern national identity of Uzbeks. Consideration, comparison and assessment of foreign theories and concepts on this topic will become the basis for the further development of research in this direction in the ethnological and anthropological science of Uzbekistan. In this article, the author analyzes the concept of identity in the anthropological and social aspects, since it is the interpretation in these areas that is more relevant for this period.

Keywords: *identity, anthropology, ethnology, sociology, Uzbek identity, identification, Uzbekistan, identity crisis.*

ВВЕДЕНИЕ

За последнее десятилетие наблюдается процесс усиления всемирной глобализации и интеграционных процессов, в результате все больше исчезает грань национальных культурных различий, веками служивших стречнем объединения народа. Процесс глобализации и интеграции различных культур запустил противоположный механизм – сохранения особенностей и самобытности каждого народа. Потому что, традиции и национальные ценности, опирающиеся на многовековой опыт, содействуют не только объединению, но и, духовно-культурному обогащению общества, что является главным рычагом всестороннего развития государства.

Усиление интеграционных процессов в мире, трансформация современной идентичности и риск потери “самости”, а также снижение чувства единства в полиэтническом обществе – все это порождает необходимость научных исследований по изучению идентичности.

Однако, несмотря на свою популярность в социально-гуманитарных науках, данное понятие (термин) пока не имеет общепризнанного понятийного аппарата. Он продолжает оставаться популярным, но до сих пор неясным понятием (термином). Рассмотрение данной проблемы в срезе многочисленных социально-гуманитарных наук только увеличивает его размытость и неясность. Следовательно, только обсуждение в междисциплинарном ракурсе может определить и выявить определенные границы, металогические концепты и понятийный аппарат «идентичности». В данной статье излагается анализ большого спектра парадигмально-концептуальных интерпретаций в антропологии и социологии, систематизацию и выбор тех парадигм, которые, по

нашему мнению, достовернее всего объясняют формирование и развитие национальной идентичности в Узбекистане.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ

Идентичность рассматривалась в исследованиях многих ученых. Как антропологическая и социологическая категория она изучалась Э.Эриксоном, была продолжена Дж. Марсиа, А. Ватерманом, далее Дж. Мидом, Ч. Кули, П. Бергером, Т. Лукманом, И. Гофманом, Г. Фогельсоном, Ю. Хабермасом, У. Джеймсом. В статье были использованы методы системного и сравнительно-сопоставительного анализа, контент анализ, а также множественность идентичностей.

ОБСУЖДЕНИЕ

«Идентичность» как *антропологическая категория* исследовалась в рамках различных направлений науки, таких как психоанализ, индивидуальная (эгопсихология) и социальная психология, педагогика и др. Например, П. Гуревич полагал, что психологические теории развивают понимание идентичности как чувства «ощущения себя», которое изменяется на протяжении всей жизни человека и, следовательно, имеет динамический характер, а идентификацию – как защитный психологический механизм, позволяющий уподоблять себя некоему образу [1]. Таким образом, возникновение и развитие антропологического подхода подняло на новый уровень понятие идентичности и представило его как процесс становления личности.

В психологии и психиатрии термин «идентичность» долгое время не использовался (он отсутствует, например, в словаре З. Фрейда). Отсутствие термина не значит, разумеется, что соответствующая проблематика в психологических науках не обсуждается [2]. Начало глубокого рассуждения об этом понятии исследователи нашли в работах З. Фрейда, который применял психоанализ для выявления невидимой самости («оно» или «идентичности»), скрытой даже от самой личности [3]. Психологические аспекты проблематики идентичности интенсивно разрабатываются в постфрейдовском психоанализе, и, в частности, в революционных исследованиях Ж. Лакана [4].

Как известно, вопросы вокруг понятия «идентичности» стали интенсивно обсуждаться со второй половины 60-х годов XX века. Практически все исследователи [5] данного феномена отмечают большую роль американского ученого психолога, психоаналитика Э. Эриксона [6], который специально занялся изучением идентичности и стал широко употреблять этот термин в своих

трудах [7]. Приведем некоторые основные идеи этого ученого касательно идентичности:

– он определил идентичность, как сложнейший процесс, локализованный в ядре индивидуальности и как процесс общественной культуры, поэтому проблема идентичности является всеобъемлющей и трудноуловимой (Например: *можно сравнить идентичность со стрежнем (ядром), вокруг которого строится личность* – М.А.);

– он определил, что идентичность является процессом постоянного, непрекращающегося развития личности, которая позволяет человеку ощущать себя в настоящем в связи с прошлым и будущим. (Например: *равновесие своего внутреннего и внешнего даёт человеку устойчивость и цель, по которой он будет строить свою жизнь. Несовпадение внутреннего и внешнего приведет к кризису* – М.А.);

– внес понятие кризисов идентичности личности и сделал вывод об их связи с кризисами общества. По мнению Э. Эриксона, кризисы идентичности личности в периоды кризисов общества служат отправной точкой создания элементов новой идентичности [8] (Например: *кризис советского общества и процесс создания новой, независимой, национальной узбекской идентичности* – М.А.).

После Э. Эриксона заданная им психоаналитическая линия была продолжена Дж. Марсиа [9], а также А. Ватерманом, который, углубляя анализ структуры идентичности, выделил следующие четыре базисных сферы идентичности: профессиональный выбор; нравственная и религиозная ориентация; политическая ориентация; семейно-половая ориентация [10].

Приблизительно в это же время, параллельно с психоаналитическими взглядами, развивались и социологические теории идентичности, которые фокусировались на конструировании индивидуального «Я» или идентичности, посредством символических значений в межличностном взаимодействии [11]. Индивид осознает себя членом группы посредством принятия на себя ролей других индивидов (в начале жизни – это родители, затем другие значимые люди) [12]. Данное направление развивали такие социологи, как Дж. Мид [13], Ч. Кули [14], П. Бергер [15], Т. Лукман [16], И. Гофман [17], Г. Фогельсон [18], Ю. Хабермас [19] и др.

Впоследствии данное направление получило название «символический интеракционизм» [20] (у некоторых авторов «интерпретативная парадигма» [21]). Традиционно Дж. Мида [22] считают родоначальником социологического

понимания идентичности личности. Под идентичностью Мид понимает способность человека воспринимать свое поведение как связанное, единое целое, это равновесная система импульсивного, внутриспсихического «I» и социального «Me», что гарантирует успешную адаптацию человека. Дж. Мид впервые показал непрерывность внутреннего состояния индивида, обусловленного органичной связью с социальным миром, заложив основы социального рассмотрения идентичности.

Американский исследователь Ч. Кули, развивая социальные теории Дж. Мида, решал проблему тождественности социального Я посредством соотнесения собственных самопредставлений индивида с представлениями других о нем («зеркальное Я»). Идентификация – это отражение свойств человека, через которые он воспринимается в обществе, в группе, членом которых он является [23].

Развивая и продолжая подход Дж. Мида, И. Гофман выделил три вида идентичности: 1) социальная; 2) личная; 3) Я – идентичность. Первый вид характеризует отнесение личностью себя к определенной социальной группе, второй – набор уникальных физических качеств человека и событий его жизни, третий – субъективное ощущение индивидом индивидуальности и непрерывности его жизни [24]. «Драматургический подход» [25] И. Гофмана получил широкое признание не только среди социологов, но и политологов, историков, антропологов и этнологов. Согласно взглядам, изложенным в его известной книге «Представление себя другим» [26], «...общество не обладает однородной структурой. В различных условиях человек действует различным образом». И. Гофман опирается на концепцию множественности социальной личности, введенной У. Джеймсом [27], согласно которой человек имеет столько разных социальных Я, сколько существует различных групп, состоящих из лиц, чьим мнением он дорожит. Обычно он показывает каждой из этих групп разные стороны самого себя [28].

По нашему мнению, концепция, разработанная У. Джеймсом и развитая И. Гофманом, может стать одним из основных ключей в понимании меняющейся идентичности на территории современного Узбекистана, потому что каждая «традиционная» идентичность до появления национальной узбекской идентичности продолжала функционировать самостоятельно, и каждый индивид, в зависимости от ситуации и окружающей его группы, в зависимости от «аудитории», по словам И. Гофмана, меняет и показывает ту социальную

идентичность, которая больше всего приемлема в определенное время, в том или ином месте и в конкретной ситуации.

Представлениям Гофмана близка модель «борьбы идентичностей» Р. Фогельсона (символический интеракционизм). Он выделяет четыре компонента идентичности:

1. Реальная идентичность (представление индивида о себе в некоторый период его жизни);
2. Идеальная идентичность (модель поведения и существования, к которой индивид стремится);
3. Негативная идентичность («образ себя», которого индивид стремится избегать);
4. Предъявляемая идентичность (набор образов, транслируемых индивидом другим людям с целью повлиять на их оценку) [29].

Приведенная очередность показывает, которое понятие является первичным, а какие последующими. Исходя из каждой отдельной ситуации, применяется или транслируется какой-либо из компонентов идентичности. По нашему мнению, эти четыре компонента всегда находятся в непрерывной борьбе между собой; реальная идентичность, это «самость» (self), отмеченная Дж. Мидом, которая находится в «ядре идентичности» и проявляется крайне редко.

Заслуживает внимание трактовка феноменологической социологии, объясняющей смысл социального взаимодействия и трактующей идентичность как сферу смыслов, выступающую продуктом не только культуры, но и повседневности. Так, А. Шюц, создатель теории «интерсубъективности» [30], видел основную задачу социологии в том, чтобы понять процесс становления объективности социальных феноменов на основе субъективного опыта индивидов [31].

Развивая социологическую концепцию, П. Бергер и Т. Лукман предложили рассмотрение идентичности с позиции социального конструирования реальности. Данную концепцию исследователи подробно изложили в одноименной книге [32]. В предисловии к книге авторы отмечают, что в своих взглядах они опираются на исследователя А. Шюца, в то же время их взгляды на природу социальной реальности во многом обусловлены влиянием Э. Дюркгейма и французской социологической школы (с некоторыми модификациями – М.А.)

Социально-психологические предпосылки П. Бергера и Т. Лукмана, особенно важные для анализа интернализации социальной реальности, в

значительной степени обусловлены влиянием Дж. Мида и его последователей, представляющих школу так называемого символического интеракционизма в американской социологии [33].

РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ научных работ П. Бергера и Т. Лукмана позволил нам выделить характерные черты социального конструирования «идентичности», которые помогут лучше понять, систематизировать, сопоставить и оценить работы по идентичностям Узбекистана:

– идентичности формируются в результате двух взаимосвязанных процессов: экстернализации и интернационализации индивида в социальном мире. Например, если семья, родители, родственники, в социальных реалиях Узбекистана – махалля, участвовали и продолжают участвовать в интернационализации индивида, то род или клан (в южных и центральных районах Узбекистана), ханство (Бухарское, Хивинское, Кокандское), регион (Ташкент, Фергана, Самарканд), религия участвовали в экстернализации;

– чтобы социальное участие могло удовлетворять индивида, его претензии на идентичность должны быть признаны другими. Тогда идентичность станет реальной для самого индивида. Например, дунгане Андигана признают себя узбеками, однако их узбекское окружение, то есть «другие» в границах «нашего, общего» Узбекистана не до конца признают этот факт [34]. В результате, дунгане Андигана не имеют возможности полностью ассимилироваться с узбеками, несмотря на отсутствие своей первичной идентичности и ощущение себя узбеками;

– существование двух стадий социализации: первичная социализация, которой индивид подвергается в детстве и благодаря которой он становится членом общества. Вторичная социализация – это каждый последующий процесс, позволяющий уже социализированному индивиду входить в новые сектора объективного мира его общества;

– каждый индивид рождается в объективной социальной структуре, в рамках которой он встречает значимых других, ответственных за его социализацию. Эти значимые другие накладывают на него свой отпечаток. Их определения его ситуации становятся для него объективной реальностью. Например, ребенок из какого-либо рода (мангыт, кунград, кенегес и др.) впитывает не просто перспективу проекции своего племени на социальный мир, но и перспективу, которую дают при воспитании его родители. Эта перспектива может вызвать у него различные чувства: удовлетворенность своим родом,

покорность своему роду, злобу или стыд за свой род, зависть к другому роду. Следовательно, ребенок, рожденный и воспитанный в сфере какого-либо конкретного рода, будет жить совершенно иначе с выходцами из другого рода [35].

– общество, идентичность и реальность выкристаллизовываются в сознании субъекта в процессе интернализации. Эта кристаллизация происходит наряду с интернализацией языка. На самом деле, язык представляет собой наиболее важную часть и наиболее важный инструмент социализации, без которого этот процесс невозможен.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Эти и другие выводы, результаты, полученные учеными, помогли глубже понять процесс становления и развития идентичностей, определить их значимость и роль в жизни каждого индивида. Историография не только узбекской традиционной или современной идентичности, но и развитие теорий идентичности поможет оценить вклад зарубежных исследователей и исследований в развитие этнологической и антропологической науки и сопоставить их с собственными заключениями, заключить, стоит ли продолжать использовать данный термин в современной науке Узбекистана, или отказаться от него в пользу других прежних терминов, таких как «самосознание» (узб. «ўзлигини англаш» – М.А.) или «тождество».

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES)

1. Санина А. Генезис идеи идентичности в социологии ... – С. 3-11. Цит. по: Гуревич П. Проблема идентичности человека в философской антропологии // Вопросы социальной теории, 2010. – Т. IV. – С. 64.
2. Малахов В. Неудобства с идентичностью // "Вопросы философии", 1998/2. <http://www.igpi.ru/info/people/friends/malakhov/articles/1132596923.html> (Дата обращения: 18.12.2019)
3. См. напр.: Гучетль А. Идентичность: интердисциплинарный анализ // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/identichnost-interdistsiplinaryy-analiz> (дата обращения: 12.01.2020); См. еще: Орлова Э. Концепции идентичности / идентификации в социально-научном знании // Вопросы социальной теории, 2010. – №4. – С. 97; См. еще: Малахов В. Неудобства с идентичностью // "Вопросы философии", 1998/2. <http://www.igpi.ru/info/people/friends/malakhov/articles/1132596923.html> (Дата обращения: 18.12.2019)

4. Малахов В. Неудобства с идентичностью // "Вопросы философии", 1998/2. <http://www.igpi.ru/info/people/friends/malakhov/articles/1132596923.html> (Дата обращения: 18.12.2019)
5. См. напр.: Гучетль А. Идентичность: интердисциплинарный анализ // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/identichnost-interdistsiplinaryu-analiz> (дата обращения: 12.01.2020); См. еще: Малахов В. Идентичность // Новая философская энциклопедия: В 4 т. – Т. 3. – М.: Мысль, 2001. – 2659 с.; См. еще: Павлова О. Идентичность: история формирования взглядов и ее структурные особенности. – М.: "Идея-Пресс", 2001. – 38 с.; См. еще: Жаде З., Куква Е., Шадже А. Многоуровневая идентичность. – Майкоп: "Качество", 2006. – 246 с.; См. еще: Симонова О. К формированию социологии идентичности // Социологический журнал, 2008. – №3. – С. 45-46.; См. еще: Кукарцева М. Идентичность // Энциклопедия эпистемологии и философии науки. – М.: "Канон+", 2009. – 1248 с.; См. еще: Орлова Э. Концепции идентичности / идентификации в социально-научном знании // Вопросы социальной теории, 2010. – №4. – С. 97; См. еще: Тхагапсоев Х., Гатиатуллина Э. Идентичность: К проблемам методологии // Научная мысль Кавказа, 2010. – №4. – С. 16-18.; См. еще: Орлова Э. Концепции идентичности / идентификации в социально-научном знании // Вопросы социальной теории, 2010. – №4. – С. 92-93.; См. еще: Ефименко В. Генезис понятия «идентичность» в гуманитарных науках // Ярославский педагогический вестник, 2012. – Т. II (Психолого-педагогические науки). – № 4. – С. 8-9.; См. еще: Санина А. Генезис идеи идентичности в социологии ... – С. 4.; См. еще: Нурманбетова Д. Архитектоника человеческой идентичности // Вопросы философии, 2016. – № 5.; См. еще: Маслова Е. Идентичность личности в контексте междисциплинарной интеграции // Гуманитарий юга России, 2019. – Т.8. – №1. – С. 88-89. и др.
6. Эрик Гомбургер Эриксон – (1902-1994) психолог в сфере психологического развития и психоаналитик. Известен своей стадией психосоциального развития, а также автор термина «кризис идентичности».
7. Эриксон Э. Молодой Лютер. Психоаналитическое историческое исследование / Эрик Г. Эриксон; пер. с англ. А.М. Каримского. – М.: Московский философский фонд «Медиум», 1996. – 560 с.; Его же: Детство и общество / Э. Эриксон. – СПб.: Лепато: ЛСТ, 1996. – 592 с.; Идентичность: юность и кризис / Э. Эриксон. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1996. – 344 с.
8. Ефименко В. Генезис понятия «идентичность» в гуманитарных науках ... – С. 8.

9. Marcia J. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology, 1966. – Vol. 3 (5). – Pp. 551-558.
10. Маслова Е. Идентичность личности в контексте междисциплинарной интеграции // Гуманитарий юга России, 2019. – Т.8. – №1. – С. 90. Цит. по: Waterman A. Identity development from adolescence to adulthood: An extension of theory and a review // Developmental Psychology, 1982. – Vol. 18 (3). – Pp. 341-358.
11. Симонова О. К формированию социологии идентичности // Социологический журнал, 2008. – №3. – С. 50.
12. Ефименко В. Генезис понятия «идентичность» в гуманитарных науках ... – С. 9.
13. См.: Mead G. Mind, self and Society. – Chicago: The Univ. of Chicago Press, 1946.
14. См.: Кули Ч. Избранное / РАН. ИНИОН. Центр социал. научн.-информ. исследований. Отд. социологии и социальной психологии; Сост. и переводчик В.Г. Николаев; Отв. ред. Д.В. Ефременко. – М.: 2019. – 234 с.
15. См.: Бергер П., Бергер Б. Социология: Биографический подход // Личностно-ориентированная социология. – М.: Академический проект, 2004.
16. См.: Лукман Т., Бергер П. Социальное конструирование реальности: Трактат по социологии знания / Пер. с англ. Е. Руткевич. – М.: Academia-Центр; Медиум, 1995.
17. См.: Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. – Garden City, NY, 1959; Его же: Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. – Endlewood Cliffs, 1963.
18. См.: Fogelson R. Person, self and identity: Some anthropological retrospect's, circumspect and prospects // In Psychosocial Theories of the Self: Proceedings of a Conference on New Approaches to the Self, held March 29 - April 1, 1979. – Center for Psychosocial Studies. Chicago, Illinois.
19. См.: Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. – СПб.: Наука, 2000. – 380 с.; Его же: Koennen komplexe Gesellschaft enein evernueftige Identita etausbilden ? in: ders., Zur Rekonstruktion des historischen Materialismus. Fr/ – М., 1976.– С.92-125.
20. См. напр.: Симонова О. К формированию социологии идентичности ... – С. 50-51; См. еще: Орлова Э. Концепции идентичности ... – С. 98-99; См. еще: Ефименко В. Генезис понятия «идентичность» в гуманитарных науках ... – С. 9.; См. еще: Маслова Е. Идентичность личности в контексте междисциплинарной интеграции // Гуманитарий юга России, 2019. – Т.8. – №1. – С. 90-91.

21. См. напр.: Санина А. Генезис идеи идентичности в социологии ... – С. 6.
22. Mead G. Mind, self and Society. – Chicago: The Univ. of Chicago Press, 1946.
23. Ефименко В. Генезис понятия «идентичность» в гуманитарных науках ... – С. 11.
24. Маслова Е. Идентичность личности ... – С. 90.
25. Гофман И. Представление себя другим в повседневной жизни / Пер. с. англ. и вступ. статья А.Д. Ковалёва. – М.: Канон-Пресс, Кучково поле, 2000. – С. 285.
26. Гофман И. Представление себя другим в повседневной жизни ...
27. Flournoy T. The philosophy of William James / Authorized translation by W. James jr. – L: Constable, 1917.
28. Гофман И. Представление себя другим в повседневной жизни ... – С. 82.
29. См. напр.: Санина А. Генезис идеи идентичности в социологии ... – С. 7.; См. еще: Маслова Е. Идентичность личности ... – С. 90-91.
30. Шюц А. Структура повседневного мышления // Социологические исследования, 1988. – № 2. – С. 129-137.
31. Санина А. Генезис идеи идентичности ... – С. 6.
32. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания / Перевод Е. Руткевич. – М.: «Медиум», 1995. – 323 с.; В оригинале: Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality. – A Treatise on sociology of Knowledge. 1966.
33. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания / Перевод Е. Руткевич. – М.: «Медиум», 1995. <https://evolkov.net/soc.psychol/Berger.P.Luckmann.T/> (Дата обращения: 19.12.2019)
34. См. напр.: Ортиков Ё. Полевые материалы. Андижан, 2019.
35. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания ... <https://evolkov.net/soc.psychol/Berger.P.Luckmann.T/> (Дата обращения: 19.12.2019)
36. Sanina A. Genesis idei identichnosti v sotsiologii... - С. 3-11. Tsit. by: Gurevich P. Problem identichnosti cheloveka v filosofskoy antropologii // Voprosy sotsialnoy teorii, 2010. - T. IV. - С. 64.
37. Malaxov V. Neudobstva s identichnostyu // "Voprosy filosofii", 1998/2. <http://www.igpi.ru/info/people/friends/malakhov/articles/1132596923.html> (Data obrashcheniya: 18.12.2019)
38. Sm. napr. : Guchetl A. Identichnost: interdistsiplinarnyy analiz // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/identichnost-interdistsiplinarnyy-analiz> (data

- obrashcheniya: 12.01.2020); Sm. eshche: Orlova E. Kontseptsii identichnosti / identifikatsii v sotsialno-nauchnom znanii // Voprosy sotsialnoy teorii, 2010. - №4. - S. 97; Sm. eshche: Malaxov V. Neudobstva s identichnostyu // "Voprosy filosofii", 1998/2. <http://www.igpi.ru/info/people/friends/malakhov/articles/1132596923.html> (Data obrashcheniya: 18.12.2019)
39. Malaxov V. Neudobstva s identichnostyu // "Voprosy filosofii", 1998/2. <http://www.igpi.ru/info/people/friends/malakhov/articles/1132596923.html> (Data obrashcheniya: 18.12.2019)
40. Sm. napr. : Guchetl A. Identichnost: interdistsiplinarnyy analiz // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/identichnost-interdistsiplinarnyy-analiz> (data obrashcheniya: 12.01.2020); Sm. eshche: Malaxov V. Identichnost // Novaya filosofskaya encyclopedia: V 4 t. - T. 3. - M.: Mysl, 2001. - 2659 p.; Sm. eshche: Pavlova O. Identichnost: istoriya formirovaniya vzglyadov i ee strukturnye osobennosti. - M.: "Ideya-Press", 2001. - 38 p.; Sm. eshche: Jade Z., Kukva E., Shadje A. Mnogourovnevaya identichnost. - Maykop: "Kachestvo", 2006. - 246 p.; Sm. eshche: Simonova O. K formirovaniyu sotsiologii identichnosti // Sotsiologicheskij journal, 2008. - №3. - S. 45-46.; Sm. eshche: Kukartseva M. Identity // Encyclopedia of Epistemology and Philosophy of Science. - M.: "Kanon+", 2009. - 1248 p.; Sm. eshche: Orlova E. Kontseptsii identichnosti / identifikatsii v sotsialno-nauchnom znanii // Voprosy sotsialnoy teorii, 2010. - №4. - S. 97; Sm. eshche: Txagapsoev X., Gatiatullina E. Identity: K problemam metodologii // Nauchnaya mysl Kavkaza, 2010. - №4. - S. 16-18.; Sm. eshche: Orlova E. Kontseptsii identichnosti / identifikatsii v sotsialno-nauchnom znanii // Voprosy sotsialnoy teorii, 2010. - №4. - S. 92-93.; Sm. eshche: Efimenko V. Genезis ponyatiya «identichnost» v gumanitarnyx naukax // Yaroslavskiy pedagogicheskij vestnik, 2012. - T. II (Psychologo-pedagogical sciences). - № 4. - S. 8-9.; Sm. eshche: Sanina A. Genesis idei identichnosti v sotsiologii... - C. 4.; Sm. eshche: Nurmanbetova D. Architectonics of human identity // Voprosy filosofii, 2016. - № 5.; Sm. eshche: Maslova E. Identichnost lichnosti v kontekste mejdistsiplinarnoy integratsii // Gumanitarniy yuga Rossii, 2019. - T.8. - №1. - S. 88-89. and dr.
41. Erik Gomburger Erikson - (1902-1994) psychologist in the field of psychological development and psychoanalyst. Izvesten svoey stadiyey psychosotsialnogo razvitiya, a takje avtor termina «krisis identichnosti».
42. Erikson E. Young Luther. Psixoanaliticheskoe istoricheskoe issledovanie / Erik G. Erikson; per. s angl. A.M. Karimskogo. - M.: Moskovskiy filosofskiy fond «Medium», 1996. - 560 p.; Ego is: Detstvo i obshchestvo / E. Erikson. - SPb.:

- Lepato: LST, 1996. - 592 p .; Identity: youth and crisis / E. Erikson. - M .: Izdatelskaya gruppa «Progress», 1996. - 344 p.
43. Efimenko V. Genesis ponyatiya «identichnost» v gumanitarnyx naukax... - C. 8.
44. Marcia J. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology, 1966. - Vol. 3 (5). - Pp. 551-558.
45. Maslova E. Identichnost lichnosti v kontekste mejdistsiplinarnoy integratsii // Gumanitarniy yuga Rossii, 2019. - T.8. - №1. - S. 90. Tsit. po: Waterman A. Identity development from adolescence to adulthood: An extension of theory and a review // Developmental Psychology, 1982. - Vol. 18 (3). - Pp. 341-358.
46. Simonova O. K formirovaniyu sotsiologii identichnosti // Sotsiologicheskij journal, 2008. - №3. - S. 50.
47. Efimenko V. Genesis ponyatiya «identichnost» v gumanitarnyx naukax... - C. 9.
48. Sm .: Mead G. Mind, self and Society. - Chicago: The Univ. of Chicago Press, 1946.
49. Sm .: Kuli Ch. Izbrannoe / RAN. INION. Social center. nauchn.-inform. issledovaniy. Otd. sociology and social psychology; Sost. and translator V.G. Nikolaev; Otv. ed. D.V. Efremenko. - M .: 2019. - 234 p.
50. Sm .: Berger P., Berger B. Sociology: Biographic approach // Personal-oriented sociology. - M .: Akademicheskij proekt, 2004.
51. Sm .: Lukman T., Berger P. Sotsialnoe konstruirovaniye realnosti: Traktat po sotsiologii znaniya / Per. s angl. E. Rutkevich. - M .: Academia-Tsentr; Medium, 1995.
52. Sm .: Goffman E. The Presentation of Self in Everyday Life. - Garden City, NY, 1959; Ego is: Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity. - Endlewood Cliffs, 1963.
53. Sm .: Fogelson R. Person, self and identity: Some anthropological retrospect's, circumspect and prospects // In Psychosocial Theories of the Self: Proceedings of a Conference on New Approaches to the Self, held March 29 - April 1, 1979. - Center for Psychosocial Studies. Chicago, Illinois.
54. Sm .: Xabermas Yu. Moral consciousness and communicative action. - SPb .: Nauka, 2000. - 380 p .; Ego je: Koennen komplexe Gesellschaft eneinevernuenftige Identita etausbilden? in: ders., Zur Rekonstruktion des historischen Materialismus. Fr / - M., 1976. - S.92-125.
55. Sm. napr .: Simonova O. To the formation of sociology of identities... - C. 50-51; Sm. eshche: Orlova E. Concepts of identity... - C. 98-99; Sm. eshche: Efimenko V. Genesis ponyatiya «identichnost» v gumanitarnyx naukax... - C. 9 .; Sm. eshche:

- Maslova E. Identichnost lichnosti v kontekste mejdistsiplinarnoy integratsii // Gumanitariy yuga Rossii, 2019. - T.8. - №1. - S. 90-91.
56. Sm. napr .: Sanina A. Genesis idei identichnosti v sotsiologii... - C. 6.
57. Mead G. Mind, self and Society. - Chicago: The Univ. of Chicago Press, 1946.
58. Efimenko V. Genesis ponyatiya «identichnost» v gumanitarnyx naukax... - C. 11.
59. Maslova E. Identity lichnosti... - S. 90.
60. Gofman I. Predstavlenie sebya drugim in povsednevnoy jizni / Per. s. ang. and vstup. statya A.D. Kovalyova. - M.: Kanon-Press, Kuchkovo pole, 2000. - p. 285.
61. Gofman I. Predstavlenie sebya drugim in povsednevnoy jizni...
62. Flournoy T. The philosophy of William James / Authorized translation by W. James jr. - L: Constable, 1917.
63. Gofman I. Predstavlenie sebya drugim v povsednevnoy jizni... - C. 82.
64. Sm. napr .: Sanina A. Genesis idei identichnosti v sotsiologii... - C. 7 .; Sm. eshche: Maslova E. Identity lichnosti... - S. 90-91.
65. Shyuts A. Struktura povsednevnogo myshleniya // Sotsiologicheskie issledovaniya, 1988. - № 2. - C. 129-137.
66. Sanina A. Genesis idei identichnosti... - S. 6.
67. Berger P., Lukman T. Sotsialnoe konstruirovaniye realnosti. Traktat po sotsiologii znaniya / Perevod E. Rutkevich. - M.: «Medium», 1995. - 323 p .; V originale: Berger P., Luckmann T. The Social Construction of Reality. - A Treatise on sociology of Knowledge. 1966.
68. Berger P., Lukman T. Sotsialnoe konstruirovaniye realnosti. Traktat po sotsiologii znaniya / Perevod E. Rutkevich. - M.: «Medium», 1995. <https://evolkov.net/soc.psychol/Berger.P.Luckmann.T/> (Data obrashcheniya: 19.12.2019)
69. Sm. napr .: Ortikov Yo. Polevye materials. Andijan, 2019.
70. Berger P., Lukman T. Sotsialnoe konstruirovaniye realnosti. Tractat on sociology of knowledge... <https://evolkov.net/soc.psychol/Berger.P.Luckmann.T/> (Contact information: 19.12.2019)

O‘ZBEKISTONNING IJOBIY IMIJINI SHAKLLANTIRISH INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
TDSHU, o‘qituvchi

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston fuqaroviy demokratik davlat qurayotgan hozirgi davrda, o‘z milliy madaniy qadriyat va an‘analarini saqlab qolgan holda davlatimizni iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohasida modernizatsiya qilishga va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intilmoqda. Mazkur maqolada davlatimiz ijobiy imijining rivojlanishi uning investitsion jozibadorligini oshishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar: 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasi, davlatning ijobiy imiji, investitsion jozibadorlik, xalqaro munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasi to‘g‘ridan-tog‘ri investitsiyalar jamg‘armasi (UzDif), O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo Vazirligi, iqtisodiy aloqalar, milliy brend.

АННОТАЦИЯ

Узбекистан в период строительства гражданского демократического государства, сохраняя свои национальные культурные ценности и традиции, стремится к модернизации нашего государства в сфере экономики, политики, культуры и привлечению иностранных инвестиций. В данной статье анализируется развитие положительного имиджа нашего государства как важного фактора, способствующего повышению его инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: Стратегия действий по развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, позитивный имидж государства, инвестиционная привлекательность, туристический потенциал, международные отношения, фонд прямых инвестиций Республики Узбекистан (UzDif), Министерство инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан, экономические связи, национальный бренд.

ABSTRACT

This article analyzes the development of a positive image of our state as an important factor contributing to the increase of its investment attractiveness. The point

examines how Uzbekistan, during the construction of a civil democratic state, preserving its national cultural values and traditions, strives to modernize our state in the sphere of economy, politics, culture and attracting foreign investment.

Key words: *Action Strategy for the Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, positive image of the state, investment attractiveness, tourism potential, international relations, Uzbekistan direct investment fund (UzDif), Ministry of Investment and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan, economic relations, national brand.*

KIRISH

O‘zbekiston fuqaroviy demokratik davlat qurayotgan bir davrda, o‘z milliy madaniy qadriyat va an‘analarini saqlab qolgan holda davlatimizni iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohasida modernizatsiya qilishga va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intilmoqda. Davlatimizni barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini ishlab chiqildi. Ushbu Harakatlar Strategiyasining 5.2. bandida “Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’yekti sifatida o‘rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik mintaqasini vujudga keltirish; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish” zarurligi qayd etilgan. Mazkur Strategiyaning dolzarbligi belgilab berilgan vazifalarning amalga oshirishi hamda davlat ijobiy imijini shakllantirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarning yechimini topishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR VA METODLAR

2018 yil 2 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan investision muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi [1]. Ushbu farmonga ko‘ra:

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdorini 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirish;

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartligi to‘g‘risidagi talabni bekor qilish;

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondining eng kam miqdorini 600 million so‘mdan 400 million so‘mgacha kamaytirish;

chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun davlat boji miqdorini uch baravarga kamaytirish;

aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdorini 400 million so‘m miqdorida belgilash va boshqa muhim masalalarga ahamiyat qaratilgan.

2018 yil 28 dekabr O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim” [2], deb ta’kidlab, o‘tdi. Darhaqiqat, hozirgi paytda davlatimiz rahbari tomonidan O‘zbekiston ijobiy imijini yaxshilash, mamlakat jozibadorligini oshirish, investitsiyalarni kiritishni oshirish, milliy brend mahsulotlarini ko‘paytirish, turizmni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev investitsiyalarni iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, boshqa sohalar va mamlakat hududlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, yangi texnologiyalar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qiluvchi kuch deb atadi. Investitsiyalarning so‘nggi maqsadi – O‘zbekistonda yashovchi har bir insonning hayot darajasini oshirishdan iborat, dedi Shavkat Mirziyoyev. [2]. Shunga binoan, O‘zbekistonda 2019-yilni “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”[3] deb nomlandi.

2019 yil 28 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4] farmoni imzolandi. Respublikaning investitsiya salohiyatini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya kiritish jarayonining raqobatbardosh eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash hamda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid [Davlat dasturida](#) belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagi muhim yo‘nalishlarga etibor qaratildi:

birinchi — raqobatbardosh eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mahalliy va xorijiy tadbirkorlarga O‘zbekistonning ustuvor soha, tarmoq va hududlariga investisiya kiritish uchun qulay investisiya iqlimi va rag‘batlarni yaratish, shuningdek, har bir davlat organi tomonidan investisiyalarni faol jalb qilish va savdoni rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi vazifalarning so‘zsiz bajarilishi;

ikkinchi — mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal qilish uchun davlat moliyaviy vositalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining qarz resurslari va texnik ko‘maklashish vositalari (grantlari)dan foydalanish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi markazlashgan investisiyalarning boshqaruv tizimini yaratish;

uchinchi — O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yaxshilash, mamlakatning iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini jadal rivojlantirishni ta‘minlash, ilg‘or texnologiyalarni transfer qilish uchun xorijiy, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarni keng jalb qilish, ishbilarmonlik va investisiya iqlimini bosqichma-bosqich takomillashtirish;

to‘rtinchi — respublikaning iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda davlat organlari va tadbirkorlik sub‘ektlarining xorijiy investorlar, savdo bo‘yicha hamkorlar, xorijiy hukumat va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro samarali aloqalarini ta‘minlash;

beshinchi — barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash maqsadida optimal bojxonatarif siyosatini amalga oshirish, Jahon savdo tashkilotiga integratsiyalash, boshqa ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy tizimlar bilan hamkorlik qilish;

oltinchi — eksport qiluvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, savdo, shu jumladan tashqi savdo infratuzilmasini, elektron tijorat tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mazkur sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;

yettinchi — mahalliy tovarlar va xizmatlarning tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, samarali transport yo‘laklarini shakllantirish, yetkazib berish geografiyasini diversifikatsiya qilish maqsadida zamonaviy logistika tarmoqlarini rivojlantirish;

sakkizinchi — tashqi bozorlarda mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun mahsulotni sifat jihatdan boshqarishning zamonaviy tizimlarini keng joriy qilishni hamda ularning xalqaro standartlar va texnik reglamentlar talablariga muvofiqligini ta‘minlash, savdoning barqaror o‘shishi va investisiya siyosatini

faollashtirishni ta'minlovchi ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasi investisiyalar va tashqi savdo Vazirligi oldiga quyidagi asosiy strategik vazifalarni va yo'nalishlarni hayotga joriy etish vazifasi qo'yili: [5]

- Davlat taraqqiyot dasturi va investisiya dasturini, shuningdek sohaviy va hududiy investisiya dasturlarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish hamda samarali amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha davlatning yagona investisiya siyosatini hayotga tatbiq etish;

- chet el investisiyasini jalb qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, xalqaro iqtisodiy va moliya institutlari bilan, xorijiy hukumatga qarashli moliya tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatda o'zaro samarali hamkorlik qilish;

- davlat organlari va tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro va chet el moliya va iqtisodiy institutlaridagi doimiy vakillari faoliyatini, shuningdek Tashqi ishlar Vazirligining O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi muassasalarida tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bilan shug'ullanayotgan xodimlari bilan birgalikda muvofiqlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasining investisiyaviy hamkorlik masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalarni tayyorlashi, kelishuv va imzolashida ishtirok etish;

- Investorlar bilan doimiy o'zaro qarama-qarshi aloqani ta'minlash, investisiyalarini jalb qilishda hududlarni va mahalliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, investisiyaviy takliflarni ishlab chiqishni tashkillashtirish;

- Tashqi savdoda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, eksportni qo'llab-quvvatlash Milliy tizimlarning samarali faoliyatini ta'minlash, tashqi savdoni tartibga solish sohasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- savdoda tarifli va tarifsiz tartibga solish choralarni qo'llash bilan bog'liq tadbirlarni muvofiqlashtirish, shuningdek elektron savdo ishlarini takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan savdo hamkorliklarini kengaytirish va mustahkamlash, tovarlar, ishlar va xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash;

- O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini va boshqa ko'p tomonli iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorliklarini muvofiqlashtirish;

- ulgurji va birja savdolarini tartibga solish masalalarini muvofiqlashtirish, bozor holatini tahlil qilish va monitoringini yuritish va marketing tadqiqotlarini olib borish va tovarlar narxlari haqida ma'lumotlarni tahlil qilish;

- tashqi savdo infratuzilmalarini rivojlantirish masalalarini ilgari surish, jumladan tranzit imkoniyatlari darajasini oshirish, logistika va transport yo‘laklarini yanada takomillashtirish, shuningdek eksport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish.

2021 yil 7 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan **“O‘zbekiston Respublikasi Strategik rivojlanish agentligini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6264-son Farmon imzolandi.**

Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- tarmoqlar va hududlar kesimida investisiyalarni jalb etish va loyihalarni amalga oshirishning strategik masalalarini o‘rganish, investisiya faoliyatining istiqbolli tarmoqlari va yo‘nalishlarini aniqlash;

- mamlakatda investisiya muhitini va tashqi savdo faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish, hududlar va tarmoqlarning raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning investisiyaviy jozibadorligi reytingini shakllantirish va doimiy yuritish, shu asosda davlat organlarining investisiya muhitini yaxshilash, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish sohasidagi vazifalarni hal qilish bo‘yicha faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash;

- Prezident huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi kotibiyati, shuningdek Prezidentning iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchisining loyiha ofisi ishini tashkil etish;

- investorlarni axborot bilan qo‘llab-quvvatlash, yirik strategik muhim va yuqori samarador investisiya loyihalarini amalga oshirish tashabbusi bilan chiqish, shuningdek ularni yanada qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish;

- hududlar va tarmoqlarning investisiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini yanada oshirish strategiyasi va siyosatini belgilash, erkin iqtisodiy zonalaridan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va boshqalar [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17-yanvardagi 5635-sonli Qaroriga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18-maydagi 420-sonli Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi to‘g‘ridan-tog‘ri investitsiyalar jamg‘armasi (UzDif) tashkil etilgan. Ushbu Jamg‘arma raqobatbardosh mahalliy kompaniyalarga investitsiyalar kiritish, shuningdek, xususiy mahalliy va xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli o‘zaro foydali sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida tashkil etilgan.

Jamg‘armaning investitsion falsafasi:

- Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun uzoq muddatli kapitalni safarbar etish.
- Portfel diversifikatsiyasi va o'sishi uchun risk va daromadlarni baholash tizimining eng yaxshi jahon amaliyotini qo'llash.
- Yuqori qo'shilgan qiymat va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar yetakchilariga e'tibor qaratish.
- Portfel kompaniyasi o'sishi bilan yaxshi korporativ boshqaruvni rivojlantirishga ko'maklashish.
- Kompaniyalarga eng yaxshi tajribalarni joriy etish uchun xalqaro maslahatchilarni jalb qilishda yordam berish.
- ESG, Women in business tamoyillarini qo'llash, kichik va o'rta biznes va mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash.
- Santyago tamoyillari, xususan, shashfoflik, mustaqillik va sohalarda muvaffaqiyatli boshqaruv tajribasi ustunligi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD), shuningdek Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESD) hisobotiga ko'ra jahon mamlakatlari



iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sur'atlari so'nggi 3 yi ichida kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2018 yilda bu ko'rsatkich o'rta hisobda 19% kamaygan bir sharoitda, Osiyo davlatlarida o'rta hisobda 5% o'sish sur'atlari kuzatilgan. Shu jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida o'sish sur'atlari o'rtacha 8-10% tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida o'sish sur'atlari 3 barobarni tashkil etgan. [7].

O'zbekiston Respublikasi Xorijiy sarmoyalarni jalb qilish agentligi mamlakatimizni investorlar oldida MDHning eng jadal rivojlanayotgan davlatlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston biznes yuritish reytingida jiddiy o'sdi – 166-o'rindan 69-o'ringa chiqdi. [8].

2020 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlariga to'g'ridan -to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy oqimi 21 milliard AQSh dollarini tashkil etdi

2021 yilda Jahon banki prognoziga ko'ra, jahon iqtisodiyoti 2020 yilda 3,5 foizga pasaygandan keyin 5,6 foizga o'sadi. Markaziy Osiyo (CA) mamlakatlarida ham o'sish prognoz qilinmoqda – yiliga 3,7%. Eng katta iqtisodiy o'sish O'zbekiston (plyus 4,8%)

va Tojikiston (ortiqcha 5,3%) uchun prognoz qilinmoqda. O'z navbatida, Qozog'istonda o'sish 3,2%, Qirg'izistonda – 3,8% bo'lishi kutilmoqda. [9]

Shunda, xalqaro institutsional kompaniyalar ekspertlari Markaziy Osiyodagi inqirozdan keyin investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy tiklanishning asosiy omili ekanligini qayd etishadi. Shunday qilib, investitsion jozibadorlik mamlakatlarning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro maydonda o'zining ijobiy imijini yaratish, investitsion jozibadorligini oshirish uchun harakat qilmoqda va bugungi kunda bunday holat juda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Negaki, mamlakatning ijobiy imiji va investitsion jozibadorligi tashqi muhitda davlatning o'rni va ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamlı muammo bo'lib, bu xalqaro raqobat muhitida muvaffaqiyatli yashash va iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim omili, shuningdek, milliy manfaatlarni himoya qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida tushuniladi. Bunda davlatning ichki va tashqi siyosati xususiyatlari, shu bilan birga iqtisodiy, madaniy, siyosiy va gumanitar sohalaridagi ijobiy o'zgarishlar, islohatlar uning mazmun-mohiyati hamda taraqqiyot tendentsiyalarini belgilab beradi. Ijobiy imij, qoidaga ko'ra, davlat va hukumatning nufuzi, demak, obro'-e'tibori va ta'siri ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. [PF-5495-son 01.08.2018. O'zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida \(lex.uz\)](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni
3. [PF-5643-son 28.01.2019. Investisiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida \(lex.uz\)](#)
4. [PF-5643-son 28.01.2019. Investisiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida \(lex.uz\)](#)
5. [Vazirlik haqida \(mift.uz\)](#)
6. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_strategik_rivojlanish_agentligi_tashkil_etildi
7. [Investisiya va tashqi savdo vazirligi: 8 oyda jalb qilingan xorijiy investisiyalar 8,3 mlrd dollardan ortdi \(kun.uz\)](#)

-
8. <https://kursiv.uz/news/kursiv-guide/2020-10/kak-uzbekistan-budet-privlekat-inostrannyy-kapital-v-usloviyakh-mirovoy>
 9. [Markaziy Osiyo davlatlari sarmoyaviy muhitni yaxshilamoqda. O'zbekiston xorijiy investitsiyalarning eng katta o'sishini ko'rsatdi | Invest In Uzbekistan - инвестиции в Узбекистан \(invest-in-uzbekistan.org\)](#)

BAHRAYN YOZUVCHILARI FAVZIYA RASHID VA AMIN SOLIH HIKOYALARI USLUBI

Ahmedova Shahlo Irgashbaevna

filologiya fanlari nomzodi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

(O'zbekiston)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ko'rfaz arab mamlakatlaridan biri bo'lgan Bahrayn adabiyotining yorqin namoyandalari Favziya Rashid va Amin Solihlar oz ijodida to'g'ridan-to'g'ri bevosita tavsirlardan voz kechib, turli yangi badiiy usullarga o'tishgani yoritilgan. Shuningdek, ushbu yozuvchilar o'z asarlarida afsonalashtirish yoki qadimgi asotirlarga murojaat qilishgani "Mas'ala", "Qizcha", "Sindbad" hikoyalari o'z badiiy ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: *fantastik unsurlar, qadimgi asotir, afsona, Favziya Rashid, Amin Solih, "Mas'ala", "Qizcha", "Sindbad", ramziy obrazlar, sehrli rivoyatlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье раскрываются особенности творчества видных представителей литературы арабской страны Персидского залива Бахрейна Февзия Рашида и Амина Салиха, которые отказались от прямых описаний, применили различные новые художественные методы, обратившись в своих произведениях к легендам или древним мифам, что находит свое художественное выражение в таких рассказах, как "Задача", "Девчушка", "Синдбад".

Ключевые слова: *фантастические элементы, древние мифы, легенды, Фавзия Рашид, Амин Салих, «Масъала», «Девушка», «Синдбад», символические образы, магические легенды.*

ABSTRACT

This article reveals the peculiarities of the work of prominent representatives of the literature of Bahrain, one of the Arab countries of the Persian Gulf, Fevzi Rashid and Amin Salih, who refused direct descriptions, applied various new artistic methods, turning in their works to legends or ancient myths, which finds its artistic expression in such short stories as "The Task", "Girly", "Sinbad".

Keywords: *fantastic elements, ancient myths, legends, Fawzia Rashid, Amin Salih, "Masala", "Girl", "Sinbad", symbolic images, magical legends.*

KIRISH

Fors Ko'rfazi arab mamlakatlarida madaniy adabiy rivojlanish bir-biriga o'xshab ketishiga qaramay, Bahraynda yangi tipdagi hikoyaning shakllanish jarayoni bir necha o'n yillar avval boshlandi. Bahrayn hikoyasidagi ijtimoiy-tanqidiy ruh 80-90 yillarda ham so'nmadi, lekin boshqa badiiy tavsir shaklini oldi. Adiblar to'g'ridan-to'g'ri bevosita tavsirlardan voz kechib, turli yangi badiiy usullarga o'tishdi.

ADABIYOTLAR VA METODLAR

Favziya Rashid, Amin Solih hikoyalari orqali biz afsonalashtirish yoki qadimgi asotirlarga murojaat qilish, shartli vaziyatlar yaratib, hayotiy muammolariga falsafiy qarash, nohaqlikka qarshi, adolat uchun kurash yo'lida inson jonini doimo fido qilish mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Ijodiy niyatini tahqiq qilish yo'lida Favziya Rashid, Amin Solih va boshqa adiblar fantastik unsurlarga, assotsiativ fikr yuritishga, fragmentarlik uzuq-yuluq tasvirga va boshqa ifodaviy tasviriy-vositalarga murojaat qilishgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Masalan, adiba Favziya Rashid "*Masa'ala*" (مساءلة) [18] hikoyasida kundalik maishiy hayotda uchraydigan, ammo yopiq hisoblangan mavzuga qo'l urgan.

O'spirin sodda qiz qo'shni bola bilan kattalarga taqlid qilib, bir-birlariga teginib o'ynaganlarini bilib qolgan kattalar qizni gumdon qilishadi. Begunoh qizcha iffatini saqlaganini qarindoshlari bilishsa ham, lekin "oila sharafi", deb odatlarga muvofiq qizning jonini olishadi. Opasini qaerdaligini so'ragan ukaga- "*U xatarli bezgak kasalidan vafot etdi*", deb javob berishadi. Hikoya shu uka nomidan yozilgan, lekin adiba o'ziga xos uslubni ishlatgan: bola xotiralarga berilib o'z-o'ziga murojaat orqali bo'lgan hodisalarni bayon qiladi. Bir yomg'irli tunda u ovozlarni eshitib, opasini baqir chaqir bilan uyg'otib, sudrab ketishayotgani va so'roqqa tutganlarini eshitib qoladi.

Bolaning ko'z oldida opasini tunda qo'pol ravishda shirin uyqudan uyg'otib, sudrab tashqariga olib chiqqanlari va itarib uloqtirishgani, nozik badanining kattalar oyog'i ostida chilparchin bo'lib yotgani, bo'g'iq ovoz bilan

لم الفعل شينا كنت ألعب معه

"*Men hech narsa qilganim yo'q, faqat u bilan o'ynadim*" [18:12] - degan so'zlari umrbod qulog'idan ketmaydi. Unga javoban:

هو ولد و أنت بنت

U o'g'il bola, sen esa qiz bolasan[18:12] -deyishdi.

Uning ustiga engashgan qoramtir, ajin bosgan yuzlar, ayollarning samovar atrofida o'tirib, bir nimalarni shivirlashlari, hatto ota-ona tomonidan himoyasiz qolgan qizning ahvoli o'quvchida og'ir taassurot qoldirdi.

Hikoya nihoyasida hikoyachi bolani o'ziga qilgan murojaat orqali voqea -hodisa va his-tuyg'ular bayonining shoirona uslubga aylanib, xotimada afsonalashtirish usuli ro'y beradi. Biz uni o'limidan keyin osmonda yulduzlar bilan o'ynagani va baxtli kulganini ko'ramiz. Bu hikoyada qizni kattalar urib o'ldirgani ma'lum va bu narsa islomgacha johiliya davrida tug'ilgan qizlarni tiriklayin ko'mish odatini eslatadi. Islom bu vahshiy odatni butunlay man qildi.

Qizlarga bo'lgan salbiy munosabat qoldiqlarining jamiyatda hali hanuz borligi sezildi va adiba shu mudhish voqea orqali buni ochiq oshkora bayon qiladi. Albatta, qizda ayb bor, birinchidan, unga ehtiyot bo'lishni hech kim o'rgatmagan, tarbiya bermagan. Ikkinchidan esa, yomon ish ham ro'y bermagan, kattalar kechirimli bo'lishlari lozim edi. Ammo ular oila sha'ni uchun qizni qurbon qilishdi.

Hikoyada yozuvchi qo'llagan usullardan biri tinish belgilari vergul, nuqtalarni qo'ymaslikda ko'rinadi:

اي ارض عشقتها الروح و غابت في تلك الليلة المطرة! و لم يعد الجرح يلتئم على نثارها قيل إن لهدج
الجنيات في الامسيات الربيعية شكل اطياف من نجوم تتراشق الفتيات الصغيرات بها بعد ان يغين عن الارض
في كل السماء قل إنها هناك معهن تلعب بالكواكب المدارة و بذراري الضاء المتوهجة هي في عالم اخر عالم
يكبر فيه الفرح و يغيب الحزن غيابا أيبا.

Shu yomg'irli tunda uning ruhi qaysi zamanga oshiq va g'oyib bo'ldi. Uning qoldiqlariga yetkazilgan jarohat bitmadi. Aytishadiki pari qizlarning taxtiravonlari bahor kechalari yulduzchalar shaklini olar ekan. Kichkina qizlar yerni tashlab, osmonga ko'tarilganlarida ular bilan o'ynar ekan. Aytishadiki, u ham u yerda ular bilan, aylanayotgan sayyoralar va ulardan tarqalgan zarrachalar bilan o'ynamoqda. U boshqa olamda, u yerda quvonch o'sib boradi, g'am- g'ussa mutlaqo yo'q bo'lib ketadi [18:15].

Iqtibosdan ko'rinib turibdiki, real hodisa-voqealar asarga g'ayrioddiy voqealar bo'lib kirib keladi: qizcha yulduzlar, sayyoralar bilan o'ynab, atrofda aylanadi. Adiba bor afsonaga tayanadi yoki fikrimizcha, o'zi voqeani afsonalashtiradi: ya'ni, hayotdan u yoki bu uqubat tufayli jon bergan begunoh yosh qizlar, pari qizlar taxti ravonda o'tirib yulduzchalar bilan o'ynashadi va yerda ko'rmagan quvonchni samodan topadi. Bu ularni yaratgan mag'firat qilib o'z panohiga olganidan dalolat beradi. Bu hikoya o'quvchida mana shunday fikrlar uyg'otadi. Bu kichkina hikoya o'quvchida mana shunday fikrlar uyg'otadi.

XX asr 80-yillar Bahrayn adabiyoti maydoniga yana bir adib- Amin Solih kirib keldi va hikoyanavislikda yangi tajribalar boshladi. Bu tajribalar 80-yillarga borib realizmni tasviriy imkoniyatlari yana kengaygani, yozuvchilar ifodaviy zahirasidan ong oqimi, ramzlar, ichki monolog, ekspressiv ta'bir kabi vositalardan keng iste'foda

qilganlari bilan bog‘liq edi. Amin Solih hikoyani shakl tomoniga ham katta e‘tibor berdi, bu borada ijodiy erkinlikka da‘vat etdi. O‘zining asarlarida badiiy izlanishlarga o‘tar ekan, realistik tasvirga badiiy shartliklarni yetarlicha kiritdi. Ammo bu bilan u realizm ijodiy prinsiplaridan chekinish qilmagan. Ramziy obrazlar, fantastika unsurlarini, jumladan sehrli rivoyatlarni kiritish yozuvchiga hayotni chuqurroq idrok qilishga, o‘zining badiiy imkoniyatlarini namoyon etishga imkoniyat yaratdi. Masalani ikkinchi tomoni adabiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, XX asr 80-yillarga borib Bahrayn adabiyotida turli badiiy-estetik hodisalar ro‘y berganligi bilan izohlanadi. Ilg‘or texnika imkoniyatlari ochilishi bilan madaniy aloqalar kuchayishi natijasida adabiyotga turli oqimlar va yo‘nalishlar kirib keldi, tasvir prinsiplari o‘zgardi, turli g‘ayrioddiy uslublar va usullardan foydalanish jarayoni boshlanib ketdi. Realizm metodi o‘zini asosiy prinsiplariga tayangan holda ana shu yangiliklarni iste‘foda qildi.

Amin Solih hikoyalarining tahlili va ularga kiritgan yangiliklarni kuzatishimizdan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, bu birinchidan voqeani miflashtirish yoki asotirlashtirish hodisasi. Masalan, yozuvchining *“Ovlanadigan yovvoyi qushlar”* (الطرائد) [20] to‘plamidagi *“Qizcha”* (طفلة) [20:27] hikoyasida shaharga hamma yoqni qoplab qalin tuman tushadi. Hamma uy- uyiga kirib ketadi, faqat boshpanasiz tilanchi qiz ko‘chada qoladi. U bostirib kelayotgan tuman tomon chopadi va ichiga singib ketadi. Shu bilan ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Real hodisaga fantastik unsur kiradi:

سيحتويها المد الساحر، و ستصبح إحدى ذرّاة. حينئذ ستجول مجرية في كل الأقاليم، تسمو تحلق تنحدر،
لن يزرها أحد. تقدر أن تصير فراشة إن شاءت.

“Sehrli havo toshqini uni o‘z og‘ushiga oldi va zarrachasiga aylantirdi. U barcha iqlimda dengizlar ustida kezib yuradi: ko‘tariladi, uchadi, aylanadi, pastga tushadi. Endi hech kim uni turtkilamaydi. Hohlasa, hatto kapalak bo‘lib uchishga ham qodir” [20:28].

Tuman tarqagandan so‘ng odamlar qizni izlashadi, bir necha kun u haqida gapirishadi, keyin esa uni yoddan chiqarishadi. Bir kuni shaharga yengilroq tuman tushadi, shunda shahar aholisi eshiklarini kimdur sekin-asta taqillatadi. Eshikni ochib qarashsa hech kim yo‘q. Faqat eshik oldidan sochlari yoyilgan qizning sharpasidagi tuman uchib o‘tadi.

الكثيرون سمعوا الطرقات في تلك الليلة، و أبصروا ضبابا على هيئة طفلة. و بعضهم جزم أنهم الشحاذة
ذاتها.

“Shu kecha ko‘pchilik eshik taqillaganini eshitishdi va qizning sharpasiga o‘xshash tumanni ko‘rishdi. Ba‘zi insonlar uni o‘sha tilamchi qizning o‘zginasi, deya iqror bo‘lishdi” [20:29].

Bu hikoyada shu uslub bilan tilamchi qiz taqdiri asotirga aylandi. Hech kim boshpana bermagan qizchani tuman go‘yo o‘z onasidek bag‘riga oldi.

Adibning yana bir hikoyasi - “*Sindbad*” (السندباد) [20:85] hikoyasi mashhur “Ming bir kecha” arab ertaklari qahramoni obrazi bilan bog‘liq. Sindbad Bahriy (Sindbad-dengizchi) arab ertaklarida o‘zining g‘aroyib sarguzashtlari bilan tanilgan afsonaviy dengizchi va savdogar. U ayni Fors ko‘rfazini o‘z kemalarida kezib yurib, Afrika qit‘asining uzoq sohillariga savdo uchun borib, turli sehrli vaziyatlarga tushganligi bilan shuhrat qozongan. Ammo Amin Solihning Sindbadi: hayotdan charchagan, yashashga, sarguzashtlarga qiziqishini yo‘qotgan keksa dengizchi, uning yonida hech kim yo‘q, hattoki sodiq do‘stlari ham tashlab ketishgan. Sindbad hikoyada oxirgi qimmatli-narsasi-kemasini yoqib yuboradi va bu bilan yangi afsonani ochadi. Lekin kitobxon bu afsonani o‘zi tuzishi mumkin, yozuvchi uni hukmiga havola qiladi...

تشتعل السفينة، يشتعل الماء، و يظل هو على الساحل يرنو.

“*Kema yonardi, suv ham yonardi, u sohilda turib, undan ko‘zini uzmas edi*” [20:86].

Bu qisqa hikoya juda mahzun ohangda yozilgan. Retrospektivada bir nechta jumla orqali Sinbdabning butun hayoti namoyon bo‘ladi:

عاشر النجوم أعواما و اتقن لغة البوصلات و أيقن أن الأمواج حاشيتة يسوقها حسب مشيئته. نازل الأرخييل و وطأ البحيرات غير آبه لشهقات الجزر التي كان ينتهك عزريتها بأنامله ، و لا لحشرجات أسماك القرش. كان يجزم أن الأصدقاء و رمال الجزر معا رائحته و تعرفه مغامرا و ليس غازيا. فعل ما يفعله البان - صديق الحلزونات، الموشى بالأملاح - وقت يجوب المحيطات ، غير أنه امتلأ و حشة و حبنينا فأدار دفته عائدا. و ها هو قد عاد و أحرق سفينته.

“*U yillar davomida yulduzlarni kuzatdi va kompaslar tilini o‘rgandi. To‘lqinlar avomlari bo‘lib, uni hohlagan tomonga olib borishlariga ishonardi. Arxipelaglarga qo‘nar, ko‘llarni kezar, noma‘lum bokira orollarni ochardi. Akulaga yem bo‘lmadi. Jazoirning sadaflari va qumlari uni hidini bilishar, uni g‘oziy bosqinchi sifatida emas, balki sarguzasht sifatida tanishardi. Zamon o‘z ishini qildi-shilimshiqlar do‘stiga aylandi, tuzga belandi. Okeanlarni kezib, yovvoyilashdi, sog‘indi... va rulni qaytishga burdi.*

“*Mana u qaytdi va kemasini yoqib yubordi...*” [20:85-86].

XULOSA

Shunday qilib, Favziya Rashid, Amin Solih Bahrayn hikoyanavisligining yangi obrazlar, yangi usullar, o‘ziga xos kompozision qurishlar bilan boyitib, uning tasvir vositalarini o‘zgartirdilar. Lekin ularda ijtimoiy ruh so‘nmadi. U dahshatli tuman tushganda boshpanasiz qolgan tilamchi qiz, halqning ijtimoiy farovonligi uchun jonini fido qilgan vatanparvar, uyga qaytganida odamlar pul topishga mukkasidan ketganini,

sarguzashtli romantik ruhini yo‘qotganini ko‘rib, o‘z kemasini yoqib yuborgan afsonaviy Sindbad obrazlarida mujassamlangan va o‘z ifodasini topgan.

Shuning bilan birga, yozuvchilar asarlari negizida qanday ijodiy niyat yotishidan qat’iy nazar, insonparvarlik nuqtai nazaridan kelib chiqib insonni ulug‘lash, uni sevish va hurmat qilish sari yo‘naltirilib, insonparvarlik prinsiplariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. فوزية رشيد. مساءلة. القصة قصيرة. الأنطولوجيا. البحرين. . 2018 .- 96.
2. أمين صالح. الطرائد. قصص البيروت. دار الفارابي: 1983. ص. 96.
3. الشباط عبد الله احمد. ادباء في الخليج العربي. – الكويت، دار الوطنية الجديدة للنشر و التوزيع الرياض، 1986. – ص. 357.
4. ذاكرة للمستقبل، موسوعة الكاتبة العربية، الفصل السابع الجزيرة و الخليج، القاهرة، 2002، – ص. 205. – 323.
5. Ahmedova Sh. Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari zamonaviy hiknavisligining taraqqiyot tamoyillari. Monografiya. T., ToshDShU, 2020.-300 b
6. Akhmedova, S. I. (2021). SYMBIOSIS OF ARTISTIC TRENDS IN CONTEMPORARY LITERATURE OF THE ARAB COUNTRIES OF THE PERSIAN GULF. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(09), 105-109.
7. Ahmedova, S. I. (2021). XITOIY VA KO ‘RFAZ ARAB MAMLAKATLARI YOZUVCHILARI ASARLARIDA MAGIK REALIZMNING XUSUSIYATLARI VA USLUBLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 369-375.

JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI SIYOSIY HAYOTIDA AYOL LIDERLAR: TARIXIY TAJRIBA VA SABOQLAR

t.f.d., prof. S.B. Shadmanova

TDSHU kafedra mudiri

I.F. Xayrullayeva

TDSHU magistr talabasi

fahriddinovnairoda96@mail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola XX asr ikkinchi yarmida Janubiy Osiyo mamlakatlari hukumati tepasidagi ayol rahbarlar faoliyatiga bag'ishlanadi. Bundan tashqari maqolada ayol rahbarlarning qay tariqa hokimiyatga kelganliklari, ularning g'arb mamlakatlardagi ayol rahbarlaridan farqli jihatlari hamda uning natijalari yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** Janubiy Osiyo, "millat otasi", Indira Gandi, Benazir Bxutto, Xolida Ziyo va Xasina Vazed, Sirimavo Bandaranaike.*

ABSTRACT

This article focuses on the activities of women leaders in government in South Asia in the second half of the twentieth century. In addition, the article discusses how women leaders came to power, how they differ from women leaders in Western countries, and its consequences.

***Keywords:** South Asia, "father of the nation", Indira Gandhi, Benazir Bhutto, Khalida Ziyo and Hasina Vazed, Sirimavo Bandaranaike.*

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена деятельности женщин-лидеров в правительстве Южной Азии во второй половине двадцатого века. Кроме того, в статье рассказывается, как женщины-лидеры пришли к власти, чем они отличаются от женщин-лидеров в западных странах и каковы последствия этого.

***Ключевые слова:** Южная Азия, «отец нации», Индира Ганди, Беназир Бхутто, Халида Зиё и Хасина Вазед, Сиримаво Бандаранаике.*

KIRISH

Sharqda ayollarning hokimiyat boshqaruviga chiqishi va davlat siyosiy hayotida ishtirok etishi kam uchraydigan holatlardan biri hisoblanadi. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmida Sharqning katta bir bo'lagi bo'lmish Janubiy Osiyo mintaqasida bu holatni bir necha marotaba kuzatilganligiga tarix guvohdir.

Janubiy Osiyoda hukumat tepasiga kelgan ayollari orasida g'arbdagi Golda Meir kabi duradgorning qizi, yoki baqqol oilasida voyaga yetgan Margaret Tetcher singari oddiy aholining farzandlari yo`q edi. Ularning bari mustaqillikka erishish davrida kurash olib borgan, "millat otasi" hisoblanmish hukumat rahbarlarining qizlari yoxud ularning beva ayollari edi. Bu ayollar kutilmaganda hukumat boshqaruvini qo`lga kiritdilar, o`zlarining aql-idroklariga tayangan holda o`tmishdoshlari yuritgan siyosatni umumlashtirib faoliyat olib bordilar. Ularning siyosiy hayotdagi muvaffaqiyatining omili ko`p jihatdan egallab turgan mansablari, siyosiy yo`nalishlari, shuningdek, aholi o`rtasida shuhrat qozongan jozibador oilaviy nomlari edi. Bu ayollar Janubiy Osiyo hukumati boshqaruviga kelgan birinchi siyosiy vakillar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR VA METODLAR

Ayol-rahbarlarning nufuzi nafaqat ular olib borgan ishbilarmonlik va kasbiy nufuzlari bilan, shuningdek siyosatdagi shaxsiy ulushlari yoki islohatlardagi omadli xatti-harakatlari bilan ham o`lchanadi. Oddiy aholi ko`z o`ngida ularning aksariyat qismi "tanlab olinganlar" degan samoviy nom ostida gavdalana boshladilar. Nima bo`lganda ham ayollarning siyosatga aralashuviga zamin yaratgan voqea bu ularning siyosatda faoliyat yuritgan otalari yoki turmush o`rtoqlarining xizmati bilan qiyoslanadi.

Agar ayollar hukumat tepasiga kelishida ularning nikohi yoki oilaviy nufuzi turtki bo`lgan bo`lsa, ekspertlar bunday ayollarning yuksalishiga "davomiy bo`lmagan va natijasiz siyosat" yoki qo`shimcha tarzda ularning g`oyatda omadli "osiyocha nepotizm" deb baho beradilar.⁴⁸

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy tadqiqotchilar birinchi hukumat yetakchilar sifatida Indira Gandi (1917-1984), Benazir Bxutto (1953-2007), Xolida Ziyo (1945-yil tug`ilgan) va Xasina Vazed (1947-yi tug`ilgan), Sirimavo Bandaranaike (1916-2000) larni talqin qiladilar.

Britaniya dominoni hisoblangan Seylon tarixida birinchi bor bosh vazir lavozimini Sirimova Bandaranaike egallaydi. Sirimova Bandaranaikening g`alabasi hammani hayratga soldi, xattoki g`arb jurnalistlari dastlabki davrlarda uni qanday nomlashni ham bilmay qolgandilar. Sirimova Bandaranaikening Seylondagi (o`sha davrdagi Shri-Lankaning nomlanishi) bosh vazirlikka saylovlar bo`lib o`tgan sananing ertasi kuniyoq Evening News London gazetasida "Uni qanday nomlaymiz? Hukmdor?"

⁴⁸Richter L.K. Exploring Theories of Leadership in South and Southeast Asia // Pacific Affairs. 1990-1991. Winter. Vol. 63. №4. P.524-540.

Yoki qirolicha? Yangicha nom o`ylab topish kerak!”, - kabi maqolalar bosib chiqarilgan edi.⁴⁹

1959-yilda mamlakatda Solomon Bandaranaike bosh vazirligi davrida hokimiyatda vakuum holati yuzaga kelib qolgan edi. 1959-yilgacha Sirimova mamlakat siyosatiga mutlaqo aralashmagan. Turmush o`rtog`i vafotidan so`ngina(1959-yil), o`z nomzodini ko`rsatishga rozi bo`ladi. Biroq ba`zi sabablarga ko`ra, saylov amalga oshmay, parlament tarqalib ketadi. Keyingi saylov 1960-yil mart oyida bo`lib o`tadi, Ozod Shri – Lanka partiyasi rahbari sifatida Sirimova nomzodini ko`rsatadi va g`alaba qozonib, mamlakatning birinchi ayol bosh vaziri etib saylanadi.

Toshkentda Hindiston bosh vaziri Lal Baxadur Shastrining yurak xuruji sababli vafot etganidan (1966) so`ng, hokimiyatga Indira Gandi kelishi mamlakat politologlari uchun bir yangilik edi. Shastrining o`limidan keyin, Indira tezlik bilan Hindiston Milliy Kongressining boshlig`i etib saylandi va vazirlikdagi bo`sh o`rinlarni birin-ketin egallay boshladi. Shunday qilib, uzoq siyosiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlar Gandining mehnatlari evaziga kelgan bo`lib, u haqida usha davrdagi bir tadqiqotchi shunday yozgan edi: ”Shastrining bu dunyodan ko`z yumishidan boshqa barcha mamlakatda yuz bergan siyosiy voqealarning hech biri tasodif emas edi”.⁵⁰

Bu kabi kutilmagan olamshumul voqealar Benazir Bxutto faoliyatida ham keskin burilish yuz berishiga sabab bo`ldi. 1988-yil 17-avgust kuni Pokiston prezidenti, diktator Ziyu ul-Xaq hukmronligi davrida Benazirning otasi jazolanadi va avtohalokatda vafot etadi. Bu xabardan so`ng birinchilardan bo`lib pokistonliklar diktator hukmronligini rad etadilar va aholi o`rtasida uni mamlakatdan yashirin tarzda qochib ketdi degan gap tarqaladi, bu esa o`z navbatida ko`p yillik diktatorlik hukmronligining yakunini anglatar edi. 1988-yil favqulotda o`tkazilgan saylovlarda Bxutto boshchilik qilgan Pokiston Xalq Partiyasi g`alaba qozondi va bosh vazir lavozimini Benazir Bxutto egalladi.

Xech kim Prezident Ziaur Raxmon o`ldirilgandan so`ng, Bangladesh bosh vazirlik lavozimini uning rafiqasi, oliy mutaxassislikka ega bo`lmagan, siyosatdan ancha yiroq oddiy uy bekasi Xolida Ziyu egallaydi deb tasavvur qilishmagandi.

1981-yil hukumat almashinuvi davrida Ziaur Raxmon bir guruh askarlar tomonidan o`ldirildi, shundan so`ng Xolida Ziyu siyosatga faol aralasha boshladi, 1984-yildan M.B.P.ni boshqara boshlaydi. Shayx Hasina Vazed va uning partiyasi “Avam Liga”, shu bilan bir qatorda Ziaur Raxmonning o`ldirilishining asosiy sababchisi hisoblangan Ershadga ko`pchilik hukumat a`zolari qarshilik ko`rsata

⁴⁹”The world’s first female prime minister”. Witness History.<https://www.bbc.com/news/av/article.2014>

⁵⁰Bennett N. Actors or puppets? The Female Prime of South Asia // <http://www.nataliebennett.co.uk>.

boshlashadi. Xolida ularning hokimyatini xalqaro sanksiyaga qo'yishga muvaffaq bo'ladi va oxir-oqibat 1990-yil dekabrda Ershadning iste'fo berishga majbur qiladi, Ziyoda esa Bangladeshning birinchi ayol bosh vazir lavozimini egallaydi. Aynan o'sha yili Bangladesh Konstitutsiyasiga qaytadan Bangladesh parlament respublikasi deb tuzatish kiritiladi (mamlakatning birinchi konstitutsiyasida ham bu qonun mavjud bo'lib, 1975-yilda Sheyx Mudjipur Raxmon tashabbusi bilan prezident boshqaruvidagi davlatga o'zgartirilgan edi).

Xolida hukumat tepasiga kelganida poraxo'rlik va jinoyat o'z cho'qqisiga erishgan edi. Bangladesh aholisi ko'payib borayotgan bir kambag'al mamlakat edi. Saylovlar davrida Xolida umumiy tenglikka erishish, korrupsiyaga qarshi kurashish kabi bir qancha kelajakda hukumatdagi o'zgarishlarni e'lon qildi. Milliy Bangladesh partiyasi Ganga daryosi hududlari bo'linishi masalasi oqibatida tashqi siyosatda Hindiston bilan keskinlashish, Pokiston bilan esa yaqinlashish choralari ko'ra boshlaydi. Xolida Ziyoda hukmronligi davrida ta'limga ajratilgan davlat budjeti oshiriladi va qiz bolalar uchun bepul 10 sinfdan iborat maktablar tashkil qilinadi. Davlat iqtisodiyoti qisman liberrallashtiriladi, xorijiy kapital kirib kelishi rag'batlantiriladi hamda xususiylashtirishga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Ershad diktatorligi davrida zavol ko'rgan mamlakatning ahvolini demokratik holatga keltirishga harakat qiladi.

Keyinchalik mutaxassislar bu ayollarning qonuniy yo'l bilan hokimyat jilovini qo'lga kiritganligiga qaramasdan, hokimyat egallanishining asosiy sababi deb ularning aslzoda oiladan ekanliklarini ta'kidlab keldilar.

Ayol rahbarlarning har biri o'z mansablarini na vasiyat va na an'anaviy tarzda qo'lga kiritdilar, balki ular hokimyatga kelgunlariga qadar ko'plab qiyinchiliklarni boshdan kechirdilar. Benazir Bxutto, Xasina Vazed va Xolida Ziyolar bu kurash davomida juda o'g'ir va alamli judoliklarni guvohi bo'ldilar, ularning har biri o'z hayotlarida ko'plab suiqasdlar, surgun holatlarini sabr bilan yengib o'tdilar. Chandrika Kumaratunga tamillik harbiy-qotil tomonidan uyushtirilgan suiqasddan arang qutulib qoldi, biroq natijada ko'z nurlaridan ayrildi, Indira Gandi va Benazir Bxuttolar esa siyosiy qotillikning qurbonlari bo'lishdi.

Vorislik huquqi biz ko'rganimizdek, sobiq hukmron patriarxat qarindoshlarga yaqinlik oqibatida yuz bergan edi. Bunday "qonuniy" vorislik g'alabasi qo'lga kiritilishi ommaviy zulm ustidan yaxshilikning g'alaba qozonishi edi. O'lim siyosati – bu shaxsiy adovat emas, balki siyosatning muhim bir faoliyatining bir turi hisoblanadi.

Indira Gandhi: “Azobli o`lim – bu hammasi tamom degani emas, balki bu boshlanishi, xolos.”, - deb aytganida, u motloq haq edi.⁵¹

Bu ayollarning vafoti (shuningdek, oila a`zolarining ham o`ldirilishi), mustaqillik yo`lida xalq uchun, vatan uchun o`z hayotini qurbon qilgan yaqinlari kabi aholi orasida jasorat timsoli yohud milliy ozodlik qahramonlari sifatida nom qoldirdilar.

Ular orasida faqat Indira Gandining otasi (Javoharlal Niru) va turmush o`rtog`i (Feruz Gandi)gina o`z ajallari bilan vafot etishgan. Shunday bo`lsa ham bu kurash davomida Indira Gandhi ikki o`g`lidan ayrildi, ulardan biri Sanjay 1980-yilda ikkinchi marta vazirlikda faoliyat yuritib kelayotgan vaqtida avtohalokatda vafot etdi, Radjiv Gandhi esa 1991-yilda qotillik natijasida hayotdan ko`z yumdi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, 1959-yilda turmush o`rtog`idan ayrilgan Sirimova uch farzandi bilan qoladi. Uning siyosiy vorisi hisoblanmish qizi – Chandrika yoshligida otasidan ayrilgani yetmaganidek, 1988-yil turmush o`rtog`i singallik qo`poruvchi tomonidan o`ldirildi, Chandrika esa ikki bolasi bilan yolg`iz qoladi.

Bangladeshning birinchi prezidenti, “Mamlakat asoschisi” Shayx Mudjibur Raxmon(1920-1975)ning qizi Sheyx Xasina Vazedning hayoti esa Shekspir yaratgan tragedik asarlaridanda daxshatliroq edi. Davlat to`ntarilishi davrida, bir guruh norozi kayfiyatdagi Bangladesh armiyasi ofitserlari tomonidan 1975-yil 25-avgustda Xasinaning barcha oila a`zolari – otasi, onasi, akasi, kelini, jiyanlari, jami hisoblaganda 20 nafar qarindoshlari o`ldiriladi. Bu suiqastdan Xasinaning o`zi omon qoladi va davlat to`ntarilishi davrida opasi Rexana bilan GFRga jo`nab ketib, usha yerda jon saqlaydi.

1981-yilda Bangladeshdagi yana bir to`ntarilish davrida Xolida Ziyoning turmush o`rtog`i Ziaur Raxmon (1931-1981) vafot etadi, Xolida esa ikki voyaga yetmagan farzandlari bilan qolib ketadi. Bu fitna bir vaqtlar Xolida Sheyx Mudjipur Raxmonga nisbatan uyushtirilgan suiqastda aloqadorligi tufayli (Ziaur Raxmonning qotili diktator Ershad deb tahmin qilinadi) unga nisbatan uyushtirilgan siyosiy javob edi. Shundan so`ng uzoq vaqt davomida Xolida va Xasina o`rtasida adovatli kurashlar davom etadi.

1977-yilda yuz bergan Pokistondagi to`ntarilish oqibatida hokimiyat tepasiga diktator general Ziyo ul-Xaq keladi (1979-yilgacha mamlakatni boshqaradi) va mamlakatda obruga ega hamda yirik kompaniya rahbari Zulfiqor Ali Bxuttoni siyosatdan chetlashtiradi. Bxuttoning qizi Benazir otasini qutqarish uchun Pokiston Xalq Partiyasiga boshchilik qilib, siyosat yo`lidan ketadi.

⁵¹Selected Speeches of Indira Gandhi: January 1, 1982-October 30, 1984. Publication division, Ministry of Information and Broadcasting, Government of India, 1986.

1991-yil qo`poruvchilik davrida bosh vazir Radjiv Gandi vafot etgani barchaga ma`lum. Turmush o`rtog`i vafotidan so`ng, Soniya Gandi partiya boshqaruvini o`z qo`liga oladi va 2004-yildagi saylovlarda g`alaba qozonadi. Biroq siyosiy muxolifat kuchlar unga qarshi “millat birligini saqlab qolish” vajini rukach qilib, uni hokimiyatdan ketishga majbur qiladilar (Soniya Gandi italiyalik edi).⁵²

XULOSA

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, ayol-rahbarlarning hokimiyat tepasiga kelishining asosiy sababi, ular siyosat arboblarning qizi yoki beva ayollari bo`lgani ekanligida deb aytadigan bo`lsak, keyinchalik bu siyosat erkak rahbarlarning ham siyosatga kelishida muhim ahamiyat kasb etdi. Misol tariqasida Radjiv Gandining hokimiyat tepasiga kelishini keltirsak bo`ladi. 1984-yil onasi Indira Gandining vafotidan so`ng, Radjiv Gandi bosh vazir lavozimini egallaydi (siyosiy-tarix manbalardan bizga ma`lumki, Radjiv Gandi mamlakat siyosatiga unchalik ro`yxush bermagan va o`z ehtiyoriga qarshi ravishda mamlakat bosh vaziri lavozimini egallagan edi). 1955-yilda Benazir Bxutto fojiali tarzda xalokatga uchradi, uning turmush o`rtog`i Asif Ali Zardari esa ungacha siyosatda ayoli kabi obruga ega bo`lmagan, poraxo`rlikda ayblanayotgan edi. 2008-yilda uning to`satdan mamlakat prezidenti lavozimini egallashi esa yuqorida aytib o`tilgan so`zlarimizning nechog`lik to`g`ri ekanligining yorqin isbotidir. Janubiy Osiyoda ma`lum davrda hokimiyat boshqaruvida ayollarning erkaklarga nisbatan ko`p siyosiy faoliyat olib borishi, tadqiqotchilar aytganidek, tasodif yoki vorislik bo`lishi mumkin, biroq uning davomiyligida faqatgina o`zlariningoqilona siyosat olib borishlari, yuksak aql-zakovatlari, tinimsiz mehnat hamda millat va xalqqa nisbatan chuqur muhabbat hissining kuchliligida edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES)

1. Bennett N. Actors or puppets? The Female Prime of South Asia // <http://www.nataliebennett.co.uk>.
2. Richter L.K. Exploring Theories of Leadership in South and Southeast Asia // Pacific Affairs. 1990-1991. Winter. Vol. 63. №4. P.524-540.
3. Selected Speeches of Indira Gandhi: January 1, 1982-October 30, 1984. Publication division, Ministry of Information and Broadcasting, Government of India, 1986.
4. Суворова А.А. Женщина-лидер в Южной Азии: случайность или закономерность? // Восток. 2016. № 5.
5. Юрлова Е.С. Женщины Индии: традиции и современность. – М., 2014. С.390-440.

⁵² Юрлова Е.С. Женщины Индии: традиции и современность. – М., 2014. - С.421-440.

G'AZZOLIY FALSAFASIDA BILIM VA TAFAKKURNING O'RNI VA ROLI

Axmedova Sanam Jalalovna

TDSHU "Sharq falsafasi va madaniyati"

kafedra f.f.n. katta o'qituvchisi

Toshev Suhrob

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi

2 kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada G'azzoliyning falsafiy qarashlari asosan Islom dinining ta'limotlariga asoslanadi. Islomda imon kishi xulqini tartibga soluvchi muhim mezon hisoblanadi. G'azzoliyning bilish nazariyasiga doir qarashlarini o'rganish fandagi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladigan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tayanch tushunchalari: Rene Dekart, G'azzoliyning shakllari, shak nazariyasi, ishonchli ilm, Junayd Bag'dodiy, borlig, haqiqatga erishish, yomonlik, gunohkor banda, ihtiyor erkinligi.

ABSTRACT

In this article, Ghazali's philosophical views are based primarily on the teachings of Islam. In Islam, faith is an important criterion governing human behavior. The study of Ghazali's views on the theory of knowledge is of great importance, which will lead to positive changes in science.

Keywords: Rene Descartes, Ghazali's forms, theory of doubt, reliable science, Junaid Baghdadi, existence, truth, evil, sinful slave, free will.

АННОТАЦИЯ

В этой статье философские взгляды Газали основаны в основном на учении ислама. В исламе вера - важный критерий, регулирующий поведение человека. Изучение взглядов Газали на теорию познания имеет большое значение, что приведет к положительным изменениям в науке.

Основные понятия: Рене Декарт, формы Газали, теория сомнения, достоверная наука, Джунаид Багдади, существование, правда, зло, грешный раб, свобода воли.

KIRISH

G'azzoliy jahon tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir zotlardan bo'lgan. Uning asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilinib, Yevropaning

Franchesko Petrarka, Duns Skott, Rene Dekart, David Yum, Jon Toland kabi faylasuflari dunyoqarashi shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. G'azzoliy o'zigacha bo'lgan musulmon olami falsafiy qarashlarini tizimli tarzda izchil tahlil qilib, shu bilan birga bu fanda mavjud bo'lgan muammo va kamchiliklarni ko'rsatib o'tgan. Faylasuflarga qarshi kurashishda u kalom ilmiga tayanib ish tutgan bo'lsa-da, u kalom ilmuni o'rganishni farzi kifoya deb biladi va shu tariqa mutakallimlar iddaosini yo'qqa chiqaradi.

ADABIYOT VA METODLAR

Fiqh ilmida yozgan «Al-Basit», «Al-Vajiz» asarlari insoniy tafakkuri mo'jizalari, fiqh ilmida inqilob yasagan noyob asar sifatida baholangani bilan u bu fanni ham kundalik turmush tarziga oid. G'azzoliyning jahon falsafasida tutgan o'rnini tushunib olish uchun dunyoda dong'i ketgan musulmonmas birorta faylasuf bilan solishtirib ko'rish lozim bo'ladi. Keling, o'sha faylasuf ularning eng kattasi, yangi falsafa otasi unvonini olgan fransiyalik mashxur faylasuf Rene Dekart bo'lsin. Dekartni mashxur qilgan asosiy narsa uning shak nazariyasidir. U haqiqiy ma'rifatga erishishdan oldin shak zarurligini ta'kidlaydi. Uning bu nazariyasi G'azzoliyning shaklariga juda ham o'xshaydi. G'arbda G'azzoliyni bilmaganlari uchun shak nazariyasi faqat Dekartga tegishli degan e'tiqod ila uni ko'klarga ko'tarib maqtaydilar⁵³.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sharqda G'azzoliyni bilganlari uchun buyuk faylasuf Dekartning nazariyasiga o'xshash gapni aytgan shaxs ham borligini eslab qo'yadilar. Ba'zi birlari jur'at qilib Dekart va G'azzoliyning shaklarini solishtirib ham qo'yadilar. Ammo bu boradagi xaqiqatni xech kim bilmaydi. Ushbu xaqiqat ila bu satrlarning kotibi ustoz Muhammad Sa'id Ramazon Butiyning «Shaxsiyotun istavqafatni» nomli kitoblaridan bildi. U kishi mazkur kitobning 99 – 100 betlarida quyidagilarni yozadilar: «So'ngra bu masalada barcha ikkilanish va noaniqlikka chek qo'yadigan vasiqa – xujjat yuzaga chiqdi. Uni ustoz Maxmud Biyju doktor Zakzukdan naql qildi. Unda aytilishicha, tunislik tadqiqotchi Usmon al-Kaok raxmatulloxi alayx Dekartning kutubxonasida «al-Munqiz minaz Zolal» kitobining tarjimasini topgan. Unda G'azzoliyning «Shak yaqiyn – ishonchli ilm – ning birinchi pog'anasidir» degan mashxur iborasi Dekartning e'tiborini jalb qilgani belgisi bor edi. Dekart o'sha iboraning tagiga qizil qalam bilan chizib qo'ygan va uning to'grisiga, xoshiyaga «Bu bizning nazariyamizga ko'chiriladi» deb yozib qo'ygan ekan.

⁵³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. G'azzoliy va falsafa- jurnaldan.

Inson Oloh irodasini bilish yo'lida nimalar qilgani to'g'risida umrining o'tgan qismi ustida mulohaza yuritsa, bu bilan u bir navi o'z qalbini yuvgan bo'ladi. G'azzoliy olim bo'l, yo ilm o'rganuvchi, yo tinglovchi, yo ilmni sevuvchi bo'l! Beshinchisi bo'lma - mahv bo'lursan, deb xitob qiladi. Uning fikricha nafsni yengishning xisob kitobini muhabbat bilan qiyoslash mumkin, ya'ni nafs bor joyda muxabbat ham yashirin bo'ladi. Inson uchun ixtiyor erkinligi beriladi. Inson o'z nafsini bilan hisoblashsa, bu dunyodagi amallari go'zallashadi. Nafsni yengib Allohning muhabbati bilan bu dunyoni charog'on etishi inson umrining maqsadi bo'lishi zarur.

Junayd Bag'dodiy shunday deydi: «Har muhabbat bir narsaning javobidir. U narsa zoil qilinganda, muhabbat ham zoil bo'ladi». Bu muhabbatni anglab yetish insonning qo'lida. Ilmni egallash jarayonida insondagi mustahkam e'tiqod va muhabbatning tutgan o'rnini Hazrat G'azzoliy yuksak baholaydi. Biz bilgan narsalar hissiyotimiz bilan bog'liq bo'ladi, lekin aql bilan isbotlangan bilimlarimiz ishonchlidir. Demak e'tiqodimizga, aqlga tayanib ish yuritsak, bilimlarimizning haqiqiylikini saqlab qolgan bo'lamiz. G'azzoliy o'zining "Ihyoi ulum ad din" asarida muhabbatni inson hayotining mazmuni va bir bo'lagi deb hisoblab uning 5 turini ko'rsatib o'tadi ular 1) insonning o'ziga o'z kamoloti va sog'omonligiga muhabbati; 2) insonning o'z hayotini davom ettirishni ta'minlovchi uni asrovchi undan turli halok etuvchilarni nari tutuvchi vali ne'matlariga muhabbati; 3) insonning garchand o'ziga yaxshilik qilmagan bo'lsa ham boshqa insonlarga xizmat ko'rsatgan yaxshilik qilgan zotlarga muhabbati; 4) insonning tashqi yoki ichki qiyofadagi barcha go'zallikka muhabbati; 5) insonning o'zi bilan botiniy yashirin o'xshashligi bor bo'lgan zotlarga muhabbati⁵⁴. G'azzoliy bu fikri bilan insonning o'z-o'ziga muhabbati bilan ichki botiniy muhabbati orasida bilvosita bog'lanish borligini ko'rsatib, buyuk muhabbatga inson nafsdan kechish va komillik yo'lini tanlaganidagina yetishish mumkinligini ta'kidlaydi. Yuqorida inson hayotining mazmuni masalasida g'arb ekzistensializmining o'z konsepsiyasiga ega ekanligini tilga olgan edik. Bu oqim vakillaridan biri bo'lgan A. Kamyuning inson umri to'g'risidagi fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining «Begona» asarida inson hayotiga muhabbat kirib kelgandagina umrining mazmuni o'zgarishi, buguni va kelajagi borligiga ishonchining ortishini uqtirib o'tadi. Bu fikrlar A. Kamyudan sakkiz asr ilgari sharq tasavvufida G'azzoliy asarlari orqali o'z tasdig'ini topib

⁵⁴ Диноршоев М. Абу Хамид Мухаммад ал-Газали и его «Опровержение философов»// Абу Хамид Мухаммад ал-Газали. Опровержение философов.- Душанбе, 2002. –С. 159.

ulgurganini esga olish, uning inson hayoti to'g'risidagi qarashlarining qanchalik chuqur ma'noga egaligi va bugungi kunda dolzarb ekanligini tushunib yetishga imkon beradi.

Inson hayotining mazmunini ochib berishda albatta insonning ixtiyor erkinligi masalasi ham juda muhim. Ayniqsa O'rta asr falsafiy fikrlar rivojida taqdir va ixtiyor erkinligi masalasi ko'plab baxslarga sabab bo'lgan. G'azzoliy ixtiyor erkinligi borasidagi qarashlarida taqdir muqarrar hodisa sifatida talqin etadi. Bunda ham bilim (bilish) birinchi o'rinda turadi; ixtiyor bilimga bo'ysunadi. Zero, inson nima o'ziga yoqish yoki yoqmasligini bilim (bilish) orqali anglab yetadi. Umuman, ixtiyor erkinligi ixtiyorning o'ziga xos turi, u nimagaki inson ishonchsizlik tuysa, o'shanga nisbatan bo'lgan aqliy munosabatdan yuzaga chiqadi. Ixtiyor erkinligi «kasb» tushunchasi bilan bog'liq. Kasb - kasb etmoq, o'ziga olmoq, o'ziga yuqtirmoq singari ma'nolarni anglatuvchi tasavvufiy atama. Masalan, Xudo bir bandasini sinab ko'rish uchun unga yomonlikni ravo ko'rdi, deylik. Bu uning taqdiri, mutlaq muqarrar hodisa. Lekin yomonlikning ijrosi boshqa bir odam ixtiyoriga beriladi, ya'ni sinalayotgan bandaga yomonlik qilish-qilmasligi ana shu vosita-odamning ixtiyoriy tanloviga bog'liq. U - erkin. Agar u yaxshilikni tanlasa - savob, yomonlikni tanlasa - gunoh uning bo'yniga tushadi. Xuddi shuningdek, yomonlik ob'ekti bo'lgan banda agar Xudoning sinoviga shukur bilan javob bersa, u suyuk, aksincha, shakkoklik qilib, Xudodan nolisa yoki yuz o'g'irsa, u gunohkor banda⁵⁵. Demak, G'azzoliy taqdirning muqarrarligini ta'kidlagani holda, insonga ma'lum ma'noda ixtiyor erkinligi berilganini qayd etadi.

Bulardan tashqari insonning hayotdan maqsadi ilohiy haqiqatga erishish, o'zida go'zal axloqni tarbiyalash va shu orqali komillikka yetishadi. G'azzoliy ta'limotiga nazar tashlasak va sinchkovlik bilan o'rganib chiqsak shunga guvoh bo'lamizki, bu zotning xayotdan maqsadi ilohiy haqiqatni topish edi, va bu zot haqiqatni tasavvufdan topdi, demak inson hayotining mazmuni ham aynan o'sha ilohiy haqiqatni topishdan iboratdir.

Agar fikr tufayli xolning o'zgarish xolatini bilmoqchi bo'lsang, biz aytib o'tgan oxirat ishlari unga misol buladi. Albatta fikr bizga oxiratni afzal ko'rish avloroq; ekanini tanitadi. Agar bu ilm qalblarimizga anik ta'sir ko'rsatsa, qalblar oxiratga rag'bati va dunyoga qiziqmasligiga qarab o'zgaradi. Bu narsani biz xol deb belgiladik. Chunki bu ilmdan oldin qalb bu dunyoni yaxshi ko'rib, unga moyil edi. Oxiratni yoqtirmas va unga rag'bati kam edi. Ilm tufayli qalb xolati o'zgaradi, iroda va rag'bat

⁵⁵ Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. / Сост.С.Н. Григорян, А.В.Сагадеев. М., 1961. -С -632.

yangicha tus oldi. Iroda o'zgarishi esa a'zolarni dunyo bilan mashg'ul bo'lishni tark qilib, oxirat amallari bilan mashg'ul bo'lishga chaqiradi.

Bunda asosan besh daraja mavjud:

1. Tafakkur, u qalbdagi ikki ilmni xosil qilishdan iborat.
2. Tafakkur, u ikki ilmdan ko'zlangan ilmni talab qilishdir.
3. Talab etilgan ilmni xosil qilish va undan qalbning nurlanishidir.
4. Ilm nuri xosil bo'lishi sabab bo'lgan narsadan qalb xolining o'zgarishidir.
5. Yangilangan xolga qarab a'zolarning qalbgacha xizmat qilishidir⁵⁶.

Tosh temirga urilganda, undan muayyan joyni yoritadigan uchqun sachraydi. Shundan keyin ko'rmay turgan ko'z birdan ko'ra boshlaydi va a'zolar xarakterga tushadi. Ilm nurining chaqmoq toshi - fikr ham ikki ilmni bir-biriga «urishtiradi». Tosh temirga qay tariqa urilsa, fikr shu ikki ilmni o'ziga xos usulda birlashtiradi. Temirdan uchqun paydo bo'lganidek ilm nuri paydo bo'ladi. Xuddi o'tdan sachragan nur vositasida ko'rish sezgisi o'zgarib, muhim narsani ko'rganidek, qalb ham ilm nuri tufayli o'zgarib, moyil bo'lmay turgan narsaga moyil bo'ladi. Shundan so'ng a'zolar qalb xolining taqozosiga binoan amal qilishga kirishadi. Bu xol xuddi zulmat va qorong'ulikda ko'rmayotgani uchun yura olmay turgan kishining xarakterni boshlaganiga o'xshaydi. Demak, fikr samarasi ilm va xoldan iborat, ilmlarning esa nihoyasi yo'q. Xar doim o'zgarib turadigan qalb xolini bilishning esa imkoni yo'q. Shuning uchun har bir murid (fikr yo'lini tutgan kishi) fikr yo'llari, uning paydo bo'lish o'rni va nima xususida tafakkur qilishni bilmoqchi bo'lsa, u bunga qodir bo'la olmaydi. Chunki fikrning paydo bo'lish o'rni cheklangan narsa emas va fikr samarasi ham bexad va cheksiz. Xa, biz diniy ilm masalalari va soliqlar maqomati, ya'ni xollari bilan bog'liq; ravishda fikrning paydo bo'lish o'rnini aniqlashga xarakter qilamiz. Bu narsa umumiy tahlildan iborat bo'lib, albatta buning tafsifi barcha ilmlar sharhini talab qiladi⁵⁷.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, G'azzoliyning ilm to'g'risidagi g'oyalari, hozirgi kunda ham xalqimizni ma'rifatli bo'lishiga yordam beradi. Chunki u ilmni mutlaq fazilat deb bilgan va insonni o'z - o'zini anglash va ikki dunyoda ham saodatmand bo'lishiga asosiy kafolat sanagan.

Mutafakkirning insonparvarlik va umuminsoniy g'oyalar bilan sug'orilgan ta'limoti O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din

⁵⁶ Abu Homid G'azzoliy . Tafakkur kitobi.-T : Movarounnahr , 2003 . –B. 23.

⁵⁷ Abu Homid G'azzoliy. Tafakkur kitobi.-T.: Movarounnahr, 2003 . –B. 24.

vakillarining tinch-totuv yashashlariga ko'maklashadi, diniy mutaasiblik, ekstrimizm va terorizmga qarshi kurashda, milliy g'oyaning mafkuraviy negizini tushunishda, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. G'azzoliy va falsafa- jurnaldan.
2. Диноршоев М. Абу Хамид Мухаммад ал-Газали и его «Опровержение философов»// Абу Хамид Мухаммад ал-Газали. Опровержение философов.- Душанбе, 2002. –С. 159.
3. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX-XIV вв. / Сост.С.Н. Григорян, А.В.Сагадеев. М., 1961. -С -632.
4. Abu Homid G'azzoliy. Tafakkur kitobi.-Т : Movarounnahr , 2003 . –В. 23.
5. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
6. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
7. Sulaymonov, J. Karimov, N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
8. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.

ARAB TAHLIL MARKAZLARIDA O‘ZBEKISTON MAVZUSI: STEREOTIPLAR VA TRANSFORMATSIYA

Ikromov Shavkat Iskandarovich

ToshDShU o‘qituvchisi

xorihysharq@mail.ru

ANNOTATSIYA

O‘zbekistonning eng yangi tarixini arab davlatlari ilmiy va tahlil markazlarida yoritilishini o‘rganish, hamda tadqiqotlaridagi zamonaviy arab-o‘zbek hamkorlik aloqalari dinamikasi asosida shakllanayotgan mulohazalarni taxlil qilish mazkur maqolaning maksadi hisoblanadi.

Maqolada mavzuning adabiyotlar tahlili, tahlil markazlarning tavsifi va axamiyati, arab tahlil markazlarining Yaqin Sharq mintaqasi siyosiy jarayonlaridagi o‘rni, markazlarda O‘zbekistonning eng yangi tarixiga oid materiallarning umumiy xususiyatlari va mavzu yo‘nalishlari singari masalalar ko‘rib chiqilgan.

Uslubiy jihatdan tahlil markazlarning materiallari tarixshunoslik kontekstida o‘rganildi, asosiy metod sifatida kontent tahlil metodi qo‘llanildi shuningdek, yerdamchi metodlar sifatida tizimli va qiyosiy tahlil, hamda xronologik-muammoviy metodlar tanlandi.

Tadqiqotning yangiligi O‘zbekiston va Arab davlatlari hamkorlik aloqalarining tarixshunoslik rakursida o‘rganilganligi, ob‘ekti sifatida hamkorlik aloqalariga xar tomonlama ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatga ega tahlil markazlarining tadqiqotlari tanlanganligida.

Tadqiqot natijasi, arab davlatlarida O‘zbekiston haqidagi kontentning chegaralangan ekanligini va ulardagi mavjud tendensiyalar, stereotiplar hali hamon o‘zgarmasdan kelayotganligini, mavzular yo‘nalishi tor va bir yoqlama xususiyatga egaligini ko‘rsatdi.

Xulosada arab tahlil markazlari tomonidan O‘zbekistonni o‘rganishda yanada chuqur, doimiy va tizimli tahliliy yondashuvlarining zarurlig ko‘rsatilgan, bu esa nafaqat o‘zaro munosabatlarni o‘rishga ijobiy ta‘sir qilishi balki ikkitomonlama va ko‘ptomonlama munosabatlarni rivojlanishiga, shuningdek, xorijda mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirishga turtki bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

***Tayanch so‘zlar:** O‘zbekiston, Arab davlatlari tahlil markazlari, kontent, imij, muammoli tarixshunoslik.*

ABSTRACT

The purpose of this article is studying the contemporary history of Uzbekistan in scientific analytical centers of the Arab countries and also the analysis of the views formed by the dynamics of development of modern Arab-Uzbek cooperation.

The review of literature on this subject, characteristic and value of analytical centers, role of the Arab analytical centers in political processes in the Middle East, the general features and subjects of materials on the contemporary history of Uzbekistan in analytical centers is for this purpose submitted.

Methodologically materials of analytical centers in the Arab countries were studied in the context of a historiography, as the main method the content analysis method and also systematic and comparative analysis, chronological and problem methods was used.

Novelty is studying of cooperation of Uzbekistan with the Arab countries in a historiographic foreshortening, researches of the Arab analytical centers capable to make comprehensive impact on the level of partnership of the parties act as an object of a research.

The research revealed limitation of knowledge about Uzbekistan in the Arab countries, stability in them the existing trends and stereotypes, narrowness and unilaterality of the current discussions.

In the conclusion need of deeper, continuous and system studying of approaches of analytical centers of the Arab countries across Uzbekistan is emphasized that it will not only influence positively growth of their mutual understanding, improvement of the bilateral and multilateral relations, but will also stimulate increase in image of our country abroad.

Keywords: *Uzbekistan, Arab analytical centers, content, image, problem historiography.*

АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является изучение новейшей истории Узбекистана в научно-аналитических центрах арабских стран, а также анализ взглядов, сформированных динамикой развития современного арабо-узбекского сотрудничества.

Для этого представлен обзор литературы по этой теме, характеристика и значение аналитических центров, роль арабских аналитических центров в политических процессах на Ближнем Востоке, общие черты и тематика материалов по новейшей истории Узбекистана в аналитических центрах. .

Методологически материалы аналитических центров арабских стран изучались в контексте историографии, в качестве основного использовался

метод контент-анализа, а также систематический и сравнительный анализ, хронологический и проблемный методы.

Новинка - изучение сотрудничества Узбекистана с арабскими странами в историографическом ракурсе, объектом исследования выступают исследования арабских аналитических центров, способных оказать всестороннее влияние на уровень партнерства сторон.

Исследование выявило ограниченность знаний об Узбекистане в арабских странах, устойчивость в них существующих тенденций и стереотипов, узость и односторонность текущих дискуссий.

В заключении подчеркивается необходимость более глубокого, непрерывного и системного изучения подходов аналитических центров арабских стран по Узбекистану, что это не только положительно повлияет на рост их взаимопонимания, улучшение двусторонних и многосторонних отношений, но и будет стимулировать их рост. в образе нашей страны за рубежом.

Ключевые слова: *Узбекистан, арабские аналитические центры, содержание, имидж, проблемная историография.*

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijobiy imijini jahon miqyosida ilgari surish va mustahkamlashga oid siyosat shakllanmoqda. “O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori mazkur masala nechog‘li ahamiyatli ekanining isbotidir. Qarorda qayd etilishicha, davlat va jamoatchilik darajasida O‘zbekistonning xalqaro imijini shakllantirish va targ‘ib qilishning yaxlit tizimi ishlab chiqilib, kompleks va tizimli davlat siyosati shakllantiriladi. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida xorijiy mamlakatlarning davlat va nodavlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar hamda moliya institutlari tomonidan O‘zbekistonning izchil rivojlanayotgan, zamonaviy demokratik huquqiy davlat sifatida yaxlit va ijobiy qabul qilinishini kuchaytirish belgilangan. Shunga ko‘ra, xorijiy nodavlat tuzilmalarda O‘zbekiston mavzusidagi materiallarni kuzatish va ulardagi talqinlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur maqolada XXI asrga kelib, jahon siyosati, iqtisodi va xavfsizlik tizimlariga ta’sir ko‘rsatish darajasida rivojlangan Think tank – tahlil markazlarida O‘zbekiston mavzusidagi materiallarning tavsifi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot obe’kti sifatida Arab davlatlaridagi tahlil markazlari tanlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur masala bo'yicha adabiyotlarni quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin – O'zbekistonda, arab va arab bo'lmagan musulmon mamlakatlarida yaratilgan manbalarning turli shakllari. Bu manbalarning mavzuga nisbatan yondashuvlari bir biriga yaqin yoki o'xshash bo'lganligi uchun qiyosiy tahlilga imkon yaratadi.

O'zbekistonda XX asrning 90-yillaridan xorijiy tadqiqotchilarning respublika siyosiy hamda iqtisodiy hayotida kechayotgan jarayonlarni o'rganishi natijasida, O'zbekiston tarixi tarixshunosligining xorijiy kontenti vujudga keldi. Tarixshunoslikining xorijiy kontenti orasida arab davlatlarida yaratilgan tadqiqotlar ham salmoqli o'ringa ega. Arab mualliflarining O'rta Osiyo va O'zbekiston haqidagi izlanishlari o'zbekistonlik tarixchi, siyosatchi va iqtisodchilari tomonidan tahlil qilingan Z.Munavvarov, Sh.Yovqochev, S.G'afurov, tadqiqotlarida Misr va Fors ko'rfazi arab davlatlarining global va mintaqaviy siyosatini tahlil qilish orqali uning O'zbekiston bilan munosabatlari masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, XX asr xalqaro munosabatlar tizimida Saudiya Arabistonining o'rni va ahamiyatini ko'rsatib beruvchi tadqiqotda qirollik tashqi siyosatining XX asrdagi dinamikasi o'rganilgan. Saudiya Arabistonining musulmon dunyosi shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalaridagi istiqbolli yo'nalishlar, muammoli vaziyatlar hamda g'oyaviy qarama qarshiliklar tahlil qilingan [Z.I.Munavvarov:213]. Fors ko'rfazi arab davlatlari va O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy va umumjahon xavfsizlikni ta'minlashdagi mavqei masalalari, O'zbekiston va Fors ko'rfazi arab davlatlarining hamkorlik aloqalaridagi ustuvor yo'nalishlar, ularni bog'lab turuvchi manfaatlar, aloqalarning tarixiy ildizlari masalalari ham o'zbek tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan [S.M.G'afurov:244]

Fikrimizcha, xorijiy tadqiqotchilarning mustaqillik yillari O'zbekistonda amalga oshirilyotgan islohotlarga bag'ishlangan tadqiqotlari respublika olimlari tomonidan ko'p marotaba o'rganilgan bo'lsa-da biroq xorijiy tahliliy markazlarning materiallari tarixshunoslik kontekstida alohida tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagan.

Arab davlatlarida O'zbekiston haqidagi tadqiqotlar XX asrning 90 yillaridan boshlangan. 1992 yil fevral oyida Misr Arab Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi diplomatik tadqiqotlar Instituti tomonidan O'rta Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalariga bag'ishlangan simpozium tashkil qilingan. 1993 yil mart oyida Qohira universitetining Iqtisod va siyosiy fanlar fakulteti qoshidagi Siyosiy tadqiqotlar Markazi arab dunyosining Rossiya va O'rta Osiyo bilan o'zaro munosabatlariga bag'ishlangan simpozium o'tkazgan. 1993 yilda Qohira universitetida ham mana shunday simpozium tashkil qilingan. [S.M.G'afurov:244] Mazkur davrda Fors

ko'rfazida kechayotgan chuqur inqiroziy vaziyat o'zaro hamkorlik aloqalarining shakllanishida salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'ldi. Keyinchalik islom va dunyoviy davlat masalasidagi g'oyaviy qarama qarshiliklar o'zaro munosabatlarning sovuqlashuvi yoki turg'un bir holatga olib keldi. Bu esa O'zbekiston xaqida yozilayotgan kontentda o'z aksini topdi. Arab mualliflarining O'zbekiston haqidagi tadqiqotlarining asosiy mavzulari islom va dunyoviy davlat, islom terrorizmi, geosiyosiy hamda iqtisodiy tahlillardan iborat bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar orasida O'zbek xalqining tarixiy ildizlari, mustaqillik davri islohotlari, davlat siyosiy hayotida sodir bo'layotgan transformatsiya shuningdek o'zaro munosabatlar dinamikasiga juda kam e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlarda davlat yoki davlatlar guruhining siyosiy irodasining aks etishi, chuqur ilmiy tahlilning yetishmasligi kabi holatlar ko'zga tashlanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ta'sir doiralari uchun o'zaro raqobatlashayotgan musulmon mamlakatlari jumladan, Turkiya, Eron hamda Pokiston davlatlarida ham so'ngi yillarda O'zbekistondagi siyosiy transformatsiya va ijtimoiy modernizatsiya haqidagi tadqiqotlardan iborat katta kontent shakllandi. Jumladan, Turkiya Respublikasida o'zaro munosabatlardagi tiktonik o'zgarishlarga qaramasdan O'zbekistonni kompleks o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Turkiyadagi Sahipkiran Stratejik Araştırmalar Merkezi - SASAM, Türk Asya Stratejik Araştırmalar Merkezi – TASAM va Orta Asya Araştırmaları Merkezi kabi tahliliy markazlar materallari va Bayram Balci, Necati İyikan kabi tadqiqotchilarning tadqiqotlarida mavzuga oid ma'lumotlarni uchratish mumkin. Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda mustaqillik yillari amalga oshirilayotgan transformatsiya haqidagi xorijiy kontentning umumiy xususiyati quyidagicha: tadqiqotlar asosan jurnalistlar va siyosatshunoslarning izlanishlaridan iborat; ular o'ta siyosiy lashtirilgan, shu sababli bunday tadqiqotlarda ko'pincha jiddiy ilmiy tahlilning yetishmasligi ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarda O'zbekiston xaqidagi mavjud stereotiplar hali hamon o'zgarmasdan kelmoqda, ulardagi mavzular yo'nalishi ham juda tor va bir yoqlama xususiyatga ega. Jumladan, arab davlatlarda O'zbekiston tarixiga oid shakllanayotgan kontentda, ilmiy tahlilning yetishmasligi holati, stereotip qarashlar va mavzular ko'lami "o'ta qoliplashtirilgan" holatda aks etadi.

Mazkur maqolani tayyorlashda **uslubiy jihatdan** Arab davlatlaridagi tahlil markazlarining materiallari kontent tahlil asosida o'rganilib uning xulosalari tadqiqotga jalb qilindi. Tadqiqotda materiallar tizimli tahlil qilindi, qiyosiy o'rganildi hamda xronologik-muammoviy usul asosida tizimlashtirildi. Shuningdek, tahliliy markazlar materiallarini tarixshunoslik kontekstida o'rganish amaliyotida mavjud

bo‘lgan fanlararo yondashuv usuli imkoniyatlaridan foydalaniladi. Jumladan, siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, geosiyosiy tadqiqot usullari hamda tarix fanining zamonaviy usullari, tadqiqot ob‘ekti bo‘lgan manbalarni atroflicha o‘rganish imkoniyatini yaratdi.

NATIJALAR

Think tank – tahlil markazlari tushunchasi. Dastlab tahlil markazlari tushunchasiga biroz to‘xtalib o‘tamiz. *Think tank – tahlil markazlari*, siyosiy muammolarga javob topish uchun fanlararo yondashuv asosidagi tadqiqotlarni tashkil qiluvchi turli xil institutlar, korporatsiyalar yoki alohida guruhlardir. Tahliliy markazlar amaliy siyosiy jarayonlar va fan o‘rtasidagi bog‘lovchi vazifasini bajaradi. AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi tahlil markazlari tayyorlagan dasturlar shu qadar keng qamrovliki, ular jahonning geosiyosiy manzaralariga ta‘sir eta olish darajasidagi qudratga ega. Tahlil markazlarining doimiy “mijozlari” hukumat, nodavlat tashkilotlar va alohida shaxslar bo‘lishi mumkin. Markazlar faoliyatini moliyalashtiruvchi va “ilhomlantiruvchi”lar ham hukumat, nodavlat tashkilotlar va alohida shaxslardir. Tahlil markazlari faoliyatining natijasi bo‘lmish axborot va tahliliy materiallar ekspert baholovi, ya‘ni, tahliliy bilim, jarayonlarga nisbatan professional qarash, muammolarni chuqur ilmiy tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Odatda, tahlil markazlarida kuchli intellektuallardan iborat resurs shakllantiriladi va ular siyosat hamda siyosiy bilimlarni birlashtirgan holda siyosiy jarayonlarga ta‘sir eta olish, strategik muammolarni hal qilish hamda ularni boshqarib borishga qaratilgan materiallarni shakllantiradi. O‘tgan asrdan boshlab faollik bilan rivojlangan bu turdagi institutlar bugungi kunga kelib, xalqaro munosabatlarning aktori maqomiga ko‘tarildi.

Nega aynan arab tahlil markazlari? Avvalambor, shuni tan olish kerakki, o‘tmishda bo‘lganidek, hozir Arab davlatlari jahon manzaralariga mustaqil ravishda katta o‘zgarishlar kiritish imkoniyatiga ega emas. Bir zamonlar jahon poytaxti goh Damashq, goh Bog‘dod bo‘lgan bo‘lsa, hozir bu yerlar oxiri ko‘rinmas ixtiloflar, Yaqin Sharq mintaqasining boyliklariga ega chiqish uchun kurashayotgan xalqaro kuchlarning bellashuv maydoniga aylanib qolgan. Biroq, shu g‘avg‘olar ichida ham Arab davlatlarining iqtisodiy va geosiyosiy imkoniyatlarini kuchsiz deb baholab bo‘lmaydi. Misol uchun, Misrning strategik qulay joylashuvi, yuqori darajadagi harbiy va intellektual salohiyati yoki Saudiya Arabistonining jahonda ikkinchi o‘rinda turuvchi ulkan neft zaxiralari haqida ko‘p aytilgan, yozilgan.

Agar gap arab tahlil markazlari haqida borsa, ular orasida bu borada ham yetakchilar borligini e‘tirof etish lozim. Masalan, jahon tahlil markazlarining 2020 yil uchun tuzilgan reytingida kuchli yuztalikka Arab davlatlaridan Saudiya Arabistoni,

Misr, Efiopiya va arablarning qo‘shnisi bo‘lmish Isroilning bir qancha tahlil markazlari kiradi. Hozirgi davrda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududidagi tahlil markazlari jadal rivojlanmoqda. Pensilvaniya Universitetining jahon tahlil markazlarining 2020 yilgi faoliyatiga oid hisobotiga ko‘ra, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida tahlil markazlarining umumiy soni 1294 tani tashkil qiladi. Tahlil markazlari soniga ko‘ra, mintaqada Eron, Isroil, Turkiya, Misr, Iroq va Livan davlatlari yetakchilik qiladi. Ularning xalqaro e‘tirof etilishi bo‘yicha ko‘rsatkich va ta’sir darajasiga ko‘ra esa Misr, Turkiya, Isroil hamda Qatardagi markazlar yetakchidir.

1 shakl.

Mintaqalar	TM soni	Mintaqalar	TM soni
G‘arbiy Yevropa	5835	Markaziy va Sharqiy Yevropa	1596
Markaziy Osiyo va Kavkaz	1129	Shimoliy Amerika	4510
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	1294	Afrika	2438
Osiyo	3957	Markaziy va Janubiy Amerika	2797

2 shakl.

Davlat	TM soni	Davlat	TM soni	Davlat	TM soni	Davlat	TM soni
Eron	87	Isroil	78	Turkiya	53	Misr	47
Falastin	39	Iroq	35	Livan	35	Iordaniya	32
Yaman	29	Marokash	29	Tunis	24	Kuvayt	16
BAA	16	Bahrayn	15	Saudiya Arabistoni	13	Qatar	15
Jazoir	11	Suriya	10	Liviya	4	Ummon	3

Arab davlatlaridagi tahlil markazlarining materiallari jahon tillaridan uchta – arab, ingliz va fransuz tillarida tayyorlanadi. Hozirgi kunda arab tili 310 million aholining ona tili ekanligi hamda 270 million aholining ikkinchi tili ekanligini hisobga olsak, bu markazlar materiallarining qamrovi nechog‘li keng ekanini tushunib olishimiz mumkin.

Vashington instituti qoshidagi Yaqin Sharq siyosati bo‘yicha tadqiqotlar olib boruvchi markazning kuzatuvlariga ko‘ra, Arab davlatlaridagi tahlil markazlari moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lmasa-da, ular o‘zini avtonom va mustaqil fikrlovchi

nodavlat tashkilot sifatida namoyon etadi. Ular yillar davomida siyosiy elita qabul qiladigan qarorlar borasida o'zgarishlarga erishgan, ularni siyosiy jarayonlarni anglashda mafkura va axloq me'yorlarini birlamchi omil sifatida ko'rmaslikka o'rgata olgan, buning o'rniga siyosatni muayyan xarajatlar va foydalar bilan bog'liq variantlar nuqtai nazaridan baholashga chaqirgan. Qisqacha aytganda, bugun Arab davlatlarining siyosiy hamda iqtisodiy elitasi strategik qarorlar qabul qilishda tahlil markazlari xulosalarini hisobga oladi, ular bilan eng muhim masalalarda maslahatlashadi.

MUHOKAMA

O'zbekiston – Arab tahlil markazlari nigohida. XX asrning 90-yillaridan O'zbekiston Arab dunyosi bilan ishonchli va do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. O'z navbatida, Arab davlatlari ham mamlakatimizga istiqbolli investisiya bozori, islom madaniyatining vorisi sifatida katta qiziqish bildirmoqda. Mazkur qiziqish natijasi sifatida Arab davlatlari ilmiy-tadqiqot muassasalari va media-makonida O'zbekiston mavzusi turli ko'rinish va shakl-shamoyilda zohir bo'ldi. E'lon qilingan materiallar, xususan, ilmiy adabiyotlar, ilmiy ommabop maqola va xabarlarining yillar hamda mamlakatlar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda mazmun jihatidan ayrim umumiyliklar kuzatilsa-da, janr jihatidan farqlar mavjud. Xususan, oddiy xabar, maqola, suhbatdan tortib, chuqur ilmiy tahliliy monografiya va dissertatsiyalargacha bor. Kuzatuvlar yana shuni ko'rsatmoqdaki, Misr, BAA, Saudiya Arabistoni va Ummon kabi davlatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalari va ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston mavzusiga tez-tez murojaat qilinsa, Tunis, Jazoir, Iordaniya, Marokash singari davlatlar matbuoti hamda ilmiy doiralarida bunday chiqishlar ko'p emas. Umuman olganda, Arab davlatlarida O'zbekiston mavzusidagi tadqiqotlar va yirik tahliliy materiallar katta kontentni tashkil qilmaydi. Ularning aksariyatida "O'zbekiston" kalit so'zi G'arb va Rossiya, Eron va Turkiya, Saudiya Arabistoni va Eron, Isroil va Arab davlatlari o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy hamda mintaqaviy raqobat bilan bog'liq muammolar yoritilgan tadqiqotlarda uchraydi. Shuningdek, Afg'onistondagi vaziyat, diniy radikal guruhlar faoliyati, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, terrorizm xavfiga oid umumiy mavzularda ham mamlakatimiz nomi tilga olinadi. Shu o'rinda aytish joizki, Arab davlatlari tahlil markazlarida O'zbekiston imiji hali hukumatimiz istayotgan darajaga yetgani yo'q.

Bevosita Arab davlatlarining tahlil markazlaridagi O'zbekiston mavzusiga kelsak, bu mavzu bilan bog'liq materiallar 2000 yillardan boshlab Markaziy Osiyo kontekstidagi tadqiqotlar doirasida uchraydi. Dastlabki davrda tarixdagi buyuk Movarounnahrning vorisi sifatida Markaziy Osiyo mintaqasi yaxlit birlik sifatida qabul qilingan bo'lsa, taxminan so'nggi 5 yilliklarda mintaq o'z yaxlitligini yo'qotib, har

bir davlat o'ziga xos tarzda, o'z taraqqiyot modellari bo'yicha va turli xalqaro maqsadlarni ko'zlagan holda rivojlanayotgani to'g'risidagi qarashlar shakllanmoqda. Misol uchun, Arab davlatlarida Markaziy Osiyoga oid birinchi tadqiqotlarni olib borib, mintaqadagi siyosiy jarayonlarni baholagan Misrning "Al-Ahram" siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi Markaziy Osiyo mavzusidagi jami 32 ta tahliliy maqolasidan 1 tasida, Qatarining "Al-Jazeera" siyosiy tadqiqotlar markazidagi mavzuga oid jami 19 ta maqolaning faqat 1 tasida O'zbekiston mavzusi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan.

Quyida "O'rta Osiyo" va "O'zbekiston" kalit so'zlari bilan qidirilganda topiluvchi materiallarni e'lon qilayotgan tahlil markazlari shu mavzudagi materiallari soni hamda jahon tahlil markazlarining 2020 yilda e'lon qilingan reytingidagi o'rni (Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (MENA) mintaqasi bo'yicha) ko'rsatilgan.

3 shakl.

Materiallar soniga ko'ra TM ketma-ketligi	Davlat	Xalqaro reytingdagi o'rni	
Al-Ahram siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi	Al-Ahram Center for Political and Strategic Studies (ACPSS)	Misr	4
Al Jazeera siyosiy tadqiqotlar markazi	Al Jazeera Centre for Studies (AJCS)	Qatar	11
Istiqbolli tadqiqotlar markazi	Future Center for Advanced Researches and Studies	BAA	78
Misr tashqi ishlar Kengashi (ECFA)	Egyptian Council for Foreign Affairs (ECFA)	Misr	29
Ko'rfaz tadqiqotlar markazi	Gulf Research Center (GRC)	Saudiya Arabistoni	48
Amirliklar siyosat markazi	Emirates Policy Center (United Arab Emirates)	BAA	2
Qirol Faysal islom tadqiqotlari markazi	King Faisal Center for Research and Islamic Studies (Saudi Arabia)	Saudiya Arabistoni	44
Rasanah: Xalqaro Eron tadqiqotlari instituti	Rasanah: International Institute for Iranian Studies	Saudiya Arabistoni	8

Misr Iqtisodiy tadqiqotlar markazi	Egyptian Center for Economic Studies (ECES) (Egypt)	Misr	5
------------------------------------	---	------	---

Arab tahlil markazlarida O‘zbekistonning imiji qay tarzda shakllanayotganligi masalasini o‘rganish uchun biz bir qancha tahlil markazlarining materiallarini tahlil qilib ko‘rdik. Shu o‘rinda aytish lozimki, tahlil markazlaridagi O‘zbekiston mavzusining xususiyati markazlar faoliyat olib borayotgan va moliviy jihatdan bog‘liq bo‘lgan davlatlarning O‘zbekistonga nisbatan munosabatidan kelib chiqadi. Shuningdek, juda oz o‘rinlarda bo‘lsa-da, O‘zbekiston mavzusi umumiy ma’noda boshqa bir tavsifda, xususiy ma’noda esa yana boshqa bir tavsifda zohir bo‘layotganini ko‘rishimiz mumkin.

“Al-Jazira” siyosiy tadqiqotlar markazi 2009 yildan buyon O‘rta Osiyo kontekstida O‘zbekiston mavzusini o‘rganadi. Biz jami 19 ta maqolani tahlil qildik.

4 shakl.

Mavzular	Yil	Mavzular	Yil
Mintaqada Turkiya tashqi siyosati	2009	Mintaqada Eron tashqi siyosati	2014
Mintaqaning strategik ahamiyati	2013	Mintaqadagi mafkuraviy va siyosiy jarayonlar	2014
Mintaqada suv muammosi	2013	Rossiyaning mintaqadagi ta’siri	2014
Mintaqadagi faol diniy partiyalar faoliyati	2013	Mintaqada AQSh tashqi siyosati	2015
Mintaqadagi islom partiyalari va davlat siyosati	2013	Evropa Ittifoqining mintaqadagi strategiyasi	2015
Qozog‘iston va N.Nazarboyevning ichki va mintaqadagi siyosati	2013	Hindistonning mintaqadagi yangicha tashqi siyosati	2015
Qirg‘izistondagi inqilob tahlili	2013	Mintaqa davlatlari munosabatlari dinamikasi va xavfsizlik masalasi	2018
Tojikistonning mintaqaviy ahamiyati	2013	“Yangi O‘zbekiston” parlament saylovlari	2020

“Al-Jazira”da O‘zbekiston mavzusidagi tadqiqotlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: siyosiy islom, mintaqaviy xavfsizlik muammolari, geosiyosiy jarayonlar. Bu mavzular doirasida “O‘zbekiston” kalit so‘zi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan kalit so‘zlar bilan birgalikda keladi.

5 shakl.

Din va siyosat	Mintaqaviy muammolar	Geosiyosiy jarayonlar
Mintaqada _____	Mintaqada_____	Mintaqada_____
Siyosiy islom	Integratsiya	AQSh manfaatlari
Radikal islom guruhleri	Suv muammosi	Rossiya manfaatlari
Islomiy partiyalar	Mintaqaviy xavfsizlik	EI manfaatlari
Din va davlat munosabatlari	Tojikistonning ta’siri	Hindiston manfaatlari
Siyosiy partiyalar	Qirg‘izistonning roli	Turkiya manfaatlari
O‘zbekiston islom harakati		Geosiyosiy kurash
IShID		Eron ta’siri
Tolibon		Xitoy ta’siri
		Rossiya ta’siri

“Al-Jazira”da O‘zbekiston mintaqaning eng yirik davlati, yetakchi kuch sifatida talqin qilinadi. Markaz ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekiston etnik nizolar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mamlakat, unda diniy guruhlar faoliyati ta’qiqlangani sabab, ular muxolif sifatida xorijda faoliyat olib boradi va hozir Afg‘oniston va Yaqin Sharq hududlarida bo‘lib, mamlakat xavfsizligiga tahdid solmasligi kafolatlanmagan. Shuningdek, mamlakat murakkab geosiyosiy jarayonlarga tortilgan, u xalqaro kuchlar manfaatini hisobga olishga majbur. 2010-2016 yillardagi materiallar o‘rganilganda O‘zbekiston ichki muammolarga boy, geosiyosiy jarayonlar ta’sirida qolayotgan, xavfsizlik masalalari hal qilinmagan yopiq bir mamlakat sifatida taassurot qoldiradi.

2018 va 2020 yillarda e’lon qilingan ikkita materialda esa mamlakatdagi islohotlarni e’tirof etish holati ko‘zga tashlanadi. Xususan, 2020 yil “Yangi O‘zbekiston” shiorlariga qaramay, parlament eski amaliyotni himoya qilishni davom ettirmoqda” sarlavhasi bilan e’lon qilingan katta tahliliy maqolada markaz eksperti Zaki Shayx saylov tizimida ko‘zga tashlana boshlagan ayrim o‘zgarishlar, demokratik erkinliklar hamda siyosiy hokimiyat uchun kechayotgan kuchsiz raqobatni tanqidiy tahlil qilgan. Zaki Shayx 2017 yilgacha bo‘lgan mualliflardan farqli o‘laroq, O‘zbekiston mavzusida “islohotlar”, “demokratiya”, “erkin saylovlar”, “matbuot va

so‘z erkinligi”, “ochiqlik siyosati” kabi tushunchalarni keng qo‘llaydi. Eng asosiysi, u O‘zbekiston mavzusini O‘rta Osiyo kontekstidan ajratib o‘rganadi. Uning fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar davlat siyosiy hayotida katta ahamiyat kasb etmay kelayotgan edi, ularning faoliyati cheklangan va faqatgina amaldagi tizimni saqlab turishdagi vositalardan biri sifatida ahamiyatli bo‘lgan. Uning asosini tashkil qiluvchi siyosiy partiyalar faoliyati esa bir so‘z bilan aytganda, demokratik tamoyillarga mos emas edi. Biroq, endi bu holat o‘zgarishlar sari yuzlanmoqda. Davlat siyosiy hayotining barcha jabhalarida kuzatilayotgan o‘zgarishlar siyosiy partiyalar va saylov tizimida ham qisman aks etadi. Prezident Shavkat Mirziyoev yangi parlamentning mustaqil institut sifatida shakllanishi va tom ma’noda demokratik tajriba qaror topishi yo‘lida ishlashini ta’minlashga intilmoqda⁵⁸. “Al-Jazira” siyosiy tadqiqotlar markazi arab tahlil markazlari uchun fenomen emas, lekin u ko‘tarayotgan masalalarni qolgan barcha tahlil markazlarining tadqiqot yo‘nalishlari qatorida uchratish mumkin, jumladan, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mavzularini ham.

Biz Markaziy Osiyo kontekstida O‘zbekiston mavzusini tahlil qilayotgan yana bir qancha arab tahlil markazlari materiallarini mavzu xususiyatiga ko‘ra guruhlashtirdik.

6 shakl.

Markaz nomi	Geosiyosiy mavzular doirasida	Radikal islom guruhlari	Ichki siyosat	O‘zbekiston va Arab davlatlari
Al-Ahram Center for Political and Strategic Studies (ACPSS)	12	2	-	1
Al Jazeera Centre for Studies (AJCS)	11	4	4	-
Future Center for Advanced Researches and Studies	1	1	-	-
Egyptian Council for Foreign Affairs (ECFA)	10	-	-	-
Gulf Research Center (GRC)	2	1	-	1
Emirates Policy Center (United Arab Emirates)	10	-	-	-

⁵⁸ <https://studies.aljazeera.net/ar/article/4548>

King Faisal Center for Research and Islamic Studies (Saudi Arabia)	3	4	-	-
Rasanah: International Institute for Iranian Studies	36	2	-	-
Egyptian Center for Economic Studies (ECES) (Egypt)	2	-	-	-

Guruhlashtirib o'rganish natijasida O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston ham Arab davlatlaridagi tahlil markazlari uchun murakkab geosiyosiy jarayonlarga tortilgan, xalqaro va mintaqaviy kuchlarning raqobat maydoni, radikal islom guruhlarini faollashishi mumkin bo'lgan mintaqada taassurot qoldirayotganligi aniqlandi. Xususan, "Al-Ahram" siyosiy va strategik tadqiqotlar markazining 2021 yil yanvar oyida e'lon qilgan maqolasida markaz eksperti Ahmad Komil Al-Buxariy IShID Yaqin Sharqda o'z maqsadlariga erisha olmaganidan so'ng Markaziy Osiyoning ayrim davlatlarida faoliyatini kuchaytirishga e'tibor qaratmoqda, deb yozadi va bu holat bo'yicha o'z mulohazalarini bildiradi. Uning fikricha, mintaqadagi aksariyat mamlakatlarda ish va ta'lim imkoniyatlarining zaifligicha qolayotganligi, etnik guruhlar o'rtasida keskinlik mavjudligi, aholining katta qismi og'ir turmush sharoitlarida yashab, iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan aziyat chekayotganligi hamda korrupsiya keng yoyilganligi, ustiga-ustak, mintaqada terroristik tashkilotlar faoliyati azaldan borligi kabi omillar shunday xulosaga kelishga undaydi.⁵⁹

Birlashgan Arab Amirliklari "Amirliklar siyosat markazi"ning maqolalarida ham "O'zbekiston" kalit so'zi Afg'onistondagi vaziyat, yangi Tolibon hukumati, Eron va Turkiya tashqi siyosati hamda radikal islom guruhlarini mavzusidagi maqolalar doirasida tahlil qilinadi.

XULOSA

Qatarlik siyosatshunos Ibrohim G'aribaning yozishicha, arab kitobxonlariga Marv, Samarqand, Buxoro va Toshkent singari shaharlarning nomlari O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistondan ko'ra ko'proq narsani anglatadi. "Arablar O'zbekiston haqida ko'p narsa bilmas, ehtimol, biroq, bu zaminda tug'ilib-o'sgan va ilm olgan al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Xorazmiy, al-Farobiy va Ibn Sino kabilarning nomlari, ularning insoniyat tarixidagi ahamiyatini yaxshi bilishadi",

⁵⁹ <https://acpss.ahram.org.eg/News/17160.aspx>

deb yozadi muallif. Shunday ekan, O‘zbekistonning Arab davlatlaridagi imiji Al-Buxoriy avlodlari, tinchlik va barqaror rivojlanish yo‘lini tanlagan xalq sifatida shakllanishiga erishish lozim. Zotan, mamlakatimiz murakkab geosiyosiy jarayonlarga tortilgan davlat, radikal guruhlarining ehtimoliy tahdidi singari xavotirli va asoslanmagan axborotlar bilan tanilmasligi kerak.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son
2. Мунавваров,З.И. Страны аравийского полуострова в международных политических и экономических отношениях XX века. Т., 1997
3. G‘afurov, S.M. Fors ko‘rfazi arab davlatlari va O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy va umumjahon xavfsizlikni ta‘minlashdagi mavqei. Siyosiy fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2002
4. Ezzat, Ibrahim. Arab and american think tanks: new possibilities for cooperation? New engines for reform? The Saban center for Middle East policy at the Brookings institution. Washington, D.C. 2004 pp 34
5. Stella, Ladi. <https://www.britannica.com/topic/think-tank>
6. 1-30-2019 2020 Global Go To Think Tank Index Report. Pp. – 35.

XITOIY ADABIYOTIDA DRAMANING JANR SIFATIDA TARAQQIYOTI

Komilova Shaxnoza Turobuddinovna.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Shark mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedراس.

e-mail: sh_muslima@inbox.ru

Tel: (90)9597915

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola doirasida o‘zbek, yevropa va xitoy adabiyotid drama janrining paydo bo‘lishi, rivojlanishigata‘sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillar ta‘siri masalasi aks ettirilgan. Tadkikotchilar tomonidan olib borgan tadqiqotlar asosida xitoy dramaturgiyasi janrlarining yuzaga kelishida qadimiy hind madaniyatining keng yoyilishi sabablari xususida xam ma‘lumotlar keltirildi. XIII-XIV asrlardailk xitoy dramaturgiyasida shakllangan “siven”, “szatszyuy” janrlarining o‘ziga xos jixatlari xususida, hamda shu bilan birga bu janrining rivojida o‘z o‘rniga ega dramaturglari Guan Xan Chin, Van Shi Fu, Bay Pu, Ma Ji Yuanva boshqalarning ijodi, dramatik asarlarixususida fikr yuritilgan. Maqolada janr nuqtaiy nazaridan XVII-XVIII asrlar kelib esa dramaturgiyada nomlari keltirilgan janrlar bilan birga “chuansi” janrining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, dramaturglar ijodi misolida yotirib berilgan.

Kalit so‘zlar: «nansiven» (南戏文), «szatszyuy» (杂剧), «chuansi» (传奇) sanskrit dramasi “Shariputraprakaran”, “Kumarylata”, “Shakuntala”, Guan Xan Sin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bay Pu (白朴), Ma Ji Yuan(马致远)

ABSTRACT

This article reflects the influence of internal and external factors that influenced the formation and development of the drama genre in Uzbek, European and Chinese literature. Also, based on the research conducted by the researchers, data were provided on the reasons for the widespread spread of ancient Indian culture in the origin of the genres of Chinese drama. A review of dramatic works is given about the peculiarities of the genres “xiwen”, “zasyu”, formed in ancient Chinese dramaturgy in the XIII-XIV centuries, as well as about the works of playwrights Guan Han Chin, Wang Shi Fu, Bai Pu, Ma Ji Yuan and others, who occupied a prominent place in the development of this genre. The article examines the emergence and development of the genre of “chuansi”, through the work of playwrights of the XVII-XVIII centuries.

Keywords: "nansiven" (南戏文), "szaszyuy" (杂剧), Sanskrit drama, "Shariputraprakaran", "Kumarylata", Shakuntala, Guan Han Sin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bay PU (白朴), Ma Ji Yuan(马致远)

АННОТАЦИЯ

В статье отражено влияние внутренних и внешних факторов, повлиявших на формирование и развитие драматического жанра в узбекской, европейской и китайской литературе. Также на основе проведенного исследователями исследования были предоставлены данные о причинах широкого распространения древнеиндийской культуры в зарождении жанров китайской драмы. Дан обзор драматических произведений об особенностях жанров «сивэнь», «засю», сформировавшихся в древнекитайской драматургии в XIII-XIV веках, а также о творчестве драматургов Гуан Хань Чин, Ван Ши Фу, Бай Пу, Ма Цзи Юань и другие, занявшие видное место в развитии этого жанра. В статье исследуется возникновение и развитие жанра «чуанси» в творчестве драматургов XVII-XVIII веков.

Ключевые слова: «нансивен» (南戏文), «szaszyuy» (杂剧), санскритская драма, «Шарипутрапракаран», «Кумарата», Шакунтала, Гуан Хан Син (关汉卿), Ван Ши Фу (王实甫), Бай ПУ (白朴), Ма Цзи Юань (马致远)

KIRISH

Xitoy xalq tomosha san'ati juda qadim zamonlarda vujudga kelgan va o'z taraqqiyoti davomida bulg'usi saxna ko'rinishlari uchun umumiy qonun va qoidalar sifatida xizmat qildi. Tan davri shoirlari Li Bo, Du Fular she'riyati, Li Gunszo, Yuan Chjen novellalari asosida, eng avvalo, o'z xalqiga, insonga bo'lgan muhabbatni o'z ifodasini topgan. Dramaturgiyada XIII-XIV asrlarda kelib yangi janrlarning paydo bo'lishi tufayli asarlarning ichki tuzilishlari biroz yengil shaklga keltirilgan bo'lsada, kuchli, teran mavzular ko'tarilgan. Albatta, XVII-XVIII asrlar kelib esa o'rta asr uslubidagi syujetlar, g'oyalar, xarakterlar davom etgan, lekin sekin-asta o'zlashtirish uslublariga qarshi kurash boshlangan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolani maqsadi xitoy adabiyotida dramaning janr sifatida taraqqiyotida ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar, sanskrit drama va teatrining ta'sir masalalarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun xitoy adabiyotida dramaturgiyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi xususida aniq ma'lumotlarni keltirish, ilk dramatik janrlar, dramaturglar ijod namunalari, sanskrit dramasi ilk

namunalarini sanab o'tish, janr sifatida taraqqiyotini yoritib berish kerak. Maqolada qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, madaniy – tarixiy, qiyosiy – tarixiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dramaturgiya har bir xalq adabiy merosining ma'lum bir qismini tashkil etadi va har bir adabiy hodisa kabi o'zining ma'lum bir taraqqiyot bosiqichlariga ega bo'ladi.

Ma'lumki drama va teatr bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan adabiy hodisalardir. "Drama" so'zi (yun. drama — harakat) aslida "harakat", "harakat bilan ko'rsatilgan voqea", ya'ni tomosha demakdir. Taniqli yunon mutafakkiri Aristotel ham o'zining "Poetika" asarida "Dramaning o'zi harakat, chunki harakat qiluvchi shaxslarni ekc ettiradi"⁶⁰ degan jumlasini bilan dramaning teatr san'atiga qanchalik bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Dramada inson voqea ustidan hukmron bo'lib, voqealar fonida turib rol ijro etadi. Dramaning qudratli hayotiy asoslaridan yana biri-insonning hayotidan olingan o'z taassurot va saboqlarini boshqalarga qo'rgazmali usulda berilishidir.⁶¹ Drama —badiiy adabiyotning epos, lirika bilan bir qatorda 3 asosiy turidan biri. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi dramaning o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qaxramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo dialog va monologlarda ifodalanadi. Dramatik janrlar, o'z navbatiga turlarga bo'linadi, ular: tragediya, komediya, drama (janr sifatida) va tragikomediya janrlari. Ma'rifatparvarlik davri (Didro⁶², Lessing⁶³) dan boshlab drama badiiy adabiyotning yetakchi janrlaridan biriga aylangan. Unda insonning ziddiyatli hayoti ifodalanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir xalq adabiyoti va san'atining gullagan davrlari mavjud bo'lib, eramizdan avvalgi VIII-V asrlarda antik adabiyot, ya'ni grek adabiyoti yuksak rivoj topga davr bo'lgan. Bu davrda Gomer, Sofokl, Esxil kabi daholarning asarlari hozirgacha jahon xalqlari orasida ma'lum va mashxurdir. Undan keyin Rim adabiyotida rivojlanish kuzatiladi. XVI asrda ingliz adabiyotida Shekspir, Marlo, Grinn kabi buyuklarning ijodiyoti orqali dunyo madaniyatida yangi ko'tarilish davri boshlandi. XVIII asrda Germaniyada Gyote, Shiller va bir qator adiblar orqali adabiyot va san'atning yuksalishi ko'zga tashlanadi. XIX asrda Fransuz

⁶⁰ Aristotel. "Poetika". Toshkent. 1980y.

⁶¹ Odilova N. Dramaturgiya asoslari. T.: 2008

⁶² Didro Deni (Dider, Denis) 1713-1784 yil.-fransuz yozuvchi, faylasuf, tanqidchi, dramaturg

⁶³ Lessing Gotxold Efrain(1729-1781) – nemis ma'rifatparvari, san'atshunos, dramaturg, shoir, publitsist.

adabiyotini Gyugo, Dyuma, Stendal, Flober, Mopassanlar kabi mashxurlar dunyoga tanitdilar.

Sharqda esa drama san'atining rivoji o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Hindistonda melodning birinchi ming yillik davrida, Yaponiyada X-XI asrlarda, XIII-XIV asrlarda qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblangan Xitoyda drama janr sifatida to'liq shakllandi.

XIII asrda yashab ijod qilgan Xitoyning taniqli dramaturglari Guan Xan Chin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bay Pu (白朴), Ma Ji Yuan(马致远) va boshqalarning dramatik asarlari hozirgi kunga qadar o'z qadr-qiyamatini yo'qotmagan. Bu nomlar bizni keyinchalik mumtoz degan nom olgan va xitoy madaniyati ravnaqi tarixida alohida o'rin tutgan, uning birmuncha demokratik janrlaridan bo'lgan xitoy dramaturgiya va teatrining o'sha davrdagi ravnaqi bilan bog'laydi. XIII asrda, mo'g'ul bosqinchilari tomonidan xitoy milliy san'ati qattiq ta'qib ostida bo'lgan bir davrda teatr va dramaturgiya yetakchi san'at turlaridan biri bo'lib qoldi. Mo'g'ullar xukumronligi davrida teatr o'ziga xos faoliyati bilan ozodlik g'oyalarning badiiy targ'ibotida birmuncha ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qildi. Lekin, ilg'or g'oyalarning ommalashuvi xalq uchun yanada qulay va tushunarli badiiy shakllarni topishni talab qilar edi. Teatr san'ati manbaalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Insoniyat jamiyati ravnaqining birinchi bosqichida, xayvonlar va qushlar ovi inson uchun tiriklikning zaruriy omili bo'lgan bosqichda tabiatga va xayvonlarga sig'inish qaror topgan. Qadimgi Xitoyda xayvonlarga sig'inishning ilk shakllari o'yinlar va raqslarda o'z aksini topgan. Inson jamiyatining qadimgi davrida yuzaga kelgan raqslar bo'lg'usi saxnaviy xarakterlarning ilk elementlari bo'lib, qoyalarga ishlangan tasviriy suratlar bizgacha nafaqat «tovus va qoplon», «baliq va ajdarxo» raqslari tasvirida, balki turli liboslarda (tovus, qoplon, ajdarxo niqoblarini kiygan holda) raqsga tushayotganlarning suratlari yetib kelgan. Xitoy ko'chalari va maydonlarida bayramlarni «tovus», «ajdarxo» raqslari, «arslonlar kurashi» va boshqa shu kabi raslarni mumtoz davr raqs ustalari ijrosida ko'rish mumkin. Raqs san'atining o'ziga xosligi insonga nafis xarakterlar bilan o'z xis-tuyg'ularini ifodalash, turli siymolarni saxna ko'rinishlarini yaratish imkonini berdi.

Xitoy adabiyotida drama janri rivojida birinchi Xitoy pesasi aktyorlar tomonidan kichkinagina, lekin juda ham erkin formadagi, ya'ni «siven» (teatr matni) (戏文) yoki «nansiven» (南戏文) - «janubiy siven» (janubiy teatr matni) deb nomlangan janrlar yaratilgan. Bu janrlarning ayrim xususiyatlari hozirgi xitoy janubiy teatri va dramalarida saqlanib qolgan, ya'ni qo'shiq kuylash (ariya), prozaik dialog va pantomimolarning (raqs) birga kelishi yaqqol ko'rinish turadi.

XIII-XIV asrlarda Yuan sulolasi xukumronligi davrida dramaning «siven» janri yangi «szatszyuy» (杂剧)⁶⁴ janriga aylantirildi. Bu dastavval Shimoliy Xitoyda paydo bo‘lib, tez orada «siven»ni ikkinchi o‘ringa tushirib qo‘ydi va nafaqat shimolda, balki janubda ham rivojlana boshladi.

Xitoy xalqining ham ma’naviy olami vaqt o‘tgan sari o‘zgarib bordi. X-XIII asrlarga kelib san’at asarini tushunishga qodir tomoshabinlar soni ko‘payib bordi va bunga, albatta, dramaturgiya va teatr san’ati sabab bo‘ldi. San’atning aralash turi, ya’ni drama, musiqa, voizlik san’ati, ommaviy sig‘inish marosimlari, xalq tomoshalari kabilar rivojlandi. Imperator saroyidagi oliy tabaqalar uchun mo‘ljallangan sahna tomoshalariga ham zarurat paydo bo‘ldi. Xitoy dramaturgiyasining rivoji ham ayni shu davrga to‘g‘ri keldi.

Xitoy dramatik janrlarining paydo bo‘lishi masalasida adabiyotshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida xitoy dramaturgiyasi janrlarining yuzaga kelishida qadimiy hind madaniyatining Xitoyda keng yoyilishi sabab bo‘ldi, degan fikrlarni ilgari surdilar. Ushbu masalada XX asr boshlariga kelib yozuvchi Chjen Chjendo va Syuy Dishanlar tomonidan bir qator izlanishlar olib borilgan.

Ilk bor adabiyotshunos, yozuvchi Syuy Dishan 许地山 1925 yilda Kembridjda tahsil olib yurgan kezlarda o‘zining “Hind dramasi uslubini va uning Xitoy dramasi uchun oid tafsilotlari” nomli maqolasida ayni shu masalani ko‘tarib chiqqan, edi. Adibning ilmiy tadqiqotlari bir qator muammolarni qamrab olgan, jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik, Hindiston va Xitoy madaniy aloqalari tarixi va xorij madaniyatining Xitoy adabiyotiga ta’siri kabilar. Syuy Dishan Xitoy dramaturgiyasining paydo bo‘lishi Sharqiy Turkiston xududlariga buddizmning Maxayana maktabi ta’limotlarining kirib kelishi bilan bog‘liq, deb hisoblaydi. U yana shuni ta’kidlaydiki, meloddan avvalgi ikkinchi asrda sanskrit dramasi Maxayana buddizmi bilan bir vaqtda shakllangan bo‘lib, ayni shu davrda Xan sulolasida ham Maxayana maktabi ta’limoti keng tarqalgan. (er. avv. 206.—er. 220y.) .

1911 yilda nemis olimi Genrix Lyuders⁶⁵ ning arxeologik ishlari orqali Sharqiy Turkiston xududlarida sanskrit dramasi qo‘lyozma nusxalari topiladi. Bularning hammasi Germaniyaning Berlin shahridagi nashriyotda nashr etiladi. Bular orasida Asvaxoshaning “Shariputraprakaran” dramasi, Kalpanamanditikaning “Kumaralata”

⁶⁴. “Szatszyuy” (杂剧) janrida biror bir syujet xikoya kilinadi. Xikoya ariya va rakslar bilan bir aktyor tomonidan ijro etilgan.

⁶⁵ Genrix Lyuders(1869-1943)-Sharqshunos-xindshunos. Sharq adabiyoti bo‘yicha muxbirlar a‘zosi (Xindshunoslik)

dramalari va uchta nomi nomalum matnlar topilgan. Bu dramalar Guptalar davrida hind braxmanlari tomonidan yozilgan manbalar hisoblanadi.

“Shariputrarakaran” Xitoy xududlarida topilgan eng qadimgi asarlardan biri hisoblanadi. Drama matni buddizm asoschisi Gautama Shakyamuni Shariputra va Maudgalayan xayotiga bag‘ishlangan. Shu tariqa Xitoyga kirib kelgan birinchi dramatik asar buddizm adabiyoti motivlari asosida yozilgan edi va bu o‘sha davrdayoq xitoy tiliga tarjima kilingan.

Keyingi topilma sanskrit dramasi Xitoyda keng yoyilishiga ta’sir etgan asar nataka janrida yozilgan “Maytrisimiti” matni hisoblanadi. Matn to‘xtar tilida yozilgan. Keyinchalik ilk bor uyg‘ur tiliga va xitoy tillariga tarjima qilingan. Drama matni yozilishi eramizning V-VI asrlariga to‘g‘ri keladi deb tahmin qilinadi. Topilgan matn 293 betdan iborat bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra markaziy Osiyo va Xitoyda buddizmning yanada keng yoyilishiga ta’sir ko‘rsatgan, deyiladi.

Drama syujeti kuydagicha: 120 yoshli braxman Senboboli tushida osmon ruxini ko‘radi, rux Senboboliga buddizm asoschisi Gautam Shakyamuni xokini olish uchun borishi kerakligini aytadi. Senboboli juda keksayib qolganligi tufayli borolmasligini tushunib braxman Maytreya va uning 16 ta shogirdini taklif etadi. Braxman Maytreya ruhiy ozodlikka erishish uchun Buddha tanasining o‘ttiz ikki sifatini tan olish kerakligini aytadi. Shu tariqa Maytreya juda ko‘p joylarda bo‘ladi, faqatgina buddizm asoschisi Gautam Shakyamunini uchratganidagina Buddha ruhiyatining o‘ttiz ikki sifatini ko‘radi va buddizm yo‘lini tanlaydi.⁶⁶ Xitoyda aynan mana shu pesa syujeti asosida yozilgan szyuyben janridagi ilk pesa topilgan.

Shu tariqa eramizning I-VII asrlarda “Buyuk ipak yo‘li” orqali Maxayana buddizmi keng yoyilishiga va xitoy xalqining hind dramaturgiyasi an’analari bilan tanishish imkonini berdi. Lekin, VIII asrda arablarning "Buyuk Ipak yo‘li" ni bosib olishi tufayli Xitoyning Hindiston bilan aloqalari deyarli yo‘qolgan.⁶⁷

Sin sulolasi davriga kelib Xitoyda ilk chjugundyaoy i szatszyuy nomli dramatik janrlar rivojlandi va bu xitoy xalqiga hind dramaturgiyasi bilan yana qayta tanishish imkoniyatini yaratdi. Bu esa hind madaniyati hamda hind buddaviylik dramaturgiyasining xitoyda keng yoyilishiga Sharqiy Turkistonda dramaning rivojlanib borishi bilan izoxlab beriladi. Bunga xitoylik tadqiqotchi Lyao Ben “Sanskrit

⁶⁶. Bu matning ilk tarixini Gen Shimin 耿世民 o‘rganib chiqadi va o‘zining “Maytrisamiti dramasi qadimgi uyg‘ur tilida” nomli maqolasida keltirib o‘tadi. (古代维吾尔语说唱文学"弥勒会见记"), xamda bu dramaning xitoy va uyg‘ur adabiyotiningda dramaning paydo bo‘lishi va rivojida o‘rni haqida aytib o‘tadi.

⁶⁷ 751yilda Arab armiyasi tomonidan Sharqiy Turkiston hududida Tang imperiyasi qo‘shinlari (618-907) mag‘lubiyatga uchraydi, shuning uchun Hindiston bilan bir qator madaniy aloqalar yo‘qoladi

dramasidan sutszyan dramasi⁶⁸ nomli maqolasida buddizm ta'sirida Xitoyda paydo bo'lgan ilk dramani kuydagicha sxema orqali izoxlaydi: Sanskrit-toxar tili-uyg'ur tili-xitoy tili. Ushbu maqola ham, bizga, xitoy dramasi rivojliga sanskrit dramaturgiyasining ta'siri o'zgacha bo'lganligini ko'rsatadi.

Yana bir adabiyotshunos olim Jen Jendo o'z izlanishlarida aynan sanskrit dramaturgiyasi va teatrining Xitoy dramasi ta'siri xususida to'xtalib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, sanskrit tilidagi "Shakuntala" dramasi qo'lyozma nus'hasi Tyantay tog'ida joylashgan ibodatxonadan topilganligi, shuningdek, chuansi⁶⁹ nomi bilan hind teatri xarakterlarini o'zida mujassam etgan boshqa qo'lyozmalar topilganligini ham aytib o'tadi. Bularning barchasi qadimgi Hindistonning sanskrit tilida rivojlangan dramaturgiyasi Xitoy dramaturgiyasi rivojiga haqiqatan ham katta ta'sir ko'rsatganini isbotlaydi.

Xitoy dramasi ushbu janri juda murakkab bo'lib, o'zigi xos xususiyatlarga ega: «szatszyuy» janrida yozilgan asarlar 4 aktdan iborat bo'lib, undagi ariyalar asosiy personajlar tomonidan kuylanadi, qolganlar esa (prozaik) nasriy dialoglarda ishtirok etadilar, xar bir akt bir-biriga o'tuvchi qofiyaga ega bo'lib, musiqasi ham murakkab bo'lgan. Ariyalarni kuylashda mumtoz she'riyat namunalaridan foydalanilgan. «Szatszyuy»da xar bir aktdagi ariyalar ma'lum bir tartibda terilgan va yagona ohangga birlashib umumiy holda 12-14 aktni tashkil etgan. Dramaning mana shu o'ziga xos xususiyati muallifdan katta mahorat talab qilgan, shu sababli bu janrdagi asarlar faqatgina malakali mualliflar tomonidagina yaratilgan.

«Szatszyuy» janrida ijod qilgan mualliflarning asarlari jamiyatning yuqori tabaqalariga bag'ishlangan va u til jihatdan ham murakkab bo'lib, oddiy xalq uchun buni tushunish qiyinchilik tug'dirgan. Bu davrda yozilgan nafaqat dramatik asarlar, balki nasriy, nazmiy asarlarning barchasi "venyan" tilida yozilgan edi.

Yuan⁷⁰ sulolasi davriga kelib Xitoy dramaturgiyasi va teatrining rivojlanshiga sabab aynan davr muhiti bo'lgan. Mo'g'ullar tomonidan Xitoyning bosib olinishi tufayli teatr targ'ibot manbai bo'lib qoldi. Yuan xukumatida Xitoy xalqi tazyiq ostida bo'lganligi sababli san'at sohasi vakillari birlashib "yozuvchilar uyushmasi"ga (书

⁶⁸ www.synologia.ru

⁶⁹ Chuansi (so'zma so'z. - ajoyib voqea) - 14 - 17-asrlarda keng tarqalgan drama janri. U 12 - 14-asrlar janubiy dramasi (Yuan dramasi) ta'siri asosida paydo bo'lgan. Boshqa xitoy mumtoz xitoy dramalari qatori chuansining dramalari. dialoglar, ariyalar va deklamatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu janr quydagicha tavsiflanadi: ko'p aktli (40 - 100 akt), janubiy kuylardan foydalanish, (ayrim chuansilar shimoliy kuylarni o'z ichiga oladi).

⁷⁰ XII asrda xitoy xududida 4 ta podshoxlik mavjud bo'lib, yagona xitoyga birlashmagan edi. XIII asr boshlarida xitoy mo'g'ullar bosqichi xav solgan edi. 1210 yilda Szin (1234 y.), keyin Sun (1276 y), podshohligi bosib oldi, 1280 yilga kelib xitoy mo'g'ullar xukumronligiga o'tadi. Mo'g'ullar xitoy Yuan sulolasi xukumronligini o'rnatadi.

会)⁷¹ (teatr soʻzi nega tashqarida yoki olib tashlang) birlashadilar va dramaturgiyani targʻibot uchun eng maqbul janr deb hisoblaydilar, natijada bu davrda juda koʻp dramatik asarlar yaratiladi, shu bilan bir qatorda “Kitob jamiyati” tomonidan xalq uchun juda koʻp kitoblar nashr etiladi. Bugungi kunda XIII–XIV asrlarda turli janrlarda yaratilgan 750ga yaqin xitoy adabiyotining sara namunalari yetib kelgan va ular orasida «Toʻrt buyuk yuan dramaturgi» («元曲四大家») nomini olgan dramaturglarning kam sonli boʻlsada dramatik asarlari yetib kelgan.⁷²

«Szatszyuy» janrida ijod qilgan mualliflardan biri dramaturg Guan Xan Chin (关汉卿)⁷³ xaqida maʼlumotlar kam. Biroq zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga koʻra, bu dramaturg asarlarining gʻoyaviy mazmuni deyarli bir-biriga yaqin boʻlib, ularda oʻsha davr xukumron sinfnig kirdikorlari va xitoy xalqining zolimlarga qarshi kurashi yoritib berilgan. Dramaturg xalq orasidan olingan eʼtiborga loyiq bir qator obrazlar va xarakterlar yaratgan. Masalan: kuchli, irodali Dou E; lashkarboshi Gaun Yuy va Chjan Fey obrazi; qaxramon ayol Min Lyan, Van Chjao-sun obrazlari shular jumlasidandir. Adibning bizgacha yetib kelgan asarlarini xitoyning anʼanaviy turkumlashiga koʻra uch sinfga ajratish mumkin: fuqaroliq, lirik va tarixiy qahramonlik. Adibning “Xanchjou ponaramasi” nomli ilk dramasi negizida moʻgʻullar tomonidan Sun sulolasini zabt etilganligi bayon etilgan. Dramaturgning faoliyati xalq tomonidan “Nok bogʻi rahbari” va “Dramaturgiya otasi” kabi taʼriflar bilan olqishlangan.

XIII-XIV asrlarda aynan oqsuyaklar repertuari ham yaratiladi. Undan koʻpincha shaharning quyi tabaqalaridan chiqqan qahramonlarga bagʻishlangan maishiy komediyalar oʻrin olgan. Chunonchi, Guan Xan Sinning «Chjao Paner sevgi oʻyinini oʻynab baxtsiz nikohdan qutqarib qolganligi xaqida» gi pesada asosiy qaxramonlar - qoʻshiqchi ayollardir. Bu asarda jiddiy masalalar aks ettirilgan boʻlib, ularda komediya bilan fojea bilan aralash ifodalangan. Bu yerda hech qanday haq-xuquqqa ega boʻlmagan getera va boy savdogar oʻrtasidagi konflikt (nizo) yetakchi oʻringa olib chiqilgan. Biroq komediyaning asosiy gʻoyasi «ayollar makri» emas, balki asarga lirik nafasni olib kirgan sevgidir. Asardagi ayollarning xar biri oʻz kasbini tashlashni va

⁷¹ Jukoves, V. V. Belorussko-kitayskiy kulturniy dialog (II): istoriya, sovremennoye sostoyaniye, perspektivi: sbornik nauchnix statey. Minsk. 2016

⁷² Bo Pu («Chinorlarda yomgʻir» – «梧桐雨»), Guan Xan-Chin («Dou E qasosi» – «窦娥冤»), Ma Chji-yuan («Xan saroyda kuz» – «汉宫秋») i Chjen Guan-szu («Syan-nyuy qalbidan yiroqda» – «倩女离魂»)

⁷³ Гуань Хан Син (关汉卿, *Guān Hàncīng*; 1210—1280) — XIII аср хитой драматургиясининг [пэцзэюй](#) жанрининг асосчиларидан бири. Гуан Хан Чин хитой адабий манбааларда маълум бўлишича 50 ортик шеърлари, 70 га яқин драма асарлар яратганлардан 18 таси бизгача етиб келган. Уларнинг кўп қисми ижтимоий муаммолар акс этган. “Доу Э қасоси”, “Сўнаётган капалак туши”, “Дарё бўйидаги шийпонча” шулар жумласидан.

ularni o‘z uyiga (xotin) umr yo‘ldosh sifatida olib kiradigan qahramon bilan uchrashishni orzu qiladilar. Lekin, ishqiy sarguzashtlarda ularning xarakteridagi tafovut oydinlashib boradi. Guan Xan Chin o‘z qahramonlarining tashqi ko‘rinishini tasvirlashdan ularning ichki dunyosini tahlil etishga o‘tganligini ta’kidlaydi. «Kuyi tabaqa» vakili bo‘lgan inson obrazini yaratish normativlari bo‘lmagan paytda muallif uni o‘zi qanday tasavvur etsa, shunday qilib yaratishi mumkin va buning oqibatida to‘qima qaxramon paydo bo‘lgan.

Bu davr dramaturgiyasining rivoji xaqida so‘z ketar ekan, albatta, taniqli dramaturglar Ma Chjiyuan⁷⁴, Van Shifu⁷⁵, Bai Pu⁷⁶ lar katta yutuqlarga erishganlar. Ma Chji Yuanning eng mashhur pesasi “Xan saroyida kuz” deb nomlanib, Yuan davri dramaturgiyasining ishqiy-tarixiy mavzuda yaratilgan mashxur asarlaridan biri xisoblanadi. “Qutirgan Chjen” va “Yuan minorasi” pesalarida dramaturg daosizm qarashlarini ifodalashga xarakat qilgan va mifologik syujetlardan foydalangan.

Dramaturg Vang Shifuning eng mashxur asari – “G‘arbiy fligel”» (西廂记), Tan davrining mashxur shoirlaridan biri Yuan Chjening (799—831)ning “Ing-Ing xaqidagi qissa” novellasining syujetidan foydalanilgan. Vang Shifuning “G‘arbiy fligel” dramasi xuddi shu syujetli boshqa turli asarlarga asos bo‘lgan. Uning bu dramasida (20 pardali) mo‘g‘ullar davridagi isyonchilik kayfiyati aks etgan va unda buddistlar ustidan kinoya ham yangraydi. Qaxramonlarning, ayniqsa, In Inning xakteri murakkablashtiriladi. Bu asarda XIII – XIV asrlar dramaturgiyasining eng muxim qirralaridan biri – qaxramonning ichki dunyosi, uning xis-tuyg‘ulariga alohida urg‘u berilgan. Insonning shaxsiy xayotiga diqqat e‘tiborni qaratish imkonini beruvchi asarlar boshqa dramaturglarda ham mavjud. Bu asarlarda konflikt ijobiy qaxramonlar g‘alaba qozonishi yoki kurashayotgan tomonlarni yarashtirish bilan o‘z yechimini topadi. Dramaturg Bay Puning «Kuz tunida Syuanszun chinordagi yomg‘ir qayg‘uga soladi» nomli drama fojeasi tarixiy syujet – imperator Syuanszunning juda yaxshi

⁷⁴ Ma Chjiyuan (马致远) (taxminan 1250 —1324 yillar) — mashxur yuan dramaturg, shoirlaridan biri (szatszyuy janrda pesalar va syuy janri she‘rlar muallifi). Pekinda tavallud topgan. «Yuanchjen kitob jamiyatining» a‘zolaridan biri edi. asosan “szatszyuy” janrida 13 ta pesa yaratgan bo‘lib, undan bizgacha 7 tasi yetib kelgan, shoir sifatida tabiat manzaralari xamda ishqiy lirik she‘rlar yozgan. Bizgacha shoirning 120 ta chu (曲) janrida yozgan she‘rlari yetib kelgan.

⁷⁵ Vang Shifu (王实甫)-Xitoy dramaturgi, XIII – XIV asrlarda yashab ijod qilgan. Dadu shaxri (hozirgi Pekin shaxridan)dan bo‘lib, xaqiqiy ismi - De Xin bo‘lib, Shifu taxallusi bilan ijod qilgan. U 14 pesasidan 3 tasi to‘liq saqlanib qolgan, 2 tasi esa qismlarga bo‘lingan xolda yetib kelgan.

⁷⁶ Bai Pu(白朴)-taxallusi Taisu bo‘lib, 1226 yilda hozirgi Shansi provinsiyasida tug‘ilgan. U yoshlik davrlaridanoq Sin sulolasining (1115-1234) tanazzulga uchraganini guvohi bo‘ladi. Ijod namunalari: “Samoviy nay” nomli “si” janridagi she‘riy to‘plami mavjud, “Chu” (曲) janrida ham 37 ta she‘r yozib qoldirgan, 20 ga yaqin she‘rlari rus tiliga tarjima qilingan, szatszyuy janrida 16 ta pesa yaratgan, ulardan faqat 3 tasi yetib kelgan: “Chinorlar yomg‘iri”, “Sharqiy devor tarixi”, “To‘siq yonidagi arg‘umchoq” (komediya janrida)

xukmron bo‘lgani va to‘satdan uning taxtdan qulashi asosiga qurilgan bo‘lib, bu syujet qator shoirlarni xam diqqatini o‘ziga jalb etgan. Voqealarni Tan davrining taniqli shoirlaridan biri Du Fu fosh etish, qoralash nuqtai nazaridan tasvirlagan. (jumladan, «Go‘zallar», «Xarbiy arava» poemala). Shoir Bo Szyuyi ham boshqa adiblar kabi fosh etish, ayblash mavzulariga murojaat etgan («Ko‘li singan chol» she‘ri), lekin «Boqiy qayg‘u xaqida qo‘shiq» asarida u diqqat e‘tiborini lirikaga jamlaydi. Tiklanish davrining shoiri sifatida Bo Szyuyi poemada bir muammo - hissiy sevgi muammosini o‘rtaga tashlaydi. Sevgi nafaqat zaif ayolni, balki Syuanszunning qalbini ham zabt etib, o‘ziga uni bo‘ysundirganini ochib berarkan, Bo Szyuyi xukmron shaxsda ham insoniylik xislati borligini ko‘rsatib beradi. XIII – XIV asrlarda syujet shakllanib bo‘lgan bo‘lib, u turli tomondan yoritib berilgan. Biroq bu motivlarni dramatik planda talqin etar ekan, dramaturg Bay Pu shoir Bo Szyuyi bosib o‘tgan yo‘ldan bormadi. Bay Pu Syuanszunni monarx sifatida obro‘cini ketkizib, uni inson sifatida ulug‘laydi va An Lushanning qo‘pol kuchi va makri ustidan Syuanszunning oliyjanob xis-tuyg‘ulari g‘alaba qozonadi. Sevgi hissi bilan boyitilgan ichki dunyoni tasvirlashda dramaturg Tiklanish davri an‘analarini rivojlantira borgan. Burch va his-tuyg‘u o‘rtasidagi ichki konfliktni aks ettirishda Bay Pu o‘z davrining unchalik ko‘p bo‘lmagan novatorlaridan biri bo‘lib chiqdi. Shunday qilib, XIII – XIV asrlar oralig‘ida Xitoyda dramaturgiya o‘zining barcha asosiy janrlari: komediya, fojia va dramaga ega bo‘ldi.

XV asrga kelib «szatszyuy» janri sekin-asta o‘z xususiyatini yo‘qota bordi va uning o‘rnini «chuansi» (传奇)⁷⁷ janri egalladi. «Chuansi» janrining shakli avval aytib o‘tilgan «siven» shaklining davomi edi, lekin «chuansi» o‘zining ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Min⁷⁸ davridagi mualliflar bu janrga ko‘proq marojaat etganlar.

XVII-XVIII asrlar xitoy adabiyotini o‘rgangan rus tadqiqotchilari V.M.Alekseyev⁷⁹, O.L.Fishman⁸⁰, N.T.Fedorenko⁸¹ va boshqalarni asosan nasr,

⁷⁷ «Chuansi» 传奇 pesalarida voqea va xodisalar ko‘payib, ular kengroq yoritila boshlangan. «Chuansi» deyarli «szatszyuy»ga nisbatan erkinroq tarzda edi.

⁷⁸ 1368 yilda Yuan sulolasi barxam topganidan keyin mamlakatda xalq qo‘zg‘aloni oqibatidan Min sulolasi xukumronligini o‘rnatadi, 16 ta imperatorlar tomonidan 276 yil xukumronligi davom etadi. 1644 yilda manbjurlar tomonidan sulola xukumronligiga barxam beriladi.

⁷⁹ Alekseyev V.M.-(1881-1951)-xitoyshunos, filolog, xitoy mumtoz asarlari tarjimoni. Kitayskaya iyeroglificheskaya pismennost i yee latinizatsiya. — L.:1932; V starom Kitaye. Dnevnik putestviy.1907 g. M. 1958; Kitayskaya literatura. Nauka, 1978; Nauka o Vostoke: stati i dokumenti. M.,1982; Trudi po kitayskoy literature. Kn. 1-2. M., 2002, Shedvri kitayskoy klassicheskoy prozi v perevodax akademika V. M. Alekseyeva: V 2 kn. M., 2006.kabi kitoblar muallifi

⁸⁰ Fishman.O.L (1919—1986) — xitoyshunos, tarjimon, adabiyotshunos . Perevod, poslesloviye i primechaniya v kn.: Tanskiye novelli. M.: 1955; Li Bo. Jizn i tvorchestvo. M.: 1958; Kitayskiy satiricheskiy roman. (Epoxa Prosvesheniya). M.: Nauka, 1966; Tri kitayskix novellista XVII—XVIII vv.: Pu Sunlin, Szi Yun i Yuan Mey. M., 1980; Kitay v Yevrope: mif i realnost (XIII—XVIII vv.). SPb., 2003.kabi adabiyotlar muallifi

⁸¹ Fedorenko N.T. (1912- 2000) — professor, sharqshunos, davlat arbobi; Velikiy kitayskiy pisatel Lu Sin. M., Znaniye. 1953; Ocherki sovremennoy kitayskoy literaturi. M., Goslitizdat. 1953; Mao Dun. M., Znaniye. 1956; Kitayskaya

chunonchi: Pu Sunlinning mashxur novellalari, birinchi xitoy ma'rifiy romani sifatida tan olingan U Szin-szining «Konfutsiychilarning norasmiy tarixi» deb nomlangan satirik asari ko'proq qiziqtirgan. Ushbu davr dramasi to'g'risidagi masala ko'tarilgan rus tilidagi kam sonli tadqiqotlar orasida B.L.Rifinning «Xitoy dramasi nazariyasi(XII asr - XVII asr boshlari)» nomli maqolasini qayd etish mumkin. Vaxolanki, XVII asr dramaturgiyasining iste'dodli vakillari soni anchagina bo'lib, ularning asarlari teran mazmuni, syujetlarining rang-barangligi bilan ajralib turadi va shak-shubxasiz badiiy qiymatga ega bo'lgan asarlardir.

Manchjuriyaga qarshi kurash va vatanparvarlik XVI asrda xayotning turli jabxalaridagi feodal jabr-zulmiga qarshi munosabat sifatida yuzaga kelgan va XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib o'z cho'kqisiga ko'tarilgan ma'rifatchilik xarakatining ajralmas qirrasiga aylandi. Manchjuriyalik ilk podshohlar xitoy ziyolilariga nisbatan ikki yoqlama siyosat olib bordilar. Sin sulolasi vakillariga xayrixoh bo'lmagan, feodal jamiyat negizlari va uning mafkurasini tanqid qilgan odamlardan shafkatsiz o'ch olgan xolda, ular ayni vaktida yozuvchilar, olimlarni o'z tomoniga og'dirishga, ularning faoliyatini o'ziga ma'qul tomonga yo'naltirishga xarakat qildilar. Xun Shen⁸² ayni shu og'ir, ziddiyatlarga to'la davrda yashab ijod kildi, dramaturg sifatida shakllanishiga mashxur adabiyotchi Lu Fan-chao, shoir va olim Mao Syan-shular qo'lida ta'lim olganligida edi. Xun Shen, nafaqat drama janrida ijod qilgan, balki, she'riyatda «si» janrida she'rlar yozgan va zamondoshlari uning she'riyatini yuksak baholaganlar. Dramaturgning eng mashxur asarlaridan biri "Abadiy baxt qasri" asarining syujeti tan imperatori Min-xuan (VIII asr)ning kanizagi Yan guyfeyga bo'lgan muhabbati tarixi bayon etiladi. Bu syujet Tan davri shoiri Bo Juyining "Abadiy qayg'u" poemasida hamda yuan davri dramaturgi Bay Puning "Chinorlarda yomg'ir" dramasi qo'llanilgan. Bu asarlardagi bosh obraz Yan Guyfey xarakteri biroz yengiltabiat sifatida tasvirlangan bo'lib, mamlakatga baxtsizlikning kirib kelishida ayblanadi. Xun Shenning "Abadiy baxt qasri" dramasi ularning asarlaridagi ba'zi motivlarni qo'llagan bo'lsada, bosh ayol obrazi umuman olganda oliyjanob ayol, his tuyg'ularga boy sifatida tasvirlangan. Dramaturg Bay Puning "Chinorlarda yomg'ir" dramasi fojeali yakun

literatura. Ocherki po istorii kitayskoy literaturi. M., Goslitizdat. 1956; «Shitszin» i yego mesto v kitayskoy literature. M., IVL. 1958; Guan Xan-sin — velikiy dramaturg Kitaya. M., Znaniye. 1958; Yaponskiye zapisi. M., Sov.pisatel. 1966; Problemi issledovaniya kitayskoy literaturi. M., 1974; Drevniye pamyatniki kitayskoy literaturi. M., Nauka. 1978; Kavabata Yasunari: Ocherk. M., Sov.pisatel. 1978; Kitayskoye literaturnoye naslediye i sovremennost. M., 1981; Syuy Yuan. Istoki i problemi tvorchestva. M., Nauka. 1986; Izbrannie proizvedeniya. V 2 t. M., 1987; Fedorenko N. T., Sokolskaya L. I. Aforistika. M., Nauka. 1990. kabi kitoblar muallifi

⁸² Xun Shen (1645 - 1704)Chjetsyanning janubi-sharqidagi dengiz bo'yida joylashgan viloyatda manchjurlar bosqini davrida dunyoga kelgan. Bir necha she'riy to'plamlari va 10 yaqin pesalar muallifi.

topgan bo'lsa, Xun Shen "Abadiy baxt qasri" dramasi qadimgi afsonaga murojaat etgan xolda asarni ijobiy yakunlaydi.

XVII asrning ikkinchi yarmida xitoy dramaturgiyasida muayyan jonlanish yuz bergan. O'sha davrda tarqalgan "Chuansi" janrida ko'p sonli asarlar yaratgan dramaturglar, shu jumladan xavaskor ijodkorlar paydo bo'lgan. Ko'pgina pesalarda chet ellik bosqinchilar asosan niqob ostida qoralangan, (masalan, xitoy xalqining Jurjenlarga qarshi qurashi tavsiflangan); milliy manfaatlarni toptab, istilochilar tomonga o'tgan xoinlar qoralangan; o'sha davrda xukm surgan konfutsiychilik axloqiga qarshi norozilik ohanglari yangragan; his-tuyg'ular, sevgi erkinligi kuylangan; ayollarning aqli va fidoyiligiga tahsinlar aytilgan. Ayrim asarlarda o'sha davrdagi xayotning salbiy tomonlari, chunonchi, amaldorlarning poraxo'rliigi, davlat imtixonlarida mansab mavqei suiste'mol qilish xollari, xalqning og'ir xayoti to'g'ridan-to'g'ri yoki niqob ostida tasvirlangan. Dramaturglar ko'pincha o'z burchiga sodiq bo'lgan oddiy odamlarni sharaflaganlar. Ma'rifatparvarlik ruxi bilan sug'orilgan xaqiqiy, voqelikni fosh qiluvchi asarlar bilan bir qatorda, konfutsiychilikning qotib qolgan aqidalarini targ'ib qiluvchi dramalar ham yaratilgan.

Bu davrning ko'zga ko'ringan dramaturglaridan biri Li Yuy⁸³ — komediyanavis, prozaik lirik va nazariyotchi; teatr

truppasi rejissyori. O'zining serkirra faoliyati uning «Xordikdagi o'ylar» asarida o'z ifodasini topdi. (Bu asarning eng muxim bo'limlari XX asrda alohida risolalarga ajratildi. Shulardan biri — «Ayol hakida» risolasida u o'zining yangi inson idealini yaratdi. Bu risolani yaratishda u o'z truppasida aktrisalarni tayyorlash borasidagi katta tajribasiga tayandi.

U amalga oshirgan islohotda Yevropa teatrlaridagi islohotlarga bilan tipologik yaqinlik kuzatiladi. Ularning o'xshashligi shunda ko'rinadiki, Didro Deni, Lessing Gotxold Efraim kabi Li Yuy uchun ham teatr feodalizmga qarshi, demokratik g'oyalarni targ'ib qilish uchun minbar vazifasini bajaradi. Barcha ma'rifatchilar kabi, Li Yuy ham san'atning faol ijtimoiy rolini tan oladi, drama va komediyaning ma'rifiy ahamiyatini kayd etadi. Didro kabi Li Yuy yangi janr - komediyaning ilgari suradi, adabiyotda to'qima syujet uchun, realizm uchun kurash olib boradi. Lessing kabi u dramalar, aktyorlar ijrosi taxliligiga bag'ishlangan, nazariy umumlashmalarni o'z ichiga olgan tadqiqotini nashr ettiradi. Shu bilan birga improvizatsiya, andoza va qoliplardan voz kechishni ilgari suradi, chunki bu davrgacha yaratilgan barcha

⁸³ Li Yuy (李渔) XVII asr drama janri rivojida, dramaturgiya nazariyasi va saxna maxorati namoyandasi. "yangilik" uchun kurashni eng ommaviy san'at—teatr vositalari bilan davom ettirdi. U o'z faoliyatini Janubiy-Sharqdagi boy dengiz buyi shaharlari Xanchjou va Nankinda olib bordi. «Xantal doni kattaligidagi bog'» nashriyotining asoschisi.

dramatik asarlarda «ayni bir kahramonlar paydo bo‘lishiga, ayni bir voqealar yuz berishiga» e’tibor kuchli bo‘lgan. O‘z ijodida Li Yuy dramaturglarni tarixiy qahramon bilan bog‘liq voqealarni yuzaki namoyish etishdan voz kechib, insonlarning real xayotini tasvirlashga, ularning ichki dunyosiga e’tibor berishni talab qildi, u ilk bor ijodida «xarakter»ga, uning «o‘ziga xosligi va jozibadorligi»ga e’tibor berdi, g‘ayritabiiy syujetlarni rad etdi, teatrni yangilash, takomillashtirishga qaratilgan usullar va vositalarni targ‘ib qildi. Komediya va satiraga mustaqqil va badiiy jihatdan to‘laqonli janr sifatida qaradi. Umuman olganda, Li Yuy o‘zi uzoq yillar mobaynida amalga oshirgan islohotida dramatik asarlarning teatrbopligiga erishishga, aktyorlik kasbini yuksak ijrochilik mahorati darajasiga ko‘tarishga va teatr san’atining bu ikki jixatini muallifning yagona g‘oyasiga muvofiq yaratilgan spektaklda birlashtirishga xarakat qildi. Dramaturgiyada bu davrga kelib yangi janrlarning paydo bo‘lishi tufayli asarlarning ichki tuzilishlari biroz yengil shaklga keltirilgan bo‘lsada, kuchli, teran mavzular ko‘tarilgan. Albatta, o‘rta asr uslubidagi syujetlar, g‘oyalar, xarakterlar davom etgan, lekin sekin-asta o‘zlashtirish uslublariga qarshi kurash boshlangan edi.

XVII asr Xitoy adabiyoti tarixida “kech o‘rta asr” adabiyotidan “yangi davrga o‘tish davri” deb yuritiladi. Biroq XVI asrning ikkinchi yarmida boshlangan adabiy jarayonlardagi o‘zgarishlar Xitoyda XX asrning boshlarigacha davom etgan.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, atrofdagi voqelikning keskin ziddiyatlari, uzoq va yaqin o‘tmish voqealari, Daos va Budda afsonalari, xalq afsonalari shaharlardagi ko‘plab teatr sahnalarida va qishloq ibodatxonalaridagi sahna joylarida jonli tasvirlarda o‘z ifodasini topdi.

Tarixiy asarlar, badiiy qissa va ommabop hikoyalar to‘plamlari, falsafiy masallar, taniqli shoirlarning she‘rlari - bularning barchasi dramaturglarning ijodiy tasavvurlari uchun manba bo‘lib xizmat qilgan, ko‘pincha boshqa janrlarda yangi asarlar manbai bo‘lib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 中国现代文学史。1917-1997。北京/2008。
2. 中国戏剧史、北京、2015
3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000 y.

FITRATNING XORIJIY PUBLISISTIKASIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY MASALALARINING AKS ETISHI

Hulkaroy Boltaboeva Hamidulla qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

hulkaroyboltaboyeva@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek adibi va olimi, davlat va jamoat arbobi Fbdurauf Fitratning xorij matbuotida "Ta'rufi musulimin", "Turk yurdu", "Sirotu-l-mustaqiyim" (Istanbul), "Siroju-laxbori afg'oniiya" (Kobul), "Ochiq so'z" (Boku), "Sho'ro" (Ufa) kabi gazeta va jurnallarda nashr etilgan maqolalari tahlil etilgan. Ularda aks etgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy masalalar o'z davrining asosiy voqealari bilan bog'liq holda tahlilga tortilgan. Ushbu maqolalar fors va turk tillarida chop etilgan bo'lib, muallif ularni o'zbek tiliga tabdil qilgan va joriy yozuvda nashr ettirgan.

Kalit so'zlar: xorij, publitsistika, ijtimoiy-siyosiy masalalar, Fitrat, Mehmet Akif, Buxoro axbori, maorif, madaniyat.

REFLECTION OF SOCIO-POLITICAL ISSUES IN FITRAT'S FOREIGN PUBLICITY

Hulkaroy BOLTABOEVA,

Teacher of Tashkent State University of Oriental Studies,

hulkaroyboltaboyeva@mail.ru

ABSTRACT

This article highlights the interpretation of Uzbek writer and scholar, statesman and public figure Abdurauf Fitrat's articles, published in foreign newspapers and magazines, such as "Tarufimuslimin", "Turk yurdu", "Sirotu-l-mustaqiyim" (Istanbul), "Siroju-lakhboriAfgoniyya" (Kabul), "Ochikso'z" (Baku), "Shura" (Ufa).

The socio-political, cultural and educational issues reflected in articles are analyzed in connection with the main events of his time. These articles were published in the Persian and the Turkish languages and the author translated them into Uzbek and published them in the current text.

Keywords: foreign, journalism, socio-political issues, Fitrat, Mehmet Akif, Bukhara news, education, culture.

KIRISH

Fitratning xorijdagi faoliyati manbalari. Ulug‘ o‘zbek adibi va dramaturgi, olim va tarjimon, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat (1886-1938) ulug‘ shoir va yozuvchi, dramaturg va adabiyotshunos olim, davlat va jamoat arbobi bo‘lishi bilan birga bir qator maqola, lavha, xabar va nomalar muallifi bo‘lgan mohir publitsist hamdir. Shuningdek, ulug‘ adib va olim 1917-1918- yillarda Samarqandda nashir etilgan “Hurriyat” gazetasiga muharrirlik qilgan.

Fitratning publitsistik maqola va lavhalari, xabar va nomalari 1910-yildan keyin yaratila boshlagandi. Abdurauf Fitrat Buxorodagi Mirarab madrasasini xatm qilgach, *Mijmar* taxallusi bilan fors tilida she‘rlar yoza boshlagan. Fitratning she‘rlari o‘z davrida shuhrat topib, zamonasining e‘tiborli ziyolilari tomonidan tazkiralarga kiritilgan. Hoji Ne‘matulloh Muhtaram o‘z tazkirasida Fitratni “Hoji Abdurauf” sifatida tilga oladi [1]. Fitratning publitsistik yo‘nalishdagi asarlari dastlab Turkiyaning Istanbul shahrida taxsil olayotgan payti (1909-1913)da nashr etilgan.

Fitratning xorijda e‘lon qilingan publitsistik asarlarning yaratilish tarixi va manbalari. Fitratning xorijda e‘lon qilingan birinchi publitsistik asari Istanbulda nashr etiladigan “Ta‘rufi muslimin” gazetasi bosilgan bo‘lib, Buxaro amirining vaziri Nasrullohga maktub tarzida yozilgan [2]. Ushbu maqolada Buxoro siyosiy hayotidagi kamchiliklar bayon qilinib, yangi taxtga kelgan Buxoro amiri Olimxon va uning vaziriga murojaat qilgan.

Mana shu davrda Istanbulda Mehmet Akif Erso‘y (1873-1936) tomonidan asos solingan “Sirotu-l-mustaqiyim” (“To‘g‘ri yo‘l”) jaridasining ishlariga ham faol qatnashgan. Fitrat va Mehmet Akif munosabati va ijodiy hamkorligi, bizningcha, ayni shu davrdan boshlangan. Ushbu nashrda Fitratning Buxoroda 1912-yildan chiqqa boshlagan “Buxoroyi sharif” hamda uning o‘zbekcha ilovasi hisoblangan “Turon” nomli gazetalari nomidan ham qatnashgan. Uning ayrim asarlari dastlab “Buxoroyi sharif”da chop qilingan bo‘lsa, [3] Fitrat o‘z faoliyati bilan bu ikki nashr o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili. Fitratning Turkiyadagi faoliyatiga doir dastlab Hamid Olimjon “Fitratning adabiy ijodi haqida” maqolasida xabar bergan [4]. Bundan keyin sho‘ro davrida Fitrat haqida maqola yozishgina emas, Fitrat nomini tilgan olish man qilingan. 1980-yillardan boshlab o‘zbek va xorij olimlari Fitratning publitsistik maqolalari xususida o‘z ishlarida fikr bildirganlar.

Prof. E.Karimovning “O‘zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti” (rus tilida) monografiyasida [5] mavzuga oid umumiy fikr yuritgan, Fitratning she‘riy, nasriy, dramaturgik asarlari qatorida uning publitsistik faoliyati haqida xabar berilgan.

Akad. N.Karimov “Mavlono Fitrat” maqolasida [6] so‘z yuritib, “Fitratning Turkiyaga o‘qsishga borishi”, “Turkiyada yozgan asarlari” sarlavhali bo‘limlarda fikr yuritgan. Olim H.Olimjon fikrlariga tayangan holda Fitratning 1909-1913 yillarda Istanbul (Turkiya)da bo‘lganini tasdiqlaydi, ayni fakt yuzasidan bildirilgan X.Ko‘matsu, H.Boltaboev, D.Rashidova ishlariga munosabat bildirgan.

Prof. B.Qosimov “Maslakdoshlar” kitobida va oliy o‘quv yurtlari uchun darslik tarzida yozilgan “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” kitobida Fitratning publitsistik faoliyatiga umumiy baho bergan, uning “Hurriyat” gazetasi muharriri sifatidagi faoliyatini ko‘rsatish orqali Fitrat publitsistik faoliyatini yoritgan [7].

Fitratning xorijiy publitsistikasi xususida so‘z yuritgan yapon olimi prof. Xisao Ko‘matsu “Munozara” xususida qaydlar”, “XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda Davriy o‘zgarishlar” tadqiqotlarida Istanbulda talabalik bilan birga “Ta‘rufi musulimin” “Turk yurdu”, “Sirotu-l-mustaqim” kabi nashrlar haqida ma‘lumot bergan [8].

Prof. H.Boltaboev “Fitrat va jadidchilik” kitobining maxsus bobini “Fitratning Istanbul davrini tavsiflovchi manbalar”ga qaratadi. Unda olim Abdurauf Fitrat Istanbul universitetida tahsil olish barobarida Istanbuldagi O‘zbeklar tekkasida yashagani, “Buxoro ta‘mimi maorif jamiyati” tuzgani, bu oliygoh qoshidagi “Voizon” madrasasida mudarrislik qilgani, Turk dunyosining ulug‘ olimlari bilan qilgan muloqotlari va Istanbul davrida yaratilgan 11 asari haqida batafsil ma‘lumot bergan. Jumladan, ushbu bo‘limda 1911-yilda “Turk yurdu”, “Ganj qalamlar” nashrlari bilan bog‘langanini ham yozadi. Bizning mavzuimiz bo‘lgan Fitratning Istanbul davridagi publitsistik asarlariga obzor beradi, uning ayrim asarlarini nashr ettiradi [8].

Metodlar. Maqolada tarixiy-qiyosiy va qiyosiy-tipologik metodlardan, shu bilan birga ilmiy tavsif, struktural tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJARAR

Fitrat Eron orhali Istanbulga o‘qishga kelgach, Buxorodan o‘zi bilan birga tahsil olishi uchun kelgan Muqimiddin, Usmanxo‘ja, Abdulaziz, Sodiq Ashur o‘g‘li bilan birga “Buxoro ta‘limi maorif jomiyati”ni tuzadi. Ma‘lumki, 1909-yil 1-iyunda Buxoro yoshlari tomonidan “Tarbiyati atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) nomli yashirin jamiyat tashkil qilingan edi. S.Ayniyning ma‘lumot berilishicha, “Jamiyatning birinchi maqsadi Istanbulga o‘quvchilarini yubormoq chorasiga kirishmoq” edi. “Buxoro ta‘mimi maorif jamiyati” Nizomnomasining so‘zboshida “jamiyat 1909-yil 26-sentyabrda Istanbulda Abdurauf Fitrat va Usmon Xo‘ja kabi Buxoroli jadidchilar

tomonidan qurilgan” [9] deb yozilgan. Fitrat Istanbulga kelgach, o‘qshini davom ettirish uchun “Voizon” madrasasiga aniqlangan [10].

Fitrat Istanbulda ekan, faqatgina tahsil bilan cheklanib qolmagan, u Istanbuldagi adabiy va ilmiy muhitga faol aralashgan. Rossiyadan kelib, “Yosh Turklar” jamiyatida ma’ruzalar o‘qigan Ismoil Gaslrinskiyning darslarida qatnashgan. O‘zi kambag‘al talaba bo‘lishiga qaramay, bir necha asarlarini mana shu Istanbul davrida yaratgan. Hatto ayrim asarlari uning o‘zi hisobidan nashir qilingan. Fitratning “Munozara”. (1910), “Sayha” (1912), “Hind sayyohi bayonoti (1912) kabi kitoblari shu davrda nashr qilingan.

Fitratning xorijda yaratilgan birinchi publisistik asari “Buxoro vaziri Nasurullohbek Parvonachi afandi hazratlariga ochiq maktub” bo‘lib, fors tilida yaratilgan bu asar Ahmad Tojiddin va Ya‘qub Kamol tomonidan nashir etilgayotgan “Ta’rufi Muslimin” (“Musulmonlar ta’riflari”) nomli “diniy, siyosiy, tarixiy, falsafiy va olam ahvolidan xabardor qiluvchi haftalik majalla)da e’lon qilingan. Ushbu asarga Fitrat “Buxoroli Abdu-r-rauf” imzosini qo‘ygan. Maktub fors tilida bitilgan bo‘lib, “Ey vazoratpanoh, biz tartiboti jadidaga muhtojmiz” shoiri bilan boshlanadi. Bu ochiq xat Amir Olimxon Buxoro taxtiga o‘tirgandan keyin bir qancha o‘zgarishlar, islohotlar qilishga va’da bergani va uning bosh baziri (vazoratpanoh) lavozimiga Nasrulloh Parvonachini tayinlanishi munosabati bilan yozilgan. [11]

Bundan tashqari, Istanbulda yozilgan boshqa bir maqolasi (bu ham fors tilida) “Taraqqiy va tajaddud” (“Taraqqiyot va engilanishi”) deb nomlangan bo‘lib, Mahmud Tarziy (1865-1933) muharrirligida 1911-yildan Kobulda chiqa boshlagan “Sirojul-l-axbori afg‘oniya” (“Afg‘oniston nurli xabarlar”) gazetasida elon etilgan. Maqolaga “Istanbul: Abdu-r-rauf Fitrat” imzosi qo‘yilgan bu maqola 1913-yilning 16-noyabrida nashr etilgan. Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida chiqqan “Samarqand” gazetasining 1913-yil 13-sentabrdagi 44-sonidan ko‘chirilib bosilgan.

Bu ikki maqoladan tashqari Fitratning bir necha maqolalari mana shu davrda “Buxoroi sharif” gazetasida chop qilingan ular “Maktub ba idora” (“Idoraga maktub”), “Maxoriju-l-huruf” (“Harflarining maxrajlari”), “Qavoidi qiroat” (“Qiroat qoidalari”) kabilardir. Shu bilan birga Behbudiy muharrirligida chiqqan “Oyina” jurnalida “Manfaat” (1913-yil 16-, 30-noyabr), “Hayot va g‘oyayi hayot” (“Hayot va hayot g‘oyasi”, 1913-yil 14-, 21-dekabr) maqolalari chop qilingan.

MUHOKAMA

Fitrat xorijda nashr etilayotgan va o‘ziga madrasa talabaligidan yaxshi tanish bo‘lgan “Turk yurdu”, “Sirotu-l-mustaqiyim” va “Ta’rufi muslimin” kabi gazeta va jurnallar bilan hamkorlik qila boshladi. Ayniqsa, Turk shoiri Mehmet Akif Ersoy

muharrirligida nashir etilgan “Sirotu-l-mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) jurnali ishlarida faol qatnashdi. Jurnalning 1911-1914- yillardagi sonlarida Buxoro hayotiga oid o‘nlab maqola va xabarlar berilgan. Ularning ko‘pchiligi buxoroli muxbir G‘iyosiddin Hasaniy qalamiga mansub. Biroq Buxorodan yuborib turilgan bu materiallar Abdurauf Fitrat tahriridan o‘tgan keyin nashir etilgan. “Ta‘rufi muslimin”dagi “Buxoro vaziri Nasrullohbek Parvonachi hazratlarina ochiq maktub”ida ham Buxoroning “qora xarobalar va o‘t orasida qolg‘an parishonhol ahvoli” bayon qilinadi. Bu dardni engillashtirish choralari Buxoro amiri Olimxonga va uning vaziri Nasrullohbekka bog‘liq ekani aytiladi: “Har qancha ko‘z va qulog‘ingizni berkitsangiz ham, bu qadimiy islom millatining faryodi va muqaddas vatanimizning xorobaligiga achinmay tura olmaysiz... Mullatimiz va yurtimizni shu holga keltirib qo‘ydikki, dunyoning burchagida eng qiyin kunlarda tashvish chekib yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga qon yig‘lamoqdalar”. Bunga o‘xshash voqealar “Munozara” asarida ham tasvirlangan edi. Fitrat mamlakatdagi ahvolini tuzatishda birgina bosh vazir o‘z ekanini tushunib, bevosita amirning o‘ziga qarata murojaat qilib yozgan: “Ey, Buxoro millatining mehribon otasi!.. Islomiyat saltanatining zaifligi mehribon qalbimizga va sohibi davlatimizga aniq va ravshanmomanddirki, bugun yo erta dini islomni millat dushmanlari qaro kunlarga solarlar. Bu jinoyatchilarning vazifai avvali dini islomga xusumat bo‘lib, yaqin zamonlar bizdan dinimizni tark qilishini tilab qilarlar. Imomimizni po‘pga, azonimizni qo‘ng‘iroqqa, masjidimizni cherkovga almashtirmoqdan boshqa chora qolmas”. Birgina amir va uning vuzaro hamda umarolarni bilan ishga ko‘ngildagidek natijaning mumkin emasligini tushunib yotgan Fitrat shu paytdayoq muhtaram dindosh birodarlariga ham murojaat qiladi, “bu tanazzul, ya‘ni nimaki boy berilayotgan bo‘lsa, musulmonlarning unsizligi va harakatsizligi natijasidir... Bu qadar g‘aflat va tanballikda, beg‘ayrat va jaholatda o‘tirganimiz bas, etar, bu asl dinimizning nobud bo‘lishi, muqaddas vatanimizning bunday paymol etishining kamoli basharaflik bilan qabul qilsak, buni na shariat, na – da hayot qabul qiladi”, - debyozadi Fitrat. Bunga o‘xshash fikrlar, ya‘ni o‘z yurtini ozod ko‘rish istagi “Hind sayyohi bayonoti” qissasida ham aks etgan edi. Qissada Fitrat hindistonlik sayyoh nomasidan Buxorodagi tartibotilarni, hayot tarzini kuzatadi va ko‘zga tashlanadigan barcha kamchiliklarni ochiq bayon qilib bergan edi.

Fitrat talabalik vaqtlaridanoq mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy – siyosiy voqealarga aralashishiga to‘g‘ri keldi. 1910-yilda Buxoroda yuz bergan ishga va sunniy mazhabida musulmonlarning to‘qnashuvi u tahsil olayotgan Mirarab madrasasida boshlangan edi. Asossiz ravishda bir millat vakillarining ikki firqaga ajralib bir – birining qonini nohaq ravishda to‘kish Fitratning g‘azabini keltirgan, hali

yosh bo‘laturib, bu to‘qnashuvning asl sabablarini yaxshi tushunib etmasa ham, biroq Buxoroda yuz berayotgan tartibsizliklarga amir va uning amaldorlari mas‘ul ekanini yaxshi anglab etgandi. Shuning uchun ham 1910-yilda Buxoro taxtiga Amir Olimxonning kelishidan ko‘pchilik vaziyat o‘zgarar degan umidda edi. Qolaversa, Amir Olimxon Evropaning bir qator shaharlarida bo‘lgan, Sankt-Peterburgda tahsil olgani uchun ham buxorolik yosh talabalarning undan umidi katta edi.

Fitrat Istanbulga kelgach, bu erda evropacha yangi tartibni ko‘rdi, madrasalardagi ta‘lim tizimini havas bilan qabul qildi, o‘sha vaqtda Osiyoning turli mamlakatlaridan kelgan talabalar bilan uchrashdi. Ayniqsa, “Yosh turklar” harakati uning qarashlarini o‘zgartirib yubordi, ana shuning uchun ham 24 yoshli talaba Buxoro amirining vaziriga ochiq xat yozishga majbur bo‘ldi. Fitratning podshoh Amir Olimxonga emas, bosh vazirga maktub bitayotganing sababi u “Munozara” asari orqali tojdor hazrat Amir Olimxonga va ahli Buxoroga murojaat qilgandi, endi ushbu maktub bilan bosh vazirga murojaat qilishining sababi, mamlakatdagi o‘zgarishlaru hammasi uchun uning mas‘ul ekanini eslatishdir. Chunki ayni shu yillarda Eron va Turkiyadagi inqiloblar natijasida “mashrutiyat”, ya‘ni konstitutsion monarxiya tarafdori bo‘lgan kishilar, jumladan, jadidlar ham podshohning xalq tomonidan saylanishini (nasliy merxo‘rlik asosida emas) istar edilar.

So‘ngra esa, jahondagi ulug‘ millatlardan biri turklikning XX asr boshlariga kelib, “yurti xaroblik, xalqi falokat, ayonlari pastkashlik, idora ahli fasod, zolimlarning qonxo‘rligi, ajnabiylarning kalakalari” kabi illatlarga muhtalo bo‘lgani aytiladi. Bu ilatlarni Fitrat “Munozara” asarida mudarris vositasida savodsizlik, harakatsizlik, yoshlarning kelajagiga befarqlik, jahon taraqqiyotidan qolib ketib, hatto o‘z mamlakatining nufuzini bilmaslik singari hodisalari millat taraqqiyotini to‘sayotganini anglatgan edi. “Butun mamlakat va millatni shu ahvolga keltirib qo‘ydikki, dunyodagi eng qiyin va tashvishli kunlarda yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga ma‘yus tortib, qon yig‘lamoqdalar”. Shuning uchun ham Fitrat dastlab bosh vazirga murojaat qilib, Alloh tomonidan fuqaroning ishlarini “tanzim qilish”, ya‘ni nizomga solishga, mamlakatdagi boshboshdanoqlikni tartibga solishga yuborilganini eslatadi. Biroq bosh vazir ishga tushganiga bir yildan ortiqroq vaqt bo‘lsa ham, undan kutilayotgan siyosiy islohotlar amalga oshirilmadi. Bosh vazirning ish boshlagan kunini o‘z milliy bayramidek qarshi olgan xalq “istiqbooning saodati uchun tashabbus bo‘la oladigan biror ish qilinmadi”. Maktubda, bir jihatdan maqtov (“Ey, mehribon ona Vatvning barkamol farzandi!”), ikkinchi tomondan esa, kinali tanqid ruhi hukmron (“Ey, Buxoro ezilgan millatiningbesabot tarafdori!”). Bosh vazirlikni Fitrat “muqaddas xizmat”, ya‘ni “islom millatining xizmati va muqaddas shar‘iy dinimizning

mustahkamlanishi” deb bilgandi. Yuqorida tilga olingan shialar va sunniylar o‘rtasidagi nifoq, ya’ni qonli harakati talabani butun millat nomidan gapirishga majbur etadi: “Nima sababdandirki, siz o‘zingizdan lozim xizmatlarni oshkor, ochiq qilmaysiz?.. Ne mone’lik borki, tartiboti jadida vositasi bilan milliy saodatimizning yangi istiqbolli yo‘llarini ochib, qadrimiz va taqdirimizni a’lo darajada sharaflay olmaymiz?”

Fitratning nazarida amaldorlarning harakatsizligi va tanballigi, so‘zi nufuzli bo‘lgani holda jim turishi, qilichi keskir bo‘lgani holda uni jaholat yo‘lida qo‘lga olishi eng katta jinoyat bilan barobardir. SHuning uchun ham xalqning harakatsizligi, uning rahbarlarining sustkashligi bilan bog‘liq. Millatning g‘aflatda qolishi, o‘sha millatning otalari bo‘lgan ziyolilarnmng g‘aflatda yotganini bildiradi. Fitrat maktubda yozadi: “Magar boshqalar g‘aflatda qolgan bo‘lsalar, Siz-da g‘aflatda qolmang. Boshqalar g‘aflatining tashvishi Sizning g‘aflatingizchalik bo‘lmaydi!” Bunday g‘aflatda yotish va harakatsizlik, gunoh ekanligini aytib, “ertaga intiqom olg‘uchi Allohning oldida (qiyomatda) nima deb javob berasiz?” deb so‘roqqa tutadi.

Fitratning xorij matbuoti (Turkiya)da e’lon qilingan “Buxoro vaziri Nasurullohbek Parvrnachi afandi hazratlariga ochiq maktub”da yurtdagi siyosiy vaziyat, Turkiston va Buxoroning boshqa mamlakatlaridan iqtisodiy va madaniy jihatdan ortda qolish sabablari ko‘rsatilgan, ularni bartaraf etish uchun muallif Buxoro amrining bosh vaziri Nasrullohga maktub shaklida murojaat qilgan.

Muallifning mana shu Istanbuldalik davrida yozilib, Mahmud Tarziy (1865-1933) muharrirligida Kobulda nashr etilayotgan “Sirojul-l-axbori afg‘oniya” (“Afg‘oniston nurli xabarlar”) gazetasida e’lon etilgan fors tilidagi yana bir maqolasi “Taraqqiy va tajaddud” (“Taraqqiyot va yangilanish”) deb nomlanadi. Maqolada 1910-yillarning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy masalalar qalamga olingan. Uni nashrga tayyorlagan prof. R.Inomxo‘jaev yozadi: “Maqola Turkiya voqeligi taassurotlari asosida yozilgan bo‘lib, buni muallifning o‘zi ta’kidlangan bo‘lsa ham, adibning mushohadalari, katta umumlashmalarga intilishi Turkiyada qo‘rgan yangiliklari misolida tabyaat, ijtimoiy hayot sohasida qat’iy va shafqatsiz amal qilib turadigan rivojlanish va yangilanish dialektikasini bayon qilinishi o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganini ko‘rsatadi” [12].

Fitrat o‘z maqolasida va yangilanishi jarayonida taraqqiy etgan mamlakatlar bilan birga qadam tashlashga harakat qilmaslik oxir oqibatda tanazzulga olib kelishi mumkinligini aytadi: “Buyuk Parvardigor bashariyat xamirturuishini taraqqiyot va yangilanish javhari bilan qo‘shib qorigandir. Odamzod o‘z tabiatiga ko‘ra taraqqiyot va yangilanish qobiliyatiga egadir... bundan keyin ham u ilgaridek taraqqiyot va

yangilanish shahko‘chasi dan chetga chiqmaydir” [13]. Fitratning aniqlashicha, taraqqiyot va yangilanish jarayoni talablari bilan voqelik shakllari orasida mutanosiblik bo‘lishi shart, kimda kim buni ilg‘ab olmasa va unga moslasha olmasa, nest-nobudlik girdobiga g‘arq bo‘laveradi. Fitrat o‘z maqolasida rivojlanish va yangilanishi qonunlari insonlar hayotining barcha sohalari, shu jumladan, mafkuraviy va ma‘naviy hayotni ham qamrab olishini, hatto dinham bu qonundan chetda qolishi mumkmn emasligini, buning oqibatida yangi dunyo eskisi o‘rniga kelishini ta‘kidlaydi.

Diniy taassub hukm surgan 1908-yilda Buxoroda bo‘lib o‘tgan “jadidchilar” va “qadimchilar” munozarasida “qadimchilar”ning qo‘li baland kelgani [14] Fitratni hayratga solgan. Shuning uchun ham bu maqolada ham yangilanish sari qadam tashlayotgan jadidchilarni qo‘llash ruhidan borgan. “Olam sahnasida o‘z hamjinslari qatoridan joy egallamoqchi bo‘lgan millat qanday xatti-harakatni o‘ziga dastur qilib olishi kerak? Bu shunday masalaki, agar bizning kattalarimiz uni to‘g‘ri hamda kamoli ixlos va pok niyat bilan hal qilsalar, oramizdagi “qadim” va “jadid” (eski va yangi) nomi bilan mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklarni yo‘qotish kerak”. Muallifning bunday o‘tkir mulohazalari Mahmud Tarziy kabi Afg‘oniston taraqqiyparvarlarining ham e‘tiborini jalb qilgan va shuning uchun ham ushbu maqolani e‘lon qilish bilan birga unga gazeta tahririyati nolishdan “Bizning muhtaram o‘rtog‘imiz va qalamdoshimi “Samarqand” gazetasida Abdurauf Fitrat imzosi bilan fors tilida maqola chop etilibdi. Biz ham muhtaram o‘quvchilarimiz foydalanishlari uchun uni aynan ko‘chirib bosmoqdamiz” deb yozgan edi.

Ma‘lumki, “Siroju-l-axbori afg‘oniya” gazetasining muharriri Mahmud Tarziy 21 yoshdan 36 yoshgacha Turkiyada yashagan, uning dunyoqarashi ko‘p jihatdan ana shu mamlakatda shakllangan. Fitrat maqolasida Mahmud Tarziyning dilidagi va tilidagi fikrlar bayon etilgani uchun Fitratning taraqqiyot va yangilanshi jarayonining uzluksizligi borasidagi mulohazalari allomaning e‘tiborini topgan. Lekin mana shu maqolada XX asr boshlarida vatanimizdagi ma‘rifatparvarlik jarayoni, uning tashvish va kamchiliklari faqatgina bizning yurtimiz uchun emas, balki, umuman, Sharq mamlakatlari uchun ham dolzarb ekanini tushunamiz: “Insonlar ahtiyoji har doim ham bir xil bo‘lib qolavermaydi, u kundan kunga ko‘payadi, rivojlanadi. Shuning uchun ham biz ehtiyojlarimizni qondirish vositalarini rivojlantirib, yangilab boramiz. O‘zining zamonaviy ehtiyojlarini mukammal vositalar orqali qandirgan har qanday millatni biz rivojlangan va yangilangan deb ataymiz”.

XULOSA

Fitratning siyosiy publitsistikasining eng yaxshi namunalari sifatida xorijda e‘lon qilingan “Buxoro vaziri Parvonachi Nasrullohbek afandi hazratlarina ochiq

maktub” (“Vazoratpanohi mo be tartiboti jadida muhtojim”) maqolasini keltirib, unda ko‘tarilgan masalalari faqatgina Turkiston yoki Buxoro uchun emas, balki butun dunyo taraqqiyoti bilan bog‘liq ekanini aytishi mumkin.

Kobulda Mahmud Tarziy muharrirligida chiqqan “Siroju-l-axbori afg‘oniya” gazetasida nashr qilingan “Taraqqiy va tajaddud” (“Taraqqiyot va yangilanish”) maqolasida 1910-yillardagmi madaniy taraqqiyot xususida so‘z yuritgan va madaniy hayotdagi kamchiliklarni ko‘rsatib bergan.

Keyinroq yaratilgan Sharq xalqlarining ozodligi haqidagi publitsistik asarlarida Fitrat mana shu dastlabki maqolalarida boshlangan ilmiy-publitsistik harakatlar davom ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ҳожи Нематуллоҳ Муҳтарам. Тазкират уш-шуаро. – Душанбе, 1975. – Саҳ. 319-320 (Hoji Nematulloh Muhtaram. Tazkirat ush-shuaro. - Dushanbe, 1975. –P. 319-320).
2. Бухоро вазири Парвоначи Насруллоҳбей афанди ҳазратларина очик мактуб: Вазоратпаноҳи мо бе тартиботи жадида муҳтожим // Таъруфу муслимин. – Истанбул: 1328/1910.25. 2-жилд (8 декабрь, форс тилида) (A letter to Hazrat Parvonachi Nasrullahbey, Minister of Bukhara: I need the order of the Ministry of Defense // Ta'rufu Muslimin. - Istanbul: 1328 / 1910.25. Volume 2 (December 8, in Persian).
3. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Т., 2007. – Б. 15-33 (Boltaboev H. Fitrat and jadidism. - T., 2007. - P. 15-33).
4. Олимжон Ҳ. Фитратнинг адабий ижоди ҳақида // Совет адабиёти. 1936. 5-сон. Б. 63-71; Алимджан Х. О литературном творчестве Фитрата // Литературный Узбекистан. 1936. № 5 (Olimjon H. About the literary creation of Fitrat // Soviet literature. 1936. No. 5. B. P. 63-71; Alimdjan X. About the literary creation of Fitrat // Literaturnyy Uzbekistan. 1936. № 5).
5. Каримов Э.А. Развитие реализма в узбекской литературе. – Т.: Фан, 1979. – С. 28-37 (Karimov E.A. Development of realism in Uzbek literature. - Т .: Fan, 1979. - P. 28-37).
6. Каримов Н. Мавлоно Фитрат // Саодат. 1991/ 3-сон. Мақоланинг то‘ldirilgan nashri: Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Маънавият, 2020. – Б. 3-34 (Karimov N. MavlonoFitrat // Saodat. 1991/3. Completed edition of the article: AbduraufFitrat. Selected works. Volume 1 - Т .: Manaviyat, 2020. - P. 3-34).

7. Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. Т.: Шарқ НМАК, 1994 (Qosimov B. Colleagues: Behbudi, Ajzi, Fitrat. T.: Sharq NMAK, 1994).
8. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жади́дчилик. – Т., 2007. – Б. 23 (Boltaboev H. Fitrat and jadidism. - T., 2007. - P.23).
9. Komatsu H. Fitret'in "Munazara"sı üzerine notlar. Istanbul, 1988; 20. Yuzyil başlarında Orta Asiyada Türkcülük ve Devrim Hareketleri. – Ankara, 1993. – S. 7-8 (Notes on Komatsu H. Fitret's "Debate". Istanbul, 1988; 20. Turkism and Revolutionary Movements in Central Asia at the turn of the century. - Ankara, 1993. - P. 7-8).
10. Turkistanda Yenilik Hareketleri ve İhtilaller: 1900-1924. Birinci Baski: 2001. – Haarlem, Holland, S. 467 – 483 (TurkistandaYenilikHareketleriveİhtilaller: 1900-1924. BirinciBaski: 2001. – Haarlem, Holland.P. 467 – 483).
11. Бухоро вазири Парвоначи Насруллоҳбек афанди ҳазратларина очик мактуб Вазоратпаноҳимо бе тартиботи жадида муҳтожим. // Таъруфи муслимин. – Истанбул: 1328/1910. 2-жилд (8-декабр, форс тилида) (A letter to the Minister of Bukhara ParvonachiNasrullahbekefendi I need the order of the Ministry. // Ta'rufimuslimin. - Istanbul: 1328/1910. Volume 2 (December 8, in Persian).
12. Иномхўжаев Р. Фитрат мақоласи Афғонистон матбуотида // Адабий мерос. – 2004. 8-сон. – Б. 101-103 (Inomxo'jaev R. Fitrat's article in the Afghan press // Literary heritage. - 2004. Issue 8. - P. 101-103).
13. Фитрат. Тараққий ва тажаддуд // Сирожу-л-ахбори афғония. – 1913. – 15 ноябр (Fitrat. Taraqqiyvatajaddud // Siroju-l-akhboriafghaniya. - 1913. – 15 November)
14. Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ НМАК, 1994. – Б.72 (Qosimov B. Colleagues: Behbudi, Ajzi, Fitrat. - T.: Sharq NMAK, 1994. - P.72).

TARJIMADA EKVIVALENTLIKNING MULOQOT MAQSADINI IFODALASH VOSITALARI

Fatxutdinova Iroda Atxamovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrası o'qituvchisi
Irodaislomzoda7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasiga doir mavzular, ekvivalentlikning yuzaga kelishida darajalarning o'rni, qo'llash uslubi masalasi dolzarb muammolardan sanaladi. Maqsad: ekvivalentlik masalasida ko'tarilgan muammoni aniqlash, ekvivalentlik darajalarining ahamiyatini belgilash, aslyat va tarjima matni o'rtasida ekvivalentlikning ma'noviy yaqinligini qiyoslashdan iboratdir. Vazifalar: tarjimada ekvivalentlikning o'rganilganlik darajasini aniqlash, muloqot maqsadini saqlab qolishda iboralar orqali o'rganish, o'xshatishlar, xos so'zlarda ma'noviy ekvivalentlik darajasini aniqlash. Aslyatdagi iboralar, o'xshatishlarning tarjima matniga ko'chgan shakli tadqiqotimizning ob'ekti bo'lib, tarjima matnidagi ekvivalent shakllari tadqiqot predmeti hisoblanadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. O'zbek tarjimashunosligida badiiy matn tarjimasi ekvivalentlik darajalari ilk marotaba o'rganib chiqish tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi. Tadqiqot materiallaridan "Tarjimashunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Madaniyatlararo muloqot" fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Aslyat va tarjima matnidagi ekvivalent iboralarda ma'noning siljishi kuzatilib, aslyatdagi iboralar tarjima maydoniga ko'chganda ma'nosi torayib, yangi ma'noni qo'shimcha sifatida olishi kuzatildi.

Kalit so'zlar: *Ekvivalentlik, adekvatlik, referentsiya, kommunikatsiya, denotativ, ekspressiv, fatik, metalingvistik funktsiya.*

АННОТАЦИЯ

Вопросы эквивалентности, место степеней при возникновении эквивалентности, метод применения считаются актуальными вопросами в переводческом деле. Цель состоит из выявления проблем поднятых вопросом эквивалентности, определения значения степеней эквивалентности, сравнения схожести значения между текстом оригинала и перевода. Задачи: определение степени изученности эквивалентности в переводе, изучение оборотов при

сохранении цели общения, определение эквивалента значения в сравнениях, специальных словах.

Объектом нашего исследования являются формы сравнений и оборотов текста оригинала, перешедшие в текст перевода, а эквивалентные формы в тексте перевода являются предметом исследования. В исследовании использован метод сравнительного анализа. Первое изучение степеней эквивалентности в переводе художественных текстов в узбекском переводческом деле является научной новизной исследования. Материалы исследования могут быть использованы в преподавании "Перевода ведение", «Теории и практики перевода» и «Лингвокультурологии». Научно исследовательская работа состоит из вводной части, заключения и списка литературы. В эквивалентных оборотах текстов оригинала и перевода наблюдается сдвиг значения, а также при переходе оборотов текста оригинала на текст перевода наблюдается сужение их значения и прием, в качестве дополнения, нового значения.

Ключевые слова: Эквивалентность, адекватность, референция, коммуникация, денотатив, экспрессив, металингвистическая функция.

ABSTRACT

Equivalence degrees, place of degrees at uprising the equivalence, method of application are considered relevant issues in the translation. The aim is to identify the problems of the issues raised by equivalence, determine the value of equivalence, comparing similarity of meanings between the original text and translation. Objectives: To determine the degree of equivalence in translation, to study phrases while maintaining the goal of communication, determining equivalent meaning in comparisons and special words. The object of our research is the form of comparisons and phrases of the original text converted to text of translation; and the equivalent forms in the translated text is the subject of research. The study used the method of comparative analysis. The first study of equivalence in translation of literary texts in the Uzbek translation is the actuality of the study. Study materials can be used in teaching of "Theory and Practice of Translation" and "linguistics culture". Scientific research work consists of an introduction, conclusion and bibliography. At transition of equivalent phrases of original texts and translation observed constriction of their meaning, as well as at the transition from the original text to text of translation, there is reductions of their meaning and reception, as a supplement, the new value.

Keywords: *Equivalence, adequacy, reference, communication, denotative, expressive, metalinguistic function.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Turli millatlarni bir-biriga bog'lab turuvchi madaniyatning eng asosiy omili bu tarjimashunoslikdir. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi bo'lib, tarjima orqali olimu fuzalolarning, shoirlarning asarlari turli tillarga tarjima qilinib, elatlar o'rtasidagi rishtalar bir-biriga bog'lanib kelingan. Tarjimaning hamma til uchun eng mashaqqatli hisoblangan turi ham aynan ekvivalent variantini topib tarjima qilishdir.

Tarjima matni ham asliyat matniga teng bo'lib, u bilan bir yaxlitlik tasavvurini uyg'otishi kerak. Shunga binoan, tarjima vazifalaridan biri-tarjima matn asliyatning to'liq kommunikativ o'rnini egallashi va asliyat o'quvchisi imkoniyatiga teng darajadagi badiiy zavq, mazmuniy va strukturaviy uyg'un muvozanatni taqdim etishdir. Bunday muvozanat tarjimaning barcha jabhalarini qamrab olishi lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tilshunos va tarjimashunoslarning ekvivalentlik masalasi bo'yicha bergan fikrlari turlichadir. Ayrim tarjimashunoslar fikricha, tarjima qilinayotgan til me'yoriga qat'iy amal qilgan holda asosiy mazmuni berish ekvivalent tarjima bo'lib, bu maqbul holat ekanligi ta'kidlanadi. Umuman olganda "ekvivalent" tenglik bo'lib, birinchidan, ekvivalentlikda bir xillik umuman o'xshamaslik nazarda tutilsa, ikkinchidan, ekvivalent almashtirishdir. Misol uchun hindiy tilida, बच्चे मन के राजा होते हैं– (*bachche man ke raja hote heyn*) "**Bolalar qalban podsho bo'lishadi**" yoki bu maqolni ibora bilan "**bolalik-podsholik**" deb o'girish ham maqsadga muvofiq. Bunda tarjima saviyasiga putur yetmagan holda uning asosiy ma'nosini berish bilan ham tarjimada ekvivalentlikka erishish mumkin. Shunday ekan, asliyat matni parchasi ustida ishlash jarayonida tarjimaning bir necha variantlari yuzaga keladi. Tarjimon uning eng muqobilini tanlay olishi muhim. Bunda tarjimon matnining alohida elementlarini muhimlik darajasiga ko'ra grammatik va semantik to'g'ri keladiganini tanlaydi. Eng kam yo'qotishga ega tarjima variantini tanlash tarjima saviyasini belgilaydigan eng muhim omildir.

Tarjimada ekvivalentlikka erishishda uning darajalarini e'tirof etish juda muhim. Bu tilshunos va tarjimashunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan.

Tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e'tiborni ikki til tizimining ma'no jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki axborotning to'laqonliligi asosini turli tillar matnlarining ma'noviy uyg'unligi tashkil etadi. Tarjimada har qanday tasvir vositalarining ma'noviy muqobilligi jihatlarini to'liq ta'minlash ham muloqot maqsadining vazifalaridan biri hisoblanadi. Misol uchun hindlarda एक हाथ से ताली नहीं बजती" (*eyk haath se taali nahi bajati*) ya'ni "**Bir qo'l bilan**

qarsak chalinmaydi” iborasi o‘zbek tilining «qars ikki qo‘ldan chiqmoq» iborasiga ma’noviy jihatdan muqobil deya olish mumkin.

Asosiy muloqot birligi bo‘lgan matnning umumiy tuzilishi, mazmuniy mundarijasi lisoniy birliklar kommunikativ ma’nosini shakllantiruvchi tajriba maydonidir. Yaxlit kommunikativ lisoniy tuzilma bo‘lgan matnning semantik (ma’noviy) mundarijasi denotativ va signifikativ qismlardan tarkib topadi. Bulardan birinchisi matn mazmunining voqelikda kechayotgan hodisalar bilan bog‘liq tomonlariga ishora qilsa, ikkinchisi, matn yoki nutq ijodkorining nutqiy tafakkur faoliyati bilan bog‘liqdir.

Kommunikativ birliklar mazmuni barcha ma’noviy elementlarning uyg‘unlashuvi, yagona bir mazmun, muloqot maqsadining ifodalanishini talab qilishini yuqorida aytib o‘tdik. Shunga binoan kommunikativ semantika sohasida bizni belgidan tashqaridagi munosabatlar emas, balki bu munosabatlarning belgi orqali nutqiy tuzilmada namoyon bo‘lishi qiziqtiradi.

Semasiologlar doirasida mashhur bo‘lgan «Semantics» risolasining muallifi J.Layonzning ta’kidlashicha, so‘zlovchi harakatini bajarayotib, lisoniy iborani maqsadli tanlaydi va «referentsiyani aynan shu ibora mundarijasida ifodalaydi».[1,40-b] Uning ta’biriga ko‘ra “referentsiya-so‘zlovchi yoki yozuvchi ijrosidagi bir tomonlama harakat natijasi sifatida emas, balki ikki tomonlama, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi ishtirokidagi «shaxslararo harakat» asosida hosil bo‘ladigan lisoniy faoliyat turi sifatida talqin qiladi”.[2, 8-15b]

Bizga ham bunday yondashuv ma’qul, chunki har qanday lisoniy faoliyat muloqot muhitini talab qiladi, lisoniy muloqot esa qanday ko‘rinishda kechishidan qat’iy nazar, shaxslararo munosabatning namoyon bo‘lishidir. Biror bir vaziyatni bayon etishdan tashqari yoki shu bilan birgalikda muloqot maqsadi matnning biror hissiyotni, berilayotgan axborotga yoki bayon etilayotgan vaziyatga o‘z emotsional munosabatini bildirishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday munosabatni bildirish uchun tilda maxsus vositalar mavjud: o‘ziga xos ohang, belgilar va x.z. Gap ushbu belgining muayyan emotsional komponenti haqida emas, balki bayon etilayotgan butun vaziyatning bahosi to‘g‘risidagi axborotni beruvchi maxsus belgilar to‘g‘risida bormoqda. Boshqa darajalar mazmuni bilan o‘zaro ta’sirga kirishib ushbu axborot ko‘pincha muloqot akti uchun muhim jihat bo‘ladi.

A.Shveytser, A.Noybert asarlarida tarjima-tillararo kommunikatsiya mahsuli ekanligi atroflicha tushuntirib berilgan. Natijada uzoq yillardan beri tilshunos va adabiyotshunoslar o‘rtasida mavjud bo‘lgan bahslarga deyarli chek qo‘yilgan.

A.D.Shveytserning fikriga ko‘ra, tarjimada eng muhimi dastlabki va tarjima matnlarining invariant kommunikativ effektiga suyanuvchi kommunikativ

ekvivalentligidir. Kommunikativ ekvivalentlik dastlabki matnning tarjimada funktsional dominantligini saqlab qolishni nazarda tutuvchi funktsional ekvivalentlik bilan bog‘liq. Uning nazariyalarida agar kommunikativ ekvivalentlik semantik va pragmatik darajalarga qo‘llanilsa va funktsional ekvivalentlik bilan to‘ldirilsa, to‘liq ekvivalentlik to‘g‘risida gapirish mumkinligi ta’kidlanadi.

Til-birlamchi navbatda, o‘zaro aloqa vositasi ekanligi nuqtai nazaridan SH.Sirojiddinov tarjimaning kommunikativ modeli yondoshuvlariga asoslanib, tarjima ekvivalentligi masalasi tadqiqotida o‘ziga xos ravishda tushuntirib berilgan. Uning ushbu modeli o‘z ichiga quyidagi olti yondashuvni qamraydi:

1. Ob‘ektiv borliqning asliyat tilida ifodalangan bayonini aks ettirish (denotativ)
2. Asliyat muallifining yaratilayotgan matnga munosabatini ochib berish (ekspressiv)
3. Tildagi nutq signallari, mimika, ishora va o‘zaro kontaktga aloqador umumiy frazalarning muvofiqlik darajasini belgilash va ta’minlash (fatik)
4. O‘zaro muloqotda foydalanilayotgan til hususiyatlarini tahlil qilish (metalingvistik funktsiya)
5. Tarjimada buyruq va amrlarni ifodalash (iroda funktsiyasi)
6. Tarjimada badiiy tasvir vositalari va semantik muqobillik jihatlarini to‘liq ta’minlash (poetik funktsiya)

A.D.Shveytser ekvivalentlik turlarini bayon qilishda semiotika, ya’ni belgilar tizimini o‘rganadigan fan natijalari asos qilib olinadi. Muloqot ana shu belgilar orqali amalga oshiriladi. Uning tasnifiga ko‘ra muloqot maqsadini saqlashda, asosan, neologizmlar, aforizmlar, xalq maqollari va iboralar kirishini ta’kidlab o‘tadi. [3,57-b] “Bu tur tarjima uchun juda qiyin, chunki asliyat tilining madaniy o‘ziga xosliklari tufayli ularning asl ma’nosini farqlay olmaslik xavfi mavjud” deydi. [4,49-b]

V.N.Komissarov ekvivalentlik darajasi modelining kengrog‘ini taqdim etadi. Oxirgi aniqlashtirilgan variantda uning taklif qilgan model 5 ta o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ierarxik qatlamlardan iboratdir:

1. ***Kommunikatsiya (muloq)ning maqsadi darajasi;***
2. ***Vaziyatni tasvirlash darajasi;***
3. ***Vaziyatni tasvirlash uslubi darajasi;***
4. ***Ibora tuzilmasi darajasi;***
5. ***Leksik-semantik muvofiqlik darajasi.***

V.N. Komissarovning nazariyasiga binoan tarjima ekvivalentligi asliyat va tarjima matnlari mazmuni maksimal darajada o‘xshashligini ko‘rib chiqdik. Har bir tilda

so‘zlashuvchi shaxsning ijobiy yoki salbiy munosabatidan kelib chiqib emotsional bo‘yoqdagi so‘zlar uchraydi.

Lug‘atlarda ko‘plab topiladigan hech qanday emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lmagan so‘zlar neytral emotsional so‘zlar deb ataladi. Shunga asosan leksik birikmalarni uch turga ajratish mumkin. 1) salbiy emotsional, 2) neytral emotsional, 3) ijobiy emotsional so‘zlar. So‘zlarning emotsional bo‘yog‘i ikki xil usulda ko‘p ma’noli so‘zlarning kontekstga mos ma’nosini tanlash va so‘zlarga emotsional bo‘yoq beruvchi qo‘shimchalarni qo‘shish yordamida yasaladi. Ushbu emotsional bo‘yoqdorlikni biz o‘z tadqiqodimizda ya’ni aslyat va tarjimada berilgan o‘xshatishlar orqali ko‘rib chiqdik.

Bundan tashqari tildagi obrazlilikni ifodalovchi vositalar ichida iboralar alohida o‘rin tutadi, chunki ular kesatq, nafrat, jirkanish, so‘kish, qarg‘ish kabi salbiy, erkalash, hazil, rag‘batlantirish kabi ijobiy qo‘shimcha ma’no noziklarini ifoda etuchi obrazli birikmalar hisoblanadi. Har bir yozuvchining iboralardan foydalanish uslub va yo‘nalishlari bo‘ladi. Agar ma’lum tilda yaratilgan asarni boshqa tilga tarjima qilish lozim bo‘lsa, xususan iboralarni o‘g‘irish jarayonida tilda mavjud bo‘lgan muqobil variantlari, sinonim yoki ekvivalentlaridan foydalaniladi.

Shunday iboralar borki, ular anglatgan ma’noni uning tarkibidagi ayrim so‘zlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirib chiqarish mumkin emas. Shu bilan birgalikda iboradan butunligicha kelib chiqadigan ma’no bilan ibora tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari o‘rtasida qarama-qarshilik ham yo‘q. Iborani tashkil qiluvchi so‘zlar o‘z mustaqil ma’no markazini saqlamaydi. Iboraning ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarga xos bo‘lgan ma’nolarning umumiy mahraji sifatida kelib chiqadi. Bu umumiy ko‘chma ma’no iboraning butunligini saqlab turadi, uning parchalanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Turli tillardagi iboralarning bir-biriga har jihatdan o‘xshashligi aksariyat hollarda xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlar va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero, til vositalari singari iboralar ham turli-tuman umuminsoniy fikrning bayon me’yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladi.

Ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til iboralari qator hollarda o‘zaro farq qiladilar. Bunday iboralar o‘zaro ekvivalentlik munosabatida bo‘ladi. Iboralar matnda muloqotning maqsadini saqlab qolinishiga xizmat qiladi. Bu maqsadga erishishda tarjimon matnda berilgan so‘zning ko‘chma ma’nosini retseptorga yetkazishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ma’nolarning detallashtirish hamda aniqlik va to‘liqlik darajasi bilan farqlanuvchi ekvivalentlikning 5 darajasini ajratish asosli deb hisoblagan holda biz V.N.Komissarovning ekvivalentlik nazariyasiga tayangan holda Bhisham Sahniyning “Basantiy” romanining Amir Fayzullo tarjimasida ekvivalentlikning

to'rtinchi darajasi ya'ni muloqot maqsadi darajasini iboralar misolida ko'rib chiqqanmiz. Misol uchun asarda shunday ibora qo'llanilgan: बसन्ती के पिता को देखता ही दिनु भीगी बिल्ली बन गया । (८७) **Tarjimasi:** *Basantiyning otasini ko'riboq Dinu suvga tushgan mushukday shumshayib qoldi. [5,82-b].* Bu misolda hindiy tilidagi “भीगी बिल्ली” (*bhigi billi*) tushunchasi o'zbek tilidagi “*suvga tushgan mushukday*” iborasiga ekvivalent bo'lib, muallif bu bilan qahramonni “*hafsalasi pir bo'lgan*”ligini mushuk obraziga o'xshatib bergan. Ushbu ibora har ikki tilda ham o'z ekvivalentiga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Moddiy jihatdan o'xshash ikki til frazeologik ekvivalentlari ma'no va uslubiy vazifa jihatidan ham aksariyat hollarda bir-biriga mos bo'ladi, chunki bunday paytlarda birliklar negizida bir xil hayotiy tajribaga asoslangan tushunchalar yotadi. Bu xil iboralar tarjimada bir-birlarini bemaolol almashtira oladi.

Asliyat matn muallifi va matn tarjimasini oluvchi bilan tarjimonning o'zaro ta'siri tarjima sharoitlari va oluvchining talabi, tarjimonning kommunikativ effektini anglab yetkazib berish mahorati, uning nutqiy asarni haqiqiy yoki taxminiy oluvchi haqidagi tasavvurlariga ko'ra o'zgaradi va tarjimada muvofiqlikni belgilab beradi.

Asliyat muallifi personajlar nutqida insonlarning haraktlarini turli xil jonivorlar tasviri bilan o'xshatishlar orqali obrazli talqin etgan: मँडराती चील की तरह उस के ऊपर जा खड़ा हुआ । (५६) (*mandrati chil ki tarah us ke upr ja khara hua*) **Tarjimasi:** *Aylana uchayotgan kalxatdek uning boshiga bostirib keldi. [5,50-b]* Ushbu jumlada avtor qahramonni tez uchar kalxatga o'xshatib obrazli tasvirlagan. Bu jumla har ikki tilda ham ekvivalenti bilan talqin qilingan.

Bu yerda matn mohiyati tarjimon ongida qay darajada aks etgani namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan tarjimon faqat ekvivalent muvofiqlikni izlash emas, balki madaniyatlararo tafovut xalaqit berayotgan o'rinlarda, tarjima matn o'quvchisiga kerakli tushuntirishlarni bera olishi, balki kerak bo'lsa, iste'molchiga turli zaruriy sharh va izoxlarni berish imkoniyatlarini topishga hamda asliyat muallifi ko'zlagan maqsadni to'liq berishga erishishga harakat qilishi lozim. Asliyat qahramonlari nutqida salbiy emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'lgan so'z birikmalari va o'xshatishlarni ko'p uchratish mumkin: बसन्ती जानती थी कि अगर माँ ने उसे पहचान लिया तो काली नागिन की तरह फुँकारती हुई उस पर झपटेगी और उसे साइकिल पर से घसीट लाएगी । (५३) **Tarjimasi:** *Basantiy bilardiki, agar onasi uni tanib qolsa, qora ilondek vishillab unga tashlanardi va uni velosipeddan tortib tushirgan bo'lardi. [5,40-b]*

Bundan tashqari ikki til matnlarining bir xil qurilishiga egaligini leksik tarkiblarining to'la o'xshashligi asliyat asosiy qismlarining tarjimada batamom

saqlanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Yuqoridagi o‘xshash yana bir misolda qahramonning mitti ko‘zlari bilan qarashi ilonning ko‘z qarashlari bilan berilgan: चौधरी की छोटी- छोटी आँखे सांप की आँखे की तरह साइकिल की ओर ही देख रही थीं। (۵۲) **Tarjimasi:** *Cho‘dhariyning kichkina–kichkina ko‘zlari ilonning ko‘zlaridek velosiped tomonga qarab turardi. [5,48b]* Ushbu misolda ham yuqoridagi misolga o‘xshab qahramonlar harakati tasvir usuli ilon obraziga o‘xshatib salbiy bo‘yoqdorlik bilan berilgan bo‘lishiga qaramay, undagi harakatlar bir biridan farq qiladi. O‘zbek kitobxonlari uchun bunday qarashlar ko‘proq “bit ko‘zlari” yoki “ayyor tulkinining ko‘zlari” bilan berilishi ham mumkin. Bunda har ikkala tilda ham ma’no saqlanib qolinadi.

तुम मर्द लोग खरगोश की तरह डरते-कांपते ही रहोगे **So‘zma so‘z:** *Sen erkaklar quyonga o‘xshab qo‘rqib-titrab yashaysanlar. Tarjimasi:* *Erkak bo‘lsalarining ham o‘lgudek quyonyuraksanlar. [5,15-b]* Ushbu misolda har ikkala tilda ham erkaklarni hadiksirayotgan quyonga o‘xshatib berilgan. Bu yerda tarjimon o‘zbek so‘zlashuv tiliga mos jumla topib “quyonyurak” ma’nosini berib, unga mahorat bilan yondoshganini ko‘rish mumkin. Vaziyatning absolyut o‘xshashligi ko‘pincha ushbu matn tarjimasi tan olinishining majburiy sharti hisoblanadi.

Tillararo kommunikatsiyani amalga oshirish munosabati bilan pragmatika muammolari yuzaga kelar ekan, tarjimolning vazifasi tarjima jarayonining maqsadini to‘g‘ri anglagan holda, uni tarjima tili talabi, me‘yori asosida qayta yaratishdan iboratdir. Muayyan tarjimaning pragmatik vazifasini amalga oshirish tarjimondan goho yuqori darajadagi muvofiqlikdan voz kechgan holda, kitobxonning estetik ta’sirlanish darajasini birinchi o‘ringa qo‘yishni talab qiladi. Chunki haddan ortiq aniqlik pragmatik noaniqlikka olib kelishi, ya’ni tarjima asliyati o‘z kitobxoniga ko‘rsatgan darajadagi ta’sirchanlikni yaratishga ojizlik qilishi mumkin. [6,248-b]

Tarjimon matn ustida ishlash jarayonida asar muallifining kommunikativ istagini to‘liq tushunib olishi kerak. Shu yerda tarjimonning badiiy adabiyot sohasida egallagan bor ma’naviy bilimlari ishga solinadi. Asar muallifi o‘zining kommunikativ istagini amalga oshirish yo‘lida turli frazeologik birliklardan (iboralardan) foydalanadi. Tarjimalarda iboralardan ixtilof bo‘lmay iloj yo‘q. Ularning predmetli-mantiqli, konnotativ xususiyatlaridan kelib chiqib, til birliklari o‘rtasida mazmun va ma’no uyg‘unligini ta’minlaydi. [7,55-b] Muloqotning maqsadi tarjimonga tarjima qilayotgan so‘z ma’nolarini retseptorda taassurot qoldirish yo‘llarini ochib berishga imkon yaratishdir. Shu maqsadda tarjimon aslyatdagi iboralarni uning ma’nolarini saqlab qolishda o‘zidan qo‘shib, iborani ibora bilan almashtirib, kengroq doirada tarjima qilgan.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi misollar tahlilida biz Bhisham Sahniyning «Basantiy» romanida iboralarni, oxshatishlarni tarjimada ekvivalentini to'g'ridan-to'g'ri ya'ni adekvat yoki bilvosita berilishini ko'rib chiqdik.

Asliyat va tarjima birliklari darajalarning barchasida yoki ularning bir-nechtasida ekvivalent bo'lishi mumkin ekan. To'liq yoki qisman ekvivalent birliklar va salohiyati teng qiymatli ta'riflar ob'ektiv ravishda original tilida va tarjima tilida ham mavjud, biroq ularni to'g'ri baholash, tanlash va qo'llash tarjimonning bilim, malaka va ijodiy qobiliyatiga, uning til va ekstralingvistik omillarni hisobga olish va taqqoslash mahoratiga bog'liqdir. Iboralar tarjimasini o'rganganda asosan ekvivalent va muqobil variantlarini topishda tarjimon mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki hindiy tilida oddiy tilda berilgan so'zlar tarjimada iboralar bilan ifodalangan. Asliyat va tarjima matnidagi ekvivalent iboralarda ma'noning siljishi kuzatilib, asliyatdagi iboralar tarjima maydoniga ko'chganda ma'nosi torayib, yangi ma'noni qo'shimcha sifatida olishi kuzatildi. Tarjimon asliyatda berilgan o'xshatishlarni o'zbek kitobxonlari madaniyatiga xos tarzida tarjima qilgan va har ikki tilda ham ma'noni saqlab qolishga erishgan.

Iboralarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o'ta murakkab va shu bilan birga, juda mas'uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Chunki ular nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko'ra ko'proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning izlanishlaridan ma'lum bo'ldiki, iboralar tilning yaxlit lug'aviy birligi sifatida uni grammatik, semantik, funktsional, xatto sotsiologik jihatdan o'rganish mumkinligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, talay iboralar milliy xususiyatga egadirki, bu hol tarjimonlarga qiyinchiliklar tug'diradi. Har bir til ibora zahirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy voqea xodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi.

Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, tarjimada mutarjim mazmun va ma'noga aynan mos tushuvchi so'zlarni qo'yib o'girish bilan tarjima ekvivalentligiga erishgan. Tarjimonning ma'naviy bilimlari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, badiiy tarjima matnining ekvivalentlik darajasi shunchalik yuqori bo'lishi mumkinligiga amin bo'ldik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ланчиков В.К., Семантические и стилистические аспекты перевода.,—М., 1977. – С.40.

2. Лайонз Джон., Лингвистическая семантика //Языки славянской культуры.– У.,2003. – С.8-15.
3. Швейцер А.Д. Теория перевода.//N. Neubert A. Text and translation. Leipzig, 1985.- R. 55.//– М., 1988.
4. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари.–Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011.
5. Басантий романи. Амир Файзулла. – Т: “Turon-Iqbol”, 2010.
6. Латышев Л. К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения.,–М.: Международные отношения, 1981.
7. Швейцер А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. – М., 1988.
8. भीषम साहनी. बसंती. नवीन शाहदरा, नाइ दिल्ली १९८३- १८४
9. Комиссаров, В. Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980

YOSH MUTAXASSISLARNING KASBIY ADAPTATSIYASI JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Xaydarova Ra'no Anvarovna
ToshDSHU «Pedagogika
va psixologiya» kafedrası katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy adaptatsiyasi jarayonidagi o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalarni ushbu jarayonga ta'siri ko'rib chiqilgan.

***Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lim tizimi, adaptatsiya, tanqidiy fikrlash, pedagogik vaziyat, «Olti shlyapa», «Blum moychechagi», «Bashorat daraxti».*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается специфика процесса профессиональной адаптации дошкольников. Обсуждается влияние технологий критического мышления на этот процесс.

***Ключевые слова.** Система дошкольного образования, адаптация, критическое мышление, педагогическая ситуация, «Шесть шляп», «Ромашка цветения», «Вещее дерево».*

ABSTRACT

The article discusses the specifics of the process of professional adaptation of preschoolers. The influence of critical thinking technologies on this process is discussed.

***Keywords.** Preschool education system, adaptation, critical thinking, pedagogical situation, "Six hats", "Blossom chamomile", "Prophetic tree".*

KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa, shu kunga qadar deyarli e'tibor qaratilmagan maktabgacha ta'lim soxasiga

juda katta e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlar vatanimiz kelajagidir. Bu sharaflı vazifani bajarish pedagoglar zimmasiga tushadi. Shu sababli uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'ini uchun yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Harakatlar dasturi UNRCCA-ning kelgusi uch yillik faoliyatiga rahbarlik qiladi. Dasturni amalga oshirishda Markaz Markaziy Osiyo davlatlari hukumatiga mintaqadagi mavjud muammolarni samarali hal etishga va yuzaga keladigan yangi muammolarga javob berishga tayyorlik darajasini oshirish maqsadida yordam beradi. O'tgan ikki yil ichida hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashdagi amaliyotlariga quyidagilar kiradi: terrorizm va uyushgan jinoyatchilik (xususan, giyohvand moddalar savdosi) kabi transmilliy tahdidlar; zo'rvonlik, ekstremizm; suv va energiya xavfsizligi; ijtimoiy-iqtisodiy zaiflik; millatlararo ziddiyat (lekin ular bilan chegaralanmaydi)

Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlari parlamentlararo hamkorlikni biroz kuchaytirdilar, bu esa yaxshilanishi zarurati edi. Mintaqada o'zaro ishonch va yaxshi qo'shniçilikka asoslangan yangi siyosiy muhitni yaratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining sa'y-harakatlari Markaziy Osiyo mamlakatlarining davlatlararo va parlamentlararo aloqalarini faollashtirishga kuchli turtki bo'ldi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston mintaqadagi qo'shnilari bilan ko'p yillar davomida hal qilinmagan ko'plab masalalarni hal qilishga muvaffaq bo'ldi. Transchegaraviy daryolardan birgalikda foydalanish, mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotini integratsiyalashtirish, transchegaraviy savdoni rivojlantirish bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taklif qilib, O'zbekiston bu davlatlar bilan hamkorlikning yangi formatini qurishga qodir ekanligini isbotladi. Mintaqada birinchi galda qo'shma iqtisodiy farovonlik birinchi o'rinda turadigan. Markaziy Osiyo O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2017 yil sentyabr oyida Sh.Mirziyoev BMTning yuqori minbaridan mintaqada yangi siyosiy atmosfera yaratilishini e'lon qildi va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining doimiy maslahat uchrashuvlarini tashkil etishga chaqirdi. Ushbu g'oyani amalga oshirish, mintaqa davlatlarining sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishda va hal qilinmagan muammolarni hal qilish muhim qadam bo'lishi mumkin. 2017 yil noyabr oyida Samarqanddagi BMT shafeligida o'tkazilgan xalqaro konferentsiyada mintaqaviy muammolar, shu jumladan Afg'oniston inqirozi muhokama qilinganligi ham yuqoridagi fikrlarning amaliy isbotidir. Bugun O'zbekiston Afg'onistonga nafaqat mintaqadagi xavfsizlik masalasiga tahdid soluvhi kuch sifatida qaramaydi, shuningdek, muhim sherik va

qo'shni sifatida. O'zbekiston Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotini o'zaro aloqalar va hamkorlikni kengaytirish, xususan mintaqaviy infratuzilma, savdo, investitsiya, tranzit va transport loyihalarini amalga oshirish orqali birlashtirishni nihoyatda muhim deb biladi. O'zbekiston Afg'oniston muammosini tezroq hal qilishdan manfaatdor. Darhaqiqat, Afg'onistondagi vaziyat to'g'risida yangicha tasavvur paydo bo'ldi, bu Toshkentning preventiv diplomatiyasining natijasi edi.

Yurtboshimiz SH. Mirziyoev ta'kidlaganidek, jafokash Afg'oniston zaminidagi to'qnashuvlar, "urush olovi" afg'on xalqining o'z tanlovi emas, aksincha, chetdan tiqishtirilgan fitna natijasidir⁹¹. Ana shu notinchlikdan afg'on xalqi o'n yillar davomida jabr chekib kelmoqda, millionlab odamlar o'z uyini tashlab olis yurtlarda sarson-sargardon bo'lib yuribdi.

Afg'onistondagi keskinlik Markaziy Osiyo mamlakatlari jahon iqtisodiyotining faol integratsiya jarayonlaridagi ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, tinch Afg'oniston savdo-iqtisodiy, transport-logistik imkoniyatlari bilan O'zbekistonga boshqa mintaqalarga dengiz orqali qisqa yo'l bilan chiqish imkonini berar edi.

Xalqimizda «Bir kun janjal bo'lgan joydan qirq kun baraka qochadi», degan naql bor. Afg'onistonda qariyb 40 yildan buyon davom etib kelayotgan mojaro afg'on xalqining hayotini o'nlab yillar orqaga surib tashladi. Bu hududda paydo bo'lgan inqiroz, aholining qashshoqlashuvi dunyo hamjamiyatidan allaqachon globallik kasb etgan ushbu muammoga birgalikda amaliy yechim topishni taqozo qilmoqda. Shu maqsadda keyingi yillarda qator loyihalar amalga oshirildi, muloqot guruhlarini tashkil etildi. O'zbekiston 2017 yilda Afg'oniston muammosini hal etish bo'yicha o'tkazilgan turli formatdagi xalqaro va mintaqaviy anjumanlarda, jumladan, kengaytirilgan tarkibdagi Moskva uchrashuvi (aprel), "Kobul jarayoni" (iyun), Afg'oniston Islom Respublikasiga oid mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferentsiyasi (Ashxobod, noyabr), "Osiyo yuragi – Istanbul jarayoni" (Boku, noyabr – dekabr) va Xalqaro muloqot guruhi yig'ilishida (Oslo, dekabr) yuqori darajada qatnashdi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini bayon qildi, bu borada aniq takliflar bildirdi. Noyabr oyida Samarqand shahrida BMT shafeligida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferentsiyada Afg'onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishi yo'lidagi tashabbuslar ilgari surildi. O'zbekiston va Afg'oniston Prezidentlarining oliy darajadagi

⁹¹ 2018 yil 28 mart Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferentsiyadagi prezident nutqidan.

uchrashuvlarida mamlakatimizning bu boradagi ijobiy pozitsiyasi o'zaro manfaatli kelishuvlar orqali yanada mustahkamlandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur forum o'z formati va Afg'oniston muammosi bo'yicha aniq yechimlar topishga qaratilgani bilan ilgarigi xalqaro anjumanlardan farq qiladi. Shu bois uni o'tkazish tashabbusi dunyo hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar, siyosatshunoslar va ekspertlar tomonidan Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikka erishish, shu orqali nafaqat Markaziy Osiyo, balki unga tutash mintaqalarda tinch taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiluvchi mazkur konferentsiya afg'on xalqining muammolarini hal qilish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilishi bilan amaliy ahamiyatga ega, degan fikrlar bildirildi.

Jumladan, Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi O'zbekiston tashabbusi g'oyat qadrligi ekanini ta'kidladi. Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini o'z nutqida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga oid tashabbusni qo'llab-quvvatlashini, bu masala Yevropa Ittifoqining doimo e'tiborida turishini qayd etdi.

Mazkur forumga Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham katta qiziqish bildirildi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish konferentsiya ishtirokchilariga videomurojaat yo'llab, ushbu anjuman Afg'onistonda tinchlikka erishish yo'lida alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. Toshkent konferentsiyasi ishtirokchilarining rasmiy suratga tushish marosimidan so'ng anjuman shu'ba majlislarida davom etdi. Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov afg'on muammosini hal qilish tashabbusi mintaqa davlatlarining o'zidan chiqayotgani muhim ahamiyatga ega bo'lib, Toshkent konferentsiyasi o'z vaqtida amalga oshirilgan muhim jarayon ekanini va undan xalqaro hamjamiyat ijobiy natijalar kutib qolishini ta'kidladi⁹².

Turkiya tashqi ishlar vaziri Mevlyut Chavusho'g'lu Toshkent konferentsiyasi Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishda muhim o'rin tutishini, bu beqarorlikka sabab bo'layotgan kuchlarning o'zaro yarashuviga oid jarayonni tezlashtirishga yordam berishini qayd etdi⁹³.

AQSH Davlat kotibining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Tomas Shennon O'zbekiston Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tashabbuslari

⁹² <http://webtv.un.org/topics-issues/watch/a-message-from-the-secretary-general-of-the-united-nations-to-model-uns/6252117444001/?term>

⁹³ <https://www.state.gov/under-secretary-for-political-affairs-thomas-shannon-travels-to-tashkent-uzbekistan/>

bilan mintaqa davlatlari taraqqiyotiga, o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shayotgani, shu jihatdan dunyo hamjamiyati mazkur konferentsiyaga muammoni hal qilishda amaliy yechim sifatida qarayotganini qayd etdi⁹⁴.

Xitoy Xalq Respublikasi tashqi ishlar vaziri o'rinbosari Li Baodun Afg'onistonning sarmoya, savdo, transport imkoniyatlarini oshirish uchun uni qo'shni davlatlar qo'llab-quvvatlashi zarurligini ta'kidladi⁹⁵. Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Xavaja Muhammad Asif Afg'onistondagi notinch muhit bevosita qo'shni va uzoq davlatlardagi vaziyatga salbiy ta'sir etishini, shu bois barcha ushbu mamlakat tinchligi uchun hamjihatlikda harakat qilishi kutilgan natijani berishini qayd etdi⁹⁶.

Anjumanda ta'kidlanganidek, ayrim geosiyosiy kuchlarning Afg'onistonda yuzaga kelgan vaziyatdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanayotgani ushbu davlatda vaziyatni yaxshilash borasidagi intilishlarga to'sqinlik qilmoqda. Buning oqibatida terrorchi tashkilotlar jangarilarining Afg'oniston ichkarisiga tobora ko'proq kirib borishi va uni o'z poligoniga aylantirishiga yo'l ochilmoqda. Afg'oniston muhim transchegaraviy hududda joylashgan. Bu mamlakat bilan hamkorlikdan Markaziy Osiyo davlatlari eng ko'p manfaatdor. Anjumanda Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosat mahkamalari rahbarlari tomonlar bu yo'lda barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyor ekanini qayd etdi.

Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani tiklash, uning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishiga har tomonlama ko'maklashish to'g'risidagi taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Konferentsiya ishtirokchilari anjuman yakuni bo'yicha Toshkent deklaratsiyasini imzoladilar. Mazkur hujjatda mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, barcha sohalarda hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ahil qo'shnilik munosabatlarini yanada mustahkamlash kabi ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan.

Tadbir yakunida o'tkazilgan matbuot anjumanida O'zbekiston tashqi ishlar vaziri A.Komilov va Afg'oniston tashqi ishlar vaziri S.Rabboniy nufuzli konferentsiyada erishilgan natijalar haqida ma'lumot berdi. Ta'kidlandiki, mazkur xalqaro konferentsiya dunyo hamjamiyatining Afg'onistonda tinch taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlariga g'oyat muhim hissa bo'lib qo'shildi. Bunday anjumanlar kelgusida ham davom etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti yetakchi ilmiy xodimi

⁹⁴ <https://uza.uz/oz/posts/afg-oniston-bo-yicha-toshkent-xalqaro-konferensiyasi-deklara-27-03-2018>

⁹⁵ <https://uza.uz/oz/posts/afg-oniston-bo-yicha-toshkent-xalqaro-konferensiyasi-deklara-27-03-2018>

⁹⁶ <https://uza.uz/oz/posts/afg-oniston-bo-yicha-toshkent-xalqaro-konferensiyasi-deklara-27-03-2018>

Bahodir Egamovning xulosalariga ko'ra mazkur Anjumanning bir qancha jihatlari bor. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, hammamizga ma'lumki, 2018 yilning mart oyida Afg'oniston bo'yicha Toshkent xalqaro konferentsiyasi o'tkazildi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu forum dunyo hamjamiyatining Afg'oniston Islom Respublikasida davom etayotgan qon to'kilishiga bo'lgan e'tiborini qaytardi.

O'sha paytda Prezident Ashraf G'ani, Afg'oniston taqdiriga befarq bo'lmagan deyarli barcha mamlakatlar tashqi ishlar vazirlari, yuqori martabali diplomatlar Toshkentdagi forumda jamlandi. Afg'onistondagi murossasizlikni tinchlik yo'li bilan hal qilishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, forumda mamlakatda tinchlikni yanada mustahkamlash strategiyasi bo'yicha kelishuvga erishildi.

Afg'oniston inqirozini tinch yo'l bilan hal qilish uchun konferentsiyaning o'zi ham, O'zbekiston rahbariyatining sa'y-harakatlari ham alohida ahamiyatga ega ekanini tasdiqlash uchun Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'anining shu yil mart oyi so'ngida aytgan quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "Bundan ikki yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan o'tkazilgan Afg'oniston bo'yicha Toshkent xalqaro konferentsiyasi Afg'oniston muammosini tinch yo'l bilan hal qilish uchun siyosiy jarayonni boshlash, manfaatdor tomonlar o'rtasida o'zaro maqbul muloqot shakllari va mexanizmlarini izlashda muhim voqea bo'ldi».

Ikkinchidan, Toshkentning Afg'oniston yo'nalishidagi yangilangan siyosati va tashabbuslari butun Afg'onistonda – oddiy xalq, rasmiy hukumat, turli siyosiy kuchlar tomonidan munosib kutib olindi. Shuni ta'kidlash joiz, O'zbekiston asosiy afg'on kuchlari va keng aholi orasida ijobiy obro'ga ega. Afg'oniston tomoni Toshkentga ishonadi va undan umidlari ham katta.

Pokiston Global va strategik tadqiqotlar markazi mutaxassisi Mahmud ul-Hasan bu muvaffaqiyatni «Toshkentning Afg'onistondagi siyosati boshidanoq amaliy ahamiyatga ega formulaga – Kobul bilan «iqtisodiy hamkorlik» orqali Afg'oniston fuqarolari qalbini zabt etish, transport va logistika ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, loyihalar, shuningdek, ta'lim dasturlarini kengaytirishga asoslangan»i bilan izohlaydi⁹⁷.

Prezident Ashraf G'ani bilan shaxsiy va ishonchli muloqotning o'rnatilgani, ko'plab masalalar bo'yicha to'liq o'zaro tushunishga erishilgani rasmiy Toshkent muvaffaqiyati sabablaridan biri bo'ldi. Bundan tashqari, O'zbekiston Afg'onistondagi boshqa ichki siyosiy kuchlar, jumladan, "Tolibon" orasida ham obro'ga ega. Masalan,

⁹⁷ <https://gk-usbekistan.de/uz>

harakatning Qatardagi vakolatxonasi rahbari o'rinbosari Abdul Salom Hanafiy Toshkent bilan hamkorlikka umidvorligini bildirib, «Toliblar o'z mamlakatlarida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik manfaatlari yo'lida tashabbuslarni ilgari surgan O'zbekiston Prezidentining sa'y-harakatlarini yuqori baholaydi», deya qayd etdi.

Pandemiyaning og'ir davrida O'zbekiston yana bir bor o'zini afg'on xalqining haqiqiy do'sti sifatida namoyon eta olgani, sinovli kunlarda va qiyinchiliklarda ularni yolg'izlatib qo'ymagani Afg'oniston e'tiboridan chetda qolmadi. Pandemiya sababli boshqa mamlakatlar Afg'oniston bilan chegaralarini yopgan bir paytda, O'zbekiston afg'onlarga nisbatan birodarlik munosabatini namoyish etdi. O'zbekiston Prezidentining qat'iy tutumi tufayli chegaramiz har doim barcha transport yuklari tashish uchun ochiq bo'lib keldi. Oziq-ovqat mahsulotlari, muhim mollar, xomashyo va yoqilg'i orilgan yuk karvonlari Afg'onistonga jo'natilib, ushbu qiyin paytda mamlakatda me'yoriy hayotni ta'minladi.

Bundan tashqari, pandemiya davrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev bir necha bor afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qildi. Afg'oniston shimolidagi Mozori Sharifga un, guruch, o'simlik moyi, shakar, bolalar kiyimlari, tibbiy himoya va gigiena vositalari va boshqa ko'plab mahsulotlar yetkazib berildi.

Uchinchidan, O'zbekiston Prezidentining siyosiy pozitsiyasi Afg'onistonga yangi nigoh bilan qarashga, uni keng miqyosli Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Amerikaning «The Diplomat» nashri sharhlovchisi Jeyms Dyursov O'zbekistonning Afg'onistondagi tinchlikka qo'shgan hissasiga bag'ishlab yozgan so'nggi maqolasida «O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yilda hokimiyat tepasiga kelishi mintaqaning Afg'onistonga nisbatan qarashlarini o'zgartirdi va bu mamlakatni Markaziy Osiyoning bir qismi sifatida tan olinishiga hissa qo'shdi. Markaziy Osiyodagi mamlakatlarning Afg'onistonni mintaqa iqtisodiyotiga qo'shilishiga yordam berishi bu yerda hukumatni mustahkamlab, fuqarolar urushining oldini olishga imkon berishi mumkin», deya qayd etdi.

O'zbekiston rahbarining ushbu mamlakatni faqat tahdid manbai sifatida qabul qilishni to'xtatish va Afg'onistonga imkoniyatlar nuqtai nazaridan qarashni boshlashga chaqirig'i xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlandi. Hozirgi kunda Afg'onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish zarurligi to'g'risida umumiy tushuncha mavjud. Ushbu g'oya Toshkent konferentsiyasi, shuningdek, 2017 yil noyabr oyida Ashxobodda bo'lib o'tgan Afg'oniston bo'yicha mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning yettinchi konferentsiyasi va 2018 yil may oyida Dushanbeda bo'lib o'tgan terrorizm

va zo'ravon ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferentsiya ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanish dasturlari Afg'onistonda milliy yarashuvga erishish uchun birlashtiruvchi tamoyil bo'lib xizmat qilishi va Afg'onistondagi vaziyatni siyosiy jihatdan tartibga solish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy asosini tashkil etishi mumkin, degan tushunchaga erishilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo bo'yicha yetakchi nemis mutaxassisi Gyunter Knabe ana shunday fikrda. Uning ta'kidlashicha, «O'zbekistonning Afg'oniston strategiyasi iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal qilish uchun asos bo'lishi mumkin va urushlardan uzoq vaqt aziyat chekayotgan mamlakatda mojaroni tugatishga yordam beradi». Shu bois aytish mumkin, bugungi kunda paydo bo'layotgan vaziyatdan foydalanib, tinchlik jarayonining davomiyligi va taraqqiyotini ta'minlash, ziddiyatli tomonlarni yarashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan bir qatorda, Afg'onistonning iqtisodiy kelajagiga sarmoya kiritishni boshlash, Afg'oniston ichidagi qarama-qarshilikning barcha ishtirokchilariga tinch ijodiy mehnat va mintaqaviy hamkorlikning haqiqiy samaralarini ko'rsatish juda muhimdir.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar aynan shu maqsadlarga erishishga qaratilgan va afg'onlararo yarashuvni rivojlantirish, kelajakda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish uchun juda muhimdir. So'nggi vaqtlarda Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalasida yangi ijobiy jarayonlar paydo bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Аннан К.А. Проблема вмешательства. Выступления Генерального секретаря. - Нью-Йорк: ООН, 2000 – СЛ
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Превентивная_дипломатия
3. Гали Б.Б. Повестка дня для мира. 1992. С.12.
4. <http://webtv.un.org>
5. <https://www.state.gov>
6. <https://uza.uz>
7. <https://gk-usbekistan.de/uz>

BOLSHEVIKLAR INQILOBINING TURKISTONGA TA'SIRI

Fatih Gür

TDSHU mustaqil tadqiqotchisi

52grfth@gmail.com

ANNOTATSIYA

Turkistonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bolsheviklar yangi hokimiyat organlarini tashkil etib, Turkiston o'ziga xos idora ma'muriyati tomonida boshqarilishini istashdi. Biroq, bu sovet boshqaruvi tizimi tufayli mumkin emas edi.

Kalit so'zlar: Turkiston, bolsheviklar inqilobi, Chor Rossiyasi, Sovet Rossiyasi.

ABSTRACT

The establishment of Soviet power in Turkestan led to significant changes. The Bolsheviks formed new authorities and wanted Turkestan to be governed by a separate administration. However, this was not possible due to the Soviet system of government.

Keywords: Turkestan, Bolshevik Revolution, Tsarist Russia, Soviet Russia.

АННОТАЦИЯ

Установление Советской власти в Туркестане привело к значительным изменениям. Большевики сформировали новую власть и хотели, чтобы Туркестан управлялся отдельной администрацией. Однако это было невозможно из-за советской системы правления.

Ключевые слова: Туркестан, большевистская революция, царская Россия, Советская Россия.

KIRISH

1917-yil 17-aprelda Toshkentda Turkiston musulmonlari qurultoyi bo'lib o'tdi, bu qurultoyda Turkistonning yetakchi ziyolilari qatnashdi. Qurultoyda Rossiyaning davlat shakli va Turkistonning o'z-o'zini boshqarish bilan bog'liq muammolar muhokama qilindi. Qurultoy qarori bilan Rossiyaning kelajakdagi davlat shakli demokratik va Federativ boshqaruv shakliga muvofiq tuzilishi kerakligi haqida qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, qurultoy mahalliy xalqdan majburan tortib olingan yerlarni yana sobiq egalariga qaytarishga qaror qildi. (Hayit, 2004;216-217)

Rossiya istilosidan so'ng Turkiston xalqlari qurultoyida birinchi marta bir joyga yig'ilishdi. Turkiston ziyolilari qurultoy yakunida milliy va Markaziy platforma tashkil etish borasida yakdil fikrga keldilar. 21-aprel kuni shu yo'l bilan "Turkiston

musulmonlar markazi Sho'rosi" nomi bilan yangi platforma tashkil etilib, milliy Markaz nomini olgan bu tashkilotni boshqarish uchun Mustafó Choqay mas'ul qilib qo'yildi. Tarixchi Zeki Velidi Togan esa bosh kotiblikka tayinlandi. Bu mashhur tashkilot Turkistonning ko'p joylarida tashkilotlar tuzdi va tashkil etilgan tashkilotlarning yagona maqsadi Turkiston milliy maqsadlariga muvofiq faoliyat olib borish edi. Shu maqsadlarda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Kaspiy orti hududlarda Oraz Serdar, Farg'onada Nosir Xon, Sirdaryo atrofida Shoh Islom va Yettisuv atrofida Tinishbay kabi turkistonlik ziyolilar "Milliy Markaz" ning viloyat tashkilotlarini boshqarishga rahbarlik qildilar. Bu davrda o'lkada davriy matbuot organlari tashkil etildi. Jumladan, Kebir Bekir Bey muharrirligida Toshkentda "Ulug ' Turkiston" degan gazeta, Ozarbayjonda turklaridan bo'lgan Afandi Zade esa " Turk eli" nomi ostida gazeta chiqarib Turkistonning ilm-fan va matbuot sohasida rivojlanishiga hissa qo'shgan. Toshkentda ochilgan "Turkiston musulmonlar markazi" da Kebir Bekir ham, Afandi Zade ham faol edilar. Yana boshqa Turkistonlik ziyolilar Sulaymon Cho'lon va Mir Muhsin Orenburgda "Vaqt" nomi ostida gazeta chiqarish orqali, tuzilgan kengashga juda kerakli xizmat ko'rsatdilar. (Hayit, 2004; 217-218)

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Rossiya musulmonlari qurultoyida 14 ta masala muhokama qilindi va muhokamaning asosiy mavzusi Sovet Rossiyasining qanday boshqarilishi, Turkiston o'lkasida yashovchi turk va musulmon xalqlarining umumiy munosabati va xulq-atvori qanday bo'lishidan iborat edi. Ayaz Ishoqiy Shimoliy Kavkaz guruhi vakili edi. Shimoliy Kavkaz guruhi tomonidan " Birlashgan Rossiya Davlati doirasida turk va musulmon jamoalari uchun madaniy avtonomiya " g'oyasi bildirildi. Mehmet Emin rahbarlik qilayotgan Ozarbayjon guruhi tomonidan esa Sovetlar itifoqini "federalizm tamoyillari asosida" tashkil qilish taklifi ilgari surildi. Ubaydulloh Xo'ja Turkiston guruhi boshlig'i bo'lib, boshqalardan farqli o'laroq, turk va musulmon xalqi yashaydigan geografiyaga "Milliy muxtoriyat berish" yo'nalishidagi g'oyalarini e'lon qildi. Har bir guruh o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdilar va o'z fikrlarini qarshi guruhlariga qabul qildirtirishga harakat qilishlari oqibatida qurultoydan yakuniy natijalarga erisha olishmadi. (Togan, 1981; 357-359)

Hech qanday kelishuvga erishib bo'lmaydigan May qurultoyi ikkinchi marta Qozonda bo'lib o'tadi. May oyida rejalashtirilgan qurultoy 3 sentyabr kuni bo'lib o'tdi. 3 sentyabr kuni bo'lib o'tgan ikkinchi qurultoyda Rossiya musulmonlari o'rtasida yakdillikning yo'qli ma'lum bo'ldi. Har bir guruh birgalikda kurashishning o'rniga o'zi

vakillik qilayotgan jamiyatning milliy manfaatlarini yo'lida ishlash g'oyasini ilgari surganligi tufayli ular kelishuvga erisha olmadilar. (Hayit, 2004, 225)

Zeki Velidi Togan va uning do'stlari "Natsional-Sotsialistik partiya" nomi ostida yangi partiya tuzish tashabbusi bilan chiqdilar biroq, tez orada bu fikrlardan voz kechishdi. Buning o'rniga ular "boshqird Milliy Kengashi" qoshida o'z ishlarini davom ettirdilar. O'zbeklar boshlig'ining ismi Nizom Xo'ja edi. Nizom Xo'ja o'zbeklarni "Turon Neshr Firkasi" nomi bilan uyushtirgan. Bu tashkilot bilan siyosiy tashkilot tuzildi va ular o'zbek xalqining milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ish olib bordilar. Tashkilot o'zi targ'ib qilgan fikrlarni jamiyatga tadbiq etish va yetkazish maqsadida "Turon" jurnalini chop etdi. Shu tariqa qozoqlar siyosiy partiya tuzib, o'z fikrlarini va o'zi mansub bo'lgan odamlarni himoya qilish ustida ishlay boshladilar. Qozogistonda Alash-O'rda va Uch Juz nomli ikki siyosiy partiya tashkil etildi. Uch-juz partiyasiga Alash o'rdaga qarshi Shahmerdan Eljonog'lu va Kulbay Togusog'lu tomonidan asos solingan. Uch juz partiyasi "panturkizm-sotsialistik" tamoyili asosida harakat qildi. Har bir hududda siyosiy oqimlar bilan bir qatorda turli nomdagi milliy kengashlar tashkil etila boshlandi.

Turkistondagi "Ishchilar, askarlar va dehqonlar soveti" ning boshlig'i Nikora "inqilobni rus ishchilari amalga oshirdi va shuning uchun Turkistondagi barcha ma'muriy xodimlar ruslar qo'lida bo'ladi va Turkiston xalqi SSSR bergan imkoniyatlar bilan qanoatlansin" deb bayonat berdi. (Halmet, 2021;53-75) Shu tariqa Turkiston ziyolilarining birlik g'oyalari amalga oshmay qoldi. Leninning "Millatlar mustaqilligi va barcha millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash" degan so'zlari bolsheviklar inqilobidan oldin muhokama qilingan bo'lsa-da, hech qanday xulosaga kelinmadi. SSSR rejimidan kutilgan demokratiya va ozodlik umidlari qo'lga kiritilmadi va Turkiston hududida pessimistik muhit vujudga keldi. Bolsheviklar to'ntarishini imkoniyat deb bilgan bolsheviklar 1917-yil 11-noyabr ruslar markazi bo'lgan Toshkentda Toshkent ma'muriyatiga qarshi to'ntarish uyushtirib, Toshkent boshqaruvini o'z qo'llariga oldilar. Toshkentda yuz bergan davlat to'ntarishi natijasida ruslar 15-22 noyabr kunlari yig'ilish o'tkazqidilar va natijada Toshkentda "Turkiston Sovet komissarligi" tuzilganligini e'lon qilindi. (Saray, 1996; 290-291)

Kommunistlar Toshkentda hokimiyatni qo'lga olganliklaridan so'ng, Turkiston boshqaruvida o'z so'zlariga ega ekanliklarini bildilar. 1917-yilning noyabr oyida hokimiyat tepasiga endigina kelgan bolsheviklar 22-noyabrda "Turkiston Sovet Komissarligi" nomi ostida hokimiyatni mahalliy xalq bilan bo'lishmadi. SSSR hukumati hokimiyatni monopollashtirgani sabab Turkiston xalqi davlat to'ntarishini qo'llab-quvvatlamadi. (Hayit,2004; 232-237)

Sovet Rossiyasi ichki ishlardagi voqealar bilan kurashayotgan bir paytda, 1917-yil 17-noyabrda Boshqirdistonda Zeki Valide To‘gan boshchiligida “Boshqird Markaz kengashi va Boshqirdiston Muxtor Jumhuriyati” nomi ostida yangi milliy bir hukumat tashkil etilib, yangi armiya tashkil etish ishlarini boshlandi. 1917-yil 26-dekabrda Sobiq Alash- O‘rda Muxtor Respublikasi” nomi bilan yangi milliy davlat tuzdilar.”Alash – O‘rda Muxtor Jumhuriyati” eski boshqaruv shakli asosida qurilgan edi. 1917- yil 12- dekabrda Qo‘qonda o‘tkazilgan uchinchi “Turkiston qurultoyi” yakunlariga ko‘ra markazi Qo‘qonda bo‘lgan “ Turkiston Milliy Muxtoriyati” nomi bilan yangi davlat tashkil topdi va bu davlatning chegaralari sobiq chor Rossiyasi hukmronligi ostida tashkil etilgan Turkiston general –gubernatorligi chegaralarini qamrab oldi. Mehmetjon Tishinbay o‘g‘li davlat rahbari etib tayinlandi, ammo u 1918-yilda o‘z lavozimidan iste’foga chiqdi. Davlat boshlig‘I etib davlatning tashqi ishlar vaziri Mustafo Cho‘qay tayinlandi. (Burget,2004; 88-89) Bolsheviklar Rossiyada tom ma'noda hokimiyatni egallagach, Turkistonda o'rnatilgan milliy davlatlarga bosimni oshirdilar va shu maqsadda bolsheviklar Orenburgdagi "Boshqird Milliy davlati" ni yo'q qildilar. Bolsheviklar boshqird Milliy davlatini yakson qilgach, 1918-yil yanvar oyida qo'shinlar bilan Qo‘qon chegaralariga madad kuchlari yetib keldi. " Turkiston Milliy Muxtor Jumhuriyati” to'la milliy lashtirilmaganligi sababli, mintaqada yashovchi boylardan moliya manbai sifatida foydalanildi. Tashkil etilgan milliy hukumat rahbarlarining ko'pchiligi Rossiyada ta'lim olgan va ularning ko'pchiligi Kereskiy hukumatga xayrixoh bo'lgan kishilardan tashkil topgan edi. Mustabid Milliy xukumat raisi bo'lgan Mustafo Cho‘qay milliy muxtorlikning tarafdori emasliklarini bildirdi. (Burget, 2004; 89)

Fevral oyida Qo'qandga kelgan bolsheviklar Toshkentdan madad kuchlari bilan birlashib qo'qanliklar bilan kurash olib bordilar. Keyinchalik yuzaga kelgan to‘qnashuvlar natijasida bolsheviklarga qarshi bo‘linmalarning boshida turgan Chanishov kurashdayutqazib, bolsheviklarga taslim boldi. Jonishov taslim bo'lgach, jang bo'lib o'tgan joyda qatl etildi. Mintaqada ozchilik vaziyatda bo'lgan armanlar bu davrda bolsheviklarga yordam ko'rsatdilar va bolsheviklarga kelgan madad va armanlar yordamida Qo‘qonni bolsheviklar egallab, talon-taroj qildilar. Bolsheviklar Qo‘qonni talon-taroj qilibgina qolmay, shaharga kerosin quyib yoqib yubordilar, shuningdek, hukumat a'zolarining ayrimlarini zindonga tashladilar va ayrimlarini qatl etdilar. 1918- yil 24-fevralda hukumat a'zolarining bir qismi Marg‘ilonda yashab, qisqa vaqt ichida bolsheviklar bu hududni bosib oldilar.(Togan, 1981; 367-368) Shubhasiz, bu bosqinchilik harakati Turkistondagi ko'plab ziyolilarning qatl etilishiga va ularning o'z vatanidan surgun qilinishiga sabab bo'ldi.

Bolsheviklar Turkistonning katta qismini bosib olgan bo'lsa-da, mahalliy aholi bilan bolsheviklar o'rtasida to'qnashuvlar boshqa hududlarda ham davom etdi. Bu mojarolar paytida Orenburgdagi hukumat a'zolari Orenburgni bolsheviklar tomonidan bosib olinishi tufayli Baymakka ko'chib o'tdilar. Ko'chib o'tganlar bolsheviklar bilan kelishuv yo'liga o'tishgan edi. Kelishuv uchun yig'ilish o'tkazildi va yig'ilishda ishtirok etgan milliy hukumat a'zolari bolsheviklar tomonidan hibsga olindi. Hibsga olingan a'zolarining ba'zilari qatl etildi va ba'zilari hibsga olindi. Qamoqqa olinganlardan biri Zaki Valide Togan edi. Togan va uning do'stlari ma'lum muddat qamoqda ushlab turilgan. 1928-yil 2-aprelda Togan qo'zg'alondan foydalanib, qaamoqdan qochib ketdi. Togan qamoqdan qutilganidan keyin siyosiy faoliyatini davom ettirdi. (Togan, 1969;189-193)

1918-yil May oyida bugungi Qozog'iston shimoli-sharqidagi Chelebi shaharchasida Boshqirdiston Milliy davlati qayta tashkil etildi. Bolsheviklar bilan Milliy davlatini tan olish uchun kurash olib borildi. Bolsheviklar "Boshqirdiston Milliy davlati" ni tan olgach, davlat markazi Orenburgga qaytarib ko'chirildi. (Burget,90-91) Orenburgga ko'chgan davlat yashirin faoliyat olib borib, Turkiston milliy kurashi uchun o'z hissasini qo'shadigan odamlarni to'pladi. Xuddi shu yillarda Semipalatinsk viloyatida "Alash-O'rda Muxtor Jumhuriyati" qayta tuzilib, Alash-O'rda harakatining sobiq raisi bo'lgan Muhammadjon Tinishboyev "Turkiston Milliy Muxtor Jumhuriyati"ga qo'shildi. (Togan, 1981; 369-370)

Qo'qon hukumati a'zolari bilan birgalikda "Sharqiy Rossiya avtonom musulmon davlatlari Ittifoqi" nomi ostida "Turkiston Federatsiyasi" tashkil etildi. Tashkil etilgan federatsiya juda katta vazifani o'z zimmasiga oldi. Turk jamoalarini birlashtirish uchun kurash harakati boshlandi. Federatsiyaga o'zbeklardan boshqirdlargacha, qirg'izlardan qozoq va tatarlargacha bo'lgan turkiy jamoalar qo'shildi. Z. V. Togan 1918-yil 8-sentabrda Ufada bo'lib o'tgan "Rossiya Davlat kengashi" yig'ilishlari haqida, "Turkiyaning qizil yarim oy" vakili sifatida Ufada bo'lgan Yusuf Akchuraga ma'lumot berdi. Togan Yusuf Akchuraga Sharqiy Rossiya Muxtor musulmon davlatlari Ittifoqining tashqi ishlar bo'yicha mas'ul vaziri bo'lish taklifini kiritdi, ammo Akchura bu taklifni qabul qilmadi. Akchuraga Usmoniylar davlatining fuqarosi ekanligi taklifni rad etishga yordam berdi. (Burget, 2004; 91)

Bolsheviklar Turkistonga bostirib kirishar ekan, o'z g'oyalarini tatbiq qilmoqchi bo'ldilar. Ammo Turkistonliklar kommunizm haqida hech qanday ma'lumotga ega emasdi. Shu sababdan Turkiston o'lkasida kommunizmning tarqalishi jadal tus olmadi. Turkistonliklar kommunizmni ruslarning fikri bo'lganligi uchun qabul qilishlari qiyin bo'ldi. Turkistonliklar o'z madaniyati va diniga yaqin bo'lmagan g'oya va turmush

tarzini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keldilar. (Halmet, 2019; 2125- 2142.) Turkistonda siyosiy faoliyat olib borayotgan Rossiya sotsial-demokratik ishchilar partiyasi RSDIP g'oyasi asosan kommunistik mafkuraga asoslanganligini boshqa uslubda ko'rsatib berdi. RSDIP va Sotsialistik inqilobiy partiya (SDP) o'zlarini Turkistonliklarga kommunist qilib ko'rsatmadilar va o'z faoliyatlarini yashirin olib bordilar. Ular 1918-yil boshidan Turkistondagi ijtimoiy muammolardan foydalanib, o'zlarining asosiy maqsadlari yo'lida harakat qildilar. 1918-yil 17 va 19-dekabrda Turkistonda bo'lib o'tgan Kommunistik qurultoyda 1300 nafar kommunist a'zosi ro'yxatga olingan edi. 1300 kommunistdan 900 nafari mahalliy xalq va qolgan 400 nafari esa xorijiy xalq vakillari edi. 1917-yildan boshlab Turkiston o'lkasidagi kommunistlar ikki partiya o'rtasida qolib ketdi. Bu partiyalar SDP bilan birga edi. Aslida bu ikki partiya kommunistlarni o'zaro dekonstruksiya qilish va ko'proq delegat olish uchun kurash olib borgan edi. Ikki partiya o'rtasidagi kurash shu qadar qat'iy avj oldiki, SDP RSDIPGA qarshi to'ntarishga urindi. Biroq bu urinish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. 1919-yil martida SDP kommunistlarga qarshi ikkinchi marta davlat to'ntarishi uyushtirishga harakat qildi, lekin u o'zi istagan natijaga erisha olmadi. Ikki to'ntarish natijasida istagan narsasini ololmagan ijtimoiy inqilobchilar sotsial-demokratlar chiqargan qarorga bo'ysunishlari kerak edi. Muvaffaqiyatsiz to'ntarishlar natijasida partiya a'zolarining yarmidan ko'pi qamoqqa olindi, qolganlari esa kommunistlar tarafini olishga majbur bo'ldi. (Hayit, 2004; 239-240)

Rossiya imperiyasining barcha joylarida bo'lgani kabi Turkistonda ham mustaqillik va muxtoriyat ovozalari bo'ldi. 1917-yil sentabrida muvaqqat vakillar hukumati Markaziy ijroiya kengashi tomonidan amalga oshirilgan operatsiya bilan ag'darildi. Shunday qilib, Toshkentda Chor Rossiyasi hukmdorlarining hokimiyati tugatildi. Bu voqealardan keyin Turkistonning Yevropa bilan aloqalari uzildi. Uzil-kesil munosabatlar bilan Turkistondan olingan neft va paxta Yevropa va Rossiyaga yetkazib berilmadi. Shuning uchun Turkistonliklar oziq-ovqat va don mahsulotlaridan mahrum bo'ldilar. Natijada Turkistonda ocharchilik yuz berdi. Bu bilan birgalikda Turkistonda inqilobiy harakatlar majburlashlarsiz rivojlanib asta sekinlik bilan yoyildi. (Kapp, 1991; 264-265)

1919-yil mart oyi Turkiston geografiyasi uchun muhim yil bo'lsa-da, kommunistlar Turkistonda o'z qarorgohlarini belgilab oldilar va ijtimoiy inqilobchilarni zararsizlantirdilar. Turkiston geografiyasida kommunizm mafkurasini qat'iyat bilan asoslash uchun SSSR rejimi mahalliy xalqni partiyalar tuzishga da'vat etdi va Turkistonliklar orasiga aralashishni maqsad qildi. 1919 yil May oyida SSSR tuzumi o'tkazgan konferensiya natijasida Turkistonda "musulmonlar byurosi" tuzishga

qaror qildilar va Turkiston geografiasida kommunizm va sotsializm g'oyalarini byuro orqali yoyishga harakat qildilar. Rossiya maqsadlariga mos vazifaga ega bo'lmagan musulmon byurolari vaqt o'tishi bilan Turkiston xalqi manfaati uchun ishlay boshladi. Musulmon byurolari Turkiston xalqining muammolarini e'tiborga olib, ular uchun umid eshigi bo'lib qoldilar. (Saray, 1996; 292)

Bu anjumanda Turkistonliklar "Kommunistik avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi" nomini "Turk Jumhuriyati" ga va Turkiston Kompartiyasi nomini "Turk Kompartiyasi" ga o'zgartirdilar. Ammo Turkiston fronti qo'mondoni bo'lgan General Frunze bu qarorni rad etdi. Keyinchalik, 1920-yil 8-martda Rossiya Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi bu qarorni maqullamadi. 1920-yil sentabrda bo'lib o'tgan konferensiyada barcha partiyalarni birlashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu qarorga binoan mahalliy xalq tomonidan "Turkiston Kompartiyasi"ni tuzish va Markaziy Qo'mita huzurida "Milliy bo'lim" tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu qaror natijasida Buxoro va Xiva shaharlarida Kommunistik partiyaning filiallari ochildi. Filiallar ochilishi bilan kommunizmni Turkistonga yoyish maqsadiga tezda erishildi. (Saray, 1996; 292-293)

XULOSA

Kommunistlar Rossiya hududida o'z hokimiyatlarini mustahkamladilar. Ular yo'nalishlarini Turkiston tomonga burdilar. Ularning maqsadi Turkistonni ko'rinib turgan yuzi bilan "Sovetlashtirish", ammo Turkistonni ko'rinmas yuzi bilan "ruslashtirish" edi. Avval qiladigan ishlari Turkistonni o'zlariga mahkam bog'lab olish edi. Keyinchalik u bog'langan Turkistonni, avvalo, Kommunistik partiyaga aloqador sho'bxalar shaklida boshqarish edi. Uni filiallardan keyin hududlarga bo'linib, kichik davlatchalar shaklida boshqarish qulayroq edi. Shu sababdan Turkistonni kichik Muxtor davlatlarga ajratdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Boymirza Hayit. Turkiston davlatlarining Milliy kurash tarixi. Anqara, Turkiya Respublikasi, TXK nashrlari, Anqara, ss.216-217.
2. Fozil Ahmad Burget. (2004). Turkiston va so'ngra Afg'oniston turklarining Milliy kurashi. Magistrlik dissertatsiyasi, G'oziy universiteti ijtimoiy Fanlar instituti, Anqara, p.80.
3. Jorj Vernadskiy. (2009). Rossiya Tarixi. Selenka nashrlari, Istanbul, ss.367-368.
4. Holmat Murod. (2021), "Turkiston muxtoriyat davlatining tashkil topishi va qulashi davrida sodir bo'lgan voqealar va uning "O'zbek jadid" she'rida aks etishi", turkshunoslik tadqiqotlari, 49, ss. 53-75.

5. Holmat Murod. (2019). "Turkistonlik Jaditchi shoir Elbekning til haqidagi fikri va g'oyalari uchun olib borgan kurashining bahosi", xalqaro Turk adabiy madaniyati ta'limi jurnali, 8(4), ss. 2125- 2142.
6. Mehmet Saray. (1996). Yangi turk Respublikalari tarixi. Nashr qilingan TTK, Anqara, ss.288-289.
7. Og'zaki Sander. (2003). Siyosiy Tarixi 1918-1994. Rasm Kitapevi, Anqara, P. 26
8. Uning aqlli qo'riqchisi Tugan. (1969). Salomlar. Tan bosmaxonasi, Istanbul, ss.189-193.
9. Uning aqlli qo'riqchisi Tugan. (1981). Bugungi turkiy Turkiston va uning yaqin tarixi. 2. Bsk.bi In: Enderun nashrlar, Istanbul, ss.357-358.
10. Эдвард Карр. (1990). История Советской России. “Большевистская революция 1917-1923”. Том 1 и 2. Progress nashriyoti, Moskva, ss.264-265.

TURK TILIDA XARAKTERNI BILDIRUVCHI ZOOFRAZEOLOGIZMLAR SEMANTIKASI

Salimova Zebo Rustam qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Turk filologiyasi” kafedrasida o’qituvchisi
E-pochta: zebosalimova1990@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada turk tilida xarakterni amglatuvchi zoofrazeologizmlar semantikasi masalasi muhokama qilingan. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo‘jaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bog‘liqdir. Inson – hayvonot dunyosi munosabati tilga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan bo‘lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhi shakllantirgan.

Kalit so‘zlar: *Frazeologik birliklar, somatik so‘zlar, o‘simliklar, gullar, tabiat hodisalari, hayvon nomlari, zookomponentli frazeologik birliklar, zoonym, zoofrazeologizmlar.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается семантика зоофраzeологии в турецком языке. Зоокомпонентные фразеологизмы возникли в результате долгих тысячелетних отношений между людьми и животными. Даже сегодня большинство сфер человеческой деятельности, особенно сельское хозяйство, промышленность, спорт, наука и т. Д. относящиеся к животным. Отношения человека и животного также оказали влияние на язык, сформировав группу фраз с зоонимическим компонентом в лексическом фонде языка.

Ключевые слова: *фраzeологические единицы, соматические слова, растения, цветы, явления природы, названия животных, зоокомпонентные фразеологизмы, зооним, зоофраzeологизмы.*

ABSTRACT

This article discusses the semantics of zoophraseology in Turkish. Zoo-component phraseological units arose as a result of a long-term millennial relationship between humans and animals. Even today, most spheres of human activity, especially

agriculture, industry, sports, science, etc., are related to animals. The relationship between man and animal also influenced the language, forming a group of phrases with a zoonymic component in the lexical fund of the language.

***Keywords:** phraseological units, somatic words, plants, flowers, natural phenomena, names of animals, zoo-component phraseological units, zoonym, zoophraseological units.*

KIRISH

Frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turli guruh va bo'limlarga ajratib o'rganiladi. Frazeologizmlar tarkibida turli komponentlar, xususan, somatik so'zlar, o'simliklar, gullar, tabiat hodisalari, hayvon nomlari va h.k. ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar nutqda faolligi jihatidan somatik frazeologizmlardan keyingi o'rinda keladi. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat, sport, ilm va h.k. hayvonlar bilan bog'liqdir. Inson – hayvonot dunyosi munosabati tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhi shakllantirgan. Zoonim komponentli iboralar antroposentrik xususiyat bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zoofrazeologizmlar tarkibida it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq kabi uy hayvonlari; tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, sher, to'ng'iz singari yovvoyi hayvonlar; ilon, toshbaqa kabi sudralib yuruvchilar; sichqon, olmaxon singari kemiruvchilar; qushlar; suvda yashovchilar; hamda hasharot nomlarini bildiruvchi zoonimlar ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar ma'nosi bilan tarkibidagi so'zlarining ma'nolari orasidagi munosabatga ko'ra frazeologik chatishmalar va frazeologik butunlikka ajratiladi. Frazeologik chatishmalarning umumiy ma'nosi ularni tashkil qilgan komponent so'zlar ma'nosiga umuman mos kelmaydi. Frazeologik butunlikning ma'nosi tarkibidagi so'zlarining ma'nosi asosida izohlanadi.

Inson obrazini ifoda etuvchi frazeologik birliklarni tanlash insonning xarakteri, ularning tadqiqotiga ko'ra, zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma rivojlanishining natijasidir. Insonni tavsiflovchi frazeologik birliklar uning turli xil xususiyatlarini, fazilatlarini chaqiradi, ular katta faollikka ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: it, mushuk, qo‘y, ot, ho‘kiz, sigir, echki, tuya, tovuq; yovvoyi hayvonlar: tulki, quyon, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, sher, to‘ng‘iz; sudralib yuruvchilar: ilon, toshbaqa; kemiruvchilar: sichqon, olmaxon; qushlar: chumchuq, qarg‘a, bulbul, bedana, mayna, g‘oz, o‘rdak, tovus; suvda yashovchilar: baliq, qurbaqa; hasharotlar: pashsha, chivin, bit, burga, ari va h.k. zoonimlar ishtirok etadi. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko‘rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”. Ot, tuya, qo‘y, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashtirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobiy ma‘no belgilarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil bo‘ldi. Turk va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarning semantik guruhleri Turk va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarni semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shakl va mazmun jihatidan to‘liq muqobil iboralar kiradi. Mazkur guruhdagi frazeologik birliklar turk va o‘zbek lingvomadaniyatida bir xil vaziyatlarda qo‘llaniladi. Bunday iboralarda milliy kolorit farqlari kuzatilmagani uchun ham ularni tarjima qilish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Zero, ularning aksariyati ayni manbadan o‘sib chiqqan bo‘ladi. Bu o‘rinda S.Vlaxov va S.Florinlar ta‘kidlaganidek, ikki qiyoslanilayotgan tildagi frazeologizmlarda to‘liq ekvivalentlik namoyon bo‘ladi⁹⁸

Turkcha iboralar o‘zbekcha birliklar bilan taqqoslaganda “deve yapmak”- birovning pulini, molini o‘zlashtirmoq, ya‘ni “tuya ko‘rdinmi- yo‘q”; “deveyi havutuyla yutmak” tuyani yutib, dumini ko‘rsatmoq har qanday katta (ko‘p) narsani ham o‘zlashtirib, undan nishon, iz qoldirmaslik; “kuş uykusu”- qush uyqusi biz zumlik uyqu, “tavşan yürekli” -quyon yurak o‘ta qo‘rqoq, jur‘atsiz, “sağmal inek”- sog‘in sigir, ma‘lum miqdordagi mablag‘ bilan muntazam ta‘minlab turadigan manba, “arının yuvasına (inine) çomak sokmak”- arining inini to‘zitmoq, xavfli odamni gij-gijlab o‘ziga hujum qilishiga yo‘l qo‘ymoq, “sıçan deliği bin altın”- sichqonning ini ming tanga bo‘ldi, qochib qutulgani joy topolmay qolmoq kabi o‘xshash va aynan mos keluvchi iboralar ko‘pdir. Bu esa o‘zbek va turk tillarining o‘zaro yaqin tillardan kelib chiqqanligi asosidadir.

Rus va ingliz, rus, nemis va boshqa tillar materiallari bo‘yicha insonning xarakterini tavsiflovchi frazeologik birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator taqqoslash ishlari mavjud, ammo hozirgi kungacha turk va o‘zbek tillarida, xususan,

⁹⁸ Turkcha-o‘zbekcha zookomponentli to‘liq muqobil frazeologik birliklar: 1 Сакаева Л.Р. Сопоставительный анализ фразеологических единиц антропоцентрический направленности (на материале русского, английского, таджикского и татарского языков). Автореф... докт. филол. наук. –Уфа, 2009. –С. 11. Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013. -В. 98.3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. -М., 2005. –С.184.

tarkibiy qism jihatidan odamning fe'l-atvorini ifodalaydigan frazeologik birliklarni monografik qiyosiy tadqiqoti olib borilmoqda. Ushbu ikkala tilda ham odamning xarakterini tavsiflovchi juda ko'p frazeologik birliklar topilgan, ularning aksariyati yuqori darajada baho berish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, turk va o'zbek xalqlarining doimiy ravishda kengayib boradigan aloqalari mazkur tillarni faol ravishda o'zaro o'rganish, eng yangi va zamonaviy tillarni o'rganish usullarini yaratish, turli darsliklar, lug'atlar, ma'lumotnomalar yaratish imkonini bermocda.

O'rganilayotgan frazeologik birliklarni tahlil qilishda funktsional-parametrik yondashuvga asoslanib, turk-o'zbek tillarining frazeologik birliklari, inson xarakterining turli xususiyatlarini anglatuvchi, semantik, strukturaviy-grammatik, uslubiy va milliy-madaniy jihatlar mavjudligi ko'rib chiqildi. Komponentlarni tahlil qilish jarayonida birinchi marta odamning fe'l-atvorining namoyon bo'lishini hisobga olgan holda semantik tarkibiy qismlar aniqlandi, yagona "xarakter" frazemosemantik maydonini tashkil etadigan frazemosemantik kichik guruhlarining barcha xususiyatlari batafsil ko'rib chiqilgan. Rus va xitoy frazeologik birliklarining strukturaviy va grammatik tuzilishini o'rganishda birinchi marta dominant tarkibiy qismdan turli xil morfologik iboralar, frazeologik birliklarning sintagmatik tuzilishi, grammatik tuzilish tabiati, sintaktik munosabatlarni ifoda etish usuli va qaram tarkibiy qismning dominantga nisbatan joylashishi bilan frazeologik birliklarni har tomonlama tahlil qilish amalga oshirilgan. Ushbu yondashuv tufayli har ikkala tilga xos bo'lgan, shuningdek faqat turk tiliga yoki faqat o'zbek tiliga xos bo'lgan frazeologik birliklarning saflari va turlari aniqlandi va turk, o'zbek tillarining tillararo frazeologik ekvivalentlari aniqlandi. Komponent tahlillari odam xarakterining namoyon bo'lishini inobatga olgan holda semantik tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishga imkon berdi, bu "xarakter" yagona frazemosemantik maydonini tashkil etadigan frazemosemantik kichik guruhlarining barcha belgilarini batafsil ko'rib chiqishga imkon berdi. Frazeologik birliklarning konnotativ ma'nosini o'rganish frazeologik birliklarni hissiyot nuqtai nazaridan to'liqroq tekshirishga imkon berdi.

Xarakterni tushunish frazeologik birliklarni tanlash uchun asos bo'lib, izlanishlar natijasida yagona "fe'l-atvor" frazeologik semantik maydoni sifatida ko'rib chiqildi. Shaxsning fe'l-atvorini anglatuvchi frazeologik birliklar o'zlarining semantik tarkibida xuddi shu nomni o'z ichiga oladi, shu asosda turk va o'zbek tillarida "inson xakteri" iborasi shakllangan.

Frazeologik birlikning semantik tuzilishi makrokomponentlarning murakkab bloki shaklida taqdim etiladi: 1) denotativ komponent, 2) grammatik komponent, 3) baholovchi komponent, 4) motivatsion komponent, 5) stilistik komponent, 6) milliy va

madaniy komponent. Semantikaning barcha tarkibiy qismlari birgalikda frazeologik birlikning semantik tuzilishini ifodalaydi, har bir FSGni semantik tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotlar bilan yaqindan tanishilsa, yanada ko'proq ma'lumotlar jamlanganini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhga turkcha zoonim komponentli iboralarga o'zbekcha boshqa zoonim komponenti mos kelgan frazeologik birliklar kiradi. Bu guruhdagi iboralarning shaklanishida har ikkala xalqning o'ziga xos hayvonot olami muhim o'rin egallagan. Ular quyidagilardan iborat: Turkcha FB O'zbekcha FB larning ma'nolari "eski kurt"-qari tulki tajribali, ishiga puxta odam, "horoz akilli"- tovuq miya ahmoq, "kurtlarini dökme"- biti to'kildi, sog'ingan ishini qilib xumordan chiqmoq, "kuş kadar canı olmak"- chivindek joni bor, juda kichkina, kuchsiz odam, "uçan kuşa borcu olmak"- itdan suyak qarz, qarzi juda ko'p, "pireyi deve yapmak"- pashshadan fil yasamoq mubolag'a qilib, bo'rttirib yubormoq.

Shuningdek, kishi bir ishni to'g'irlash, o'z ishini bitirish yo maqsadini amalga oshirish uchun boshqalarga kalandimog'lik qilib "eshakni tog'a deyishi" turk tilida "Ayıya dayı demek" iborasi bilan ifodalanadi. Bunda ham hayvonlar boshqa-boshqa, lekin ma'no ham, maqsad ham bir.

Uchinchi guruhni turkcha zoonim komponentli iboralarga o'zbek tilidagi tarkibida zoonim ishtirok etmagan, biroq mazmunan muqobil bo'lgan frazeologik birliklar tashkil qiladi. Bunday frazeologik birliklarni har ikki lingvomadaniyat vakillarining olam manzarasini o'ziga xos milliy obrazlarda aks ettirganligi bilan izohlash mumkin. Ushbu guruhdagi iboralarni tarjima qilishda tarjimon asliyat matniga va millatning ruhiga mos keladigan boshqa signifikativ alternantlar topishi lozimdir: Turkcha "geyik etine girmek" -bo'yi yetmoq (qizlarning) yoshi oila qurish darajasiga bormoq, "öküzün altında buzağı aramak"- tirnoq ostidan kir qidirmoq, yomon niyat bilan ayb, xato-kamchilik topishga harakat qilmoq, "eşeğe gücü yetmeyip semerini dövmek"- yomonning kuchi yapaloqqa yetmoq, kuchli odamlarga biron narsa qila olmay, alaminı kuchsizlardan olmoq, "köpeksiz köyde çomaksız gezmek"- o'zi xon, ko'lankasi maydon, kim nimani xohlasa, shuni qilmoq, "tavşana kaç, tazıya tut demek" biringga arpa, biringga bug'doy, ikki qarama qarshi tomonni bir-biriga qayrab, gij-gijlamoq ma'nolarida keladi. Zoofrazeologizmlarning ma'nosi bilan tarkibidagi so'zlarining ma'nolari orasidagi munosabatga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

1. Frazeologik chatishmalar. Bunday frazeologik birliklarning umumiy ma'nosi ularni tashkil qilgan komponent so'zlar ma'nosiga umuman mos kelmaydi. Masalan,

o‘zbek tilidagi “dimog‘idan eshak qurti yog‘moq”-o‘zini boshqalardan yuqori tutmoq ma’nosini anglatadi. Bu yerda eshak yoki qurt haqida gap borayotgani yo‘q. Yoki “ammamning buzog‘i” frazeologik birligida amma va buzoq so‘zlarining lug‘aviy ma’nosi umuman unutilib, iborada “landavur, lapashang” ma’nosini yuzaga chiqqan.

2. Frazeologik butunlik. Bu guruhdagi iboralar frazeologik birliklar ham deb nomlanib, ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularning ma’nosi tarkibidagi so‘zlarining ma’nosi asosida izohlanadi. Masalan, turk tilida “horoz akıllı”- o‘zbek tilida tovuq miya; eshak miya “ahmoq, esi past”, yoki “eski kurt”- qari tulki “tajribali, ishiga puxta” iboralarining komponentlari qisman yoki to‘liq ibora tashkil etgan umumiy ma’noni ifodalaydi.

Zookomponentli frazeologik birliklar obyektlari bo‘lmish timsollarning bu tariqa o‘zaro mosligi tillarda muqoyasaviy umumiylikning mavjudligidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy muqoyasa asosida hosil bo‘lgan turk va o‘zbek tillari frazeologik birliklariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ko‘pchiligi muqoyasa obyektlarining o‘xshashligiga guvoh bo‘lamiz: Biz konusurken, shube muduru keyifli keyifli gulyoy: - Bulbul gibi soyluyor Fransızca’yı maşallah. Bir Türk kıızı için sayanı takdir doğrusu, diyordu (Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 138). Tarjiması: “Biz so‘zlashib turganimizda bo‘lim mudiri nash’a qilib kulardi. - Fransuzchani bulbulday sayraydi-ya, yo olloh! Turk qızı uchun maqtovga sazovor bir fazilat, - deyardi” (M.Ismoiliy tarjiması. Choliqushi, 138). Yoki: “Deminden beri yukarıda talebelerimin vazifelerini tashih ediyordum. Kapı çalındı, Munise aşağıdan: - Abacığım, misafir geldi, diye seslendi. Taşlıkta siyah çarşafli bir hanım geziniyor; yüzü kapalı olduğu için tanımadım, tereddütle: - Kimsiniz efendim? diye sordum. Birdenbire ince bir kahkaha kopty; hanım, kedi gibi boynuma sıçradı. Meğerse Munise imiş” (Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 286-287). Tarjiması: “Uyda o‘tirib o‘quvchilarimning daftarlarini ko‘rayotgan edim. Eshik taqilladi. Munisa pastdan: -Opajon, mehmon keldi, - deb qichqirdi. Tashqarida qora chorshafli bir xotin aylanib yurardi. Yuzi yopiq bo‘lgani uchun taniyolmadim. Taraddudlanib: - Kimsiz, afandim? – deb so‘radim. Birdan kulgi ko‘tarildi. Xonim mushuk singari bo‘ynimga tashlandi. Tavba, Munisa ekan! Yaramas qiz meni belimdan ushlab hovlida aylantira boshladi.Hech qo‘ymay yuzimni, bo‘ynimni o‘pa ketdi. Chorshaf kichkinamni bo‘yiga yetgan qizga o‘xshatib qo‘yibdi” (M.Ismoiliy tarjiması. Choliqushi, 294). Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta9 . Har ikki tilda ham “takrorlamoq, qaytarmoq, bir gapni hadeb aytavermoq” ma’nosini ifodalash uchun to‘tiday o‘xshatish etalonidan

keng foydalaniladi: Babam, ağzı alışımiş, her sözün başında -Ulan, Ulan be..., -Vay anasını! diye konuşur. Yani dili biraz argoya kaçır. Fatoşda, kimden ne duyarsa papağan gibi tekrarlıyor, ne görürse öyle yapıyor, Fatoş'un babamı taklit ederek peltek peltek -Ulan be... -Vay anasını! gibisözler söylemesine bizim evde herkes bayılıyor⁹⁹ Tarjiması: Dadamning qiziq odati bor – har ikki gapning birida “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmaq‘ur so‘zlarni ishlatib turadi. Fatosh bo‘lsa naq to‘tining o‘zi, kimdan nimani eshitsa, darrov shuni qaytaradi. U “ho‘v falonchi”, “voy zang‘aryey!” deb chuldirib qolsa, uydagilar o‘zlarida yo‘q suyunib ketishadi (M. Hakimov tarjiması. G‘aroyib bolalar,157). Muayyan uslubiy maqsadga erishish niyatida yozuvchilar goho zookomponentli frazeologik birliklarni biroz o‘zgartirgan yoki ularni to‘ldirgan holda qo‘llaydilar. Masalan, turli lingvomadaniyatlarda itday, it kabi o‘xshatish etalonidan “qopmoq, talamoq”, “sadoqatli, vafodor”, “akillamoq, irillamoq”, “yugurmoq”, “izg‘imoq, sanqimoq”, “ergashmoq”, “ishlamoq, mehnat qilmoq”, “otmoq, xor qilmoq”, “charchamoq”, “quturmoq”, “yashamoq”, “ichmoq” kabi ma‘nolarni ifodalash uchun foydalaniladi. Turk va o‘zbek tillarida ham aynan shu ma‘nolarda ishlatiladi. Quyidagi parchada mazkur o‘xshatish qo‘tir so‘zi bilan birga qo‘llanilib, undan “pisib qolmoq” ma‘nosini ifodalash uchun foydalanilgan: “Sazlar, şarkılar başladı. Biz de kafaları çekiyoruz. Garsonlar etrafımızda pervane olmuşlar. Derken arkada bir gürültü koptu. Sarhoşlar birbirlerine girdiler. Onlar bıçakları fora ederken bizim Musa da düdüğe asıldı. O aslan kesilmiş kavgacılar, düdüğün bir fırt etmesiyle uyuz it gibi kuyruklarım kısıp oturdular” (Aziz Nesin. Bay duduk, 3). Aziz Nesinning “Bay duduk” hajviy hikoyasi 1969-yilda Miad Hakimov tomonidan “Hushtak afandim” nomi bilan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, unda ekvivalent komparativ birliklar yordamiga murojaat qilinmagan va uyuz it gibi frazeologik birligi tushirib qoldirilgan. Bu bilan asliyatga teng qimmatli ta‘sirchanlik yuzaga chiqmay qolgan: “Bir payt o‘yin-kulgi boshlanib ketdi. Rohat qilib o‘tiribmiz. Ofitsantlar atrofimizda parvona. To‘satdan orqa tomonda shovqin ko‘tarildi. Mast-alast odamlar yoqa bo‘g‘ishib ketishdi. Ish pichoqqa borib taqalay deganida, Musa hushtak chalib yubordi. Hozirgina bir-biri bilan sherday olishishib turgan azamatlar churillagan ovozni eshitiboq, dumlarini qisib qolishdi” (Miad Hakimov tarjiması. Hushtak afandim, 11-12). Mazkur hikoyaning «Janob “hushtak”» nomi bilan 2014-yilda Xayrulla Hamidov tomonidan amalga oshirilgan tarjimasida Miad Hakimov tarjimasida tashlab ketilgan turli-tuman iboralar, voqealar tasviri, personajlar xususiyatlari asliyatga monand tarzda bekami-ko‘st qayta yaratilgan. Asliyatdagi

⁹⁹ Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 74. 9 Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. – Б. 184.

milliy ruh o‘zbek o‘quvchilariga to‘laqonli yetkazib berilgan: “Kazinoda sozlar chalindi, qo‘shiq avjida. Biz esa otamlashish bilan ovoramiz. Shinavanda xizmatchilar atrofimizda girdikapalak. Shu payt orqa tomonimizda shovqin ko‘tarildi. Shirakayf mijozlardan bir nechtasi janjal boshlashibdi. Bir-ikkitasi pichoq chiqarib, havoda o‘ynata boshlaganda, bizning Musa hushtagini qo‘liga oldi. “Sheryurak” pahlavonlar hushtak ovozi eshitishlari bilan qo‘tir it kabi dumlarini qisishib, bir lahzada “in-inlariga” kirib ketishdi (X.Hamidov tarjimasini. Janob “hushtak” 103). Goho ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos muqobil variantlarning tayanch komponentlarigina bir-birlarinikiga o‘xshash bo‘lib, boshqa so‘zlari farq qiladi. Bunday o‘zaro muqobil frazeologik birliklar odatda bir xil voqea-hodisa, harakat-holat, xislat-xususiyatning obrazli yoki his-hayajonli ifodasi uchun yaratilgan bo‘lib, bir-birlariga to‘la mos keladilar¹⁰⁰. Jumladan, turkcha it takımı frazeologik birligining ham, o‘zbekcha it yotish mirza turish muqobil variantining ham tayanch komponentlari “it” bo‘lib, ikkala lisoniy birlik ham “yashash uchun hech qanday qulayliklar yo‘q” ma’nosini obrazli ifodalashga xizmat qilgan: Benim Kazlıçeşme’deki odama getirdim oğlanı. O dört kişi ilen yatarmış. Hep it takımı! Rahat etsin oğlan, dedim. Sabaha dek inin inim inledi (Sait Faik. Mürüvvet, 156). Tarjimasini: Husayn ijarada haligi to‘rt kishi bilan turar, yashashlari “it yotish mirza turish” ekan. Bolani G‘ozlichashmadagi uyimga olib keldim. Bir odamday yashasin shu bola, dedim. Tuni bilan og‘riqdan qiynalib, ingrab chiqdi, bola bechora (S. Hamidova tarjimasini. Muruvvat, 49).

Zookomponentli frazeologik birliklarni boshqa zookomponentli muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilishda turkcha zoonim komponentli iboralarga o‘zbekcha boshqa zoonim komponenti mos kelgan frazeologik birliklar e’tiborga olinadi. Bu guruhdagi iboralarning shakllanishida har ikkala xalqning o‘ziga xos hayvonot olami muhim o‘rin egallaydi. Turli hududlarda uchraydigan jonivorlar ham goho bir-birlaridan tafovut qiladilar: ular o‘zlariga xos xususiyatlari, xatti-harakatlari bilan turli xalqlar nazarida turlicha tushunchalar timsollari sifatida namoyon bo‘lib, xilma-xil muqoyasaviy iboralarning obrazli asoslari tarzida namoyon bo‘ladilar. Bu, o‘z navbatida, turli xalqlarning ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan o‘zaro mos zookomponentli frazeologik birliklari obrazli asoslarining bir-birlaridan farq qilishlariga olib keladi. Masalan: “Geçen mektubumu postaya verdiğimin ertesi günü, Tabiat Bilgisi dersindeyken, okul müdürüyle birisi daha dershaneye girdi. Müfettişmiş, öğretmenimizle bir süre konuştuktan sonra, Oğuz’u derse kaldırdı. Sen Oğuz’u tanımazsın. Bizim okula bu yıl, dersler başladıktan sonra geldi; sen buradan gittikten

¹⁰⁰ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 196.

sonra. Taşrada bir okuldaymiş. Sonra İstanbul'a taşınmışlar. Daha okula ilk geldiği gün hepimizi şaşırttı. Neden, biliyor musun? Kedi gibi çevik bir çocuk da ondan...” (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 53). Tarjiması: “Anatomiya darsida o‘tirgan edik, direktor bir odamni boshlab sinfga kirib keldi. Bilsak, inspektor ekan. Inspektor o‘qituvchimiz bilan allanimalarni gaplashib olgach, O‘g‘iz degan bolani o‘rnidan turg‘izdi. O‘g‘izni sen tanimaysan. Sendan keyin kelgan. Ilgari Tashrada turisharkan, shu yili Istambulga ko‘chib kelishibdi. Maktabga birinchi kelgan kuniyoq bu bolaga qoyil qoldik. Nimasiga qoyil qoldik, bilasanmi? O‘lgudek chaqqon bola ekan. Xuddi maymunning o‘zi-ya...” (M. Hakimov tarjiması. G‘aroyib bolalar, 138-139). Yuqorida keltirilgan aslyat parchasida O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligi “mushuk”ka yani «kedi»ga muqoyasa etilsa, o‘zbekcha tarjimada «maymun»ga qiyos etilgan. Chunki “mushuk” o‘zbek tilida chaqqonlik, abjirlik obrazini jonlantiruvchi jonivor emas. Aksincha, o‘zbek tilida sakrab, irg‘ishlab abjir harakatlar qiladigan odamni “maymun”ga o‘xshatish keng tarqalgan. Masalan: “Men jo‘shib, toshib ketganimda maymunga o‘xshab sakrab olmaga chiqaman, shoxlarining uch-uchida loladek qip-qizarib turgan qirmizi olmalarni qoqaman, u teradi” (A.Ko‘chimov. Bir juft olma). Demak, tarjimon M. Hakimovning O‘g‘uzning chaqqonligi, abjirligini aks ettirishda “mushuk” o‘rniga “maymun” so‘zidan foydalanishi juda o‘rinli bo‘lgan. Zookomponentli frazeologik birliklarni zookomponentsiz muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish aslyatda qo‘llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, adekvatlik ko‘p hollarda muqobil variantlar yordamida amalga oshiriladi. Ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda bir-birlaridan leksik tarkibda yo butunlay, yoki tayanch komponentlaridan boshqa unsurlarda farq qiladilar. Bunday frazeologik birliklar o‘zaro muqobillik munosabatida bo‘ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo‘lishi va iste’foda etilishi har bir xalq sohibining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta’sirchan tarzda ifoda etishda o‘z turmush tushunchalari, urf-odatları, milliy-falsafiy qarashlari va o‘ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishlari bilan izohlanadi.¹⁰¹ Masalan: Başka bir çocuk horoz gibi atıldı: -Asıl yalancı senin gibisine derler. Benim babam, bikez bile sınıfının ikincisi olmamış. Hep sınıfının birincisiymiş. Anladın mı sen? (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 53). Parchadagi horoz gibi frazeologik birligi “hezlanmoq”, “o‘dag‘aylamoq” ma’nosini berish uchun qo‘llanilgan. Tarjimada mazkur ma’noni ifodalashda xo‘rozning bo‘ynini cho‘zish harakatiga muqoyasalangan bo‘ynini cho‘zmoq iborasidan foydalanilgan. Qiyoslang: - O‘zing ham aldoqchi

¹⁰¹ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Фан, 2005. –Б. 195-196.

ekansan. Mening dadam sinfda hecham qolmaganlar. Nuqul a'lo o'qiganlar. Tushundingmi? – dedi boshqa bir bola bo'ynini cho'zib (M. Hakimov tarjiması. G'aroyib bolalar, 101). Turk va o'zbek tillaridagi aslan gibi - arslonday o'xshatishi kuchli, mard, azamat kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Biroq turk tilida aslan gibi iborasining o'zbek tilidan farqli o'laroq, "sog'lom" ma'nosi ham mavjud. Mazkur iboradan quyidagi parchada aynan shu ma'noda foydalanilgan: Ben, gözlerimde bir türlü durmayan yaşlar, tıkanan kuşyavruları gibi açık ağzımda boğuk hıçkırıklarla titrerken ihtiyar arkadaşım, pencereye döndü, karanlıkta ta uzaklara yumruğunu saklayarak: - Allah belanı versin, aslan gibi çocuğu berbat ettin, dedi (Reşat Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 370-371). Tarjimon bu o'rında aslan gibi iborasini "sog'lom" ma'nosini ochib berish uchun o'zbekcha oyday qiz iborasini qo'llagan. Odatda, sharq badiiy muqoyasa an'anelarini tabiiy ravishda o'zida mujassamlashtirgan o'zbek tilida go'zal qizlarni «oy»ga o'xshatish me'yoriy hol hisoblanadi. Biroq o'zbek lafzida oyday o'xshatishi "sog'lom" ma'nosida ham qo'llaniladi. Agar tarjimon xuddi asliyatdagidek arslonday bola (qiz) deb tarjima qilganda, birinchidan, iboraning ma'nosi ochilmay qolgan bo'lardi. Ikkinchidan, asar qahramoni qiz, binobarin, o'zbek lingvomadaniyatida arslonday o'xshatishi faqat erkaklarga nisbatan ishlatiladi. Demak, tarjima muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Qiyoslang: "Ko'zlarimdan yoshlar quyilar, ovqat tiqilib qolgan qush bolalari singari og'zimni katta ochib hiqillar, titrar ekanman, qari do'stim derazaga o'girildi, qorong'ida uzoqlarga musht do'laytirib: Xudo jazoingni bersin! Oyday qizni xarob qilding, - dedi "(M. Ismoilij tarjiması. Choliqushi, 379). Zookomponentli frazeologik birliklarni tasviriy usulda tarjima qilish Muayyan frazeologik birlikni goho na ekvivalent, na muqobil variant va na kalka yordamida o'girishning imkoni topiladi. Bunday hollarda san'atkorlar noiloj tarjima amaliyotining tasviriy usuliga murojaat qiladilarki, mazkur usul yordamida frazeologik birliklar ma'nolari erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmalari vositasida tushuntirib qo'yaqolinadi. Masalan: "Bilgisinden ötürü daha da böbürlenerek, -Nasıl böyle kedi gibi ağaçlara tırmandığını da biliyor musunuz? dedi" (Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 54). Ushbu parchadaki kedi gibi frazeması o'zbek tiliga usta bo'lib so'z birikması vositasida tarjima qilingan: "Endi daraxtga chiqishga nega usta bo'lib qolganining sirini ham aytib beraymi?" (M. Hakimov tarjiması. G'aroyib bolalar, 140).

"Sütüne ile ihtiyar kocası, beni görünce şaşırıldılar. Yolda hazırladığım kurt masalını okudum. Büyük amcamla Üsküdar'dan geliyorduk. Şurada arabamızın tekerleği kırıldı. Bu saatte başka araba da bulamadık. Çaresiz, yaya dönüyorduk. Uzaktan sizin lambanızı gördük. Amcam: "Haydi Feride, yabancı yer değil ya, sen sütnineye misafir ol bu gece. Ben de şuradaki bir ahababımda kalayım!" dedi" (Reşat

Nuri Güntekin. Çalıkuşu, 122). Tarjimasi: Enaga bilan uning chol eri meni ko‘rib shoshib qolishdi. Yo‘lda bir yolg‘on to‘qib qo‘ygan edim. Shuni aytib berdim: - Katta amakim bilan Uskudordan kelayotuvdik. Shu yerda aravamzning g‘ildiragi sinib qoldi. Bemahalda boshqa arava topolmadik. Chor-nochor piyoda yo‘lga tushdik. Bir mahal uzoqdan sizlarning chirog‘ingiz ko‘rinib qoldi. Amakim: “Bor, Farida, begona joy” emas, bu kecha enagangnikida qo‘na qol. Men ham shu yerda, bir oshnamnikida qolaman”, - deb aytdi (M.Ismoiliy tarjimasi. Choliqushi, 121). Ko‘rinadiki, kurt masalini okumak iborasiga o‘zbek tilida to‘liq ekvivalent topolmagan tarjimon uni signifikativ alternant, ya‘ni yolg‘on to‘qib qo‘ymoq ifodasi bilan alishtirgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir til o‘z doirasidagi so‘zlarni o‘rnida qo‘llash, ma‘no kengayish usullarini o‘rganish, o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko‘rinishi orqali aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Inson qiyofasi va xarakterini ifodalash har bir tilda ko‘rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi. Shuningdek, tilning qanchalik keng maydonga egaligidan darak beradi.

Mazkur tillar tarkibidagi zoonimlarning “xulq-atvori” tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi:

Ko‘rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi;

Ikkala tilning zoonimlari odamning fe‘l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o‘xshash belgilar bilan tavsiflanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.
2. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. –Тошкент: ТошДШИ, 2014.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.

4. Jumanazarova G.U. «Shirin bilan Shakar» dostonining lugʻaviy va lingvopoetik xususiyatlari (Fozil Yoʻldosh oʻgʻli varinti asosida):Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T., 2008. -26 b.
5. Zohidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. Qushlar. – Toshkent, 1957.
6. Ibrat. «Ergash Jumanbulbul oʻgʻli ijodining maʼnaviy qadriyatlarni yuksaltirishdagi oʻrni va ahamiyati» ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 84 b.
7. Ishoqov F. «Zarbulmasal»dagi qush nomlariga doir // «Oʻzbek tili va adabiyoti» jurnali, 1973, №1. -B.46-50.
8. Ömer Seyfettin. Yüksek ökçeler.Ocak 2006.
9. Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 74. 2005
10. <http://www.ziyonet.com>
11. <http://tdk.gov.tr>
12. <http://kitob.uz>
13. <http://www.biblus.ru>

СПОРТИВНАЯ ДИПЛОМАТИЯ-ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ

Лилия Владимировна Латыбова

старший преподаватель Ташкентского государственного университета
востоковедения

АННОТАЦИЯ

Концепция спортивной дипломатии проста. Спорт - универсальное явление, выходящее за лингвистические, национальные и культурные границы. Таким образом, он может способствовать общению между культурами. В лучшем случае спортивная дипломатия использует этот аспект спорта для различных дипломатических целей: расширение прав и возможностей женщин, межкультурное взаимопонимание, обучение ненасилию и многое другое.

Ключевые слова: *дипломатия, международные отношения, стратегия, элитные политики, инфраструктура, экономика.*

ABSTRACT

The concept of sports diplomacy is simple. Sport is a universal phenomenon, transcending linguistic, national, and cultural boundaries. As such, it can facilitate communication across cultures. At its best, sports diplomacy harnesses this aspect of sport for a variety of diplomatic ends: women's empowerment, intercultural understanding, non-violence education and more.

Keywords: *diplomacy, international relations, strategy, elite politicians, infrastructure, economy.*

ВВЕДЕНИЕ

Хотя в последние годы спортивная дипломатия набирает обороты, она остается малоизвестной областью публичной дипломатии. Какая жалость. Универсальность и разносторонность спорта делают спортивную дипломатию потенциально важным инструментом, поскольку свободные страны стремятся построить мирное и справедливое глобальное сообщество. В то же время игнорирование спорта может быть опасным.

Сегодня наиболее ярким примером спортивной дипломатии являются Олимпийские игры. Современное олимпийское движение, вдохновленное своим древним тезкой, стремится содействовать миру, человеческому достоинству и межкультурному взаимопониманию. В какой-то степени это удалось. Игры

вдохновляли поколения спортсменов и зрителей олимпийскими ценностями, и временами эти ценности проникали в международные отношения.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Спортивная дипломатия - один из важнейших инструментов влияния и руководства международных обществ в наше время используется как один из самых эффективных, умных и волшебных электроинструменты в отношении отражения спортивной культуры страны и защиты ее интересы, а также формирование зарубежного общественного мнения.

Как государства могут использовать международные спортивные мероприятия для укрепления своих международных отношений Основное внимание в этом обсуждении уделяется инструментам, которые есть в распоряжении государств. Спортивная дипломатия подпадает под публичную дипломатию, которая используется для улучшения среднего звена. Долгосрочные отношения между государствами путем оказания влияния на зарубежную общественность с целью достижения иностранных политические цели.

Путем обзора различных целей внешней политики, которые обычно в многосторонней дипломатии мы обсуждаем эффективность спорта как платформы для дипломатии. Наиболее распространенными стратегическими целями являются (а) предоставление неофициальной причины и место встречи международных лидеров и начала диалога; (б) обеспечение понимания страна пребывания и информирование других об этом; (в) преодоление культурных и языковых различий споры между народами и поиск точек соприкосновения через спорт; (г) создание платформы для новые торговые соглашения или законодательство; (д) повышение осведомленности о международных отношениях через спортивных послов; (е) создание наследия для принимающей страны, улучшение ее имиджа в мир; и (ж) использование спорта для обеспечения легитимности новой нации.

Международные спортивные мероприятия продолжают способствовать отчуждению людей и их правительства, способствуя межкультурному взаимопониманию и сотрудничеству. Используя Олимп-фотографии для улучшения имиджа страны за рубежом или для улучшения отношений между странами; был дипломатическим инструментом со времен Олимпийских игр в Древней Греции. Спортивные события полезны, потому что и зрители (люди), и их правительства (элитные политики) могут быть достигнутым благодаря их любви к спорту. Как следствие, международные спортивные мероприятия могут также улучшить отношения как на двусторонней, так и на многосторонней

основе. Во время холодной войны двусторонние спортивные соревнования неоднократно использовались для увеличения взаимопонимания общине враждебных стран.

Тем не менее, спорт также может ухудшить отношения между народами, как, например, в Эль-Сальвадор и гондурасские шоу. Плохие отношения между двумя народами были вызван большое количество мигрантов из Сальвадора, которые переехали в Гондурас в поисках лучшей жизнь. Эти плохие отношения еще больше усугубились после трех квалификационных матчей чемпионата мира. Матчи, которые эти две страны должны были сыграть друг против друга в июне 1969 года. В тот же день, когда была сыграна третья и последняя игра между двумя странами, Сальвадор, севразорвал все дипломатические отношения с Гондурасом и начал бомбить соседнюю страну. Всегда с тех пор эту войну называют *La Guerra del Futbol* - футбольной войной. Пока в прошлом двусторонняя спортивная дипломатия сыграла важную роль в сближении двух стран. За столом переговоров, в этой главе основное внимание уделяется многостороннему аспекту спортивной дипломатии. Изучение различных государственных инициатив. Примеры в этой главе иллюстрируют различные уровни успеха с использованием многосторонней спортивной дипломатии. С точки зрения спортивной дипломатии тот факт, что международные организации служат главным организаторы мероприятий также создают дипломатически комфортную ситуацию, в которой третьи лица партийная общественная организация может служить нейтральным хозяином и посредником между сторонами. Некоторые из самая известная международная спортивная организация - Международный олимпийский чемпионат, который организует современные Олимпийские игры; *Fédération Internationale de Football*, которая организует крупнейшее и наиболее известное спортивное мероприятие в мире - Футбол Кубок мира; и Международная федерация тенниса, в которую входят 205 национальных теннисных федерации. Организуя мероприятия, а также санкционируя и содействуя проведению соревнований, эти организации могут быть как причинами культурного отчуждения, так и посредниками в сотрудничестве. Другими словами, международные спортивные соревнования могут быть посредником в конфликтах. Между странами, но только тогда, когда они организованы и доставлены при правильных обстоятельствах. Это был отмечен стипендиями как в области международных отношений, так и в области спортивной дипломатии, национальные институты могут служить средством обмена нормами между странами, что может облегчить Это сотрудничество может вызвать напряженность в отношениях между странами.

Роль международных спортивных мероприятий в последнее время стала еще более сложной, поскольку сейчас это очень прибыльный глобальный бизнес. Спортивные мероприятия, спортсмены и команды могут стать лицом нации и полезным инструментом для проявления своих мягких мощь и продемонстрировать миру свою жесткую силу, но только если они используются правильно. В сегодняшнем сложном и быстро меняющемся мире, движимом технологиями, любая возможность необходимо стремиться к продвижению положительного имиджа страны за рубежом, а политики служили со знанием того, как использовать спорт в своих целях. В центре внимания нация через спорт может принести пользу и привлечь внимание всего мира к позитивным изменениям. Сеул использовал летние Олимпийские игры для улучшения своих отношений с Советским Союзом.

Союз и нации в их полушарии. Барселона использовала летние Олимпийские игры, чтобы показать: дело, что они больше не были обременены наследием Франко и были привлекательными туристическое направление в Европе. Однако события могут также привести к акценту на более крупных внутренние проблемы, бросающие вызов нации. Афины представили интересный пример того, что: из-за своей исторической связи с Олимпийскими играми был замечен как идеальный хозяин для этого события. Тем не менее, в преддверии событий мировые СМИ часто подчеркивали отсутствие прогресса в создании необходимых инфраструктура. Высокая стоимость организации мероприятия также ложилась экономическим бременем на нация, которая десять лет спустя способствовала ее экономическому краху.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Спортивные игры огромная роль в нашей повседневной жизни и, как и другие культурные глобальные явления, такие как популярная музыка, еда и танцы, спорт предполагает универсальный язык, на котором говорят все.

Как однажды сказал Нельсон Мандела: «Спорт способен изменить мир, вдохновить и объединять людей так, как мало что еще может». Но эта сила не данность и проявляется только тогда, когда спортивные менеджеры и политики понимают, как правильно использовать спорт для достижения связанных с ним целей.

REFERENCES

1. http://www.olympic.org/documents/olympic_agenda_2020/olympic_agenda_2020-20_20_recommendations-eng.pdf - visited 27/10/2015

2. Zhang, Q. (2013). Sports Diplomacy: The Chinese Experience and Perspective. *Hague Journal of Diplomacy*, 8, 211-233.
3. Adesina OS (2017). Foreign policy in an era of digital diplomacy. *Journal Cogent Social Sciences*, 3(1), 1-13.
4. Jackson, S. J., & Haigh, S. (2008). Between and beyond politics: Sport and foreign policy in a globalising world. *Sport in Society*, 11, 349-358.

IBN RUSHD FALSAFASIDA "MANGU AQL" TUSHUNCHASINING TALQINI

Ikramova Iroda Rixsivaevna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati kafedrası o‘qituvchisi
irodasadoyi@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sharq peripatetizmining vakillaridan biri bo‘lmish Ibn Rushdning falsafiy qarashlari, xususan, uning “Mangu aql” tushunchasiga bergan ta’rifi tahlil qilingan. Shuningdek, faylasufning e’tiqod va aql uyg‘unligi haqidagi qarashlari “Ikki haqiqat” konsepsiyasi, nubuvvat masalasi, diniy matnlarni tavsiri muhokama qilingan. Maqolada faylasufning antropologik qarashlari ham yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ibn Rushd (Averroes), Arastu, Aflotun, Plotin, aql, mangu aql, e’tiqod, falsafa, din, emanatsiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются философские воззрения Ибн Рушда, одного из представителей восточного перипатетизма, в частности его определение понятия «Вечное сознание». Обсуждались также взгляды философа на гармонию веры и разума, концепцию «двух истин», проблему пророчества и толкование религиозных текстов. Статья также проливает свет на антропологические взгляды философа.

Ключевые слова: Ибн Рушд (Аверроэс), Аристотель, Платон, Плотин, разум, вечный разум, вера, философия, религия, эманация.

ABSTRACT

The article analyzes the philosophical views of Ibn Rushd, one of the representatives of Eastern Peripatetism, in particular his definition of the concept of "Eternal Consciousness". The philosopher's views on the harmony of faith and reason, the concept of "two truths", the problem of prophecy and the interpretation of religious texts were also discussed. The article also sheds light on the philosopher's anthropological views.

Keywords: Ibn Rushd (Averroes), Aristotle, Plato, Plotinus, reason, eternal reason, faith, philosophy, religion, emanation.

KIRISH

O'rta asr falsafasida aql olamni idrok etishning bir qurolidan muhim bir atama darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu ayniqsa Ibn Rushd ta'limotida, uning tasniflashida va tasniflangan aql atamasining har bir tushunchasi mohiyatining aniqlash jarayonida yorqin namoyon bo'lgan edi. Shuni alohida qayd etish joizki, Ibn Rushd ijodida aql atamasi shunchalik muhim ahamiyat kasb etganki, uning bilish va borliq nazariyalari, ijtimoiy falsafasi va axloqiy qarashlarini ham aql tushunchasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. U faylasuf ijodining har bir qirrasida zohir bo'ladi. Aql tushunchasining keyingi tarixi uning G'arb falsafasiga ta'sirini yoritish orqali davom ettirishga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

Zero o'rta asr islom falsafasi va, shu jumladan, uning aql to'g'risidagi ta'limoti ma'lum ma'noda nasroniy falsafasidan keyin ravnaq etgan g'arb falsafasini shakllantirgan omillardan biri bo'lib, g'arb rasionalizmining ildiziga asos solishda muayyan bir ibtido sifatida xizmat qilgandir. Foma Akvinskiy, Rojer Bekon va boshqa bir qator g'arb mutafakkirlarini o'rta asr islom falsafasiz to'g'ri tushunib bo'lmaydi. Aqlning o'rta asrlaridan keyingi davrda islom madaniyatida kechgan tarixi uning bundan buyog'iga ham din va Ovrupa falsafasi bilan bog'liq suratda taraqqiy etganini, uning endi atama emas, ko'proq idrok etish qobiliyati va ilohiy ne'mat sifatida o'rganilgani - bular, xususan, tasavvufning bir qator tariqatlarida va boshqa ko'pgina jabhalarida namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ibn Rushdning falsafiy qarashlari, xususan, aql haqida, borliq haqida, "Ikki haqiqat" haqidagi qarashlari rus olimlari, Yevropa olimlari tadqiqotlari natijasida keng o'rganilgan. Mazkur maqolada Ibn Rushdning "Mangu aql" tushunchasi haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, uning bu haqidagi qarashlarini bugungi kundagi dolzarbligi ham yoritilgan.

Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, germeneytik va sinergetik metodlardan hamda to'ldiruvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan ham foydalanilgan.

NATIJALAR

Yaqin va O'rta Sharq falsafasining aql to'g'risidagi ta'limotlari o'zining o'rta asrlardagi taraqqiyotida Arastu va arastuchilar ta'limotidan turtki olishi bilan birga yunon falsafasining yorqin siymosi Aflotun va ayniqsa, Plotin ta'limotidan ham turtki olganligi ma'lum. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushdning aql tushunchasi va aqliy bilish yo'liga oid qarashlarida uchraydigan sudur (emanatsiya) tamoyili, borliqning tartibli suratda vujudga kelishi va boshqa bir qator g'oyalar buning yaqqol dalilidir.

Albatta, yagona mohiyatli va abadiy intellekt haqidagi ta'limoti bilan Ibn Rushd bir vaqtning o'zida "ilohiyotlashtirilgan" jamiyatda yashovchi faylasuflar oldiga uning o'zi qo'ygan talablarni bajarishga intilgan: na tasdiqlovchi, na salbiy ko'rinishda ustun dinning asosiy aqidalariga, jumladan, qalbning boqiyliqi haqidagi aqidalarga ziyon yetkazmaslikni istagan. Bundan tashqari, "keng jamoat" [4;235] uchun, deb yozadi u, qiyomat kunida nafaqat ruhan, balki jisman ham qayta tirilish muqarraligini tasdiqlashi zarur, chunki ommaning bu kun bilan bog'lik umidi va qo'rquvi ruhiy obrazlardan ko'ra ko'proq jismoniy obrazlar bilan qo'zg'aladi.

MUHOKAMA

Aflotunning "Davlat"iga sharhlarida Ibn Rushd bu uydirmalardan maqsad odamlarda yolg'ondakam yaxshi fazilatlarni tarbiyalashdir, deb yozadi; chunki agar inson u dunyodagi ajrlar haqidagi diniy tasavvurlarga berilsa, bu dunyodagi rohatlardan o'zini tiysa, u holda, u buni narigi dunyoda bu dunyoda yo'qotgan barcha narsalarni yuz barobar qilib qaytarib olish niyatida qiladi (jannat quvonchlari "mushohadaga asoslangan yaxshi xislatlar" egasini maftun qila olishi gumon), axir bu quvonchlar oliy xususiyatga ega bo'lgan lazatlarning: noz-ne'matlar, ichimliklar, hurlarning eng oliy toifasi emasdir.

Kordovalik mutafakkir, albatta abadiyat va boqiy dunyodagi hayot haqidagi fikrlar insonlarning abadiylikka tomon tabiiy intilishlari, inson mavjudligining yakuni oldidagi qo'rquvi natijasida yuzaga kelganligini fahmlab turgan. Ibn Rushdning fikricha, haqiqiy donishmand xom xayollardan osongina kechishi mumkin. U mavjudlik mavjud bo'lmaslikdan yaxshiroq ekanligini, o'simliklar va hayvonlarga ham qalb zarurligini biladi, jumladan, aynan o'zining murakkabligi va chidamsizligi sababli organik jismlar, agar ular psixik potensiyalarga ega bo'lmaganida, individ sifatida bir daqiqa ham mavjud bo'la olmas edilar va aynan qalb va undagi ko'payishga bo'lgan intilish sababli o'simlik va hayvonlar uchun tur va ko'rinishga oid jismoniy boqiylik ta'minlangan.

Bundan tashqari, mutafakkir tabiat unga nafaqat to'rga oid jismoniy boqiylikni, balki o'tkinchi bo'lmagan individ sifatidagi ma'naviy hayotni ham tortiq qilganligini anglab turadi, chunki uning fikrlari uning jismoniy o'limi bilan birga yo'qolib ketmaydi, balki kelajak avlodlarning mulkiga aylanadi. Mana nima uchun, - deb yozadi Ibn Rushd, inson "bu dunyodagi hayot"da ham "u dunyodagi hayot"da ham "mushohadaga asoslangan yaxshi xislatlar"dan voz kecha olmaydi.

Sharq peripatetiklarining o'tmishda yashab o'tgan mos ravishdagi tamoyillaridan farqli o'laroq, Ibn Rushdning psixologik nazariyasi profetizmni umuman tahlil qilmaydi. Muhammad(s.a.v.)ning Payg'ambarlik maqomining yagona

dalili bu, uning “mo’jizakor tabiati”, barchani “amaliy yaxshiliklar” qilishga intilishga “ishontira olishi”, va bundan tashqari “tanlanganlar” tomonidan allegorik tahlil qilinishidan iborat bo‘lgan Qur’ondir. Diniy axloq qoidalarini tanqid qilishda Ibn Rushd o‘zining falsafaning dinga munosabati konsepsiyasiga amal qiladi, va u “ilohiy” matnlarga emas, balki “vahiy”larning ichki ma’nosini noto‘g‘ri talqin qilgan ilohiyotchilarga hujum qiladi [3;422]. Kordovalik mutafakkir avvalambor, ash’oriylar nazariyasidagi, barcha ma’naviy qadriyatlar “ilohiy” matnlarda keltirilgan holda, xudoning amri va farmoni bilan belgilanadi, deb yozilgan teistik sub’ektivizm va etik volyuntarizmni inkor etadi. Agar bu nazariyaga amal qiladigan bo‘lsak, u holda o‘z-o‘zidan ezgulik va yovuzlik bo‘la olmaydi, biroq bunday da’vo nafaqat aniqlikka zid balki musulmonlarning eng “muqaddas” burchlariga ham zid bo‘lar edi (masalan, dindor musulmon uchun yagona Allohga sig‘inish qandaydir shartli, konvensial ne’mat emas, balki o‘z-o‘zidan bor bo‘lgan ne’matdir. Ezgulik va yovuzlikni insonlarning fikri va qoidalariga asoslangan nimadir, deb hisoblagan teologlarning qarashlari tasavvufga oid va “Protagorning qarashlarini eslatadi”.

Shunday qilib, ezgulik va yovuzlik dunyoda hoh tabiiy, hoh ijtimoiy tabiatga ega bo‘lsin o‘z-o‘zidan mavjud bo‘ladi. Tabiiy ne’matlarga kelsaq “keng omma” uchun Ibn Rushd uni xudo manbasi deb ataydi, bunda u “materiyaning zarurati”dan kelib chiqadigan yovuzlik bilan birga kechadi, degan yanglish fikrni ham keltiradi. Xuddi shunday, masalan, olov foyda keltiradi va ayni vaqtda uning hayvonlarni va o‘simliklarni halok qilish hollari ham uchraydi. Xuddi shu kabi hayvonlardagi sezish qobiliyati ham ularning mavjud bo‘lishining zaruriy sharti hisoblanadi, biroq shu bilan birga, aynan u ularga ko‘pincha azoblar olib keladi. Bu nuqtai nazarni keltirgan holda, Ibn Rushd yaratuvchining marhamati va qudratliligi haqida keng tarqalgan tasavvurlarga qarshi chiqishdan ham qo‘rqmaydi [5;124].

Ibn Rushd tomonidan ilgari surilgan ezgulik va yovuzlik tamoyili tabiatiga ko‘ra uning panteistik qarashlariga, ya’ni xudoni, aynan unda mavjud bo‘lgan qonuniyatlarni buza olmaydigan taqozalanishining tabiiy tizimini belgilovchi ramz sifatida ifodalovchi qarashlariga mos keladi. U tomonidan taklif qilingan, insonlar harakatlarida kuzatiladigan ezgulik va yovuzlikni izohlashga xuddi shu kabi yondashiladi: uning davrida bu muammoni insonni bu dunyoda sodir etgan ishlari uchun u dunyoda javobgarligi va Alloh marhamati bilan chambarchas bog‘liklikda o‘rganilgan. Biroq kordovalik mutafakkir uchun bu masalani muhokama qilish aslida erkinlik va zarurat nisbati haqidagi masalani falsafiy o‘rganish uchun vosita bo‘lgan, xolos.

XULOSA

Ibn Rushd o‘zini tizim yaratuvchi deb hisoblamagan, biroq bu uning barcha faoliyati, arastuchilikni unga o‘tmishdagi sharq peripatetiklari tomonidan kiritilgan neoplotonizm elementlaridan tozalashdan iborat bo‘lganligini bildirmaydi. Ilohiyotga qarshi kurashning yangi shartlariga muvofiq ravishda u Arastuning materialistik fikrlarini rivojlantirdi, ularni dunyoni panteistik tushuntirish evolyusiyasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bosqichni hosil qiluvchi ta’limotni yaratgan holda, yangi dialektik tamoyillar va taxminlar bilan boyitib bordi. O‘sha davrdagi ko‘plab arab davlatlarida yuzaga kelgan tarixiy sharoitlarda Ibn Rushd falsafasi o‘sha yerlarda yashovchi xalqlarning ma’naviy madaniyatlariga qandaydir ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas edi.

Bugungi falsafada aql atamasining aytilishi va tuzilishi deyarli o‘zgarmagan bo‘lsada, biroq uning ma’nosi kuchli o‘zgarganiga guvoh bo‘lamiz. U fan va texnika asri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ilgari yunon falsafasining “nus”, ya’ni nazariy aql tushunchalari va islom aqidalari bilan uzviy bog‘liqligi zamonaviy falsafada onda-sonda uchrab qolishini hisobga olmasak deyarli uchramaydi. Aqlni ilmiy tadqiq etish zamonaviy falsafa va fanda keng ko‘lamda davom ettirilayapti va bu davrda u har qanday diniy qarashlardan holi ravishda, XXI asrda insoniyatning fan va texnika erishgan yutuqlarga tayangan holda yoritilayapti. Unga atama sifatida qarash va sezgiga, tuyg‘uga, sun‘iy aqlga qarama-qarshi qo‘yish umumiy an’anaga aylanib qolgani, shubhasizdir. Umuman olganda Ibn Rushd falsafasi o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, shart-sharoit tufayli yuzaga keladi deyish mumkin. Uning qarashlarida aql, umuman rasionalizm tendensiyasi yetakchilik qiladi.

Ibn Rushd ijodida aql alohida tahlil qilinib uning mohiyati din va e’tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi. Bugungi global ma’naviy tahdidlar avj olgan zaminda Ibn Rushd dunyoqarashining mazkur jihati, yanada muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa dunyoviylikni dahriylik sifatida talqin qilayotgan diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashda muhim g‘oyaviy asos vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari rasionalizm tamoyili uning borliq haqidagi qarashlarida ham ustunlik qiladi, shu tufayli Ibn Rushd falsafasini ungacha va undan keyingi davrlar rasionalistik ta’limotlar o‘rtasida vorisiylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

[1] Francesco Malaguti. Philosophical Perspectives on the Relationship Between Religion and Science: Averroes, Maimonides, Thomas Aquinas and Galileo. *Jewish-Muslim Relations*. 101-117.

-
- [2] Averroes. (2012). On the Harmony of Religion and Philosophy (trans: Hourani, G.F.). <http://www.muslimphilosophy.com/ir/fasl.htm>. Accessed 6 July 2017.
- [3] Rixsivayevna, I. I. (2021). IBN RUSHDNING “KITAB FASL AL-MAQĀL VA-TAQRIR MA BAYNA ASh-ShARI ‘AH VA AL-HIKMAH MIN AL-ITTISĀL” ASARIDAGI MULOHAZALAR TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1537-1542.
- [4] Ибн Рушд. Опровержение опровержения. //Сагадеев А.В. Киев, 1999.
- [5] Сагадеев А.В. Ибн Рушд. –М., 1973.

CHIG‘ATOY ULUSIDA ILK BOSHQARUV SHAKLI

Bekmuradov Sandjar Tursunmamatovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Chig‘atoy ulusi yoxud Chig‘atoy xonligi – Mo‘g‘ul imperiyasidan so‘ng Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon va uning vorislari hukmronlik qilgan yerlarni o‘z ichiga olgan mo‘g‘ul ulusi. XIII asr oxirlarida xonlik o‘zining eng yuqori cho‘qqisida Orol dengizining janubida Amudaryodan to hozirgi Mo‘g‘uliston va Xitoy chegarasidagi Oltoy tog‘larigacha cho‘zilgan.

Chig‘atoy ulusidagi mo‘g‘ullari o‘zlarining boshqaruv tarzida asosan ko‘chmanchi bo‘lib qolishgan va XV asr oxirigacha shahar markazlarida o‘rnashishmagan. Chig‘atoy ulusidagi mo‘g‘ullar Movarounnahr va Tarim havzasidagi shahar aholisi ustidan hukmronlik qilganlar.

Ma‘lumki, ulusning dastlabki xoni Chig‘atoyxon bo‘ldi. Ammo savol tug‘iladiki, Chig‘atoy va uning navbatdagi xonlari ulus boshqaruvida to‘liq mustaqil bo‘lgan-mi? Aytaylik, Chingizxon o‘z imperiyasini farzandlariga bo‘lib berganida shunchaki markaziy boshqaruvga ya‘ni, Xoqonga bo‘ysinish uchun nomiga bo‘lgan. Biroq avval boshidan Botu va keyinchalik Tulu xonadonlarining harakati aksincha markaz bilan hisoblashsada ko‘plab hollarda mustaqil edi. Ayonki, ko‘chmanchilik bilan shug‘ullanuvchi mo‘g‘ullarning o‘troq aholini boshqarish tajribasi yo‘qligi bois Chig‘atoyxon o‘ziga tegishli ulusni boshqarishni avval xorazmlik Mahmud Yalavochga va uning avlodiga topshiradi. O‘zi esa umrining oxirigacha ukasi O‘qtoy Xoqon saroyida bosh maslahatchi hamda Yasoq qoidalarining tartibiga javobgar tarzida faoliyat ko‘rsatadi. Chig‘atoy ulusidan olinadigan daromadlarning asosiy qismi Markazga ya‘ni, Qoraqurumga jo‘natilgan. Qolgan qismini mahalliy aholidan tayinlangan oliy hokim ulus ehtiyojlari hamda qo‘shin xarajatlari yo‘lida sarf qilishgan. Bunda omma nafaqat mo‘g‘ul bosqoqlari, dorug‘alari, balki mahalliy zodagonlar va oqsuyaklar tomonidan ham ezilgan.

Bu holatni biz manbalar orqali ko‘proq Chig‘atoy ulusida kuzatamiz. Qolgan uluslarda vaziyat o‘zgacha edi. Shu bois Chig‘atoydan so‘ng bir necha xonlar Markazdan butunlay mustaqil bo‘lishga, Movarounnahr boshqaruvini qo‘lga kiritishga qattiq harakat qildilar. Bu holat Duvaxonga qadar davom etdi. Faqat Duvaxon davriga kelib Chig‘atoy ulusi to‘liq mustaqillikni qo‘lga kiritdilar.

Kalit so‘z: Movaraunnahr, Chingizxon, Chig‘atoy ulusi, Mahmud Yalavoch, Baroq, Duvaxon, Muborakshoh, Jamol al-Qarshiy, Qoshoniy, Haraviy, Sayfuddin Boharziy, Botu, Munke, Qaydu, legitimlik.

АННОТАЦИЯ

Улус Чагатай или Чагатайское ханство – это монгольский улус, которым управлял второй сын Чингизхана, Чагатайхан и его преемники после Монгольской империи. В конце XIII века ханство достигло своей высшей точки на юге Аральского моря, от Амударьи до Горного Алтая на границе современной Монголии и Китая.

Монголы Чагатайского улуса оставались в основном кочевниками в своем управлении и не селились в городских центрах до конца XV века. Монголы Чагатайского улуса правили городским населением Мавераннахра и Таримским бассейном.

Известно, что первым ханом улуса был Чагатайхан. Но возникает вопрос, были ли Чагатай и его преемники полностью независимыми в управлении государством. Неужели, когда Чингисхан разделил свою империю между своими детьми, ради того, чтобы подчиняться центральному правительству, то есть Хакану. Однако с самого начала движение династий Боту, а затем и династий Тулу было во многих случаях независимым, хотя с центром рассчитывалось обратное. Судя по всему, кочевые монголы не имели опыта управления оседлым населением, поэтому Чагатайхан изначально доверил управление своим народом Махмуду Ялавачу из Хорезма и его потомкам. До конца жизни он работал во дворце своего брата Угидей Хакана главным советником и ответственным за порядок правил Яса. Большая часть доходов чагатайского народа направлялась в Центр, то есть в Каракурум. Остальное было потрачено местными губернаторами на нужды нации и армии. При этом народ угнетались не только монгольской знатью, но и местной аристократией.

Более подробно мы наблюдаем эту ситуацию в чагатайском улусе через арабские и персидские источники. Поэтому после Чигатая несколько ханов упорно трудились, чтобы стать полностью независимыми от Центра, чтобы получить контроль над Мавераннахром. Ситуация продолжалась до Дувахана. Только ко времени Дувахана Чагатайский улус обрел полную независимость.

***Ключевые слова:** Мавераннахр, Чингизхан, Чагатайский улус, Махмуд Ялавач, Барак, Дувахан, Мубаракшах, Джамаль аль-Карши, Кашани, Харави, Сайфуддин Бохарзи, Боту, Мунке, Кайду, легитимность.*

ABSTRACT

The Ulus of Chagatai, or Chagatai Khanate, is a Mongol Ulus that includes lands ruled by Genghis Khan's second son, Chagatai Khan, and his successors after the Mongol Empire. At the end of the XIII century, the khanate reached its highest peak in the south of the Aral Sea, from the Amu Darya to the Altai Mountains on the border of present-day Mongolia and China.

The Mongols of the Ulus of Chagatai remained largely nomadic in their administration and did not settle in the city centers until the end of the XV century. The Mongols of the Ulus of Chagatai ruled over the urban population of Transoxiana and the Tarim Basin.

It is known that the first khan of the Ulus was Chagatai Khan. But the question arises whether Chagatai and his successors were completely independent in governing the state. May be Genghis Khan divided his empire among his children, in order to obey the central government, that is, Khaqan. By the way from the beginning, the movement of the Botu dynasties, and then the Tulu dynasties, was in many cases independent. Apparently, the nomadic Mongols did not have experience in managing the sedentary population, so Chagatai Khan initially entrusted the management of his people to Mahmud Yalavach from Khorezm and his descendants. Until the end of his life, he worked in the palace of his brother Ögedei Khaqan as the chief adviser and responsible for the order of the Yasa rules. Most of the income of the Chagatai people went to the Center, that is, to the Karakorum. The rest was spent by local governors for the needs of the nation and the army. At the same time, the people were oppressed not only by the Mongol nobility, but also by the local aristocracy.

We observe this situation more in the Chagatai nation through sources. The situation was different in the rest of the nations. Therefore, after Chagatai, several khans tried hard to become completely independent from the Center, to gain control of Transoxiana. This situation continued until Duva Khan. Only by the time of Duva Khan did the Chagatai nation gain full independence.

Keywords: *Transoxiana, Genghis Khan, The Ulus of Chagatai, Mahmud Yalavach, Barak, Duva Khan, Mubarak Shah, Jamal al-Qarshi, Kashani, Haravi, Sayf ad-Din Baharzi, Botu, Munke, Qaydu, legitimacy.*

KIRISH

XIII asrdagi mo'g'ul istilosi shu davr kishilari hamda ularning yaqin avlodlari shuuriga shu qadar ta'sir o'tkazdiki, mo'g'ul xalqini va uning tarixini o'rganish deyarli istilo bilan bir paytning o'zida boshlanib ketdi. Kutilmagan fojiaga yo'liqqan Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlari xalqlari – arab, fors, rus, arman, gruzin, lotin, polyak, xitoy, vengr, nemis kabi tillarda mo'g'ul yurishlari, ularning jang olib borish usullari, mo'g'ul qo'shini tuzilishi, odamlarni shafqatsiz va ommaviy tarzda qirish, vayron

etilgan shahar-qishloq, buzib tashlangan kanallar, bog‘-rog‘lar haqida chuqur afsus bilan yozilgan xabarlar ko‘p. Istilodan so‘ng o‘rnatilgan mo‘g‘ullar boshqaruv tizimi haqidagi ma‘lumotlar ham o‘ta muhim. Mo‘g‘ullar dunyoqarashi, turmush tarzi xususida mufassal xotiralar hamda hikoyalar ham diqqatga sazovor.

Mazkur manbalarning o‘ziga xosligi shundaki, zabt etilgan mamlakatlarning bu mavzuda yozgan barcha mualliflari hamda ularning yaqin avlodlari o‘zlari guvoh bo‘lib yoki ota-bobolaridan eshitganlari haqida yozar ekanlar, mo‘g‘ul istilosini xalqlar qismatiga tushgan buyuk bir musibat sifatida turlicha baho berganlar. Holbuki, mualliflarning ba‘zilari sharoit taqazosi bilan mo‘g‘ullar xizmatida turgan holda ular tarixining guvohi sifatida ijod qilganlar. Ibn al-Asir¹⁰² (1160-1234), Abu-l-Fazl ibn Muhammad Jamol ad-din Al-Qarshiy (1234-1301), Juvayniy¹⁰³ (1226-1283), Fazlulloh Rashid ad-din¹⁰⁴ (1247-1318), kabi tarixchi olimlar shular jumlasidandir.

Chingizning musulmon mamlakatlariga tomon hujumi Jamol al-Qarshiyning¹⁰⁵ ma‘lumotiga ko‘ra, tarixning 616¹⁰⁶/1219-1220 yillaridan o‘rin olgan. Buning sababi sifatida olim To‘g‘rulxon nomi bilan atalgan Olmaliq¹⁰⁷ xoni Buzarxon¹⁰⁸ va Kuchlukxon as-Sagiziy¹⁰⁹ o‘rtasidagi dushmanlikdir deb aytadi¹¹⁰.

Mo‘g‘ullar qatl va zo‘ravonlik yo‘li bilan *muharram* 617/mart-aprel 1220 yilda Movarounnahrni, 9 *muharram* 618/5fevral - mart 1221 yilda Marvni¹¹¹, *safar*

¹⁰² Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих (Полный свод истории) / перевод с арабского, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. Под редакцией д.и.н., проф. М.М.Исхакова. – Т.: Узбекистан, 2006. – 790 с.

¹⁰³ Джувейни. Чингисхан. История завоевателя мира. – Москва: Магистр пресс, 2004. – 690 с.; Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо (Жаҳон фотиҳи тарихи) / Алоуддин Атомалик Жувайний; масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2015. – 504 б.

¹⁰⁴ Рашид ад-дин. Сборник летописей / перевод с персидского О.И.Смирновой, примечания Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. I-III. М., Л.: Наука, 1956-1963.; Фазлаллах Рашид ад-дин. Джами’ ат-таварих / Критический текст А.А.Ромаскевича, А.А.Хетагурова, А.А.Али-Заде. Т. I, Ч. 1. – М.: Наука, 1965.

¹⁰⁵ الملحقات بالصراح جمال الفرشي. Маҳдум Восилий номидаги маънавий мерос фонди, (qo‘lyozma) №2. – 1285 [1868-69]. – 53^{ab}.

¹⁰⁶ А.Саидов бу ерда 614 йил деб таржима қилиб кетган. Аммо бу вақтда мўғулларнинг Ўрта Осиёга ҳужуми ҳали амалга оширилмаган эди. – Джамал ал-Карши. Мулҳакат ас-Сурах. Перевод с арабского и примичания А.Саидова. Душанбе.: Ирфон. 2006. – С. 41.

¹⁰⁷ Олмалиқ – ҳозирги Ғулжа ва Хитойнинг шимоли-ғарбидаги Или дарёси қирғоғида жойлашган Еттисувдаги шаҳар. Бу шаҳар Олтин Ордадан Ўрта Осиёга, Монголияга ва Хитойга олиб борадиган қарвон йўлидаги муҳим савдо маркази. – Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по средней Азии. – М.: Наука, 1988. – С. 112.

¹⁰⁸ Бuzар Тўғрулхон – собиқ от ўғриси ва қароқчи, кейинчалик Ғулжа воҳасида мустақил давлат барпо этган. Ғулжа ўлкаси ҳукмдори ва ўз хонига суикасд қилган қошғарлик исёнчиларнинг раҳнамоси. – Alaaddin Ata Melik Cuveyni. Tarih-i cihan gūsha. Çeviren: Doç.Dr. Mürsel Öztürk. Ankara, 1988. – S. 133.

¹⁰⁹ Кучлук – найман қавми йўлбошчиси. Мўғулларга қарши ғалаён кўтарган.

¹¹⁰ Жамол Ал-Қаршийнинг бу маълумоти Жувайнийда ҳам худди шундай акс этган. Қаранг: Жувайний. Тарихи жаҳонгушо / масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. – Б. 121-126.

¹¹¹ Марв 25 феврал 1221 йилда қўлга олинди. – Бартольд В.В. Монгольское завоевания. Т. II, Ч. I. - М.: Наука, 1963. – С. 141.; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. - М.: Наука, 1963. – С. 514.; Жувайнийнинг маълумотига кўра Марв 1 муҳаррам 618 хижрий йилда забт этилган. – Alaaddin Ata Melik Cuveyni. Tarih-i cihan gūsha. Çeviren: Doç.Dr. Mürsel Öztürk. Ankara, 1988. – S. 196-198.

618/mart-aprel 1221 yilda Xorazm, 16 *safar oyi* 618¹¹²/10 aprel 1221 yilda G'irotdan (Hirot)ni so'ngra 8 *jumadi as-soniy* 618/ 31 iyul - avgust 1221 yilda G'aznani egalladilar. Chingizxon 10 *ramazon* oyining 624/24 avgust 1227 yilda¹¹³ Xurosondan qaytgach vafot etdi.¹¹⁴

Zabt etilgan yerlar hali Chingizxon hayotligidayoq to'rt ulusga bo'lingan va uning to'rttala o'g'liga taqsimlab berilgan edi. Qizig'i shundaki, har bir shahzodaga berilgan ulus uning yoshi kattaligiga mos ravishda Mo'g'ulistondan uzoqlashardi. To'ng'ich o'g'il Jo'jiga, aniqrog'i uning farzandi Botuga Irtish daryosidan g'arbdagi yerlar topshirildi. Boisi, Jo'ji otasidan oldinroq, 622/1225 yilda¹¹⁵ vafot etdi. Xorazmning shimoli va Sirdaryoning quyi oqimlari ham Jo'ji ulusiga kirdi. Botu otasi qazosidan so'ng ya'ni, akasi 630/1232-1233 yilda taxtga o'tirganidan so'ng vafot etdi¹¹⁶.

O'ktoygacha Oltoy va Tarbag'atoy tegdi, kenja To'li esa otasining asl yurtini ya'ni, Mo'g'uliston, Janubiy Sibirni oldi¹¹⁷.

O'qtoygacha Hoqon (Ugedey)¹¹⁸ ibn Chingizxon 18 *shavvol oyi* 626/9 sentyabr 1229 yilda payshanba tongida Kaluranda¹¹⁹ taxtga o'tirdi¹²⁰. U ochiq qo'l, saxiy edi. Uning

¹¹² 19 *safar oyi* 618 йил. - Жамол ал-Қарший. Ал-Мулҳақот би-с-Суроҳ. В-514 (430а). В. 45^а.

¹¹³ Чингизхон 1227 йил август ойида 72 ёшида в.э. - Бартольд В.В. Статъи из "Энциклопедия ислама". Чингизхан. Т. V. - М.: Наука, 1968. - С. 615-629.; Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. - М.: Наука, 1963. - С. 526.; Жувайнийнинг маълумотига кўра - 4 рамазон (18 август). - Ала ад-дина Джувейни. Тарих-и джахангуша//<http://www.tataroved.ru>.; Рашид ад-диннинг айтишича Чингизхон анча илгари вафот этган. Чунки 14 рамазон 624 хижрий йилда (28 август 1227 йилда) унинг жасади Монголияга келтирилган. - Рашид ад-дин. Сборник летописей / от персидского О.И.Смирновой, примечание Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. II. - М., - Л.: Наука, 1956.; Т.И.Султоновда - 1227 йил. - Султонов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана. - С. 16.; Тарихи Гузиде-и Нусратномада айтилишича - Чингизхон Муран-Келуранда касал бўлди ва ўлгач Кенагасга олиб бордилар ҳамда шу ерда дафн этдилар. - Таварих-и гузида-Нусрат-наме / Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений кандидата филол. наук А.М.Акрамова. - Т.: Фан, 1967. - С. 96.

¹¹⁴38^а. جمال القرشي. الملحقات بالصرح.

¹¹⁵ Туши (Жўжи) 1226 йил баҳорда вафот этган. - Юань-Ши. Пер. Бичурина Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в средней Азии в древние времена. Т. I. - М., - Л.: Изд-во АН СССР, 1950.; Баъзи замонавий манбаларда келтирилишича - Туши (Жўжи) ибн Чингизхон отасидан 6 ой аввал, яъни феврал 1227 йилда в.э.; Рашид ад-динга кўра - баъзи манбаларда Жўжи вафот этган вақтда у 20 ёшда бўлган, баъзиларида эса 30 дан 40 ёшгача; Агар Ўқтойни 1206 йилда биринчи ўғилли бўлганлигини ҳисобга оладиган бўлсак 1225 йилда Жўжи 40 ёшдан кичик бўлмаган. - Рашид ад-дин. Сборник летописей / от персидского О.И.Смирновой, примечание Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. II. - М., - Л.: Наука, 1956.

¹¹⁶ Тулуй-хон Хитой вилоятларини забт этаётган бир пайтда Тунь-Гуань Кахалка номли ерда Олтин-хонга дуч келди. Тулуй-хон Ўқтой-хон армияси билан кўшилиш мақсадида унинг хузурига йўл олади, ammo тўсатдан йўлда вафот этади. - Таварих-и гузида-Нусрат-наме. - С. 98.

¹¹⁷ Жувайний. Тарихи жаҳонгушо / масъул муҳаррирлар Ҳ.Болтабоев, М.Маҳмудов. - Б. 31-32.

¹¹⁸ Т.И.Султоновнинг маълумотига кўра - Ўқтойхон навбатдаги зиёфатдан сўнг маст ҳолда 1241 йилнинг 10 декабридан 11 декабрига ўтар кечаси вафот этган. - Султонов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингизхана. - С. 42.

¹¹⁹ Калуран Кэруленнинг ўрта аср манбаларидаги варианты бўлиб, ҳозирда Мўғулистоннинг Хентай тоғ тизмаларидан оқиб, Улан-Батор орқали Хитой Халқ Республикаси ҳудудларигача оқиб ўтувчи дарё. Мўғул тилида Хэрлэн гол, хитойчада Келулун хе деб ҳам аталади. Дарёнинг узунлиги 1254 км бўлиб, 1090 км.и Мўғулистондан ўтади. Ҳавзаси 116400 км². Далайнор кўлини тўлдирувчи асосий дарёлардан ҳисобланади.

¹²⁰ В.В.Бартольднинг маълумотига кўра - 1229 йил сигир йилида. - Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. - М.: Наука, 1963. - С. 531.; Мўғул-Хитой солномалари бўйича

hukmronligi kunidanoq uzviy notinchlik yo‘qoldi. Mamlakatlar qayta tiklandi va himoyalandi, asirlar ozod etildi, faqirlar esa boyidi. Uning davrida hamma tinch-totuv yashadi¹²¹. Davlat poytaxti etib Afrosiyobning poytaxti bo‘lgan Qora-qurum¹²² bo‘ldi.

Chig‘atoyga kelsak, uning hukmronligi Olmaliqdagi jome’ masjidiga ega Il-Alargu (al-Alargu) shahrida o‘tgan. Uning farzandlari: Mituqon, Yisu, Baydar, Sarbonlar bo‘lgan¹²³. Mituqon 617/1220-1221 yilda Bomiyon qal’sida¹²⁴ otasidan oldin vafot etgan. Chingizxon qal’ani olgandan so‘ng uning aholisini, bolalar va ozod ayollardan tashqari barchasini, qatl etishga buyruq berdi¹²⁵.

Chig‘atoy, o‘z og‘a-inilari ichida o‘zgacha hurmatga ega bo‘lib, boshqaruv san’ati va Yasa qonunlari nozikliklarini bilishi bilan alohida ajralib turgan. Chingizxon o‘z yerlarini taqsimlab berayotganda, Chig‘atoyga Mavoraunnahr davlatlari, uyg‘ur yerlari, Qashg‘ar, Badaxshon va Balx viloyatlarini ajratgan va otaliq etib Qorajar No‘yonni tayinlagan¹²⁶. Chingizxon o‘limidan so‘ng, Chig‘atoy o‘z poytaxti etib Beshbaliq (Bish-Bolog‘ – *Xondamir*¹²⁷) shahrini sayladi; u katta og‘asi bo‘lmish O‘qtoy Xoqonga hurmati cheksiz edi. Bundan tashqari u Qorajar No‘yon (Amir Korajor) maslahati va roziligisiz hech narsa qilmas edi. Aksariyat fors va arab manbalarida Chig‘atoy nomiga simpatiya bildirilgan. Rashid ad-dinga ko‘ra, Chingizxon ham shunda farzandalariga shunday ta’rif bergan: *“Amirlar bilingki, kimda Yaso, bilig va qonunlar haqida to‘liq bilmoqchi bo‘lsa, Chig‘atoyga ergashsin, kim molu-davlatni sevsa O‘qtoyga ergashsin*

Курултой сичкон йилида, яъни 1228 йилда бўлиб ўтган. – Султонов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана. – С. 87.

¹²¹ Деярли барча тарихий манбалар, хаттоки мўғул хонларидан мустақил бўлган душман хонликлар ҳам Ўқтойхоннинг довураклигини ҳамда сиёсатда бошқа хонларга нисбатан анчайин кучли бўлганлигини ўзида акс эттиради.

¹²² Қорақурум (Коракорум) – Мўғулистоннинг Охон вилоятида жойлашган шаҳар. Унга Ўқтойхон (1229-1241 йй.) XIII асрда ўзининг ҳокимияти маркази сифатида асос солиди ва Ўрдубалиқ деб ном беради. – Бартольд В.В. Каракорум. Соч. Т. III. – М.: 1965. – С. 443-444.; Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. – Т.: Фан, 1996. – С. 611.

¹²³ Чигатой ибн Чингизхоннинг Билдишин номли ўғли ҳам бўлган. Лекин 13 ёшида вафот этган. – Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 551.; Тарихи Гузиде-и Нусратномада бу маълумот куйидагича ўрин олган – Чигатойнинг 6 ўғли бўлган: Митуген, Мужа Яя, Белькиши, Саробан, Есумунке, Пайдар. – Таварих-и гузида-Нусрат-наме. – С. 107.

¹²⁴ Бомийён ёки Бимийён – Кобул, Хульм ва Балх ўртасидаги тоғли ҳудуддаги жойлашган шаҳар. X асрда Бомийён шаҳри вилоятнинг муҳим шаҳарларидан ҳисобланган. Унинг таркибига Кобул ва Ғазна ҳам кирган ва маҳаллий ҳукмдорлар қўл остида бўлган. У Чингизхон томонидан хароб этилган ва XVIII асрга қадар тикланмаган. – Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по средней Азии. – М.: Наука, 1988. – С. 114.

¹²⁵ Бомийёндаги воқеа ҳақида В.В.Бартольдда ҳам келтирилади. Унга кўра, кейинчалик “Мобалик”, яъни “Хунук/ёмон шаҳар” деган ном берилган. – Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 511.; Ибн ал-Асир, Жужжоний, Насавийлар асариде – Бомийён ҳақида ҳеч нарса айтилмаган.; Равертининг айтишича – Бомийён = Валиян. – Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 568.

¹²⁶ История Монголов (От древнейших времен до Тамерлана). / Отв. ред. А.К.Муминов. Перевод с персидского, предисловие, примечания, подготовка факсимиле к изданию Василий Григорьев; сост. указателей У.А.Утепбергеновой. – Санктпетербург: Карл Край, 1834. – С. 109. (Хондамир. Хуласат-ул-Ахбар)

¹²⁷ Ўша жойда.

va kimda raiyat bilan bo'lishni, ilmni, qurol bilan ishlash san'atini o'rganishni istasa Tuluga ergashsin"¹²⁸.

Chig'atoyning qarorgohi Ili daryosi vodiysida edi ¹²⁹. Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon vafotidan so'ng Chig'atoyga 4000 ta askar tekkan. Ularning boshliqlari o'z navbatida *barlos* (*Qorajar No'yon*), *jaloyir* (*Muka No'yon*), *qavchin* va *orlot* qabilalaridan bo'lgan¹³⁰. Ibn Arabshohning yozishicha *qavchinlar* Amudaryo shimoli, Buxoroning sharqiy tomonlarida, *barloslar* Qashqadaryo vohasida, *orlotlar* Afg'oniston shimolida joylashganlar¹³¹. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham o'z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko'rgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada arab, fors va boshqa turdagi manbalarga asoslanib tadqiqot olib boriladi. Jumladan, arab manbalaridan Jamol al-Qarshiyning "Al-Mulhaqot bi-s-Suroh", al-Umariyning "Masalik al-absar fiy mamalik al-amsar", Maqriziyning "Kitob-al-mavaiz va-l-i'tibar fi zikr al-xitat va al-asar", Ibn Battutaning "Sayoxatnoma" asarlari hamda fors manbalaridan Rashid ad-Dinning "Jome' at-tavorix" solnomasi va "Shuab-i panjgona" va "Nasabnoma-i muluk" asarlari, Yaqub al-Haraviyning "Tarixnoma-i Hirot", Abdulloh Vassofning "Tarixi Vassof", Abu al-Qosim al-Qashoniyning "Tarixi O'ljaytu", Mirxondning "Ravzat us-safo", Hafizi Abruning "Majmu at-tavorix", Mirzo Ulug'bekning "Ulusi arba'-yi Chingiziy" va "Mu'iz al-ansab" asarlari hamda turkiy (chig'atoy) tildagi "Tavarix-i guzida-i nusratnoma" asarlari. Shuningdek, mavzuga doir xorijiy va mahalliy tadqiqotlardan foydalaniladi, tahlil etiladi.

Maqolada Chig'atoy ulusida dastlabki boshqaruv qanday bo'lgani xususidagi savollarga holislik, yetarli tahlilga qaratilgan tarixiy faktlar va voqealarni baholash hamda tanqidiy taxlil qilish, qiyoslash, biografik, xronologik, retrospektiv metodlar asosida xulosalar chiqariladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu yerda savol tug'iladiki, Chig'atoy va uning vorislari boshqaruv masalalarida erkin bo'lganmi yoki markaz aniqrog'i Hoqon nima desa shu-mi? Bunga javobni quyida taxlillarga yondoshgan holda topishimiz mumkin.

Birinchidan, Mo'g'uliston va unga qo'shni yerlarda yashovchi boshqa ayrim ko'chmanchi xalqlardan farqli o'laroq mo'g'ullar davlatchilik an'alariga ega emas edilar. Ushbu haqida xususan A.S.Sagdullaev, B.Eshov, N.I.Toshev kabi bir qator mahalliy olimlar ham o'z tadqiqotlarida ta'kidlagan¹³². Mo'g'ul imperiyasining uluslar

¹²⁸ Рашид ад-дин. Сборник летописей/ от персидского О.И.Смирновой, примечание Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. II. – М., - Л.: Наука, 1956. – С. 90.

¹²⁹ جمال القرشي. الملحقات بالصرح-38^a

¹³⁰ Рашид ад-дин. Т. II. 1956. – С. 90.

¹³¹ Там же.

¹³² Сагдуллаев А., Мавлонов У. Ўзбекистон давлат бошқаруви тарихи (Қадимги даврлардан XIX асрнинг ўрталарига қадар). Ўқув қўлланма. – Тошкент: "Akademia", 2006. – Б. 90.; Эшов Б. Ўзбекистонда давлат

va qanotlarga bo‘linishi, o‘nlik sistemasi, oliy hokimiyat konsepsiyasi, taxt almashish tartibi va boshqa ko‘plab davlatchilik institutlari mo‘g‘ullardan burun o‘tgan ko‘chmanchi davlatlar, asosan Turk xoqonligiga taqaladi. Bu bilim va an‘analar Chingizxon mo‘g‘ullarigacha bir necha yo‘llar bilan yetib kelgan (yozma manbalar, folklor va hk.)¹³³. Xususan *Yasoq* qoidalari ham shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, mo‘g‘ullar ko‘chmanchilik bilan hayot kechiruvchi xalq bo‘lgani tufayli davlat boshqaruvida epsiz edi. Shu boisdan, xonlar dastavval ulus qo‘l ostidagi hududlarni *noiblar* yordamida boshqargan. Buni Movaraunnahrni boshqarish ishlari mahalliy hukmdorlar va ayniqsa mahalliy boy zodagonlarga berilishida ham kuzatamiz.

Misol uchun, birinchi bo‘lib Chig‘atoy ulusi hududini boshqarish xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochga keyinchalik ham uning avlodiga topshirildi. Ular xonning noibi sifatida faoliyat olib borishdi. Noib ko‘rinishida ular Ho‘janddagi qarorgohidan turib ulus miqyosida soliqlarni to‘plash hamda Hoqon huzuriga yetkazish va aholini itoatda ushlab turish kabi ma’suliyat yuklatilgan edi. Bunda noib Chig‘atoy ulusi xonlari oldida hisobot berishlari shart emas edi. Huddi shunday Buxoroda ham mahalliy zodagonlar va din ulamolari, sadrlar mamlakatdagi boshqaruvni qo‘lga olgan edilar.

Manbalarda Chig‘atoyning xususan Mahmud Yalavachdan qutulish hoxishi bo‘lgani haqida ishoralar bor va u bu maqsadiga 1238 yilgi Mahmud Tarobiy qo‘zg‘oloni orqali erishgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki Yalavach qo‘zg‘alonga homiylikda yoki bila turib keskin chora ko‘rmaganlikda ayblanib O‘qtoy Hoqonning ijzatisiz noiblikdan ozod etiladi. Yalavach Qora-qurumga ketishga majbur bo‘ladi. Hoqon esa iltifot ila kutib oladi va uni Pekinga gubernator etib tayinlaydi. Yalavach u yerda umrining oxiriga qadar (1254 yil) faoliyat yurgazadi. Movaraunnahrning yangi noibi etib esa uning farzandi Ma’sudbekni tayinlaydi. Ma’sudbek ham *bosqoqlar* va *darug‘achilar* boshliq qo‘shinga hamda mahalliy amirlarga tayanib otasining ishlari va siyosatini 1289 yilga qadar davom ettiradi.

Uchinchidan, Chig‘atoy ulusining siyosiy boshqaruviga Jo‘ji ulusi vakillari shuningdek, Tulu xonadoni vakillari muntazam aralashib turar edi. Noiblarning markazga tashib ketayotgan katta miqdordagi soliqlardan ma’lum foizigagina qanoat qilishga majbur bo‘lgan chig‘atoyliklarga bu xol yoqmas edi.

Umuman olganda, Mo‘g‘ullar imperiyasida umumsiyosiy vaziyat o‘ta murakkab ahvolda bo‘lib, unda hali-hanuz bosqinchilik urushlari olib borilayotgan edi. Xususan,

ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 253.; Тошев Н.И. Алоуддин Жувайнийнинг “Тарихи жаҳонгўшо” асари Марказий Осиёнинг XII-XIII асрлар тарихига оид муҳим манба: тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 112.

¹³³ Бу мавзу рус олими В. Трепавлов томонидан қизиқарли ва ишонарли қилиб ёритилган (Трепавлов В. В. Государственный строй Монгольской империи XIII в.: Проблема исторической преемственности. – М., 1993).

Botu 1236-1241 yillarda Sharqiy Yevropaga yurishlarni amalga oshirib bo'lg'usi Oltin O'rdaga zamin yaratayotgani alohida ahamiyat kasb etardi. Ayniqsa, 1248 yilda Hoqon Guyukxonning vafoti va undan so'ng katta sarxadga ega sulolani boshqarishga tajribali, taxtga loyiq davogar yo'qligi O'qtoy xonadonini g'ulg'ulaga solib qo'ydi.

Yana bir tarafdin, Botu va Guyukxon o'rtasida azaldan xusumat va o'chmas adovat xissi mavjud edi¹³⁴. Bu dushmanlik xissi Guyukxonning avlodlariga ham meros bo'lib o'tgan edi. Mankuxon 648 yilning *safar* oyida/ may-iyun 1250 yilda Guyukxon, uning o'g'illari va Chingizxon avlodidan bo'lganlarni qirqdan ortiq amiri ham 2000 yaqin harbiy qo'mondonlari ustidan g'alaba qozonib ularni qatl ettirdi va taxtni qo'lga oldi. Shundan so'ng uning hokimiyati mustahkamlandi va u o'z davlati taxti ustida o'zini erkin xis etdi¹³⁵.

Fursatni boy bermay o'z mavqeyidan foydalangan Botuxon Tulu xonadoni vakillari bilan til biriktirib Munkexonni (Manguxon) taxtga Hoqon etib ko'tarish masalasini ilgari surdi. Chingiziylar ichida katta og'a sifatida Botu qurultoyini yig'ish bo'ynida edi. Ammo u o'zining sog'lig'ini vaj etib qurultoyini Jo'ji sulolasi poytaxti Saroy Berkaga¹³⁶ chaqirtirdi. O'qtoy va Chig'atoy xonadoni vakillari bunda fitna borligini sezib Hoqon saylashni doimgidek, Chingizxonning ona yurtasi Onon va Kerulen daryolari xududida amalga oshirilishi lozim deb, e'tiroz bildirdilar. Biroq ularsiz ham Botu va Tulu xonadoni ishtirokida Munkexonni Hoqon etib ko'tardilar. Qurultoy natijasi tan olinmasligidan xayiqib Botu nomigagina inisi Berka hamda Buqa Timur boshchiligida Kerulen daryosida yana bir qurultoy yig'di. Bunda ham O'qtoy va Chig'atoy xonadonlari ishtirok etishni istamadilar. O'rtada bir yarim yillik tortishuvlardan so'ng va nihoyat Qora-qurumda qurultoy chaqirilib taxtga Munkexon (1251-1259) Hoqon etib "saylandi".

Shundan keyin O'qtoy va Chig'atoy xonadonlari kuch bilan taxtni egallash choralarini ko'rib, turli rejalar tuza boshladilar. Jamol al-Qarshiyda keltirilishicha, dastlab Guyukning nasli Munkexonga qarshi harakatlar qilib uning o'limini rejalashtirgan. Toj kiyish marosimida ularning ham qatnashishiga ruxsat bergach, ular o'zlarini go'yo uning barcha ayyorliklarini, ularga qarshi qilingan jamiyki yomonliklarini unutganday tutishgan¹³⁷. Shu yerda, Rashid ad-dinga ko'ra, tasodifan Munkexonning lochinbozi ularning fitnaomuz rejalaridan darak topgan¹³⁸. Mankuxon ularning bu rejaları va o'ylari, ayyorliklari haqida eshitib ular bilan aldov, makrhiylada bellashib, qotillikda ularni orqada qoldirgan. U tezda ular oldiga shiddatli

¹³⁴ Бартольд В.В. Ўша асар. – С. 560.; Бартольд В.В.Статьи из “Энциклопедия ислама” / Чагатай-хан . Т. II., Ч. I. - М.: Наука, 1963. – С. 540.

¹³⁵ Бартольд В.В. Ўша асар. – С. 560-561.

¹³⁶ Сарой – Боту давлатининг Волга дарёси бўйида жойлашган пойтахти.

¹³⁷ 39^b-جمال القرشي. الملحقات بالصرح.

¹³⁸ Рашид ад-дин. Т. II. 1956. – С. 133-135.

botirlarni hamda bir to‘da o‘g‘rilarni yuborgan. Tun kechasida ular to‘satdan uxlayotganlar ustiga hujum uyushtirganlar. Ularni o‘ldirib, qismlarga bo‘lib, qush va yirtqichlarga yemish sifatida tashlaganlar¹³⁹.

Guyukning vorislaridan xalos bo‘lgach u chig‘atoylarga yuzlandi. Bu vaqtga kelib ota taxtini Yisu-Manku ibn Chig‘atoy egallab, qo‘shinning boshida esa akasining o‘g‘li Bo‘ri turar edi. Yisu-Manku va Bo‘ri o‘sha vaqtda yetarli darajada qudratli davlat, hudud, hokimiyat, qurol-yarog‘, son-sanoqsiz hamda shijoatli qo‘shinga ega edi. Munke Chig‘atoylar haqida ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lgan – yetakchi vazirlardan biri bilan gaplashib, Chig‘atoyxon taxtiga Munkexon qarorgoxidagi Chig‘atoyning nevarasi Qora-Xulagu ibn Mituqon ibn Chig‘atoyni qo‘yish maslahatini oladi. Qora-Xulagu Munkexonning ona tarafidan qarindoshi bo‘lgan zavjasi O‘rkina xotun (Urqina) Surug‘toniy vositasida Munkexon oldiga borib, amakisi Yisu-Mankuning Qora-Xulaguning bobosi Chig‘atoy unga vasiyat qilib qoldirgan hokimiyatni tortib olgani va endi Munkexon bobosi Chig‘atoy taxtini qaytarib olib berishini so‘radi. Munkexon Qora-Xulaguga akasi Bo‘rini uning o‘zi bu chigallikni ochib berishi uchun oldiga chaqirtirib olishga ruxsat berdi. Qora-Xulagu yuborgan chopar katta akasi Bo‘ri ibn Mituqon oldiga yetib borib, uning inisi unga taxtni olib berishini yetkazgach, Bo‘ri o‘z amakisiga bo‘lgan muloqotini tezda o‘zgartirdi. Hokimiyat ilinjida uni go‘rga itarayotganlarini tushunmas edi. So‘ng ular Munkexon qarorgohi tomon bordilar. Ulardan birinchi bo‘lib Bo‘rini¹⁴⁰ qo‘lga oldilar, zanjirband etdilar va shu zahotiy oq uni xo‘kiz terisiga o‘rab aravaga ortilgan holda jallodga topshirdilar. Ularning hayoti shu tarzda yakun topdi¹⁴¹.

So‘ng Qora-Xulagu (Hudagu) bobosi Chig‘atoyning taxtiga Munkexonning topshirig‘i bilan Qora-qurumda o‘tirdi. U 640/1242-1243 yilda Munkexon davlati poytaxtidan o‘z davlati poytaxtiga qaytayotib vafot etdi¹⁴². Hokimiyat uning xotini O‘rkina xotun¹⁴³ va u paytlar juda yosh bo‘lgan o‘g‘li Muborakshoh qo‘liga o‘tdi. Xotunning hukmronligi – 9 yil va bir necha oyga qadar davom etdi¹⁴⁴.

Shundan so‘ng Munkexon hududi yanada o‘sdi: uzunligi Sharqdan boshlab toki uzoq g‘arbdagi Aqasagacha, kengligi ar-Rum, al-Faranj atroflaridan al-Hind, Az-Zinj taraflargacha¹⁴⁵. Munke taxtga kelib o‘zi uchun Botu xonadonini yaqin tutib hamkorlik eta boshlaydi. Bu hamkorlikning asosiy maqsadlaridan biri Botuning ilgaridan o‘z

¹³⁹ Таварих-и гузида-Нусрат-наме. – С. 109.

¹⁴⁰ Бўри 1251 йилда ўлдирилган. – Бартольд В.В. История Туркестана. Соч. Т. II. Ч. 1. – М.: Наука, 1963. – С. 74.

¹⁴¹ 40^a-40^b. جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁴² Ўша жойда.; Рашид ад-дин. Сборник летописей/ от персидского Ю.П.Верховский. Примечание Ю.П.Верховский и Б.И.Панкратов. Редакция проф. И.П.Петрушевский. Т. II. – М., - Л.: Наука, 1960. – С. 97.

¹⁴³ XIII-XIV асрга тегишли кўпгина тарихий манбаларда Чингизхон ва чингизийларнинг рафиқалари – Хотун (“малика”, “хоним”) атамаси билан аталган. – Султонов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана. – С. 16.

¹⁴⁴ 40^a. جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁴⁵ 40^b. جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

xududiga qo‘shib olishni niyat qilib yurgan Chig‘atoy ulusini batamom yo‘q qilish edi. Munkexon imperiya sarxadlarini Sirdaryogacha bo‘lgan yerlarni, Botu esa butun Movaraunnahrni qo‘shib oldi. Yerlik xalqlar uchun bu yangi bosqinchiliklar va yangi soliqlar degani ma‘noni anglatardi.

Imperiyani boshqarishda Munkexon bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Jumladan, Movaraunnahrda ham. Jamol al-Qarshiyga ko‘ra, u o‘z urug‘iga qilich ko‘targan va o‘z xonadoniga o‘tkir qilich sanchganlardan birinchisi edi¹⁴⁶. U O‘qtoy, Guyukxon singari Chig‘atoy ulusi hududlarini yana Ma‘sudbekka topshirdi. Soliq yig‘imida biroq ehtiyotkorlik bilan yondashdi. Zero, 1238 yildagi buxorolik Mahmud Tarobiy singari qo‘zg‘olonlarni oldini olish maqsadida darug‘achi, bosqoq, choparlar, lochinbozlar va shu kabi mavqe‘larga ega kishilar uchun *payza* hamda *yorliq* olish imtiyozlari ancha qisqardi. Mahalliy xalqning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda soliqlar joriy etildi. Biroq hamma hududlarda ham soliqlar bir xilda emasdi. Masalan, Xurosonda yiliga boy kishidan 7 dinor, kambag‘aldan 1 dinor aksincha, Movaraunnahrda esa boy kishidan 10 dinor va kambag‘aldan 1 dinor talab etilgan. *Qopchur* esa har yuz jon boshidan bir jon olingan. Yuz jon boshidan kam bo‘lganlardan qopchur olinmagan. Ushbu holat 60-yillarga qadar davom etdi. So‘ng yana Chig‘atoy xonadoni vakillari taxtni qaytib olishga intila boshladilar.

Xitoy mamlakatining Manzi shahri safarida ya‘ni, 658/1259 yilning boshida¹⁴⁷ Munkexon to‘satdan vafot etdi. Taxtga sulolaning ichki naslidan bo‘lgan Qubilay (Xubilay) ibn Tuli Hoqon sifatida o‘tirdi¹⁴⁸. Ammo bir vaqtning o‘zida Arig‘-Bo‘ka ham akasi Munkexonning taxtni Qora-Qurumda *shavvol* oyi 658/ sentyabr-oktyabr 1260 yilda bir qator amiru vazirlarning qarshiliklariga qaramay egalladi¹⁴⁹. Munkexon uni o‘zining o‘rinbosari sifatida Manziga qarshi yurush qilayotgan bir paytda qoldirgan edi. Arig‘-Bo‘ka taxtni vaqtincha egallab turdi, lekin unga xoinlik qilgani yo‘q. Shu o‘rtada o‘zaro oliy taxt kurashi boshlandi.

Rashid ad-dinga ko‘ra, Munkedan so‘ng Qubilay o‘z yoniga Abishka ibn Bo‘ri ibn Mitukan ibn Chig‘atoyni chaqirtirib O‘rkina xotunni o‘ldirib Chig‘atoy taxtni

¹⁴⁶ 40^a - جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁴⁷ Рашид ад-дин маълумотиға кўра – Мункахон ҳижрий 655 йилда (тахминан 1257 йилнинг 19 январ билан 17 феврал орасида, илон йилида) вафот этган. – Рашид ад-дин. Т. II. 1956. – С. 135.; Хитой манбаларида – 1259 йилда вафот этган. – Юань-Ши. Пер. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в средний Азии в древние времена. Т. I. – М.,-Л.: Изд-во АНСССР, 1950. Бартольд В.В. бўйича – Мунке-хон 1259 йилда вафот этган. – Бартольд В.В.Статьи из “Энциклопедия ислама” / Чагатай-хан . Т. II., Ч. I. – М.: Наука, 1963. – С. 541.; Тарихи Гузиде-и Нусратномада айтилишича – Хитой ҳудудида бўлаётган уруш вақтида қўшин ичида ўлат тарқалади. Мункахон ундан асраниш учун хаддан кўп миқдорда май ичади, оқибатда ўлади. – Таварих-и гузида-Нусрат-наме. – С. 110.

¹⁴⁸ 40^b-41^a - جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁴⁹ Бу даврга келиб (1260 й.) биз бир вақтнинг ўзида икки улў хоннинг мўғуллар империяси хоқони этиб тайинланганлигини манбаларда кўришимиз мумкин. Хубилай ибн Тули – Хитойда ва Ариғ-Бука ибн Тули – Мўғулистонда. – Бартольд В.В. Чагатай-хан. Т. II., Ч. I. 1963. – С. 541.; Бартольд В.В. Туркестан. Т. I. - М.: Наука, 1963. – С. 573.

egallashni amir etadi. Akasi bilan g‘animlik qilayotgan Arig‘-Bo‘ka esa uni qo‘lga olib Munkening o‘g‘li Asutoy qo‘li bilan qatl ettiradi. O‘z qarorgohida ushlab turgan Olg‘uni qo‘liga yorliq tutib Chig‘atoy taxtini egallashni amir etadi. Unga vazifa etib sarxadlarni Qubilay qo‘shinidan saqlash va Movaraunnahrda Arig‘-Bo‘ka qo‘shini uchun zarur bo‘lgan ozuqa g‘ami va ayniqsa soliqlarni to‘plash hamda unga yuborish yuklatiladi¹⁵⁰.

Olg‘u (Olg‘o‘y ibn Baydar ibn Chig‘atoy – *Jamol al-Qarshiy*)¹⁵¹ 659/1260-1261¹⁵² yilda taxtga o‘tirgach dastlab Oltin O‘rda mansabdorlarin birin-ketin yo‘qotib Chig‘atoy ulusini qayta tikladi; 15 minglik qo‘shini bilan Buxoro, Samarqandga o‘rnashib olgan jo‘jichilarni, qachonlardir chig‘atoychilarga qarshi chiqqan mahalliy zodagonlarni yo‘q qildi. Berkaxon bilan til birlashtirilganlikda ayblanganlar ichida buxorolik shayx Sayf ad-din Boharziyning ham farzandi bor edi. Ularni ham ayamadi.

O‘rkina xotun norozilik bildirib Arig‘-Bo‘ka oldiga uzoq muddatga ketib qoldi. Rashid ad-din va Jamol al-Qarshiylarning ma‘lumotiga ko‘ra, Olg‘uxon shunda ham Movaraunnahr boshqaruvini qo‘lga olishga shoshilmadi aksincha, Ma’sudbekka Movaraunnahrni butunlay nazoratsiz qo‘liga topshirish evaziga soliqlardan to‘planadigan daromad haqida qiziqdi. Olg‘uxon va O‘rkina xotun qaytib kelgach uning bilan o‘zaro nikohlaridan so‘ng xotunga bo‘lgan hurmatidan foydalanib Ma’sudbekdan Chig‘atoy ulusi g‘aznasiga katta miqdorda tushum tushdi. Bu orqali Olg‘uxon katta qo‘shin to‘plashga muyassar bo‘ldi¹⁵³. Buning sababi esa 661/1262-1263 yilda Movaraunnahrdan to‘plangan qo‘shin uchun ozuqa, qurol-aslahala, jangovar otlar hamda pullarni yuborishdan bosh tortib Arig‘-Bo‘ka yuborgan elchilarni qatl ettirdi¹⁵⁴.

Shundan so‘ng ikki o‘rtada katta janglar bo‘ldi. Dastlab ikki marotaba Olg‘uning qo‘li baland kelsada oxirida Olg‘u yengiladi. Arig‘-Bo‘ka Buxoro va Samarqandga kirib talon-taroj etib katta miqdorda qo‘shin uchun ozuqa, qurol-aslahala, jangovar otlar hamda moddiy boylikni qo‘lga kiritadi. Bir yil o‘tib oliy taxtni ko‘zlab akasiga qarshi turish uchun Movaraunnahrdan chiqib ketadi¹⁵⁵.

¹⁵⁰ Рашид ад-дин. Т. II. 1960. – С. 97.

¹⁵¹ Алгуй (Олғой, Олғуй) – тахминан 1264 ёки 1265 йилда вафот этган. – Бартольд В.В. Монголы до распада Чагатайского государства. Т. II., Ч. I. - М.: Наука, 1963. – С. 68.; Бартольд В.В. Чагатай-хан. Т. II., Ч. I. 1963. – С. 543.; Хондамир ўз асарида уни Бойдор ўғли Болиғуй деб ёзади. – Қаранг: История Монголов (От древнейших времен до Тамерлана). / Отв. ред. А.К.Муминов. Перевод с персидского, предисловие, примечания, подготовка факсимиле к изданию Василий Григорьев; сост. указателей У.А.Утепбергеновой. – Санктпетербург: Карл Край, 1834. – С. 112 с. (Хондамир. Хуласат-ул-Ахбар).

¹⁵² 41^a. جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁵³ Рашид ад-дин. Т. II. – М., - Л.: Наука, 1960. – С. 97.; 41^a. جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁵⁴ Рашид ад-дин. Т. II. – М., - Л.: Наука, 1960. – С. 97.

¹⁵⁵ Ўша жойда.

Olg‘u 662/1263¹⁵⁶ yilda vafot etgach taxtga *jumada as-soniy* 664¹⁵⁷/mart-aprel 1265 yilda Qora-Hulaguning O‘rkina xotundan¹⁵⁸ bo‘lgan o‘g‘li, musulmon Muborakshoh¹⁵⁹ o‘tirdi. Uning davrida ulus tarkibida ixtilof paydo bo‘ldi. Chig‘atoy va uning doirasidagi mo‘g‘ullar Yasoqqa ko‘ra er kishining joyi yer bilan shug‘ullanishda emas balki, saxroda degan qoidaga amal etib Movaraunnahrdan tashqarida istiqomat etar va ayniqsa barcha dinlarni hurmat etish keark bo‘lsada, mahalliy islom diniga o‘tishga qarshi edilar. Biroq Chig‘atoylardan Olg‘udan so‘ng yosh Muborakxon va Baroqxonlar islomni qabul qildilar. Bu tendensiya bir paytning o‘zida Jo‘ji xonadonida ham Berkaxon ibn Jo‘ji misolida (1266 y.) davom etganini aytib o‘tish joiz albatta.

Fikrimizcha, Chig‘atoy xonlari amalga oshirgan ushbu qadam ulusda boshqaruvni qo‘lga olishdagi ilk qadam deb hisoblangan desak mubolag‘a bo‘lmas. Boisi, taxtga o‘tirish marosimi har doimdek Ili daryosida emas, Movaraunnahrdan, aniqrog‘i Angren daryosi vodiysida amalga oshdi. Bu esa xonning mahalliy xalq yonida bo‘lmasa-da, unga yaqinroq joyda bo‘lish maqsadini bildirar edi. Umuman olganda bu ilk bora Chingizxon yaratib ketgan qadriyatlarining tanazzulga yuz tuta boshlaganidan dalolat berardi.

Zulxijja oyi 664/sentyabr 1265 yilda Xo‘jand atrofida Muborakshoh asr olindi va taxt Baroq ibn Yisu-Bo‘qa ibn Mitukan ibn Chig‘atoy qo‘liga o‘tdi¹⁶⁰. Buning uchun u amir-bitikchi bilan Muborakshohga qarshi fitna etgan edi va Baroq uni lochinbozlari boshlig‘i etib tayinlaydi¹⁶¹. Xonlik davrida u bir necha bor Xurosonga yurish qilgan, ammo Xulaguning (Gulog‘u) o‘g‘li Abak-Xon (Abaqaxon) tomonidan mamlakatdan xaydalgan. Buxoroga kelgach, u ham islomni qabul qiladi va tarixda Sulton G‘iyosiddin deb yodga olinadi¹⁶².

¹⁵⁶ Ўша асар. – С. 98.

¹⁵⁷ Мирзо Улуғбекнинг маълумотига кўра, Муборакшоҳ ибн Қора Ҳалоқухон вояга етгач, Амир Эжил (Ижил) ибн Амир Қоражар (Қорачор) Нўён барлос ёрдамида туркларнинг уди йилига мувофиқ санайи 662/1263 йилда Олғухонни ўртадан қўтариб, истиқлол билан хонлик тахтига ўлтирди. – Қаранг: Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи (*Британия музейи (Англия) қўлёзмаси. инв. № ADD 26190: Тарих-и арбаъ улус*). – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б. 187.

¹⁵⁸ Ўркина хотун (Туракина хотун) – Меркит қавмидан бўлиб, шохона ҳаётни севадиган, қасоскор ҳамда хунук аёл бўлган. – Султонов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана. – С. 43.; Шунингдек қаранг: Муъизз ал-ансаб (Прославляющее генеалогии). Том III. / Отв. ред. А.К.Муминов. Перевод с арабского-персидского, предисловие, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш.Х.Вохидова; сост. указателей У.А.Утепбергеновой. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2006.; Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Б. 186.; История Монголов. – С. 112. (Хондамир. Хуласат-ул-Ахбар).

¹⁵⁹ Муборакшоҳ – мўғуллар ичида биринчилардан бўлиб Ислom динини қабул қилган. – Бартольд В.В. Монголы до распада Чагатайского государства. Т. II., Ч. I. – М.: Наука, 1963. – С. 69.; Босворт К.Э. Мусульманские династии / Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. и примеч. П.А.Грязневича. – М.: 1971. – С. 198.; Шунингдек қаранг: 41^а. جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

¹⁶⁰ Бароқ ҳижрий 663 йил бошида/октябр 1264 йилда Ўзгандда Олғўй ва Ўркина-Хотуннинг барча бойликларини қўлга киритиб тахтга ўтирди. – Бартольд В.В. Туркестан. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 580.

¹⁶¹ Рашид ад-дин. Т. II. – М., - Л.: Наука, 1960. – С. 99.

¹⁶² История Монголов. – С. 112. (Хондамир. Хуласат-ул-Ахбар).

1271 yilda va nihoyat imperiya taxti O'qtoy xonadoniga qayta nasib etib Qaydu unda Hoqon bo'ldi. Bundan boshlab imperiya sarxadidagi barcha yerlarda uning siyosati amalga osha boshladi. Jamol al-Qarshiy uning haqida shunday ta'rif beradi: "... ayni damda Qaydu eng ziyrak va uddaburon hamda zamonamizning mohir siyosatdoni bo'lib kelmoqda. Kelishuvni hal etishda qo'li uzun, izzat-hurmat qilishda va yaxshi yomonni ajratishda yuqori darajali zot edi..."¹⁶³.

Baroqxon xonlik taxtida o'rtnashib olgach, uning bilan Qayduxon ibn G'ozi o'g'il ibn O'ktoy Hoqon o'rtalarida muxoliflik tushdi. Ko'p tortishuv va bahslardan keyin ikkalasi o'rtasida sulx tuzish yo'llarini qidirdilar. Baroqxon Qaydu madadi bilan Xuroson va Iroq mulkini oldi¹⁶⁴.

Al-Qarshiyning ta'kidlashicha, Baroq 670¹⁶⁵ /1271 yilning boshida 6 yillik hukmronligidan so'ng Mirzo Ulug'bek ta'rifiga ko'ra¹⁶⁶, falajlikdan vafot etgan. Qayduning topshirig'i bilan 671/1272-1273 yilda Niqboy ibn Sarbon ibn Chig'atoy Baroqdan so'ng taxtni egalladi. Biroq siyosiy nizolar sabab, Qayduning amri bilan 679/1280 yilda Bo'qa-Temur ibn Qadag'oy ibn Bo'ri¹⁶⁷ ibn Mitukan ibn Chig'atoy Niqboyini o'ldirib, o'rniga taxtga o'tirdi. Bo'qa-Temur uzoq hukmronlik qilib 680/1281-1282 yilda vafot etdi¹⁶⁸.

681/1282-1283 yilda Qayduning amri bilan Duva ibn Baroq hokimiyatni qo'lga oldi. Muqaddam otasi Baroqni ham taxtga ko'tarilishiga ko'maklashgan edi. Qaydu bilan Baroq o'rtasida hamkorlik hamda do'stlik aloqalari mavjud edi.

Niqboy va Bo'qa-Temurlar uzoq muddat hukmronlik qilgan bo'lsa-da, Qayduning soyasida hech qanday Chig'atoy nasli uchun ahamiyatli siyosatga yoki boshqaruv sohasiga oid amallar bo'lmadi. Manbalarda ham navbatdagi xon sifatida zikr etilgan xolos. Duvaxonga kelsak otasi Baroq boshlab bergan siyosatini davomchisi sifatida kerak bo'lsa, ulusni mustaqillikka olib borgan xon deb aytsak to'g'ri bo'ladi. Zero, uning haqidagi ma'lumotlar keyingi boblarimizdan alohida o'rin olgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dastlab Chingizxon o'zi yaratgan ko'plab imperiyani boshqarishdagi tartib-qoidalari farzandalari davrida qattiq rioya etildi. Biroq ularning vafotidan ko'p ham o'tmay imperiyada bosh-bashdoqlik sezildi. Bunda aynan Botu bilan Tulu va O'qtoy bilan Chig'atoy xonadonlari o'zaro hamkorlikda bir-birlariga qarshi chiqa boshladilar. Bu esa tomonlarning ko'proq yutuqlarga ega bo'lishi ilinjida

¹⁶³ جمال القرشي. الملحقات بالصراح. -42^a-41^b.

¹⁶⁴ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Б. 188.

¹⁶⁵ Хондамир ва Мирхо Улуғбекнинг зикрича Бароқхон 668 йилнинг охирида вафот этади. – Қаранг: Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Б. 187-191.; История Монголов. – С. 112. (Хондамир. Хуласат-ул-Ахбар).

¹⁶⁶ Тўрт улус тарихида Бароқнинг ўлими сабабчиси мифатида Қайдуга ишора этилаган. – Қаранг: Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Б. 191.

¹⁶⁷ Абишка номли ўғли ҳам бўлган. - Бартольд В.В. Туркестан. Т. I. – М.: Наука, 1963. – С. 573.

¹⁶⁸ 42^a-جمال القرشي. الملحقات بالصراح.

kerak bo'lsa avlodlar qadriyatidan ham voz kechish holatiga va uluslarning ichki hayotiga bilvosita aloqador bo'lgan boshqaruvini amalga oshirish tomon zamin tayyorladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. عبدالمحمد آيتي. تهریر تريخ وصاف/ به قلم عبدالمحمد آيتي. تهران، 1967/1346. ص. 434.
2. الملحقات بالصراح. جمال القرشي. Mahdum Vosiliy nomidagi ma'naviy meros fondi, №2. – 1285 [1868-69]. – 53 varaq.
3. Alaaddin Ata Melik Cuveyni. Tarih-i cihan gūşa. Çeviren: Doç.Dr. Mürsel Öztürk. Ankara, 1988.
4. Джамал ал-Карши. Мулхакат ас-Сурах / Перевод с арабского и примечания А.Саидова. – Душанбе: Ирфон, 2006.
5. Джувейни. Чингисхан. История завоевателя мира. – Москва: Магистр пресс, 2004. – 690 с.
6. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Полный свод истории) / перевод с арабского, примечания и комментарии П.Г.Булгакова, дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С.Камолиддина. Под редакцией д.и.н.,проф. М.М.Исхакова. – Т.: Узбекистан, 2006. – 790 с.
7. История Монголов (От древнейших времен до Тамерлана). / Отв. ред. А.К.Муминов. Перевод с персидского, предисловие, примечания, подготовка факсимиле к изданию Василий Григорьев; сост. указателей У.А.Утепбергеновой. – Санктпетербург: Карл Край, 1834. – 172 с. (Хондамир. Хуласат-ул-Ахбар).
8. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. – Т.: Фан, 1996.
9. Муъизз ал-ансаб (Прославляющее генеалогии). Том III. / Отв. ред. А.К.Муминов. Перевод с арабского-персидского, предисловие, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш.Х.Вохидова; сост. указателей У.А.Утепбергеновой. – Алматы: “Дайк-Пресс”, 2006.
10. Рашид ад-дин. Сборник летописей / перевод с персидского О.И.Смирновой, примечания Б.И.Панкратова и О.И.Смирновой. Под редакцией проф. А.А.Семёнова. Т. I-III. М., Л.: Наука, 1956-1963.

- 11.Таварих-и гузида-Нусрат-наме / Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений кандидата филол. наук А.М.Акрамова. – Т.: Фан, 1967.
- 12.Фазлаллах Рашид ад-дин. Джамии' ат-таварих / Критический текст А.А.Ромаскевича, А.А.Хетагурова, А.А.Али-Заде. Т. I., Ч. 1. – М.: Наука, 1965.
- 13.Юань-Ши. Пер. Бичурина Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в средней Азии в древние времена. Т. I. – М.,- Л.: Изд-во АН СССР, 1950.
- 14.Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi jahongusho (Jahon fotihi tarixi)/ Alouddin Atomalik Juvayniy; mas'ul muharrirlar H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: “MUMTOZ SO’Z”, 2015. – 504 b.
15. Ibn Batuta. Sayohatnoma. Tuhfat an-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfor. – Toshkent: “ShARQ”, 2012.
16. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi (*Britaniya muzeyi (Angliya) qo'lyozmasi. inv. № ADD 26190: Tarix-i arba' ulus*). – Toshkent: Cho'lpon, 1993.
- 17.Бартольд В.В. История Туркестана. Соч. Т. II. Ч. 1. – М.: Наука, 1963. – С. 74.
- 18.Бартольд В.В. Каракорум. Соч. Т. III. – М.: 1965. – С. 443-444.
- 19.Бартольд В.В. Монгольское завоевания. Т. II., Ч. I. - М.: Наука, 1963.
- 20.Бартольд В.В. Статьи из “Энциклопедия ислама”. Чингиз-хан. Т. V. – М.: Наука, 1968.
- 21.Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. - М.: Наука, 1963.
- 22.Бартольд В.В.Статьи из “Энциклопедия ислама” / Чагатай-хан . Т. II., Ч. I. - М.: Наука, 1963.
- 23.Бартольд В.В. Монголы до распада Чагатайского государство. Т. II., Ч. I. – М.: Наука, 1963. – С. 69.
24. Босворт К.Э. Мусульманские династии / Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. и примеч. П.А.Грязневича. – М.: 1971.
- 25.Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по средней Азии. – Москва: Наука, 1988.
- 26.Петров П.Н. Хронология правления ханов в Чагатайском государстве в 1271-1368 гг. (по материалам нумизматических памятников) // Тюркологический сборник 2007–2008. История и культура тюркских народов России и сопредельных стран. – Москва, 2009. – С. 294-319.

-
27. Султанов Т.И. Поднятые на белой кошме. Потомки Чингиз-хана. – Алматы: Дайк-Пресс, 2001. – 276 с.
 28. Султанов Т.И. Чингиз-хан и Чингизиды. Судьба и власть. – Москва: АСТ, 2006.
 29. Трепавлов В. В. Государственный строй Монгольской империи XIII в.: Проблема исторической преемственности. – Москва, 1993.
 30. Toshev N.I. Alouddin Juvayniyning “Tarixi jahongo‘sho” asari Markaziy Osiyoning XII-XIII asrlar tarixiga oid muhim manba: tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004.
 31. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 253.
 32. Sagdullaev A., Mavlonov U. O‘zbekiston davlat boshqaruvi tarixi (Qadimgi davrlardan XIX asrning o‘rtalariga qadar). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Akademia”, 2006. – B. 90.

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “RABI’ AL-ABROR” ASARIDA IJTIMOIY, AXLOQIY VA FALSAFIY MASALALAR TALQINI

To‘raev Laziz Abdivali o‘g‘li,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti,

turayevlaziz86@gmail.com

Nizomova Nigora Qosimjonovna,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

“Xorazm faxri” bo‘lgan Mahmud Zamaxshariy kelajak avlod uchun muhim bo‘lgan 80 dan ortiq asar yozgan. Ulardan biri jamiyatdagi barcha sohalarni o‘zida qamrab olgan, hajm jihatdan katta bo‘lgan “Rabi’ al-abror” asaridir. Mahmud Zamaxshariy “Rabi’ al-abror”da tabiat, jamiyat, tabobat, nabotot va hayvonot olamiga oid ko‘plab iqtiboslardan unumli foydalangan. Mazkur maqolada asarda keltirilgan arab, fors va yunon faylasuflarining ba’zi ijtimoiy, axloqiy va falsafiy iqtiboslari tarjimasi va tahlili amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar. *Ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, iqtibos, fazilat, do‘stlik, mu‘taziliylik, donolik, boylik, aql, ilm, jahl, g‘azab, saxovat.*

АННОТАЦИЯ

«Гордость Хорезма» Махмуд Замахшари написал более 80 произведений, важных для будущих поколений. Один из них «Раб аль-Аббар», который охватывает все аспекты жизни общества. Махмуд Замахшари использовал множество цитат из природы, общества, медицины, растения и животные «Раб аль-Аббар». В этой статье переводятся и анализируются некоторые социальные, моральные и философские цитаты арабских, персидских и греческих философов, цитируемых в пьесе.

Ключевые слова: *Социальный, философский, моральный, цитата, добродетель, дружба, мутазилизм, мудрость, богатство, интеллект, наука, гнев, ярость, щедрость.*

ABSTRACT

Mahmud Zamakhshari, the "Fakhru Khorezm", has written more than 80 works that are important for future generations. One of them is “Rabi’ al-Abrar”, which covers a wide range of areas of society and is large in size. Mahmud Zamakhshari in “Rabi’ al-Abrar” successfully used many quotations on nature, society, medicine, flora and fauna. This article translates and analyzes some of the social, moral, and

philosophical quotations of the Arabic, Persian, and Greek philosophers cited in the work.

Keywords: *Social, philosophical, moral, quote, virtue, friendship, mutazilism, wisdom, wealth, intelligence, science, anger, rage, generosity.*

KIRISH

“Rabi’ al-abror” asari muhim tarixiy-geografik manba bo‘lishi bilan bir qatorda u jamiyatdagi qator munosabatlarni qamrab olgan muhim ijtimoiy-falsafiy manba hamdir. Shu jihatdan asar yolg‘iz o‘zi yaratilgan davrning, qolaversa, bugungi ijtimoiy masalalarni o‘z ichiga olganligi bilan bebaho ahamiyatga ega. Asarda ijtimoiy, axloqiy masalalar bilan bog‘liq iqtiboslar mavzu jihatdan keng qamrovli va turli-tuman. Insonning kamoloti uchun zarur bo‘lgan fazilatlar to‘g‘risidagi iqtiboslar asarning katta qismini tashkil qiladi. U keltirgan iqtiboslarda kishining rivojlanishi, inson bo‘lib shakllanishi, kamolotiga yo‘naltirilgan ta‘limiy-tarbiyaviy bog‘liqlikni ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asarning faqatgina insoniy fazilatlariga xos bo‘lgan iqtiboslarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

Insonning yaxshi va yomon fazilatlariga oid iqtiboslar;

Do‘stlik, birodarlik va vatanga bo‘lgan muhabbat haqidagi iqtiboslar;

Ilm-ma‘rifat, donishmandlik, so‘zga chechanlik (hozirjavoblik) masalalariga oid iqtiboslar;

Din va diniy tartibotlar to‘g‘risidagi iqtiboslar;

Tarixiy shaxslarning ibratli hayotiga oid iqtiboslar.

Bu guruhlar tabiiyki o‘z ichiga ko‘plab axloqiy kategoriyalar, xususan, muhabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, ilm va ilmsizlik, g‘am-tashvish, vafo va xiyonat, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, adolat, vijdon, burch, or-nomus, qadr-qimmat, hayot ma‘nosi, baxt, omad kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bu tushunchalarning barchasi inson ma‘naviy olamiga ta‘sir etuvchi tushunchalardir. Mazkur axloqiy tushunchalarning barchasi Mahmud Zamaxshariy keltirgan pand-nasihatlari, ibratli o‘gitlarda o‘z ifodasini topadi.

Mahmud Zamaxshariy davr va ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda, jamiyat rivoji uchun o‘rinli deb hisoblagan, kishilar ehtiyoj sezadigan ko‘plab iqtiboslardan o‘z asarida foydalangan.

Keltirilgan iqtiboslar kishining go‘zal fazilatlarini egallashga, yaxshi amallarni bajarishga va yomon ishlarni bajarmaslikka chaqiradi. Qolaversa, asarda insonlarni

mehr-muhabatli bo‘lishga, halollikka, xayr-saxovatga, oqillikka, to‘g‘riso‘zlikka, saxiylikka, birodarlikka, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lishlikka undaydigan minglab nasihatlar alohida urg‘u berilgan. Mahmud Zamaxshariy o‘z asarida birinchi bo‘lib ijtimoiy masalalar sifatida do‘stlik, birodarlik mavzulariga o‘z e‘tiborini qaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alloma insoniyat uchun muqaddas qadriyat bo‘lgan do‘stlik fazilatiga to‘xtalib, kimlar bilan do‘st tutinish, do‘stlarni qanday sinash haqidagi iqtiboslarni asarning “Birodarlik, muhabbat, do‘stlik, aka-ukalar o‘rtasidagi munosabatlari, Alloh uchun sevishlik va yomon ko‘rishlik, qo‘shnichilik haqida”gi 12 bobida keltiradi. Zero jamiyatda kishilar kimningdir yordamiga muhtoj bo‘ladi, o‘zaro munosabat orqali hamda insonlarning bir-biriga yordam berishi natijasida ijtimoiy munosabatlar hosil bo‘ladi. Mahmud Zamaxshariy do‘stlikka doir hikmat sohibi hisoblangan Luqmon Hakimdan iqtiboslar keltiradi. Ma‘lumki, Luqmoni Hakim Dovud payg‘ambar davrida ming yil yashagan, undan ko‘p hikmatlarni o‘rgangan, mingta payg‘ambarga shogird tushgan va yana shuncha payg‘ambarga ustozlik qilgan shaxsdir.

Luqmoni Hakim: “Uch toifali insonlar uch holatda bilinadi, ular g‘azab chiqqanda yumshoq va muloyim bo‘la oladigan, urushda jasoratli bo‘la oladigan va muhtojlik paytda do‘st bo‘la oladigan insonlardir”, deya ta‘kidlaydi¹⁶⁹.

Demakki jamiyatda har bir inson o‘zini haqiqiy inson deb hisoblashi uchun donishmand fikricha yuqoridagi uch xususiyatga ega bo‘lmog‘i va uni amalda bajarmog‘i lozim. Bunday kishilar jamiyatda boshqalarga o‘rnak bo‘lishi va shu orqali ijtimoiy munosabatlar rivojiga ham hissa qo‘shgan bo‘ladi.

Mahmud Zamaxshariy do‘stlikka oid iqtiboslarni davom ettirib, asarning 25 bobida Luqmoni Hakim va Safvandan kishilar qanday fazilatlariga ega bo‘lgan insonlarni o‘zlariga do‘st tutmoqliklari va kimlarni haqiqiy do‘st deb bilishl mumkinligiga oid iqtiboslar keltiradi:

“Luqmoni Hakim aytadi: Kimsa bilan do‘stlashmoqchi bo‘lsang, uni jahlini chiqarib sina, agar jahli chiqqanda ham insof qilsa, demak u bilan aka-uka tutin, yo‘qsa, undan ehtiyot bo‘l”¹⁷⁰.

¹⁶⁹ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 436 саҳифа

¹⁷⁰ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 95а саҳифа

“Safvandan ¹⁷¹ so‘radilar: Qanday do‘st yaxshi? U shunday dedi: Kamchiliklarimni to‘ldiradigan, xatolarimni kechiradigan va uzrlarimni qabul qiladigan do‘st, yaxshi do‘stdir”¹⁷².

Asarning “Axloq, yaxshi va yomon odatlar, g‘azab va mehribonlik, zo‘ravonlik va muloyimlik, shafqatsizlik, yengil va og‘ir tabiatlilik haqida”gi 25 bobida insonlarning odob-axloqlarini ulug‘lanishiga, go‘zal sifatlarga ega bo‘lishlik masalalariga alohida urg‘u berilgan. E‘tibor beradigan bo‘lsak, axloqqa doir keltirilgan ko‘plab iqtiboslar yuqorida ta‘kidlanganidek, hadislar bilan bog‘liq. Jumladan 25 bobda keltirilgan birinchi iqtibos shuning jumlasidandir.

“Ibrohim ibn Al-Abbos aytadi¹⁷³: Allohga qasamki, agar Rasulullohning (s.a.v.) so‘zlari insonlarning yaxshiliklari bilan tarozini ikki pallasiga qo‘yilsa, albatta, Rasulullohning so‘zi og‘ir keladi. Ul zot shunday dedilar: “Sizlar odamlar orasida molu-dunyolaringiz bilan emas, odob-axloqlaringiz bilan ulug‘lanasizlar”¹⁷⁴.

Haqiqatdan ham axloq shaxs hayoti hamda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan insoniy fazilatdir. Inson axloqi orqali kamolotga erishadi, uning kamlototga erishishi o‘z navbatida jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. Mahmud Zamaxshariy fikrini davom ettirgan holda, inson taqdiriga oid quyidagi iqtibosni keltiradi.

Rasululloh (s.a.v.): “Go‘zal xulq Allohning rahmatidan, rizoligidan bo‘lgan yugandir (jilov), u o‘z sohibining burnidan o‘tkazilgandir. Bu yugan Allohning qo‘lida, Alloh uni yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi, yaxshilik va ezgulik esa, uni jannat sari yetaklaydi. Yomon xulq esa, Allohning azobidan, g‘azabidan yasalgan yugandir va u o‘z sohibining burnidan o‘tkazilgan. Bu yugan Shaytonning qo‘lidadir. Shayton uni yomonlikka undaydi, yomonlik esa o‘z sohibini do‘zax sari yetaklaydi”¹⁷⁵.

Ushbu bayonda Mahmud Zamaxshariy o‘z dunyoqarashini ham aks ettirgan deyish mumkin. Asarning 25 bobi allomaning mu‘taziliylik diniy e‘tiqodidan kelib chiqqan holda mazkur iqtibos bilan boshlangan. Ma‘lumki, mu‘taziliylar beshta asosiy tartibga amal qilishadi. Bular At-tavhid, Al-adl, Al-va‘d val-va‘id, Al-manzila baynal manzilatayn va Al-amru bil ma‘ruf van-nahyi ‘anil-munkar. Mu‘taziliylar aqidasi, xususan Al-va‘d val-va‘id tamoyiliga ko‘ra inson qilgan yaxshi amallari uchun Allohdan mukofot va aksincha yomon amallari uchun jazo oladi. Mazkur iqtibosda ham xayrli va ezgu amallar, yaxshiliklar hamda yetuk axloqqa ega bo‘lgan insonlar

¹⁷¹ Холид ибн Сафван арабларнинг машхур олими ва воизи.

¹⁷² ЎЗР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 446 саҳифа

¹⁷³ Иброҳим ибн Ал-Аббос (176-243 ҳижрий) машхур шоир, асли келиб чиқиши туркий бўлган, Сулий номи билан ижод қилган мутафаккир.

¹⁷⁴ ЎЗР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 926 саҳифа

¹⁷⁵ ЎЗР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 926 саҳифа

uchun ularga Alloh jannatni va'da qilsa, ba'zi bir insonlarning axloqsizligi, bilib-bilmay qilgan xato va gunohlari, qilgan yomon amallari uchun Alloh tomonidan azoblanishi va natijada Shayton uni do'zaxga yetaklanishi ta'kidlanmoqda.

Asarda axloqqa doir yana bir hadisdan iqtibos keltiriladi:

Hasan ibn Ali (r.a) rivoyat qiladi, "Rasululloh (s.a.v.) shunday deganlar: "Albatta kishi yaxshi xulqi bilan kunduzi ro'za tutib, kechasi namoz o'qib chiqqan kishining darajasiga erishadi"¹⁷⁶.

Mazkur hadis insonlarni yaxshi xulqli bo'lishlikka chaqirib, odob-axloqi go'zal inson farz amallarni bajarish maqomiga erishishni ko'rsatmoqda. Barcha farz amallarni bajarib, ammo xatti-harakati, xulqida kamchiligi bo'lgan kishi mukammal inson bo'la olmasligini mazkur hadis dalolat qilib turibdi.

Mahmud Zamaxshariy yunon faylasuflarining ezgu fazilatlar va yaxshi xislatlar haqidagi qarashlaridan ham iqtiboslar keltiradi. Asarning "Baxt, iqbol, tole, muvaffaqiyatsizlik, umidsizlik va yo'qotish haqida"gi 14 bobidan Aflotundan iqtibos keltiradi:

"Aflotundan so'rashibdi: Nega donolik va boylik birlashmaydi? U dedi: Mukammallik hurmati uchun"¹⁷⁷. Bundan ko'rinadiki donolik va boylik bir-biriga zid omillar. Har ikkisini ortidan quvgan inson o'z maqsadiga erisha olmaydi. Bu ikki omilning birlashishi birining mukammalligiga putur yetkazadi.

Alloma Mahmud Zamaxshariy ilm masalasida ham qator faylasuflardan iqtiboslar keltiradi:

"Bir faylasuf: sendan ilmدا ustun bo'lgan hamda jaholatda bo'lgan kishi haqqiga duo qil"¹⁷⁸. Bu yerda alloma o'zining falsafiy qarashlarini bayon etgan holda ilm yo'lida sendan o'zib ketgan, olim inson haqiga va ilmsiz, ma'rifatsiz kishi haqqiga duo qilishlikka, zora ikkinchi toifadagi kishilar ham oqil, dono va ma'rifatli insonlar bo'lishlikka da'vat etadi.

"Bir kishi Aflotundan so'rabdi: Qanday qilib shuncha bilim egallagansiz? Aflotun: Men umr bo'yi ichgan ichimligimdan ko'ra sham chirog'im uchun moyni ko'proq sarf qilganman"¹⁷⁹. Bu bilan alloma tugal bilimga inson uluksiz o'qish va davomiy ilm olish bilan yetishi mumkinligini ta'kidlagan.

¹⁷⁶ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 926 саҳифа

¹⁷⁷ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 536 саҳифа

¹⁷⁸ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 294а саҳифа

¹⁷⁹ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 295а саҳифа

“Ilm va unga amal qilish ruh va tana birligi sifatleri kabi bir-biriga foyda keltiradi”¹⁸⁰. Bu yerda ilm va unga amal qilish bamisoli ruh tanani tiriltirgani singari amal ilmni tiriltirishi g‘oyasi ilgari surilgan.

Bundan tashqari asarda farzandning ilm olishiga otaning beqiyos o‘rni haqida alohida iqtibos keltirilgan:

“Galen (Jolinus) Afina xalqiga o‘z o‘g‘liga ilm o‘rgatmagan otaga o‘g‘li uchun otalik haqi yo‘q dedi”¹⁸¹.

Mahmud Zamaxshariy Xusrav I Anushervonning vaziri Buzurgmehrdan¹⁸² ham iqtiboslar keltiradi. Asarning “Taajjub, qiziq voqealar va ajoyibotlar haqida”gi 55 bobida Buzurgmehr aytadi:

“Buzurgmehrdan so‘rashibdi, Dunyodagi eng bilimdon inson kim? U dedi: Dunyodan kim boshqalardan ko‘ra kamroq ta‘jub qilsa o‘sha inson oqil insondir”¹⁸³.

Asarning “Aql, farosat, olijanoblik, fikr-mulohaza, tajriba va oxirgi natijasiga qarash haqida”gi 57 bobida Buzurgmehrdan yana iqtibos keltiriladi:

“Aql sharafidan boshqa sharaf va ruh boyligidan boshqa boylik yo‘q”¹⁸⁴. Mazkur keltirilgan iqtibos ham mu‘taziliylik aqidasi tamoyillariga mos keladi, bunday iqtiboslarni alloma Mahmud Zamaxshariy ataylab, o‘z e‘tiqodidan kelib chiqib, ulardan unumli foydalangan.

“Buzurgmehrdan so‘radilar: Eng mukammal inson kim?” U dedi: “Yomon ishlarga bajarishga his-tuyg‘ularini jilovlay oladigan va o‘zining juda aqlli ekanligidan bexabar insonlar mukammal insonlardir”¹⁸⁵.

Mahmud Zamaxshariy asarda insondagi yomon illatlar bo‘lgan jahl va g‘azab haqida ham bir nechta iqtiboslar keltiradi, jumladan:

“Ahnaf aytadilar: Jahlni bosishga sarflangan kuch intiqom olish uchun sarflangan kuchdan afzalroqdir. Jahlni bosishga qilingan sabr erkaklik sanaladi. Kimda kim bir so‘zga sabr etmasa bir necha so‘zlar eshitadi”¹⁸⁶.

Mahmud Zamaxshariy jamiyatga bir nafi tegmaydigan, biror bir fazilatga ega bo‘lmagan insonni qoralab, asarda shunday iqtibos keltiradi:

“Podshoh vaziridan so‘rabdi: Inson uchun eng qadrli narsa nima?

Vazir aytibdi: Uning aqli.

¹⁸⁰ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 295б саҳифа

¹⁸¹ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 295а саҳифа

¹⁸² Хусрав I Анушервоннинг илм-фанга эътибори кучли бўлган дон вазири, давлат арбоби

¹⁸³ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 199а саҳифа

¹⁸⁴ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 202б саҳифа

¹⁸⁵ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 203б саҳифа

¹⁸⁶ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 95а саҳифа

Podshoh: Agar aqli bo‘lmasachi?

Vazir: Uning odob-axloqi.

Podsho: Bu deganlari ham bo‘lmasachi?

Vazir: Unda uning boyligi (Bu yerda boylik orqali boshqalarga yaxshilik qilish va saxovat ko‘rsatish nazarda tutilmoqda).

Podsho: Agar uning boyligi ham bo‘lmasachi?

Vazir: Undan ko‘ra chaqmoq yaxshi, chunki chaqmoq u insonni kuydirib, u inson yashaydigan mamlakatni va uning aholisini unday insondan qutqargan bo‘ladi”¹⁸⁷. Umuman olganda, har bir inson yuqorida keltirilgan fazilatlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Ilm egallash, ta’lim olish Mahmud Zamaxshariy asarida markaziy nuqtada turadi. Har bir inson o‘z o‘rniga, hurmatga va obro‘-e’tiborga ega bo‘lmoqchi bo‘lsa albatta ilmli bo‘lishi lozim. Mahmud Zamaxshariy asarning “Ilm-hikmat, odob, kitob, qalam va shular bilan bog‘liq narsalar haqida”gi 60-bobida Buzurgmehrdan yana iqtibos keltiradi:

Buzurgmehrdan: “Nima uchun ustozingni otangdan afzalroq hurmat qilasiz? – deb so‘radilar. Chunki otam meni o‘tkinchi dunyoga, hayotga olib kelgan bo‘lsa, ustozim menga boqiy, oxirat hayotini ato etdi”¹⁸⁸.

“Salafiylar ilm to‘rt xil bo‘ladi deyilar: Din uchun fiqh (huquqshunoslik), tana uchun tibbiyot, vaqt uchun yulduzlar (astronomiya) va til uchun nahv (grammatika)”¹⁸⁹. Abbosiylar davrida ilm mazkur to‘rt guruhga bo‘lingani va o‘sha davr allomalari ilmlar tasnifini mana shu to‘rt sohaga qarab ajratishgan.

Bundan tashqari hijriy IV asrda yozilgan, shialar orasida mashhur hadis manbasi bo‘lgan Ibn Shu‘ba al-Harroniyning “Tuhaf al-u‘qul”¹⁹⁰ kitobida ham ilmlar tasnifini ko‘rish mumkin. Mazkur kitobda ilmlar uch guruhga ajratilgan. Ular din uchun fiqh, tana uchun tibbiyot va til uchun nahv (grammatika).

“Yunonlar qiz va o‘g‘illariga dinni meros qilib qoldirishdi va ular aytadilar: bilim olish unga boylik keltiradi, ilm izlash pul to‘plashdan afzaldir, ibratli o‘git va hikmatli so‘zlar va ularga amal qilish va ilm egallash ularga turli ne‘matlarni va imkoniyatlarni beradi”¹⁹¹.

“Suqrot dan so‘rashdi, Odob-axloqli kishidan odob-axloqsiz kishini qanday farqi bor? Suqrot aytdi: Gapiradigan hayvon bilan gapirmaydigan hayvonni o‘rtasidagi

¹⁸⁷ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 676 саҳифа

¹⁸⁸ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 3026 саҳифа

¹⁸⁹ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 294а саҳифа

¹⁹⁰ <http://shiaonlinelibrary.com/>. ص-208. تحف العقول. ابن شعبة الحراني.

¹⁹¹ ЎзР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 3016 саҳифа

farq”¹⁹². Mahmud Zamaxshariy yunon faylasuflarining ushbu iqtiboslarini keltirib, o‘zining ham ilmiy-falsafiy qarashlarini shular orqali ifoda etgan.

“Rabi’ al-abror” asarida mehr-muruvvat, xayr-saxovat kabi fazilatlar ulug‘langan iqtiboslar ham ko‘plab uchraydi. Mahmud Zamaxshariy saxiylik borasida islomgacha bo‘lgan davrda yashagan, arab shoiri va mutafakkiri Aqdam ibn Sayfiyning o‘gitlaridan ham iqtiboslar keltiradi:

“Saxiylikdan kechmang, u obro‘-e‘tibor, hurmatning boshlanishidir”¹⁹³. Bu ibratli o‘git orqali Mahmud Zamaxshariy insonlarni yuksaklarga ko‘taruvchi, ulug‘ maqomlarga erishishda asosiy omil bo‘lgan saxiylikka chaqiradi.

Mahmud Zamaxshariy Xusrav I Anushervondan ham iqtiboslar keltiradi.

“Anushervondan so‘rashibdi, “Barchaga birdek saxiylik qilish deganda nima tushunasiz? Bu barchaga yaxshi tilaklarni bildirish va ularga tabassum qilish, degan ekan”¹⁹⁴.

XULOSA

“Rabi’ al-abror” asarida berilgan axloq va ijtimoiy masalalar bilan bog‘liq mavzular faqat o‘z zamonasi uchun muhim bo‘lib qolmasdan bugungi kunda ham dolzarb ekanligini o‘tib borayotgan vaqtning o‘zi ko‘rsatmoqda. Asardan yuqoridagi kabi iqtiboslarni tarjima qilish, ularni talqin etib, keng kitobxonlarga yetkazish jamiyatimizda mehru oqibat, sahovat, bilim, ta‘lim olish singari masalalarni yechishga ham ko‘mak beradi.

Muhimi asarda to‘plangan iqtiboslar orqali Mahmud Zamaxshariy o‘z zamonasi va o‘zigacha bo‘lgan allomalarning ma‘lumotlarini avlodlarga yetkazishda tarixiy ko‘prik vazifasini bajarib berganligi ham e‘tiborga molik.

REFERENCES

1. Mahmud Zamaxshariy. “ربيع الأبرار ونصوص الأخبار” “Rabi’ ul-abror va nusus ul-axbor”. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasi. № 2384.
2. <http://shiaonlinelibrary.com>

¹⁹² ЎЗР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 301б саҳифа

¹⁹³ ЎЗР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 204а саҳифа

¹⁹⁴ ЎЗР ФА ШИ. Қ.№ 2384. 349б саҳифа

ANALYSIS OF LITERARY WORKS OF MUHAMMED RIZA AGAHI

Dildora Azodovna Baxadirova

Lecturer at the Department of Western Languages,
Tashkent State University of Oriental studies

Khusnutdinova Azizabonu Jakhongirovna

1st year student of TSUOS

ABSTRACT

Muhammad Rizo Erniyozbek oglu Agahi, as a famous historian of the Uzbek people, a famous poet of his time, a skilled translator, presented his works and poems not only in Uzbekistan, but also in Central Asia and the world. Thoughts are given about a versatile and prolific scientist, a mature thinker, who played an important role in his legacy. The analysis of his historical works is described in detail in an artistic form.

Keywords: *great scientist, mature thinker, Central Asia, famous poet, skilled translator, classification of works, poems, scientific heritage, manuscript, analysis of works.*

АННОТАЦИЯ

Мухаммад Ризо Эрниеzbek оғлу Агахи, как известный историк узбекского народа, известный поэт своего времени, искусный переводчик, представил свои произведения и стихи не только в Узбекистане, но и в Средней Азии и мире. Речь идет о разностороннем и плодотворном ученом, зрелом мыслителе, сыгравшем важную роль в его наследии. Подробно описан анализ его исторических произведений в художественной форме.

Ключевые слова: *великий ученый, зрелый мыслитель, Средняя Азия, известный поэт, опытный переводчик, классификация произведений, стихи, научное наследие, рукопись, анализ произведений.*

INTRODUCTION

Muhammad Rizo Erniyozbek oglu Agahi as a famous historian of the Uzbek people, a famous poet of his time, a skilled translator, with his works and poems is great not only in Uzbekistan, but also in the whole Central Asian and world scientific heritage. he was a versatile and prolific scholar, a mature thinker. Agahi was born in 1809 and studied Arabic, Persian, Turkish and classical literature at Khiva madrassas. From a very young age, Muhammad Reza was raised by his uncle, Munis, a well-

known historian and the country's chief of staff. In the house of Munis, the leading scholars and poets of his time often gathered and talked, and it was in this environment that Muhammad Riza took part in the conversations of famous poets and scholars of Khorezm, fans of literature. He studied the classics of the East, especially Navoi. At the same time, he was a great help to his uncle, and learned the secrets of the industry. That is why Munis died in 1829. Khiva khan Allakulikhan (1825-1842) appointed 20-year-old Muhammad Riza as the chief mirab of the palace, and from that time onwards the Agahi were engaged in the life of the people and the affairs of the palace. He visited many villages and got acquainted with the life, problems and dreams of the common people - farmers, artisans, and this is reflected in his work. His uncle Munis Khorezmi (Amir Avazbi's son Shermuhammad) played an important role in its formation.

RESULT AND DISCUSSION

Munis was a historian, scholar, translator, poet, calligrapher and enlightener. He was a scholar of Arabic, Persian, and Turkic literature, well versed in music and history, a skilled calligrapher, and well versed in Kufic, Rayhani, and Shikasta. Munis Khiva khan on behalf of Eltuzarkhan began to create a valuable historical work on the history of Khorezm "Firdavsul-iqbol". When Munis wrote his work before the reign of Shergozikhan, Eltuzarkhan died and Muhammad Rahimkhan I, who succeeded him to the throne, ordered Munis to continue the work. Munis continued his work "Firdavsul-Iqbol", which included the ancient history of Khorezm, the political history of the Khiva Khanate, relations with the Turkmen and Karakalpak peoples, socio-economic and cultural life, diplomatic relations with Bukhara, Kokand khanates, Russia and trade relations, irrigation in the khanate, and described the life and work of the scholars and poets who lived at that time. The work ends with a description of the events of 1813. Because in 1819, the khan ordered Munis to translate Mirkhand's famous historical work "Ravzat us-safo" into Uzbek. In this regard, Munis stopped writing Firdavsul-iqbal and translated the first volume of Ravzat us-safo into Uzbek, while continuing the second, first Muhammad Rahimkhan I and in 1829 Munis himself reaches When the next ruler of the Khiva khanate, Allakulikhan, ascended the throne, between 1839 and 1840, he ordered Agahi, a student of Munis, to continue Firdavsul-Iqbal, which had been discontinued in 1813. During this period, Muhammad Riza Agahi, who was 30 years old, continued the work "Firdavsul-Iqbal" started by his teacher Munis but not completed. Firdavsul-Iqbol, co-authored by Munis and Ogahi, explores the history, culture, art, customs, and way of life of the Uzbek, Tajik, Kazakh, Turkmen, Karakalpak, Russian, Iranian, and Afghan peoples living in the region. It serves as an important resource in the study. Continuing the tradition of Khorezm historiography,

Agahi created a number of works on the history of the later periods of the Khiva khanate. His Riyaz ud-Dawla (1844), Zubdat ut-Tavorix (1846), dedicated to the time of Rahimqulikhan, and Jome'-ul-Vojoti Sultani, dedicated to the time of Muhammad Aminkhan. (1856), "Gulshani Davlat" (1865), dedicated to the time of Sayyid Muhammadkhan (1865), "Shahidi Iqbol" ("Witness of Iqbol") dedicated to the time of Muhammad Rahimkhan Feruz, the Khiva khanate from 1813 to 1874. The history of the region was covered in chronological order, based on rich historical sources. He lived during the reign of eight khans who came to the throne of Khiva, witnessed military campaigns and historical events, and reflected them in his works. For example, in the first part of his work "Zubdatu-t-tavorix" Rahimkulikhan's birth, study and acquisition of military skills, as well as his activities as the ruler of Khazarasp in the artistic form are described in detail. explained. The second part of the work, 186, reflects the events that took place from the day of Rahimqulikhan's accession to the throne until his death.

In it, the ruler of Khiva Rahimqulikhan is praised for his virtues, his knowledge of many sciences, his compassion for citizens and, in general, the enlightenment of the Khiva khans, his special attention to the development of literature, art and science. is emphasized. Agahi's works provide interesting information about the social history and life of indigenous peoples, their daily activities, the construction of mosques and madrasas, political events - popular uprisings, the history of wars, and historical figures - scientists, poets and writers. The text of the works is characterized by a combination of poetry and prose. Each historical event is narrated in an artistic way, and in accordance with the image and spirit of each event, it is used in the form of poetic fragments, masnavi, qita, byte, rubai, fard.

Agahi's historical works, which shed light on the events of the Khiva Khanate from 1813 to 1873, are based on rich sources and geography, rich in ethnographic information. Agahi also developed Munis' traditions in this field. Munis and Ogahi co-authored Firdavsu-l-Iqbal and his five works on the history of Khorezm, not only the history of the Uzbek people, but also the history and culture of the fraternal Tajik, Kazakh, Turkmen, Karakalpak, Russian, Iranian and Afghan peoples. , art, customs, psychology, the origin of these peoples, the source of their livelihood, also serves as a source in the study of the history of the tribes. It is noteworthy that these works were written by talented poets, progressive writers Munis, Agahi, and included the history of peoples, life, daily activities, construction of mosques, madrasas, descriptions of various events, popular uprisings, history of wars, great people, scholars, poets, writers, and the like are presented in prose, poetry on a realistic basis, accurately, clearly. With

his historical works, Agahi created a valuable historical chronicle that covers more than half a century of Khorezm and made a significant contribution to the development of historiography in Central Asia. He lived and worked during the reign of eight successive khans. He took part in the military campaigns of the khans, saw all the events with his own eyes, and later accurately reflected them in his historical works. Muhammed Reza Agahi was a very prolific and versatile scholar. In addition to creating a large collection of poems and six historical works, he also created 187 works in the field of translation. Agahi has translated a total of 19 works of art, history and other genres from Persian into Uzbek.

CONCLUSION

He translated another Ottoman Turkish work into Uzbek. Of the 27 works, 23 have survived in large numbers. Agahi's ideas, imbued with a high humanitarian spirit, influenced the political and enlightenment upbringing of the khan and poet Feruz. As a historian, he wrote poems dedicated to the khans of Khiva and great historical figures. Agahi's Qasidai Nasihat is dedicated to Feruz. In his sermons, he shows the way to the rule of the kingdom, the way to govern the country and the people with justice. Khan Agahi's wise verses were inscribed on marble and placed in tombs. Agahi translated more than twenty works from Persian into Uzbek. As a skilled translator, Munis published volumes 2-3 of Mirkhand's "Ravzat us-safo", Muhammad Mahdikhan's "Nodirnoma" (5 volumes), Sharafiddin Ali Yazdi's "Zafarnoma", Muhammad Yusuf Munshi's "Tazkirai Mukimkhaniy", Rizokulikhon Hidoyat's "Ravzat", us-safai Nasiriy ". Agahi's work was of great importance not only to his contemporaries, but also to the next generation of historians.

REFERENCES:

1. Baxadirova D.A., Khusnutdinova A.J. Analysis of historical works of Muhammed Riza Agahi. International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technologies. November 10th 2021 <https://academiascience.org/>
2. Munirov Q. Historiography in Khorezm :: (XVI-XIX and early XX centuries). - T., Ghafur Ghulam Publishing House of Literature and Art, 2002.
3. Munis and Ogahi. Firdavs ul-iqbal. -T., 2010. P.467.
4. Munirov Q. Historical works of Munis, Ogahi and Bayani. - T.: Fan, 1960.
5. Muhammad Rizo Erniyozbek oglu Ogahi. Zubdatu-t-tavorix / Prepared and published by N.Jabborov. -T., 2009.

KOREYS TILIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING ETIMOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Dilnavoz Xamidova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy izlanuvchisi

dilnavozkhamidova23@gmail.com

ANNOTATSIYA

O‘zlashma so‘zlar jahonning barcha tillarida mavjuddir. Ular turli leksemalar, iboralar, turg‘un o‘xshatishlar yoki frazeologizmlardan iborat bo‘lib, odatda o‘zaro yaqin aloqalar, savdo-sotiq, globallashtirish, mustamlaka bo‘lish kabi sabablar natijasida chet tilidan kirib keladi va boshqa tilga o‘zlashganda, ko‘pincha bu so‘zlarning yozilishi, talaffuzi va mazmunida o‘zgarishlar yuz beradi. Bu maqolada koreys tilining o‘z ichki xususiyatlari natijasida paydo bo‘lgan neologizmlar va boshqa chet tillardan kirib kelgan ba‘zi o‘zlashma so‘zlar hamda ularning etimologiyasi va semantikasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma, etimologiya, koreys tili, leksema, o‘zlashma so‘zlar, neologizm.

THE SEMANTIC AND ETYMOLOGICAL PECULIARITIES OF THE LOANWORDS IN KOREAN LANGUAGE

Dilnavoz Khamidova

dilnavozkhamidova23@gmail.com

researcher of Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

ABSTRACT

The borrowed words are available in all the languages of the world. They consist of the lexemes, phrases, idioms, or phraseologies, generally originating from a foreign language as a result of close ties, commercial affairs, globalization, colonization, and when they are assimilated into another language, the content of these words can be changed. This article discusses some neologisms that have arisen as a result of the intrinsic characteristics of the Korean language and borrowings from other foreign languages, as well as their etymology and semantics.

Keywords: assimilation, etymology, Korean language, lexeme, borrowed words, neologism.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАНИЙ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Дильнавоз Хамидова

dilnavozkhamidova23@gmail.com

научный сотрудник Ташкентского государственного университета
востоковедения, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Заимствованные слова доступны на всех языках мира. Они состоят из лексем, словосочетаний, идиом или фразеологий, происходящих, как правило, из иностранного языка в результате тесных связей, торговых связей, глобализации, колонизации, и при их ассимиляции в другой язык содержание этих слов может изменяться. В данной статье рассматриваются некоторые неологизмы, возникшие в результате внутренних особенностей корейского языка и заимствований из других иностранных языков, а также их этимология и семантика.

Ключевые слова: ассимиляция, этимология, корейский язык, лексема, заимствованные слова, неологизм.

KIRISH

Koreys tilida chetdan o‘zlashgan so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin. Ammo ularning qaysi tildan o‘zlashganligini aniqlash qiyin. Sababi koreyslar chetdan o‘zlashgan so‘zlarni o‘z talaffuziga moslashtirib olishadi. Ya’ni koreys tilida o‘zlashma so‘zlarni ifodalovchi ayrim tovushlar yo‘qligi sababli unga yaqin tovush qo‘llaniladi. Agar ular asl tilda bo‘lgani kabi yozilsa va ishlatilsa, bu xato bo‘ladi, chunki zarurat bo‘lmasa, “ikki tilni aralashmaslik maqsadga muvofiq va har bir tilning o‘z ichki qonuniyatlari mavjud va ularga bo‘ysuniladi”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Neologizmlar haqida yozilgan ilmiy maqola va tadqiqot ishlaridan kelib chiqib o‘zlashgan so‘zlarni moslashish darajasi va qo‘llanishiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin (Tyson 1993; Usmanova 2014, 2020; Baxronova 2021).

Chet tilidan o‘zlashgan leksemalar. Ular boshqa tillardan olingan asl so‘zlar bo‘lib, qabul qiluvchi tilga deyarli bir xil fonetik moslashuvlar bilan talaffuz qilinadi. Yozuvda o‘zlashma so‘z aynan kiritilsa ham asl imloning qabul qiluvchi tilida qanday o‘qilishiga qarab o‘zgaradi, ya’ni qabul qiluvchi til fonetikasiga moslashadi. Chet

tilidan o‘zlashgan leksemalarni ham o‘z o‘rnida shartli ravishda quyidagilarga bo‘lib o‘rganadilar: a) *moslashmagan o‘zlashma so‘zlar*. Ular boshqa tillardan olingan, qabul qiluvchi tilning orfografiyasiga moslashmagan so‘zlardir. Uning talaffuzi, bu so‘zlovchining kelib chiqish tilini bilishiga bog‘liq. Masalan: apparat, kompyuter; b) *moslashgan o‘zlashma so‘zlar*. Odatda bunday leksemalar qabul qiluvchi til qoidalariga moslashadi. Masalan: xakker, gol (ing.: goal). c) *ksenizmlar* – *Ksenizm* termini yunoncha so‘z bo‘lib, “begona so‘z, hech qanday o‘zgarishsiz yozilgan yot so‘z” ma’nolarini anglatadi. Odatda bunday so‘zlarning ekvivalenti mavjud bo‘lmaydi. Masalan: lord, tolibon, software.

Semantik kalka so‘zlar deganda, chet tilidan kirib kelgan so‘zlar (iboralar) qabul qiluvchi tilning o‘z leksikasi bilan o‘zlashtiriladi, yoki tarjimai qabul qilinishi tushuniladi. Masalan, “*Yangi yil bilan*” (“*S novim godom*”), *ultratovush*, *qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi* va h.k.

NATIJARLAR

Tillarga kirib kelgan neologizmlar va allaqachon o‘zlashib o‘z so‘zga aylangan o‘zlashma leksemalarning etimologik va semantik xususiyatlarini o‘rganish bevosita lingvokulturologik va lingvogeografik tadqiqotlarga manba vazifasini o‘taydi. Quyida koreys tiliga turli chet tillardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar – neologizmlarni etimologik-semantik jihatdan tahlil qilib o‘tamiz. So‘zlarning koreyscha varianti bilan birga qavsda transkripsiyalari keltirildi:

크로와상 [Khirovasang]: Koreys tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan ushbu leksema aslida fransuzcha *croissant* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yarim oy” degan ma’noni anglatadi. Ushbu so‘zning etimologiyasi Usmonlilar imperiyasining Yevropa davlatlari ustidan qozonilgan g‘alabasi bilan chambarchas bog‘liq. Yarim oy shaklidagi qarsildoq *kroasan* ilk bor Vena shahrida g‘oliblar sharafiga atab pishiriladi. Keyinchalik fransuzlar tomonidan takomillashtirilgan va turk bayrog‘ining xarakterli timsoli sifatida namoyon bo‘lgan bu ajoyib taom tezda Yevropada ommalashib ketganligi sababli barcha tillarda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Boshqa tomondan olib qaraydigan bo‘lsak, kroasan fransuzcha *croître* fe‘lining hozirgi zamon shakli bo‘lib, “o‘shish” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni “yarim oy” kroasanni to‘lin oyga qarab o‘shish holatidagi oy sifatida ham tushunish mumkin. Manbalarda fransuzcha *croître* fe‘li lotincha *cresco* (*crescere-crevi-cretum*) fe‘lidan olingan bo‘lib, u ham “o‘shish” degan ma’noni anglatishi yoritilgan. Shuningdek, “yarim oy” ma’nosini anglatuvchi inglizcha so‘z *crescent* so‘zi lotincha *cresco* (*crescere-crevi-cretum*), *crescens* fe‘lining hozirgi zamon sifatdoshini o‘zgartirish orqali yaratilgan so‘z ham hisoblanadi.

Shunday qilib, “yarim oy” degan ma’noni anglatuvchi inglizcha *crescent* leksemasi va fransuzcha shirinlik nomi *croissant* bir xil etimologiyaga ega.

샴푸 [Shyampu]: Ushbu leksema koreys tiliga ingliz tilidagi “*shampoo*” soʻzidan oʻzlashgan. “Tabassum qiluvchi gul” degan ma’noni anglatuvchi “함소화” *hamsohva* Janubi-Sharqiy Osiyoda “참파카” *champaka* deb ataladi. Hindlar uzoq vaqt davomida sochlarini xushboʻy champaka gulidan olinadigan ladan (baʼzi oʻsimliklardan olinadigan, diniy marosimlarda tutatiladigan xushboʻy smola) sovundek koʻpiklanuvchi modda bilan yuvganlar. Ushbu leksema hind tilidagi “champo” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “massaj qilmoq” yoki “siqmoq” maʼnosini bildiradi. Ingliz tilidagi “*shampoo*” soʻzi esa *champo* soʻzidan olingan boʻlib, soch yuvish uchun ishlatiladigan suyuq sovun yoki sochni shampun bilan yuvish degan ma’noni anglatadi. Bugungi kundagi suyultirilgan sovun shampunini Yaponiyaning “Takeuchi Kodo” degan dogʻlarni ketkazuvchi suyuq yuvish vositasini ishlab chiqaruvchi firma boshligʻi ilk bor tayyorlagan. Soch va bosh terisini yuvish uchun dastlab suyuq sovundan tayyorlangan ushbu modda qoʻllanilishi haqida oʻylab koʻrsak, bu nom mantiqiy tuyuladi. Demak, bugun koreys va oʻzbek tillarida qoʻllaniluvchi “shampun” soʻzi hindcha *cāmpnā* soʻzidan olingan boʻlib, “sochni siqish, bosish, yuvish” degan ma’noni anglatadi.

요구르트 [Yoguriti]: Koreys tiliga ingliz tilidagi *yoghurt* leksemasidan oʻzlashgan bu soʻz, aslida, fransuzcha *yaourt* soʻzidan kelib chiqqan. Bu fermentlangan sutning bir turi boʻlib, bugʻlash orqali uning hajmini yarmigacha kamaytirish va keyin unga achitqi qoʻshish orqali tayyorlanadi. Biroq, bugungi tilshunoslikdagi ayrim tadqiqotlarda, lugʻatlarda bu soʻzning turkiychadan kelib chiqqanligi qayd etilmoqda. “Yogurt” soʻzi turkcha “yoğurmak → yoghhurt” feʼlidan olingan boʻlib, “qotmoq, quyugʻlashmoq” maʼnolarini beradi. Oʻzbek tili izohli lugʻatida ham *yogurt* leksemasi inglizchadan, u oʻz oʻrnida turkchadan kelib chiqqanligi yoritilgan (2, OʻTIL, I T: 371).

팬티 스타킹 [Penti staking]: Ushbu atama koreys tiliga ingliz tilidan oʻzlashgan boʻlib, 팬티- ingliz tilidagi *pantyhose* soʻzining qisqarib oʻzlashgan varianti “kolgotki”, 스타킹- ingliz tilidagi *stocking* “uzun paypoq, chulki” maʼnolarini anglatadi. Bu elastikligi yuqori ipak, neylon, spandex (lycra, elastan) kabi nozik matolardan tikilgan xotin-qizlar garderobidan mustahkam oʻrin olgan ichki kiyim – *kolgotki* nomidir. Oʻzbekchaga *kolgotki* varianti rus tili vositasida kirib kelgan, ammo bu termin aslida chex tilidagi *kalhoty* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, *shim* maʼnosida tarjima qilingan. Bu soʻzning shimga bogʻliqligini quyidagicha izohlash mumkin, yaʼni oʻtmishda Yevropada erkaklar orasida yopishib turuvchi shim – *kalhoty* kiyish urf boʻlgan.

Keyinchalik 19-20 asrdan kolgotki shim ma'nosini yo'qotib, ayollar kiyimi sifatida muhim o'rin egalladi.

피자 [Pija]: Dunyo taomiga aylangan pitsa koreys tiliga inglizcha *pizza* so'zi orqali o'zlashgan. Aslida, "pizza" so'zi yunoncha *Pitta* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tekis yoyilgan" yoki "yumaloq va yassi non" degan ma'noni anglatadi. Neolit davrida ko'chmanchilar iste'mol qilgan non pitsaning prototipi bo'lganligi, qadimgi Yunoniston xalqi pishirgan non pitsaga aylangani, qadimgi Rimliklarning taomi bo'lgan degan nazariyalar mavjud. Italiyaning go'zal port shahri sanalgan Neapol pitsaning vatani sifatida tan olinadi. Biroq yaqinda italiyalik olim buni rad etib, "pitsa" so'zi hujjatlarda ilk bor qayd etilgan joy sifatida Neapolga tutash Latsio shahrini ko'rsatib o'tdi. Britaniyaning "Independent" jurnali oziq-ovqat tarixini o'rganuvchi Juzeppe Nokaning so'nggi izlanishlarida ham Latsio "pitsa"ning kelib chiqish Vatani degan fikr qo'llab-quvvatlandi. O'zbek tili izohli lug'atida ushbu atamaga yupqa xamir ustiga go'sht, qo'ziqorin, sabzavotlar, pishloq qo'yib pishiriladigan italyancha taom deya ta'rif berilgan (2, O'TIL, I T: 268).

챌린지 [Chellinji]: Koreys tiliga *challenge* (chaqiriq, qiyinchilik) so'zi ingliz tilidan kirib kelgan. Ushbu leksema aslida lotincha so'zdan kelib chiqqan va u "tuhmat, g'iybat" ma'nolarini anglatgan. Britaniya va Amerika kontekstlarida "challenge" so'zi "katta qiyinchilik", "og'ir ahvol" yoki "e'tiroz" degan ma'nolarni bildirib, ijobiy ma'noda kelmagan. Bugungi kunda ushbu so'z insonning qobiliyatini sinovdan o'tkazadigan chaqiriq ma'nosida, ko'pincha musobaqalarda, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez tilga olinmoqda. So'nggi paytlarda juda ko'p qo'llanilayotgan ushbu leksema orqali butun mamlakat bo'ylab mahalliy hokimiyat organlari turli g'oyalarni targ'ib qilmoqda.

장르 [Changni]: Koreys tiliga ingliz tilidagi "genre" so'zidan o'zlashgan bo'lib, "janr, tur" ma'nolarini anglatadi. Bu so'zning etimologiyasi lotincha "kelib chiqish" yoki "tur" degan ma'noni anglatuvchi "*genus, generis*" so'zlari bilan bog'liq. 12- asrda fransuz tilidagi *genre* so'zi aslida lotincha hisoblanadi, 14-15-asrlarda bu so'z "tur" va "usul" ma'nolarida qo'llanilgan, 17-asrga kelib esa "moda", "did" mazmunida ishlatila boshlangan. Bugungi kunda ushbu atama adabiyot, musiqa, kino, animatsiya, o'yin, badiiy asarlarni katta toifalarga birlashtirib, mazmunini belgilashda yoki tasniflashda qo'llaniladi. O'zbek tili izohli lug'atida **janr** atamasi fransuzcha *genre* so'zidan kelib chiqib, jins, tur ma'nolarini bildirishi, san'at asarlarining syujet va uslub jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan har bir turini anglatib kelishi ko'rsatilgan. (O'TIL, II T: 72).

XULOSA

Qisqa qilib aytganda, dunyo tillarining barchasi tarixiy taraqqiyoti davomida oʻzga tillardan soʻz qabul qilish – neologizmlardan mustasno emas. Neologizm deganda biz “tilning lugʻat tarkibiga til tarixining maʼlum bir davrida kiritilgan, boshqa tilga xos yoki qabul qiluvchi lisonning lingvistik vositalari yordamida oʻzlashtirilgan, oddiy yoki murakkab shaklli yangi birlik sifatida koʻrsatilishi mumkin boʻlgan leksemalar/jumlalar”ni tushunamiz.

Bu soʻzlarning etimologik tadqiqi tilshunoslik va atamashunoslik sohalariga qiziqarli faktlarni taqdim etadi. Shuningdek, biz neologizmlarni koʻrib chiqish davomida nafaqat oddiy, balki murakkab shakllarni (birikmalarni) ham oʻz ichiga olishini kuzatdik. Muayyan soʻzlashuvchilar guruhiga mansub neologizmlar bilan hammaga tegishli ommabop neologizmlar bir xil maʼno va maqomga ega boʻlmasligi mumkin.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Bakhronova, D. (2021). COVID-19 and Higher Education. The globalization of e-learning. *Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades*, 6(28), 62-69. <https://doi.org/10.46652/rgn.v6i28.809>
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati (A. Madvaliyev tahriri ostida). – Toshkent, 2006-2008.
3. Usmanova, S. (2014). Altay Dillerindeki Bazı Ev Gereç Adları Üzerine. *İlmî Araştırmalar : Dil, Edebiyat, Tarih İncelemeleri*, (25), 97–103. Geliş tarihi gönderen <http://dergi.fsm.edu.tr/index.php/iadeti/article/view/595>
4. Usmanova, Sh., Ismatullayeva, N. (2020). “Expression Of Lacunas In Comparative Study Of Kinship Terms In Chinese And Uzbek Languages.” *Solid State Technology*: n. pag. Print.
5. Бахронова, Д. К. Гендер и целевые концептуальные гендерные стереотипы / Д.К. Бахронова // Сборник трудов III Междунар. науч.-практ. конф. «Гендерные исследования в гуманитарных науках». – URL: <http://sibac.info/20188>
6. Бахронова, Д. К. Испан ва ўзбек тилларига ўзлашган неологизмларнинг тарихий-семантик тадқиқи / Д.К.Бахронова, Н.О.Абдурахматова. – Текст. // Молодой ученый. – 2021. – № 52 (394).
7. Орленко Л.В. Терминологический словарь одежды. 1996. <http://modnaya.ru/articles/dictionary/glossary-of-clothing/index.htm>
8. Tyson, R. English Loanwords In Korean: Patterns Of Borrowing And Semantic Change// *El Two Talk*, Vol 1., No. 1, Arizona University, Spring 1993, pp. 29-36. <https://journals.uair.arizona.edu/index.php/AZSLAT/article/view/21459>

9. <https://fringilla - pinso.livejournal.com/181729.html>
10. <https://m.blog.naver.com>
11. <https://namu.wiki>
12. <https://www.arborea1956.com/prodotti/yogurt/>
13. <https://www.joongang.co.kr>

НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О ВЗИМАНИИ ТОРГОВЫХ ПОШЛИН У КАРАКАЛПАКОВ В XIX-ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XX ВВ.

Акимниязова Гулназ Абдинайимовна

Нукусский государственный педагогический институт им. Ажинияза
g_akimniyazova@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрена система обложения торговыми пошлинами, существовавшая у каракалпаков во второй половине XIX – первой четверти XX вв. Основной акцент сделан на взимание торговых пошлин в двух крупных торговых городах каракалпаков – Ходжейли и Кунград. Приводятся существовавшие на изучаемый период виды налогов, сведения об их взимании, лица, занимавшихся сбором налогов, а также величина налога.

Ключевые слова: Каракалпаки, торговля, налог, маклер, закят, пошлина, купец.

ABSTRACT

The article considers the system of taxation of trade duties that existed among the Karakalpaks in the second half of the XIX - first quarter of the XX centuries. The main emphasis is placed on the collection of trade duties in two major trading cities of Karakalpaks - Khojeyli and Kungrad. The types of taxes that existed for the studied period, information about their collection, persons engaged in tax collection, as well as the amount of tax are given.

Keywords: Karakalpaks, trade, tax, broker, zakat, fee, merchant.

ВВЕДЕНИЕ

В Центральной Азии, как и в других мусульманских странах, существовала своя система обложения торговыми пошлинами. Вопросы налогообложения в Центральной Азии активно изучались исследователями. Отдельные аспекты этой проблемы получили освещение в историко-экономических трудах, где анализировались перспективы торговли, уровень производительности, денежное обращение, фискальная политика и пр. [1,2,3,4,5]

Налогом с торговли облагались, как внутренние торговые операции, так и внешние. Пошлины, которыми облагались товары, имели разную величину, в зависимости от того импортный или местный товар. Внутренние товары облагались одними пошлинами, импортные – другими. Обложение налогами с

международной торговли производилось при въезде в город. Торговцы, останавливались в назначенном месте, где и производился досмотр и оценка товара. На территории Каракалпакии такими пунктами в XIX – начале XX вв. были Ходжейли и Кунград. В исследовании Г.А. Михалёвой, отмечается, что торговые караваны, идущие из России, останавливались в Ходжейли, «где чиновники, высланные главным сборщиком налогов, осматривали товары и пропускали купцов в караван-сарай. После досмотра товары оценивались, с них взывалась пошлина. Иногда ее размер, вместо установленных по шариату 2,5% доходил до 40%; исключение составляли бараны, за каждого из которых постоянно взымали по полтаньги» [5, с. 47].

ОБСУЖДЕНИЕ РЕЗУЛЬТАТОВ

В Кунград приезжали купцы из Казахской степи и берегов Волги. В свою очередь, многие ремесленники и торговцы Кунграда ездили в Россию, особенно в города южного Урала и побережья Волги. Среди местных жителей до сих пор сохранились сведения о том, что ремесленники и торговцы Кунграда и других городов ездили для торговли на Макарьевскую ярмарку в Нижний Новгород. Кунградцы на лодках через Амударью, и на двухколесных арбах через сухопутные дороги ездили в Куня Ургенч, Хиву и продавали там рыбу, хлопок, продукты скотоводства (кожа, шерсть, жир и т.д.). Оттуда уже везли текстиль (атлас, шёлк и т.д.) [6, с. 11].

Что касается внутренних торговых дел, то за возможность продавать свою земледельческую, животноводческую, рыбоводческую и ремесленную продукцию на базаре, каракалпаки платили налоги. Это, в первую очередь, налог на торговлю *саўда салыгы* или *закят*. Кроме того на базаре существовали следующие виды налогов: плата за использование весов *тәрәзи пул*, плата за услуги посредника (маклера) *далдәлиши ҳақы*, плата за место *тағжай* (*орын пул*).

Торговый налог *закят*, взимаемый за различные виды товаров, привезенных для реализации на крупных городских базарах, а также проданный скот, собирался отдельными сборщиками налогов *бажман*. Учет *закята* в крупных городах и нескольких базарах, контроль над сборщиками налогов производился *хакимом* по месту расположения базара. Некоторые сведения о контроле над сбором налогов у каракалпаков в 60-е годы XIX века, точнее сказать о лицах, приведены в работе О. Жалилова. Он пишет, за сбор *закята*, *божа* (пошлина, базарный налог) в Ходжейли отвечал Атанияз ходжа. Ведение расчетов по *закяту* и разным торговым налогам Чимбайского базара и контроль над ним, был под ответственностью Фазыл махрама или Юсуф махрама [4, с. 65].

Имена сборщиков налогов на территории расселения каракалпаков, приведены в работе другого автора. В частности, М.Й. Йулдошевым отмечается, что «В Шорахане учет по закятam, взимаемым у торговцев «бухорчи» и «кальчачи» вели Мухаммад Ниёз девонбеги и Корахон махрам без книги учета», «Учет налогов по Чимбайскому базару вели ясовулбоши и Пахлаван Ниёз девон. У них была книга учета» [7, с. 65]. Исходя из этой информации можно утверждать, что в одном только Чимбае сбором пошлин во II половине XIX века занимались Махмуд ясовулбоши, Фазыл махрам, Юсуф махрам, Пахлаван Ниёз.

На крупных базарах, сборщики торговых пошлин подразделялись на категории: занимавшиеся сбором налога у ремесленников, те, кто собирал *закят* с товаров, и те, кто занимался сбором налога за содержание лавки. Назначались они местным правителем *хакимом*. Взимать налоги имели право только чиновники *бajман* и откупщики налогов. Контроль за сбором *закят* и все деньги, полученные *бajман* и откупщиками налогов на базарах большого города, и наблюдение за *бajман* возлагалось на *хакима* и *мехрема*¹⁹⁵ [8, с. 35].

За использование места на территории базара или лавки, с каждого торговца или ремесленника взимался налог *тагжай* в полтора *шахий*¹⁹⁶. В крупных городах сбор налога за место (лавку) тоже назначался правителем города: «Еще люди *аталык-ака*¹⁹⁷ с каждого ремесленника взимали *тагиджай* в размере одного *шахий* и 1/2 *шахий*» [8, с. 35].

Одним из обременительных налогов был налог на весы. На базарах были отдельные весы и весовщики, которые взвешивали продаваемую на базаре продукцию - пшеницу, кунжут, кукурузу, хлопок. Деньги за весы взимались исходя из вида и цены проданного товара [4, с. 65]. А.С. Садыков отмечает, что эта пошлина взималась независимо от того, взвешивались ли продаваемые товары на базарских весах или нет. Этот налог требовали даже за те товары, которые невозможно было взвесить [9, с. 107]. Сведения об этой категории лиц, произволе, и бесконтрольном взимании пошлины приведены у О. Джалилова: «Были специальные весовщики, измеряющие с помощью весов продаваемые на базаре сельскохозяйственные продукты. Они, заблаговременно взяв на откуп весовой сбор, получали весь сбор непосредственно в свое распоряжение. Откупная система порождала всевозможные злоупотребления

¹⁹⁵ Мехрем – сборщик налога с торговых караванов

¹⁹⁶ Один шахий равен 5 серебряным тенге. Один шахий при переводе на русские деньги составляет 25 серебряных монет.

¹⁹⁷ Аталык – высокопоставленный чиновник

откупщиков, из-за которых весовой сбор намного превышал действительную его стоимость» [8, с. 35].

Одной из интересных и колоритных фигур на традиционном базаре являлся маклер *далдалиши*. Сбор пошлины за услуги маклера для торговцев являлся обязательным. Независимо от того, участвовал ли посредник во время сделки между продавцом и покупателем, взимались комиссионные, составлявшие от 1 тенге до 20 золотых.

ВЫВОДЫ

Судя по нашим полевым материалам, в функцию *далдалиши* входили не только посреднические услуги, но и реклама товара, а также поиск потенциального покупателя: *«Такие люди в базарный день зарабатывали хорошие деньги. Со словами: "Ал саудасы келди, бахасы шықты, әкел қолды, ур шаппаты" (Спрос есть, цена установлена, давай ударим по-рукам, совершим сделку), - брали в оборот «малоопытных» продавцов»* [10].

В 1873 году комиссионные посредников составляли на Кунградском базаре составляли 150 золотых, Ходжейлийском - 700 золотых, Чимбайском - 500 золотых, Шуроханском – 150 золотых, Шайхабазз – Вали – 100 золотых, Рахимбердибий 100 золотых [4, с. 66].

В XIX – начале XX веков система обложения налогами торговцев велась без четкого учета, хотя существовали фиксированные налоговые пошлины, они не всегда соблюдались. С установлением после 1917 года нового режима начинаются работы по усовершенствованию фискальной системы. Однако, некоторые виды налогов, продолжают существовать и ныне (*орын пул, тәрези пул*).

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства, Генерального штаба полковника Данилевского //ЗИРГО. Кн. V. СПб. 1851;
2. Небольсин П.Н. Очерки торговли России со Средней Азией. СПб. 1855;
3. Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 году. Путевые заметки. СПб., 1868;
4. Жалилов О. XIX – XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихидан. Тошкент, 1986;
5. Михалева Г.А. Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII- первой половине XIX века. Ремесло, торговля и пошлины. Ташкент: ФАН, 1991.
6. Есбергенов Х. Қоңырат. Тарийхый ҳәм мәдений естеликлери. Нөкис, 1993.

-
7. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Тошкент, 1959.
 8. Джалилов О. Новый документ о взимании закята у каракалпаков // Вестник ККФАНРУз. 1969, №4.
 9. Садыков А.С. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX – начале XX вв. Ташкент. 1965.
 10. Полевые материалы автора, 2021. № 12. Пирназарова Айгул.

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА МАТЕМАТИК ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Саидова Нигора Олимовна

Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Фаргона давлат университети.

Рустамова Шохсанам Шухратжон кизи

Мактабгача таълим йуналиши талабаси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада мактабгача ёшдаги болаларда математик тушунчаларни шакллантиришнинг замонавий технологиялари ҳақида фикр-мулоҳазалар билдирилди.

Калит сўзлар: *Элементар, метод, математика, фаолият, материал, кичик гуруҳ, дидактика, ўйин, тасаввур*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются современные технологии формирования математических представлений у дошкольников.

Ключевые слова: *Элементарный, метод, математика, деятельность, материал, малая группа, дидактика, игра, воображение.*

ABSTRACT

This article discusses modern technologies for the formation of mathematical representations in preschoolers.

Keywords: *Elementary, method, mathematics, activity, material, small group, didactics, play, imagination.*

КИРИШ

Элементар математик тасаввурларни шакллантиришда амалий метод етакчи метод ҳисобланади. Унинг моҳияти болаларнинг буюмлар ёки уларнинг ўрнини босувчилар (тасвирлар, график расмлар, моделлар ва ҳ. к.) билан ишлашнинг жиддий аниқланган усулларини ўзлаштиришга йўналтирилган амалий фаолиятларини ташкил қилишдан иборат.

Мазкур усул махсус машқлардан фойдаланишни назарда тутди. Бу машқлар кўрсатиш учун белгиланган материал шаклида, ташкил қилиниши ёки

тарқатма материал билан мустақил иш кўринишида топширик шаклида берилиши мумкин.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Машқлар ҳамма болалар бир вақтда ёки битта бола доска ёки тарбиячининг столи олдида бажарадиган якка тарзда бўлиши мумкин. Ҳамма болалар бажарадиган машқлардан билимларни ўзлаштириш ва мустаҳкамлашдан ташқари, назорат қилиш учун ҳам фойдаланиш мумкин. Якка-якка тарзда бажариладиган машқлар ҳам ўша вазифаларни бажаради-ю, аммо улар болалар фаолиятида йўналиш оладиган образ (намуна) сифатида ҳам хизмат қилади. Улар орасидаги боғланишлар вазифаларининг умумийлиги билангина эмас, балки доимо алмашилиб келиши, қонуний равишда бир-бирларининг ўрнини босиши билан ҳам аниқланади.

Ҳамма ёшдаги гуруҳларда бажариладиган машқлар ўйин элементлари кичик гуруҳда — сюрприз момент кўринишида, ўхшаш ҳаракатлар, эртақ қаҳрамони ва ҳ. к. дан иборат бўлади. Катта гуруҳларда бундай машқлар изланиш, мусобақа характерини олади.

Машқлар болаларнинг ёшига қараб қийинлаштириб борилади. Улар бир неча бўғинлардан ташкил топади. Ўқув-билиш мазмунига оид ўйин-машқлар муаммо шаклида эмас, кўпчилик ҳолларда, уларни бажариш учун тасаввур бўйича ҳаракат қилиш, топқирликни намойиш қилиш, ақллиликни кўрсатиш талаб қилинади.

Масалан:

Тарбиячи кичик гуруҳдаги болалардан ҳар қайси қуённи сабзи билан сийлашни таклиф қилади.

Катта гуруҳдан болалардан эса, доскага осиб қўйилган карточкадаги доирачалар нечталигини айтишни, гуруҳ хонасидан худди шунча буюм топишни, карточкадаги доиралар миқдори билан гуруҳдаги буюмлар миқдори тенг эканини исботлашни таклиф қилади. Агар биринчи ҳолда машқ шартли ажратилган битта бўғиндан иборат бўлса, иккинчи ҳолда 3 та бўғиндан иборат бўлади.


Комплекс машқлар энг самаралидир, чунки, улар дастурнинг ҳар хил бўлимларига доир масалаларни бир вақтда бир-бири билан таркибан бирга ҳал қилиш имконини беради.

Болаларнинг ёши катталашиши билан машқларни бажаришдаги мустақилликлари ортади. Мактабгача таълим ёшидаги болаларнинг мустақил фаолиятларини ташкил қилувчи ва йўналтирувчи оғзаки кўрсатмалар,

тушунтиришлар, ойдинлаштиришлар роли орта боради. Болалар топширикни, машқни бажарганларидан кейин ўз ҳаракатларини ва ўртоқларининг ҳаракатларини, ўзини-ўзи ва ўзаро текширишни ўрганадилар. Элементар математик тасаввурларни шакллантиришда ўша ўқитишнинг мустақил усули сифатида намоён бўладн. Аммо уни амалий усуллар гуруҳига киритиш ҳам мумкин. Бунда ҳар хил ўйинларнинг, ҳар хил амалий ҳаракатларнинг, масалан, қисмлардан бутун тузиш, шакллар қаторлари, санок, устига ва ёнига қўйиш, гуруҳлаш, умумлаштириш, таққослаш каби ҳаракатларни ўзлаштиришдаги алоҳида аҳамияти ҳисобга олинади.

Дидактик ўйинлардан энг кўп фойдаланилади. Бола билиш мазмунини ўйин шаклига кирган ўргатувчи масалани (ўйин мазмунида), ўйин ҳаракатлари ва қоидалари олдиндан назарда тутилмаган ҳолда ўзлаштиради. Дидактик ўйинларнинг ҳамма тури (буюмли, столда ўйналадиган босма ва оғзаки турлари) элементар математик тасаввурларни шакллантиришнинг самарали восита ва усуллари дир. Буюмли ва оғзаки ўйинлар математика машғулотларида ва улардан ташқарида ўтказилади, столда ўйналадиган— босма ўйинлар одатда машғулотдан бўш вақтларда ўтказилади.

Ҳаракатли усуллар ва уларга мос тасаввурлар шаклидаги билимларни болалар машғулотдан ташқари вақтда олади, ўйинлар (сюжетли — дидактик, дидактик ва бошқа хил ўйинлар) да эса шу билимларни аниқлаштириш, мустаҳкамлаш, системалаштириш учун яхши шароитлар яратилади.



ХУЛОСА

Элементар математик тасаввурларни ўргатиш ва шакллантириш методи машғулотларда ҳар хил турдага ўйинлардан, унинг алоҳида элементларидан (сюжетли-ролли, ҳаракатли ва б.), усулларида (сюрприз момент, мусобақа, излаш), ўйин ва дидактик бошланншларни катталарнинг раҳбарлик ва ўргатувчи роли ҳамда болаларнинг билимини фаоллаштиришни таркибан бирга қўшиб олиб боришдан фойдаланишни назарда тутди.

Фойдаланилган адабиётлар (REFERENCES)

1. Абдуллаева С. 6-7 ёшли болаларнинг мактаб таълимига тайёргарлик даражасини аниқлашда тест усулидан фойдаланиш. // «Мактабгача таълим», 2002, 1-сон. –10-12-б.
2. Алимов Н. Мактабгача ёшдаги болаларни математик таълимга тайёрлаш. // «Мактабгача таълим», 2005, 2-сон. –7-10 б.
3. Жумаев М. Болаларда математик тушунчаларни ривожлантириш назарияси ва методикаси. – Т.: «Илм Зиё», 2005. –223- б.

“TURKISTON VILOYATINING GAZETI”DA USMONIYLAR IMPERIYASI VA BOLQON DAVLATLARI MUNOSABATLARI TALQINI

Egamberdiev Abduvahob Abdurasul o‘g‘li

TDSHU 2-bosqich tayanch doktoranti

abduvahob2017@mail.ru

ANNOTATSIYA

Turkiston davriy matbuotida xorijda chop etilgan maqola va xabarlar doimiy ravishda bosib turilgan. Ayniqsa, Turkiyada ro‘y bergan siyosiy voqealar diqqat bilan kuzatib borilgan.

Mazkur maqolada XIX asr oxirida Bolqon yarim orolidagi mahalliy xalqlarning Usmoniylar imperiyasi zulmiga qarshi ozodlik harakatlarining “Turkiston viloyatining gazetini”da qanday talqin qilinganligi ochib berilgan. Mazkur voqea-hodisalar yuzasidan “Turkiston viloyatining gazetini”da yigirmadan ortiq qisqa xabar hamda tahliliy maqolalar nashr etilgan. Shuningdek, G‘arb matbuotida ushbu jarayonlar qanday talqin etilganligi keltirib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:** Bolqon yarim oroli, Usmoniylar imperiyasi, Serbiya, Usmon poshsho, Skobelev, Murod V, Yusuf posho, Graf Dyula Andrashi, Bodkuba, Milan Obrenovich, Mehtar posho, Chernogoriya.*

АННОТАЦИЯ

На страницах периодической печати Туркестана регулярно были опубликованы статьи и сообщения, напечатанные в зарубежных изданиях. В частности, внимательно следили за политическими событиями в Турции.

В статье раскрывается интерпретация “Туркестон вилоятининг газетини” освободительного движения Балканских народов против гнета Османской империи в конце XIX века. Об этих событиях опубликовано более двадцати сообщений и аналитических статей на страницах “Туркестон вилоятининг газетини”. В нем также упоминается, как западная пресса интерпретировала эти процессы.

***Ключевые слова:** Балканский полуостров, Османская империя, Сербия, Осман-паша, Скобелев, Мурад V, Юсуф-паша, граф Дюла Андраши, Бодкуба, Милан Обренович, Мехтар-паша, Черногория.*

ABSTRACT

The periodicals of Turkestan regularly publish articles and reports published abroad. In particular, political events in Turkey are being closely followed.

The article describes how the liberation movements of the indigenous Balkan peoples against the oppression of the Ottoman Empire at the end of the 19th century were interpreted in the newspaper of the Turkestan region. More than twenty brief reports and analytical articles have been published about these events in the Turkestan native newspaper. It also mentions how the Western press interpreted these processes.

Keywords: *Balkan Peninsula, Ottoman Empire, Serbia, Osman Pasha, Skobelev, Murad V, Yusuf Pasha, Count Gyula Andrashi, Bodkuba, Milan Obrenovich, Mehtar Pasha, Montenegro.*

KIRISH

XIX asr o'rtalariga kelib xalqaro munosabatlar jahondagi gegemon davlatlarining nigohi Bolqon yarim oroli va Usmoniy turk imperiyasiga qaratildi. Endilikda Usmoniylar imperiyasini zaiflashtirish uning mustamlakalariga egalik qilishga qaratilgan harakatlar bu davr xalqaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatiga aylandi. Bu masalada birinchi navbatda Rossiya imperiyasi va Avstriya-Vengriya manfaatlari to'qnash keldi.

Rossiya imperiyasini tashqi siyosatda ancha agressiv harakat qilishga undadi, to'g'ri, Yevropa mamlakatlari ham jim qarab turishmadi jumladan, Buyuk Britaniya va Fransiya o'z navbatida Germaniya ham bunga turli qarshiliklar ko'rsatib keldi, chunki bu hududlarda Rossiyaning hukmron bo'lishiga toqat qila olmas edi. Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi. Buyuk davlatlar Turkiya ichki ishlariga aralashishni tobora kuchaytirdilar. Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustaxkamlanib olishga urinishlari 1853-yilda Sharq urushini keltirib chiqardi. Bu urush Rossiya tarixiga Qrim urushi nomi bilan kirgan. Rossiya podshosi Nikolay I sultondan Rossiyani Turkiya imperiyasiga qaram o'lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlarining xomiysi ekanligini tan olishini talab etdi. Buyuk Britaniya va Fransiya sultonni bu talabni rad etishga undadilar. Oqibatda Rossiya - Turkiya urushi boshlandi. Urushda Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik koalitsiyasi g'alaba qozondi. Biroq bu g'alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiya qaramligini yanada kuchaytirdi. Urush natijasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasi Turkiya ustidan amalda G'arb davlatlarining "xomiyli"ni ta'minladi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko'chmas mulklar sotib olishga ruxsat etdi. Chet davlatlarga berilgan konsessiyalar kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishiga yo'l ochildi. G'arbiy Yevropada sanoat inqilobi tugallanayotgan bir davrda Turkiyada xamon o'rta asr feodal tartiblari hukmronligicha qolaverdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

G'arb davlatlarining Turkiyaga nisbatan tutgan siyosati mavjud tartiblarni yanada mustaxkamladi. 19-asrning 60-yillariga kelib mustamlakachi buyuk davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lib oldilar.

Ayni paytda Turkiya moliyaviy qaramlik botqog'iga ham bota boshladi. 1870-yillarda uning chet davlatlardan qarzi 2,4 mlrd frankni tashkil etdi. Shu tariqa bir vaqtlar dunyoning 3 qit'asida ulkan mustamlakalarga ega bo'lib olgan Turkiya endilikda Yevropaning buyuk davlatlari yarim mustamlakasiga aylandi.

Voqealar bunday rivoji Rossiyani to'htatib qolmadi, har qanday yo'l bilan ham kurashdan qaytmasdan o'z manfaatlaridan voz kechmadi. Rossiya agressiv siyosatining asosiy yo'nalishlari Bolqon, Uzoq Sharq, Turkiya hamda Qora dengiz bilan O'rta dengizni bog'lovchi Dardanell va Bosfor bo'g'ozlari hamda O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish edi. Tez orada Bolqon inqirozi yuz berdi. 1875-yilning yozida Gersegovina va Bosniyada Turkiya mustamlakachiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Ular milliy mustaqillik talab qildilar. Bolgariyada ham shunday qo'zg'olon ko'tarildi. Biroq qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi. Bolqon inqirozi buyuk davlatlarning manfaatini yana bir bor to'qnashtirdi.

1876-yil 26-dekabrda Konstantinopolda Bolqon masalasida xalqaro konferensiya chaqirildi. 1877-yilning 28-fevralida Serb-Turk tinchlik shartnomasi imzolandi. Bosniya, Gersegovina va Bolgariyaga muxtoriyat berish talablari esa qog'ozda qoldi.

Turkiya Serbiya bilan tinchlik shartnomasi tuzgan bo'lsa-da, o'z armiyasini demobilizatsiya qilmadi. Bu Rossiya uchun ayni muddao bo'ldi. Rossiya 24 aprel kuni Turkiyaga urush e'lon qildi. Serbiya va Chernogoriya ham urush harakatlarida qatnashdi. Rossiya armiyasi Turkiya armiyasiga katta talafot yetkazdi. 1877-yil oxirida Plevna yonida Usmon poshsho 43 ming qo'shini bilan taslim bo'ldi. 1878-yil yanvarda Skobelev armiyasi Adrianopolni ishg'ol qildi. Rossiyaning muvaffaqiyatlari Angliyani tashvishga solib qo'ydi.

1878-yilning 3-fevralida Angliya o'z harbiy kemalarini Marmar dengiziga kiritdi. Rossiya armiyasi Konstantinopol shahriga bostirib kirsam, Rossiya bilan diplomatik aloqasini uzishini ma'lum qildi.

1878-yilning 19-fevralida San-Stefanoda Rossiya-Turkiya shartnomasi imzolandi. Shartnoma Bolqon yarim orolining siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi. Chunonchi, Bolgariya Turkiyaga nomigagina qaram, amalda esa mustaqil davlatga aylandi. Chernogoriya, Serbiya va Ruminiya to'la mustaqil davlatlar deb tan olindi. Turkiyaning Rossiyaga 1 mlrd. 410 mln. rubl tovon to'lashi belgilandi.

Turkiston davriy matbuotida ham ushbu jaryonlar aks etgan yigirmaga yaqin maqola va xabarlar chop etilgan bo‘lib, ularning aksariyati Rossiya imperiyasining turli hududlarida nashr etiladigan gazetalardan olingan. Xususan, “Turkiston viloyatining gazetasi”da¹⁹⁸ Rossiyaning “Botkina” gazetasida Usmoniylar davlati va unga tobeligida bo‘lgan nasroniylar o‘rtasidagi urush harakatlarining natijasini Yevropa davlatlari katta qiziqish bilan kuzatib turganligi ta’kidlab o‘tilgan¹⁹⁹.

1875-yilda Usmonli imperiyasining bir viloyati bo‘lgan Gersegovinada serblarning qo‘zg‘oloni ko‘tarilib, tez orada Bosniya viloyatining boshqa hududlariga ham tarqaldi, 1876-yil bahorida Bolgariyada ham nasroniy aholi qo‘zg‘oloni boshlandi. Usmonli imperiyasi Bolgariyadagi qo‘zg‘olonni tezda bostirgan bo‘lsa-da, Gersegovina va Bosniyadagi janglar davom etdi. Shu bilan birga, 1876-yil 30-mayda sulton Abdulaziz taxtdan ag‘darilib, uning o‘rniga Murod V tayinlangach poytaxtdagi siyosiy beqarorlik avjiga chiqdi. Fursatdan foydalanib, ikki yarim mustaqil knyazlik Serbiya va Chernogoriya mustaqillikni tanladi va 1876-yil 18-iyunda Usmonli imperiyasiga qarshi urush e‘lon qildi²⁰⁰.

Davriy matbuotda keltirilishicha, xalifalik zulmidan bezor bo‘lgan Serbiya xalqi Usmoniylar imperiyasining yangi sultoni Murod V ning hukmronligini tan olmaydi va har yili to‘lanadigan soliqlarni to‘lashdan ham bosh tortadi. Serblar boshlig‘i knyaz Milan Obrenovich askarlari ko‘z o‘ngida xalifalik bayrog‘ini sindirib, ularni Istanbulga qarshi harbiy harakatlarni amalga oshirishga chorlaydi.

Ayni damda Turkiyaning o‘zida ham hukumat va harbiylar ikki guruhga ajralib qolishgan edi. Ularning bir qismi sulton Murodning o‘rniga xalifalik an‘analariga ko‘ra marhum sulton Abdulazizning o‘g‘li Yusuf poshoni taxtga o‘tqazishni maqsad qilishgandi. Garchi Yusuf poshoni qo‘llab turgan qo‘shinning asosiy qismi urush harakatlariga safarbar qilingan bo‘lsa ham mamlakatdagi notinchlik tobora avj olib borayotgan edi. Xatto xalq orasida fuqarolar urushi paydo bo‘lish xavfi ham bor edi.²⁰¹

¹⁹⁸ Turkistondagi birinchi o‘zbek tilidagi gazeta “Turkiston viloyati gazetasi” 1870-1883 yilgacha “Turkestanskiye vedomosti” (“Туркестанские ведомости”) gazetasiga “Illova” tarzida chiqarilgan. 1883-yil 30-yanvaridan 500 nusxada alohida gazeta sifatida chiqq boshladi, 1888-yil kelib 600 nusxada bosilgan hamda uning ko‘p qismi majburiy obunachilarga aylantirilgan mahalliy amaldorlarga jo‘natilgan, 1910-yillarda gazeta 1850 nusxada chop etilgan edi. 1872-1883 yillarda gazetaga Turkiston general-gubernatorligida tarjimon bo‘lib ishlagan Shohimardon Ibragimov, 1883-yilning yanvaridan to yilning oxirigacha Muhammadhasan Chanishev, 1883-yilning oxiridan 1917-yil fevraligacha N.P.Ostroumov muharrirlik qildi. Gazeta 1917-yilgacha muntazam ravishda chop etib borilgan.

¹⁹⁹ Turkiston viloyatining gazetasi. 1876-yil 10-son (15-aprel). 2-bet.

²⁰⁰ Nevill Forbes, et al. The Balkans: a history of Bulgaria, Serbia, Greece, Rumania, Turkey (1915) summary histories by scholars online free

²⁰¹ Turkiston viloyatining gazetasi. 1876-yil 20-son (28-iyul). 2-bet.

1876-yil aprel oyi boshlarida Istanbuldagi Yevropa elchilaridan biri Graf Dyula Andrashi²⁰² Usmoniylar imperiyasi sadri a'zam hazratlariga sulx shartnomasini taqdim qilgan. Mazkur shartnomada Usmoniylar tasarrufida bo'lgan barcha nasroniylarga erkinlik berish, o'z milliy urf-odatlarini, diniy marosimlarini bema'lol amalga oshirishlariga ruxsat berilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, ular istiqomat qiladigan hududlar amalda podsholik yoki musulmon amaldorlarining mulki hisoblanib, ushbu yerlarni zirotchilik bilan shug'ullanayotgan nasroniylarga sotish to'g'risida hukmdor farmoni chiqarilishi kerakligi va u yerdan olingan daromadning bir qismi o'sha hududning o'ziga sarflanishi hamda mahalliy aholiga joriy qilingan barcha ijara shartnomalari barham berilishi kerakligi alohida ko'rsatib o'tilgan.²⁰³

Urush harakatlari boshlanish asnosida Serbiyaga turli mamlakatlardan ko'plab ko'ngillilar yordamga kelishdi. Ular orasida ruslar, bolgarlar, Juzeppe Garibaldining italiyalik izdoshlari va Prussiya ofitserlari, shuningdek, inglizlar, frantsuzlar, greklar, ruminlar va polyaklar bor edi. Eng yirik otryadlar ruslar va bolgarlar edi. 1876-77 yillardagi urush harakatlari davomida Garibaldi tashabbusi bilan bir necha yuzlab italiyalik ko'ngillilardan iborat otryad tuzildi. Rasmiy ravishda Rossiya davlatidan mustaqil bo'lgan rus ko'ngilli otryadlari Serbiya himoyasiga chiqdi. Rus ko'ngillilarining eng ko'p qismi Timok-Morava armiyasida jang qilgan, ularning soni 2200 ga yaqin edi, ulardan 650 nafari harbiy ofitser va 300 nafari tibbiyot xodimi edi.

Urush harakatlarining birinchi bosqichi 1876-yil 30-iyundan 1877-yil 28-fevralgacha bo'lib o'tdi. Serbiya milliy bayrami hisoblangan *Vidovdan*²⁰⁴ kunida Usmonli imperiyasiga qarshi urush e'lon qildi. Serblarning dastlabki harbiy rejasi Nishni himoya qilish va Chernyayev boshchiligidagi asosiy armiya bilan Sofiyaga hujum qilish edi. Qo'shinni bir necha guruhlariga bo'lib bir vaqtning o'zida chalg'ituvchi hujumlarni boshlaydilar, ammo ularning bu harakatlari samara bermaydi. Shimoli-sharqda general Miloyko Leshanin Kior yaqinida Usmonlilarni Timok daryosidan o'tishiga qarshilik ko'rsata olmadi va mag'lubiyatga uchradi. U Saikar qal'asiga chekinishga majbur bo'ldi. Biroq Usmoniylar imperiyasi qo'shining 1876-yil 7-avgustdagi harbiy harakatlari natijasida ushbu qal'ani egallab oldilar.

²⁰² 1871-yilda Avstriya-Vengriya tashqi ishlar vaziri etib tayinlandi. 1879-yil 22-sentyabrda graf Andrashi hamda Bismark o'rtasida Avstriya-Germaniya mudofaa ittifoqini tuzish bilan u siyosiy sohadagi faoliyatini yakunlab, tashqi ishlar vaziri lavozimini tark etdi.

²⁰³ Turkiston viloyatining gazetasi. 1876-yil 10-son (15-aprel). 2-bet.

²⁰⁴ Vidovdan (serbcha – Vidovdan - "Avliyo Vitus kuni") - serblarning milliy va diniy bayrami. Grigorian taqvimida 28 iyunda yoki Yulian taqvimiga ko'ra 15 iyunda nishonlanadi. Serb cherkovi uni 1389 yil 15 iyunda (Yulian taqvimiga ko'ra) Usmonlilar imperiyasiga qarshi Kosovo jangida qurbon bo'lgan Avliyo shahzoda Lazar va serb muqaddas shahidlarini xotirlash kuni sifatida nishonlaydi.

Serb armiyasining janubdagi asosiy yurishi Nishava vodiysi bo‘ylab tez harakatlanib, Pirot shimolida joylashgan Babina Glavadagi muhim pozitsiyani egallab olib dastlabki muvaffaqiyatga erishdi. Biroq, Usmonlilar Sulaymon posho va Hofiz posho boshchiligidagi ikkita harbiy bo‘linmani serblar pozitsiyasini qayta egallash uchun yubordi, natijada serblar chekinishga majbur bo‘lishdi. General Ranko Alimpich 1876 yil iyul oyida Drinani kesib o‘tib, Biyelinani egallashga kirishadi, ammo uning bu harakatlari samara bermaydi.²⁰⁵

Ushbu ketma-ket muvaffaqiyatsizliklar va mag‘lubiyatlardan so‘ng, Serbiya Yevropa kuchlariga urushni diplomatik yo‘l bilan hal qilishda vositachilik qilishni so‘radi. Yevropa davlatlarining qo‘shma ultimatumini Usmonli imperiyasini Serbiya bilan bir oylik sulhni qabul qilishga majbur qildi, bu davrda tinchlik muzokaralari olib borildi. Usmonli imperiyasining tinchlik shartlari Yevropa davlatlari tomonidan juda og‘ir deb topildi va rad etildi.

Sulh muddati tugagach, urush davom etdi va yangi serb qo‘mondoni Horvatovich 1876-yil 28-sentyabrda Junisdan Aleksinasgacha bo‘lgan keng front bo‘ylab Usmonli pozitsiyalariga hujum qildi, ammo Usmonli qo‘shinlari hujumlarni qaytarishdi. Usmonli qo‘shinlari qayta tashkil etildi va 1876-yil 19-oktyabrda Adil Posho armiyasi serblarning o‘ng tomoniga kutilmagan hujum uyushtirdi va bu hujum natijasida serblar Belgradga chekinishga majbur bo‘ldi.

Bodkuba (*yoki Bobiko‘h – Boku shahri*)²⁰⁶ shahrida nashr etiladigan gazetada keltirilishicha, Bosniya va Usmoniylarga tobe bo‘lgan boshqa nasroniy xalqlar ushbu shartnoma bandlarida keltirib o‘tilgan shartlarni qabul qilmaydi hamda ular Usmoniylardan butunlay ozod bo‘lish maqsadida 15000 askardan iborat ulkan qo‘shin to‘plab urush harakatlarini boshlaydi²⁰⁷.

“Turkiston viloyatining gazetasi”da ta’kidlanishicha, Serbiya knyazi Milan Obrenovich Usmoniylarga qarshi urush harakatlarini boshlashdan oldin Turkiyaga o‘z elchilarini yuborgan. Turklar kelgan elchilarni qabul qilmaganligi hamda Dyula Andrashi sulh shartnomasida keltirilgan shartlarni bajarishga va’da bergan bo‘lsa ham amalda uning birorta bandi bajarilmaganligi sababli serb xalqi Usmoniylarga qarshi harbiy harakatlarni boshlagan.²⁰⁸

Gazeta sahifalarida Bolqondagi vaziyat asosan umumiy holda talqin qilingan. Voqea-hodisalar rivoji imperiya markaziy bosma nashrlarida, Yevropaning yetakchi gazetalarida keltirilgan ma’lumotlar hamda telegraf xabarlaridan foydalangan holda

²⁰⁵ Harris, David. A diplomatic history of the Balkan crisis of 1875-1878: the first year (1969).

²⁰⁶ Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixi. – Toshkent.: Fan, 1965. – 61-bet.

²⁰⁷ Turkiston viloyatining gazetasi. 1876-yil 14-son (22-may). 3-bet.

²⁰⁸ Turkiston viloyatining gazetasi. 1876-yil 20-son (28-iyul). 4-bet.

yoritilgan. Xususan, 1876-yil 6-avgust kuni Chernogoriyadan Peterburg shahriga yuborilgan telegraf xabardan ma'lum bo'ladiki, Kuchum degan joyda Serbiya, Bosniya va Gersegovina hamda Chernogoriya nasroniylarining birlashgan qo'shini turklarning Mahmud posho qo'mondonlik qilgan 20000 kishilik qo'shinni tor-mor keltirgan. Telegrafda keltirilishicha, 3 soat ortlaridan ta'qib qilib borib, nasroniylarning har bir bo'linmasi 1000 nafardan turk askarini o'ldirgan. Martin Iskiy degan qo'mondon 2000 nafar turk askarini o'ldirib, 6 ta katta bayroqlarini qo'lga kiritilganligi haqida xabar beradi.²⁰⁹

Ayni damda podsho Rossiyasi ham Usmoniylarga qarshi general Chernyaev boshchiligida harbiy harakatlarni boshlab, bir qancha hududlarini qo'lga kiritdilar. Bundan xabar topgan Serbiya knyazi Milan Obrenovich general Chernyaevga xat yo'llab, barcha nasroniy qo'shinlarini bir joyga to'plab Istanbulga yurish qilish niyati borligini bildiradi.²¹⁰

“Turkiston viloyatining gazetisi” xorijiy matbuotdan ma'lumotlar keltirar ekan, aksariyat hollarda gazeta va jurnallarning nomi keltirilmagan, faqat davlatning nomi keltirilgan holda berib borilgan. Jumladan, 1876 yil 23 iyulda ingliz gazetasi Usmoniylarning Bolqonda nasroniylarga nisbatan yuritgan siyosati natijasida Yevropa davlatlari bilan munosabatlari chigallashib qolganligi, mavjud vaziyatni muhokama qilish maqsadida Istanbulda hukumat vazirlarining navbatdagi yig'ilishida mamlakat bosh vaziri Yevropaning qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lgach, og'ir iqtisodiy vaziyatni boshdan kechirayotgan Usmoniylar mablag' yo'qligi sababli harbiy harakatlarni amalga oshirishga qodir qo'shin to'plashni imkoni yo'q ekanligini ta'kidlab o'tganligi haqida yozadi.²¹¹

Xuddi shunday holatni gazetaning boshqa sonlarida ham ko'rish mumkin. 1876-yil 20-avgustda “Turkiston viloyatining gazetisi” Rossiya gazetalarida chop etilgan ma'lumotlarni keltirar ekan, “rus gazetalarida 1876-yil 17-iyun kuni Chernogoriya askari qo'mondoni Nikolay telegraf orqali bergan xabariga ko'ra, Mehtar posho boshchiligidagi qo'shin Chernogoriya askarlariga hujum qilgan ekan. Bir soatlik harbiy harakatlar natijasida turklarni chekinishga majbur qilishibdi. Xarbiy bo'linma boshlig'i Usmon posho bir necha turklar bilan birgalikda asir olinibdi. Urush harakatlari hanuz davom etayotgan ekan”, deb yozadi.²¹²

Bodkuba shahrida nashr etiladigan gazetaning xabar berishicha, Usmoniylar qo'shini Serbiyaga bostirib kirib, bir necha shaharlarni qo'lga kiritibdi. Belgrad

²⁰⁹ Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 21-son (10-avgust). 1-bet.

²¹⁰ Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 21-son (10-avgust). 2-bet.

²¹¹ Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 21-son (10-avgust). 2-bet.

²¹² Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 22-son (20-avgust). 2-bet.

shahrida serblarning yetakchi davlat amaldorlari hamda Yevropa davlatlarining elchilari Usmoniylar bilan urush harakatlarini to'xtatib sulh tuzishga kelishibdilar. Biroq Chernogoriyaliklar qo'shini qo'mondoni knyaz Nikolay bu taklifni qabul qilmay Chernyaev bilan birgalikda urush harakatlarini davom ettirishini ta'kidlabdi.

Usmoniylar qo'shini Aleksinas shahriga yetib borguncha yo'ldagi barcha shaharlarni bosib olibdi. Aleksinas shahri Belgradga boradigan yo'lda joylashgan ekan.²¹³

Usmoniylarga tobe nasroniylar ko'p yillardan buyon amaldorlar zulmi ostida yashab kelgan. Shartnomalarda ular ham musulmonlar kabi huquq va erkinliklarga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan bo'lsa ham amalda bu shartlarni birortasi bajarilmagan. Jabr zulmning tobora oshib borishi natijasida nasroniylarning usmoniylar hukmronligiga nisbatan norozilik kayfiyatini yildan-yilga kuchaytirib bordi. Natijada qo'zg'olon ko'tarib o'z erkinliklarini talab qilishdi. Yevropa davlatlari ularni qo'llab-quvvatlab, amaliy yordam berishdi. Nasroniylar bilan Usmoniylar o'rtasida bo'lib o'tgan urush harakatlari natijasida turklarning jami 33984 askari halok bo'libdi²¹⁴.

Bu urushlar natijasida asosiy jabrni oddiy xalq tortdi. Usmoniylarning qo'shinlari bosib olgan hududlarida ayovsiz qirg'in barotni amalga oshirdilar. Ayollar, qariyalar va hattoki go'daklarga ham rahm qilmadilar.

"Turkiston viloyatining gazetisi"da keltirilishicha, Rossiya imperiyasi hukmdori urush harakatlarini chetdan kuzatib turib turklarning bu qilayotgan xunrezliklari musulmonchilikka to'g'ri kelmasligini va oddiy xalqqa hayvonlarga qilingani kabi muomala qilmaslik kerak ekanligi ta'kidlagan.²¹⁵ Biroq ilmiy adabiyotlarda buni aksini kuzatishimiz mumkin. Xususan, 1876-yil 31-oktabrda vaziyat og'irlashib, serb qo'shinlari mag'lubiyati arafasida Rossiya o'z qo'shinini safarbar qildi va turklarga agar ular Serbiya bilan sulh tuzmasa va qirq sakkiz soat ichida tinchlik muzokaralarini yangilamasa, Usmonli imperiyasiga qarshi urush e'lon qilish bilan tahdid qildi. Bu muzokaralar 1877-yil 15-yanvargacha davom etdi va Serbiya va Usmonli imperiyasi o'rtasidagi urushni amalda tugatdi.

Serbiya Rossiyadan moliyaviy yordam olib, 1877-yilda yana Usmonli imperiyasiga qarshi urush e'lon qildi. Bu urush harakatlari 1877-yil 13-dekabrda 1878-yil 5-fevralgacha davom etdi. Urush harakatlari davrda serb qo'shinlari o'zlarining Podsho Rossiyasining yordami bilan qayta tiklashga erishdilar.

²¹³ Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 25-son (23-sentyabr). 2-bet.

²¹⁴ Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 20-son (28-iyul). 2-bet.

²¹⁵ Turkiston viloyatining gazetisi. 1876-yil 33-son (22-dekabr). 2-bet.

Serblar beshta harbiy bo‘linma tuzib, birin-ketin Nish, Pirot, Leskovac va Vranje shaharlarini egallab, Usmonli qo‘shinlariga janubga hujum qilishdi. Urush Bolgariya qo‘zg‘oloni, Chernogoriya-Usmonli urushi va Rossiya-Turkiya urushiga to‘g‘ri keldi, bu urushlar birgalikda Usmonli imperiyasining Buyuk Sharq inqirozi deb nomlanadi.²¹⁶

Serb-turk urushlari natijasida ko‘plab bolalar yetim qolgan. O‘sha paytda Serbiyada ijtimoiy himoya tizimi yaxshi rivojlanmagan edi. 1879-yilda Terazije maydonidagi Kasina mehmonxonasida Belgradning 50 nafar taniqli fuqarolari “Bolalarni tarbiyalash va himoya qilish jamiyati”ni tuzishga qaror qildilar. Bu muassasada keyinchalik Serbiyada birinchi kasb-hunar maktabi tashkil etildi.²¹⁷

1876–78 yillardagi harbiy harakatlar davomida va undan keyin 70000 ga yaqin musulmonlar, asosan albanlar serb armiyasi tomonidan Nis viloyatidan quvib chiqarilgan va ular Kosovo viloyatiga borib joylashishgan.²¹⁸

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Turkiston viloyatining gazetisi”da xorijiy mamlakatlar hayotiga oid ma’lumotlar aksariyat hollarda Rossiya imperiyasida chop etilgan matbuotdan olib bosilgan hamda ularda Rossiya imperiyasi hukumatining pozitsiyasi aks etganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Usmoniylar imperiyasi va Bolqon davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga ham Rossiya hukumatining munosabatidan kelib chiqqan holda baholangan. “Turkiston viloyatining gazetisi” Turkiston general-gubernatorligining rasmiy organi ekanligi ham nazarda tutilishi kerak. Mazkur gazeta ushbu masalalarni yoritishda boshqa xorijiy davlatlarda chop etilgan gazeta va jurnallar maqola va xabarlaridan ham ma’lumotlar keltirgan.

Shuningdek, gazeta sahifalarida bosib chiqarilgan xabar va maqolalardan Usmoniylar imperiyasining Bolqon yarim orolida olib borgan siyosati va uning natijasida yuzaga kelgan ziddiyatlarni yoritishda podsho Rossiyasi qarashlarini yaqqol sezish mumkin.

Ayrim o‘rinlarda keltirilgan ma’lumotlar ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilganda xato berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

²¹⁶ Pavlowitch, Stevan K. (1999). *A History of the Balkans 1804–1945*. London, New York: Longman. ISBN 9780582045859.

²¹⁷ Pavlowitch, Stevan K. (2002). *Serbia: The History behind the Name*. London: Hurst & Company. ISBN 9781850654773.

²¹⁸ Pavlowitch, Stevan K. (2002). *Serbia: The History behind the Name*. London: Hurst & Company. ISBN 9781850654773.

1. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixi. – Toshkent: Fan, 1965. – 61-bet.
2. Nevill Forbes, et al. The Balkans: a history of Bulgaria, Serbia, Greece, Rumania, Turkey (1915) summary histories by scholars online free
3. Harris, David. A diplomatic history of the Balkan crisis of 1875-1878: the first year (1969).
4. Pavlowitch, Stevan K. (1999). A History of the Balkans 1804–1945. London, New York: Longman. ISBN 9780582045859.
5. Pavlowitch, Stevan K. (2002). Serbia: The History behind the Name. London: Hurst & Company. ISBN 9781850654773.
6. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 10-son.
7. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 20-son.
8. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 14-son.
9. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 21-son.
10. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 22-son.
11. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 23-son.
12. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 24-son.
13. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 25-son.
14. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 32-son.
15. Turkiston viloyatining gazeti. 1876-yil 33-son.
16. Turkiston viloyatining gazeti. 1877-yil 2-son.

YAPON MANBASHUNOSLIGIDA TARIXIY-GEOGRAFIK ASARLAR (FUDOKI)NING O‘RNI VA AHAMIYATI

Xudaynazarov Isobek Boysoatovich

TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Yaponiya tarixini o‘rganishda Fudokilar ya‘ni, tarixiy asarlarning ahamiyati muhim. Sababi, ushbu asarlar to‘plamida ko‘plab tarixiy voqyealar xronologiyasi bilan birga, davlat boshqaruvi, tarixiy lavozimlar (arxontologiya), shaxs tarixi (prosopografiya) hamda o‘rta asarlar Yaponiya provinsiyalari geografiyasiga doir qiziqarli (uezdlar, qishloqlar soni, nomi, onomastik, toponimlar, antroponimlar, polisonimlar, limnonimlar, zoonimlar, gidronimlar, oronimlar) ma‘lumotlar berilgan. Fudoki 5 kitobdan ya‘ni, Idzumo, Hitati, Harima, Bungo va Hidzendan iborat. Ushbu maqola aynan Fudokilar va ularning o‘rganilish, tarkibi va unda kelgan tarixiy ma‘lumotlar tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘z: *Qadimgi fudoki, Oddiy fudoki, Ban Nobutomo, Syokoku Fudoki itsubunno, Xitati, Xarima, Bungo, Xidzen Fudoki, venyan, Gemmyo farmoni, Aso Isodzi, Nisio Minoru, Takagi Itinosukue, Tokieda Motoki, Hisamatsu Seniti, Nibari, Sukuba, Sida, Ubaraki, Namekata, Karima, Naka, Kudzi, shoyi mato, Iva va Amano xudolari, imperator Okinaga Tarasihime va Otomo Sadehiko*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF HISTORICO-GEOGRAPHICAL WORKS (FUDOKI) IN JAPANESE SOURCE STUDY

Khudaynazarov Isobek Boysoatovich

Teacher of the Department of History and Ethnology of Central Asian Folks,
Tashkent State University of Oriental Studies

ABSTRACT

This scientific article is devoted to history of the Fudokies which are ancient reports on provincial culture, geography, and oral tradition presented to the reigning monarchs of Japan in Medieval century. Fudoki consists of 5 books: Idzumo, Hitati, Harima, Bungo and Hidze. Fudoki refer to the oldest records written in the Nara period which collect and report the following information: names of districts and townships, natural resources and living things, etymology of names for

geographic features, such as mountains, plains, and rivers, myths, legends, and folktales told orally by old people.

Keywords: *Ancient Fudoki, Simple Fudoki, Ban Nobutomo, Syokoku Fudoki itsubunno, Hitati, Harima, Bungo, Hidzen Fudoki, venyan, Gemmyo decree, Aso Isodzi, Nisio Minoru, Takagi Itinosukue, Tokieda Motoki, Hisamatsu Seniti, Nib Ubaraki, Namekata, Karima, Naka, Kudzi, silk cloth, gods Iva and Amano, Emperor Okinawa Tarasihime and Otomo Sadehiko*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ РУКОПИСИ (ФУДОКИ) В ЯПОНСКИЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ

Худайназаров Исобек Бойсоатович

Преподаватель кафедры Истории и этнологии народов
Центральной Азии, ТашГУВ

АННОТАЦИЯ

Фудоки как исторические произведения, играют важную роль в изучении истории Японии. Это связано с тем, что данное собрание сочинений, наряду с хронологией многих исторических событий, представляет интерес с точки зрения государственного управления, исторических должностей (архонтология), история личности (просопография), а также интересной информации по географии средневековых японских провинций (числа уездов, ономастика, топонимы, антропонимы, полисонимы, лимнонимы, зоонимы, гидронимы, оронимы). Фудоки состоит из 5 книг: Идзумо, Хитати, Харима, Бунго и Хидзе. Данная статья посвящена анализу Фудоки и их изучению, составу и историческим данным.

Ключевые слова: *Старые Фудоки, Обыкновенные Фудоки, Бан Нобутото, Сёкоку Фудоки ицубунно, Хитати, Харима, Бунго, Хидзен Фудоки, веньян, Декрет Гэммё, Асо Исодзи, Нисио Минору, Такаги Итиносукуэ, Токиэда Мотоки, Хисамацу, Сениби, Нибай, Ниб Намэката, Карима, Нака, Кудзи, шелковая ткань, боги Ива и Аmano, император Окинава Тарасихимэ и Отото Садахико.*

KIRISH

Yaponiya tarixi o'zining boy tarixiy manbalariga ega bo'lib, "Kodziki", "Nixongi", "Tayxoriyo qonunlari", "Tayxo Ritsuryo", "Tatibano-no Xiroimi", "Ray

Dzyo” kabi o‘nlab tarixiy asarlar jahon tarixining ham durdona asarlari hisoblanadi. “Fudoki”lar ham shular jumlasidan bo‘lib, Yaponiya tarixidagi ilk tarixiy-geografik asarlardir. Asarlarning ahamiyati nafaqat geografik ma'lumotlar berishida, balki ularda VIII asr Yaponiya tarixining muhim jihatlari ham yoritib berilgan. Avvalo, manbada hukmronlik qilgan sulola vakillarining olib borgan ishlari haqida hikoyalar bayon etilgan, yapon davlatchiligi tarixi va hukumdorlarning yurishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Fudokilarda Yaponiyada VIII asr Taika islohotlari davridagi mamlakat hududining ma'muriy birliklarga bo‘linishi, qishloqlar, uezdlar va provinsiyalar soni, nomi, onomastik ma'lumotlar, toponimlar, antroponimlar, polisonimlar, limnonimlar, zoonimlar, gidronimlar, oronimlar keltirilgan.

Fudokilardan ko‘plab rivoyatlar, afsonalar, ertaklar, qo‘shiq, xalq og‘zaki ijodi namunalari ham keng joy egallagan. Voqyealarning tavsifi yarim afsona, yarim real xususiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu mavzuni yoritishda sohaning yetakchi olimlari Akimoto Kitironing “Древние Фудоки”, Anders Karlvistning “Plants and Animals in Izumo Fudoki”, Ban Nobutomoning “Syokoku Fudoki itsubunno” (“Фрагменты фудоки различных провинций”), asarlarni rus tilida nashr qilgan mualliflar jamoasining “Древние Фудоки (Хитати, Харима, Бунго, Хидзен)”, Takeda Yukitining “Fudoki” asarlaridan unumli foydalanildi. Metodologik jihatdan asarlar to‘plamining mazmuni va unda keltirilgan ma'lumotlar tahlili, tarixiylik, voqyealarning tadrijiy berilishi usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fudokilarni o‘rganish XIX asrda Ban Nobutomoning “Turli provinsiyalardagi Fudoking qismlari”²¹⁹ asaridan boshlanib, XX asrda Takeda Yukitining “Fudoki”²²⁰, Akimoto Kitironing “Qadimgi fudoki” nomli ilmiy tadqiqotlari nashri bilan davom etgan. Rus olimlaridan K.A.Popovning “Hitatida 8 qo‘shiq”²²¹, N.I.Konradning “Qadimgi Fudokiga sharhlar” asarlarini alohida aytib o‘tish lozim. VII asrda Yaponiyada ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohaga oid islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, Taika islohoti (645-646), Tayhoryo qonunlari majmuining tuzilishi, Nara shahrining imperator saroyi sifatida belgilanishi buning isbotidir. Yaponiyada ma'lumotlarga ko‘ra VIII asrning I-yarmidan boshlab tarixiy geografik qaydnomalar yozila boshlangan. Yapon tadqiqotchisi Akimoto Kitironing guvohlik berishicha,

²¹⁹ Бан Нобутомо (1773-1846), Сёкоку Фудоки ицубунно (“Фрагменты фудоки различных провинций”) (http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/Japan/VIII/700-720/Drevnie_fudoki/pred.phtml)

²²⁰ Такэда Юкити, “Фудоки”, Токио, “Иванами”, 1958 -С.198

²²¹ Попов К. А., “Восемь песен Хитати” “Историко-филологические исследования. М., 1967. -С. 268

“Fudoki”lar uchun ma'lumotlarni yig'ish imperator Temmu (673-687) davrida boshlangan bo'lib, jarayon Nara davri oxirigacha davom etdi. Dastlab, “Fudoki” “Kofudoki” (Qadimgi fudoki) yoki “Oddiy fudoki” deb nomlangan. Birinchi Fudoki 713 yilda imperator ayol Gemmyo farmoniga binoan tuzilgan²²². Bu farmon ijrosi barcha provinsiya noiblariga yetkazilgan, (bu davrda 60ga yaqin provinsiya mavjud bo'lgan) ular poytaxt Naraga o'z provinsiyasining aholi yashash joylari, mahalliy hudud rel'efi, kumush va asal, dala va serhosil tuproqlar, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlarni keltirishlari kerak bo'lgan. Fudokining birinchi nashri XVII asrga kelib amalga oshirildi. Bu “Syokoku fudoki bassui” (1624-1642) (Fudokidan tanlangan joylar) deb nomlangan. Bu asarda 5 ta provinsiya haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bular: Idzumo, Hitati, Harima, Bungo va Hidzen hisoblanadi. Ularning ichida faqat Idzumo Fudokida to'liq ma'lumotlar saqlanib qolgan. Uning parchalari boshqa provinsiyalardan topilib o'rganilgan.

Fudoki xitoycha “venyan” yozuvida yozilgan bo'lishiga qaramasdan, uning tarkibida yapon tiliga oid mahalliy folklor na'munalari, toponim va antroponimlarni uchratamiz²²³. Fudokini chop etishda ishtirok etgan yapon olimlari va muharrirlari Aso Isodzi, Nisio Minoru, Takagi Itinosukue, Tokieda Motoki, Hisamatsu Sen'itilar ishtirok etishgan. Fudokilar matnlarini yig'ish vaqtida XIII asrga oid 48 ta parchalar topilgan va ularni jamlash davomida Idzumo, Hitati, Harima, Bungo, Hidzen fudokining qismlari to'plangan. Bu parchalar jamlanib, bir necha marta kitob qilib chop etilgan. Bunda Akimoto Kitironing xizmati katta bo'lib, u parchalarni o'rganib chiqib, Fudokining qaysi qismiga tegishli ekanligini aniqlagan.

Qadimgi fudokilar 5 ta qismdan iborat bo'lib, ulardan biri Hitatidir. Bu so'z “kunchiqar” degan ma'noni bildiradi. Sababi, Hitati provinsiyasining xaritada joylashuvini kuzatadigan bo'lsangiz Yaponiyaning shimoli-sharqiy qismidagi kunchiqar hudud hisoblanadi²²⁴. Uning aniq tuzilgan vaqti va qanchadan buyon saqlangani noma'lum. 1958 yilda chop etilgan Hitati fudokidagi ma'lumotlarga ko'ra, asar 714-718 yillarda tuzilgan, muallifi soqchilar boshlig'i, provinsiyasining taniqli shoiri Fudzivara Umakai bo'lgan. Hitati provinsiyasi katta provinsiya hisoblanib, poytaxtdan uzoq provinsiyalar tarkibiga kirgan. U 11 ta uezdni o'z ichiga olgan bo'lib, asarda 9 ta uezd Nibari, Sukuba, Sida, Ubaraki, Namekata, Karima, Naka, Kudzi, Takalar tasvirlab berilgan, qolgan 2 uezd Sirakabe va Poti haqida ma'lumotlar keltirilmagan. 1871 yilgi islohotlar paytida Yaponiya ma'muriy tizimida Hitati

²²² Древние Фудоки (Хитати, Харима, Бунго, Хидзэн). М. Наука. 1969 –С.230

²²³ Попов К. А. «Восемь песен Хитати», в кн. «Историко-филологические исследования. М., 1967 -С. 268

²²⁴ Japan Encyclopedia, Tokyo, 2002. -P.340

provinsiyasi asosida Ibaraki prefekturasi tashkil etildi. Asarda bir qancha diniy marosimlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, gullagan Sunda daraxti marosimi, shuningdek, daraxtlarning nomlanishi, hatto qirg'och bo'yidagi molyuskalar turi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Saroyga va ibodatxonaga qilingan tufhalar soni yozib borilgan. Yaponiyada qadimdan temir qadrlangan, aynan VIII asrdan boshlab temir buyumlar yasalishi ommalashgan. Bu haqida Hitati Fudokida provinsiyaning noibi Kanuti Sibino temirdan qilich yasatgani aytilgan²²⁵. Hitati fudokining katta qismi folklor ma'lumotlaridan iborat. Hitati fudokidan 8 xil mavzudagi qo'shiqlar o'rin olgan. Bular: Qizlar haqida qo'shiq (Niibari uezdi), Fudziyama tog'i, ajdodlar va afsonaviy ilohlar haqida (Sukuba uezdi), o'spirinlar haqida qo'shiq, Tahokama sohillari haqida qo'shiq (Ubaraki uezdi), Samutalik o'spirin yigit-qizlar va oqqushlar qo'shig'i, qizlar qo'shig'i (Kasima uezdi) kabilardir. Asarda 7 ta afsona mavjud bo'lib bular: Fudzi va Sukuba tog'lari haqida, yerni bo'ysundirgan Futsuno haqida, yerda tantana qiluvchi Kasima haqida (Kasima uezdi), Adelik qizlar va Samutalik o'spirin yigitlar haqida, Shoyi mato haqida (Kudzi uezdi), Tatihaya va Kabire tog'lari.

Harima Fudoki. Harima Fudoki 713 yilgi imperator farmoniga binoan yozilgan. Harima provinsiyasida qarag'ay va xrizantemalar ko'p bo'lganligi sababli ham uning toponimida bu aks etgan degan qarashlar ham mavjud. Harima Fudoki bizgacha to'liq bo'lmagan ko'rinishda yetib kelgan. Ba'zi qismlari o'qishga yaroqsiz holda o'chib ketgan. Yapon tadqiqotchilari Inoue Mitiyasui va Akimoto Kitirolarning ta'kidlashicha: Harima Fudoki 713-715 yillar oralig'ida tuzilgan. Uning tuzilishida o'sha davr Harima provinsiyasi noibi Kosen Asonodzi (708-714), uning yordamchisi Isikavano Asonkuni va shoir Sasanomino Kofuti ishtirok etgan. Harima fudokining nusxalari bugungi kunda Tenri Buddizm universitetining kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmalardan 1793 yilda Managivara Norimitsu va 1852 yilda esa, Tanimori Yosiumilar nusxalar olishadi va shundan keyin Harima Fudoki haqidagi ma'lumotlar keng tarqaladi²²⁶. Ma'lumotlarga ko'ra, Harima katta provinsiya hisoblanib, poytaxtga eng yaqin provinsiya bo'lgan. VIII asrda Harima provinsiyasida 11 ta uezd bo'lgan. Bulardan: Kako, Inami, Sikama, Iibo, Sayo, Sisava, Kamudzaki, Taka, Kamo va Minagi (84 ta qishloqdan iborat) kabilar bo'lib, birgina Akasi uezdi haqida ma'lumot yetib kelmagan. Harima Fudokida Yapon xudosi Iva va koreys xudosi Amano o'rtasidagi urushlar, hukmdor Tarasi Nakasuhikoning Kumaso qabilalari ustiga yurishlari (milodiy 190-200 yillar), afsonaviy hukmdor Yutarasi-hime (Dzingu 201-269)ning yurishlari, hukmdor Homuda (Odzin 270-310) ov qilgani haqida, Oke

²²⁵Воробьев М. В. Япония. "Всемирная история", М., 1956 -С. 380

²²⁶Акимоно Китиро, « Древние фудоки», Токио, 1958 -С.290

shahzodalari haqida hikoyalar keltirilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi tarixda mavjud real shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, sholi ekish, kanop yetishtirish, uy jonzotlarini xonakilashtirish (ot va boshqalar) kabilar haqida ma'lumotlar kiritilgan. Harima provinsiyasi aholisi dengiz va daryo baliqchiligi hamda yovvoyi qushlarni ovlash bilan mashg‘ul bo‘lgan²²⁷. Harima Fudokida etnografik jihatdan qiziqarli bo‘lgan ma'lumotlar ham uchraydi, bunda Yaponiyaga ko‘chib kelgan koreyslar ya'ni, Silla va Pekche qirolligidan Harima provinsiyasi va undan qo‘shni provinsiyalarga kelib joylashgani haqida (Iibo uezdi, Kami oroli va Sirakuni qishlog‘i, Sikama uezdi haqida), xitoyliklarning Harimaga ko‘chib kelishi (Ayobe qishlog‘i, Sikama uezdi, Hirokata qishlog‘i, Iibo uezdi) kabilar yoritilgan.

Bungo va Hidzen Fudoki. Bungo Fudoki yaratilishi haqida taxminlar mavjud bo‘lib, bu ikki Fudoki birgalikda 732-740 yillarda tuzilgan. Uni tuzishda boshchilik qilgan Kyusyu orolining harbiy boshlig‘i, noib Fudzivara Umakai hisoblanadi. Fudokining ko‘plab qismlari aynan Kyusyu orolidan topib o‘rganilgan. Bungo va Hidzen Fudokilarning parchalari Tikudzen, Tikugo, Budzen, Higo, Hyuga, Osumi va Satsuma provinsiyalaridan ham topib o‘rganilgan. Bungo provinsiyasining (qadimgi nomlanishi-Toyokunino Mitinosiri) bo‘lib, Kyusyu orolining shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, hozirgi Oita prefekturasi o‘rnida bo‘lgan. O‘sha davr Bungo provinsiyasining 11 ta uezdidan 8 tasi haqida ma'lumotlar mavjud. Bular: Hida, Kusu, Naori, Ono, Ama, Okida, Hayami, Kunisaki hisoblanadi, qolgan 4 ta uezd haqida ma'lumot yetib kelmagan.

Bungo Fudokida bosh obraz buyuk yapon yo‘lboshchisi-Yamato hisoblanadi. Uning yapon bo‘lmagan qabilalar kumaso va sutikumo qabilalari bilan qilgan janglari bayon etilgan. Bu kabi afsonalardan yana biri, Utisaru yovuz maymun va Kunimaro qishloq yigiti haqidagi ertak hisoblanadi. Fudokida Itsuma oronimi haqida tushuncha, 679 yilgi yer silkinishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan²²⁸. Bungo provinsiyasining iqtisodiy hayotiga oid bir qancha ma'lumotlar ham mavjud: qishloq xo‘jaligi, sholini taqsimlash muhokamasi, tut daraxtlari, batata ekish, dengiz karamlarini terish kabi xo‘jalik yumushlari qisqartirilgan shaklda yozib qoldirilgan, hunarmandchilikka oid ma'lumotlar esa uchramaydi. Bungo fudokida folklorga oid ma'lumotlarning 3 turini ko‘rishimiz mumkin: suvning paydo bo‘lishi (Kutami qishlog‘i, Naori uezdi), shimol bug‘usi haqida, sholi noni, oqqushga aylanish (Taro oronimi haqida, Hayami uezdi) batafsil ma'lumotlar mavjud. Hidzen Fudokining yaratilish davri Bungo Fudoki bilan bir davrda 732-740 yillarga taalluqli. Hidzen provinsiyasi (qadimgi nomi – Hino

²²⁷ Древние Фудоки (Хитати, Харима, Бунго, Хидзэн). М. Наука. 1969. –С.230

²²⁸ Aston W. G. Nihongi, 1896 –P. 180

Mitinokuti) Kyusyu orolining janubiy sharqiy qismida joylashgan bo‘lib hozirgi Saga va Nagasaki prefekturalari o‘rniga to‘g‘ri keladi. Hidzen provinsiyasi ham katta provinsiya hisoblanib, poytaxtdan uzoq provinsiyalar qatoriga kirgan²²⁹. U 11 ta uezdga bo‘linadi: Ki, Yabu, Mina, Kamudzaki, Saka, Oki, Matsura, Kisima, Fudzitsu, Sonoki, Takaku (70 ta qishloq va 18 ta pochta nuqtasi) kabilardan iborat. Hidzen Fudokida ham tarixiy ma'lumotlar keltirilgan bo‘lib bular: imperator ayol Okinaga Tarasihime va podsho Otomo Sadehikolarning Koreyaga qilgan yurishlari, afsonaviy qahramon sarkarda Yamato Takeru haqida voqyealar bayoni shular jumlasidan. Bungo va Hidzen Fudokilar birga yozilishida bu ikkala provinsiyaning Kyusyu orolida bir-biriga yaqin joylashganligi ham sabab bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Idzumo Fudoki. Idzumo fudoki qolgan 4 ta Fudokilarga nisbatan to‘liq saqlanib qolgan manba hisoblanadi. Idzumo fudokida qizqarli folklor namunalari, geografik ma'lumotlar “Kodziki” (Qadimiyat haqida 712 yil), “Nihongi” “Yapon solnomasi” (720 yil), “Manoshyu” (Son sanoqsiz barglar) kabi tarixiy asarlarda uchramaydigan jihat Fudokida yoritilgan. Idzumo Fudokining tanqidiy matnlari 1958 yilda chop etildi, buni tuzishda Takagi Itinanke, Nisio Minoru, Hisamatsu Sen'iti, Aso Isodzi, Tokieda Masaki va Akimoto Kitirolar qatnashishgan²³⁰.

Idzumo provinsiyasi Xonsyu orolining g‘arbiy qismida, hozirgi kungi Simane prefekturasi hududida joylashgan. Idzumo katta provinsiya hisoblanib, poytaxtga yaqin provinsiyalar tarkibiga kirgan. U 9 ta uezd: Ou, Simane, Aika, Tatenui, Idzumo, Kamudo, Iisi, Nita, Ohara kabilardan iborat. Idzumo Fudokida bir qancha qiziqarli afsonalar mavjud. Bulardan: “Okunibiki” (yer tortishi), “Qiz va timsoh haqida”, “Buyuk Saga haqida”, “Bir ko‘zli iblis haqida” kabilarni alohida sanab o‘tishimiz mumkin. Asarda Idzumo provinsiyasida mavjud bo‘lgan o‘simlik va hayvonlarning 200 dan ortiq turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Fudoki”larning Yaponiya tarixini yoritishdagi o‘rni beqiyosdir. Fudokilar o‘sha davr imperatorlar farmonlari asosida yaratilgani undagi ma'lumotlarning aniq va qat‘iy tartibda yozilishini ta‘minlab bergan. Ikkinchidan, Fudokilarda o‘rta asrlar yapon davlatchiligi an‘analari, mamlakat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi qonunlar, Yaponiya tarixi, geografik joylari, ularning nomlari, tarixiy shaxslar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, xalq og‘zaki ijodi va folkloriga doir materiallar, etnografik ma'lumotlar keltirilgan bo‘lib, bular o‘sha davr tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan,

²²⁹Anders Carlvist, Plants and Animals in Izumo fudoki, Shimane University, Matsue , 2007.

²³⁰Такэда Юкити, «Фудоки», Токио, изд-во Иванами, 1958. –С.198

Fudokilar Yaponiya tarixini davriy xronologik va mantiqiy izchillik asosida o'rganishimizga yaqindan yordam bera oladigan tarixiy-geografik asarlar, bundan tashqari ular o'rta asr yapon mifologiyasi, adabiyoti, tabiati, tabobati, urf-odatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, islohotlar, xalqaro aloqalari kabi turfa ma'lumotlarni beradigan fundamental manbalardir.

REFERENCES:

1. Акимото Китиро, “Древние фудоки”, Токио, 1958 -С.290
2. Aston W. G. Nihongi, 1896 –Р. 180
3. Anders Carlvist, Plants and Animals in Izumo fudoki, Shimane University, Matsue , 2007.
4. Бан Нобутомо (1773-1846), Сёкоку Фудоки ицубунно (“Фрагменты фудоки различных провинций”) (http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/Japan/VIII/700-720/Drevnie_fudoki/pred.phtml)
5. Воробьев М. В. Япония. “Всемирная история”, М., 1956 -С. 380
6. Древние Фудоки (Хитати, Харима, Бунго, Хидзэн). М. Наука. 1969 –С.230
7. Попов К. А., “Восемь песен Хитати” “Историко-филологические исследования. М., 1967. С. 268
8. Такэда Юкити, “Фудоки”, Токио, “Иванами”, 1958 –С.198
9. Japan Encyclopedia, Токуо, 2002. Р.340

“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2021. - 312 b.

ISSN 2181-1784

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida "Oriental Renaissance" MChJ tomonidan ta'asis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)”** ilmiy jurnalining maxsus 2-soni o'rin egallagan.

Mas'ul muharrir:
falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov

Ilmiy kotib:
J.B. Sulaymonov
SH.N. Pulatov
I.R. Ikramova

Texnik muharrir:
Sh.S. Jurayev

